Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish zarurati o‘quvchilarni jamiyatning har tomonlama yetuk fuqarolari qilib tarbiyalash vazifasidan kelib chiqadi. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish insonning aql-zakovati rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shadi. Negaki, ona tili o‘qitish jarayonida inson fikrlashining uslublari qatoridan induksiya va deduksiya, umumlashtirish va konkretlashtirish, tahlil va sintez, tasniflash va tizimlashtirish, abstraklashtirish va o‘xshatish kabilar tabiiy ravishda o‘rin oladi. Bular esa mantiqiy xulosalar chiqarish, fikrlarni ifodalash, asoslash va isbotlashga, shu asosda mantiqiy fikrlashning o‘sishiga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar va ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish tajribasining ko‘rsatishicha, bu jarayonda samaradorlikka erishish uchun didaktik va psixologik konsepsiyalarning istiqbollarini, o‘quv predmetlari mazmuni va ularni o‘zlashtirish mantiqini, o‘qitish uslubiyatining xususiyatlarini, ta’lim muassasasining maqsad, vazifalari aniq hisobga olingan loyihalashning nazariyasi va texnologiyasini ishlab chiqish kerak. O‘qitishni loyihalashtirishning o‘zi maqsad emas. U didaktik ta’lim tizimining bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini boshqarishning maqsad, prinsip, mazmun, uslubiyat, shakl va tavsiflarining barchasini o‘z ichiga olgan komponentlariga ta’sir ko‘rsata oladigan darajada o‘quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro kirishuvi asosida shakllanadigan tashkiliy jarayon. Uning markazida o‘qitish va o‘qish faoliyatining bir-biriga ta’siri yotadi. O‘qitish va o‘qish faoliyatini atroflicha tahlil qilish yo‘li bilan ta’lim jarayonining mohiyatini tushunish mumkin. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishda o‘qitish va o‘qish faoliyatini ajratish, ularni to‘g‘ri tashkil qilish, faoliyatni amalga oshirish jarayonida loyihalash imkoniyatlaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarga bilim berib, ularni ijtimoiy tajriba va ma’naviy boyliklar bilan qurollantirayotgan o‘qituvchilarning barchasi o‘qitish faoliyati bilan mashg‘ul. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabatlarga ko‘ra tashkil etiladi, boshqariladi, nazorat qilinadi.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish – o‘quvchi bilan o‘quv materiali o‘rtasidagi bog‘lanishni yo‘lga qo‘yish. O‘quvchi bilan o‘quv materiali o‘rtasidagi bog‘lanishni tashkil etish uchun ta’lim loyihalanadi. O‘quvchilarning o‘quv ishlarini tashkil etish, ular faoliyatini rag‘batlantirish tegishli vositalar asosida modellashtiriladi.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishni nazorat qilish – o‘qituvchi yordamida o‘qitish bilan o‘qish faoliyati orasidagi teskari aloqani yuzaga chiqarish. Teskari aloqaga ko‘ra ta’lim jarayoni natijasi tahlil etiladi, o‘quvchilar faoliyatidagi kamchiliklar aniqlanadi, to‘ldiriladi.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish tarkiban o‘ta murakkab bo‘lib, o‘ziga didaktik vazifalar, o‘quv topshiriqlari, o‘quv materiali, o‘qitish metodlarini qamrab oladi. Didaktik vazifa – ijodiy ta’lim jarayonida loyiha orqali amalga oshiriladigan ishlar. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishda o‘qituvchi quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi: o‘quvchilarni o‘quv materialini o‘rganishga tayyorlaydi; bilim, ko‘nikma, malakalarini mustahkamlaydi, tizimga soladi, zaif o‘rinlarini aniqlaydi va to‘ldiradi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish konsepsiyasining asosiy g'oyasi zamonaviy ta'lim nazariyasi yutuqlariga asoslanishi kerak. O'quvchilarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib shakllantirish g'oyasi loyihaviy ta'lim tizimida ham asos bo'lib qoladi. Shu ma'noda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, ular asosida loyihalash metodologiyasida o'quvchilar ijodiy faolligini o'stirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga metodika sohasidagi yangiliklarni joriy qilish asosiy yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quvchilarda bilish ehtiyojini shakllantiradi;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi;
- o'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqishni oshiradi;
- axborot bilan ishlashni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi;
-dunyoni ilmiy bilishning hozirgi zamon metodlari bilan tanishtiradi;
- ta'limda o'quvchining individuallik darajasini oshiradi;
- o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
- materiallar mazmunining xilma-xilligini ta'minlaydi;
-ta'limda foydalaniladigan o'quv materiallari doirasini kengaytiradi;
- o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishi, ya'ni baholash jarayonining omillarini kengaytiradi va h.k.

Bu g'oyalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

1. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishda dastlab loyihalash jarayoni tarkibini tahlil qilish lozim.

Loyihalash jarayoni tarkibini 3 element tashkil etadi: maqsadga muvofiq faoliyat; loyihalash vositasi; loyihalash predmeti.

2. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish predmeti - o'quv materiali turli shakllarda ifodalanadi. Ta'lim mazmunining shakllari ta'rif, qoida, misol, mashq va hokazo ko'rinishida bo'ladi, uning tarkibi esa o'quv elementlaridan tashkil topadi.

3. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish tizimga solingan ma'lum prinsiplarga asoslanishi lozim.

4. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish qator vositalar asosida amalga oshadi, ularni aniqlash va tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish vositalarini shartli ravishda 4 guruhga ajratamiz: texnik, didaktik, faoliyat va vosita.

5. Ta'limda o'qituvchi faoliyati muhim o'rin tutadi. Bu esa ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishda o'qitishni tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilishda o'quv materialini modellashtirishni taqozo etadi.

6. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish, avvalo, ongda loyihalanadi. Bu jarayonda o'quvchi bajarishi mumkin bo'lgan barcha ishlar inobatga olinishi shart.

7. Har qanday dars ma'lum ta'lim modeliga asosan tashkil etiladi. Ta'lim modellarini loyihalashtirish imkoniyatlarini o'rganish va ulardan maqsadga muvofiqlarini tanlash ta'lim samara-dorligini oshiradi.

Ta'limning izohli-ko'rgazmali, muammoli, topshiriqli, differensial, dasturlashtirilgan, algorit-mlashtirilgan va h.k. turlari mavjud bo'lib, ularni loyihalashtirish xususiyatlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

8. Ijodiy ta'limda mukammal tuzilgan loyihalar asosiy rol o'ynaydi.

Muhokama

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish konsepsiyasi zamonaviy pedagogik fikrda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning eng muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Chunki ijodiy faoliyat nafaqat bolalarning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, yangilik yaratish, muammolarga noodatiy yondashish, o'z g'oyalarini ifoda etish qobiliyatlarini shakllantiradi. Loyiha faoliyati esa bu jarayonni tizimli tarzda tashkil etish, o'quvchining individual imkoniyatlarini ochish va uning shaxsiy tajribasini boyitish imkonini beradi.

Ijodiy faoliyatni loyihalashtirish konsepsiyasining mohiyati shundan iboratki, unda o‘quvchi o‘zini bilimning faol yaratuvchisi sifatida his etadi. Unga tayyor bilimlar berilmaydi, balki o‘qituvchi rahbarligida yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni tahlil qilish, ijodiy shaklda qayta ishlash jarayoniga jalb etiladi. Bu yondashuv bolalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatining boshlang‘ich ko‘nikmalarini shakllantiradi, ular o‘z g‘oyalarini real amaliyotda sinab ko‘rishga intiladilar. Shuningdek, loyiha asosidagi ijodiy ishlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, chunki ular o‘z mehnatining natijasini ko‘rish va baholash imkoniga ega bo‘ladi.

Mazkur konsepsiyada asosiy e’tibor o‘quv jarayonining faollashtiruvchi omillariga qaratiladi. Bu, avvalo, o‘qituvchining ijodiy rahbarlik faoliyati, o‘quvchining mustaqil izlanishga yo‘naltirilgan topshiriqlari va hamkorlik muhitining yaratilishidir. Bunday sharoitda o‘quvchi o‘zini faqat bilim oluvchi emas, balki jamoaviy ijod jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon etadi. Shuningdek, ijodiy loyihalar o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish, estetik idrok, tahliliy tafakkur va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyihalashtirish konsepsiyasi shuningdek, ta’limning integrativ yondashuvini taqozo etadi. Ya’ni, o‘quv jarayonida fanlararo aloqalar, san’at, texnologiya, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi muhim o‘rin tutadi. Bunday integratsiya o‘quvchilarda dunyoqarashning yaxlitligini, ijodiy fikrlashning universalligini shakllantiradi. Shu bilan birga, har bir loyiha o‘quvchining individual qiziqishlari va qobiliyatlariga mos tarzda tuzilishi kerak, chunki ijodiy rivojlanishning samaradorligi shaxsning ichki motivatsiyasiga bevosita bog‘liq.

Zamonaviy ta’lim tizimi nuqtayi nazaridan ijodiy faoliyatni loyihalashtirish – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni yangi sifat darajasiga ko‘taruvchi pedagogik mexanizmdir. O‘qituvchi bu jarayonda maslahatchi, yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi rolni bajaradi. U o‘quvchining har bir ijodiy fikrini qadrlaydi, mustaqil qaror qabul qilishiga, natijaga erishish yo‘lida xatolardan qo‘rqmaslikka o‘rgatadi. Shu tariqa, loyihalashtirish jarayoni orqali o‘quvchi shaxsiy mas’uliyat, o‘zini baholash, tanqidiy fikrlash va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Yuqorida bayon qilingan konsepsiyaga muvofiq ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilishda uch asosiy yo‘nalishni ajratamiz: birinchi yo‘nalish - ta’lim sub’ektlari - o‘qituvchi va o‘quvchilarning “loyihaviy ta’lim”ni amalga oshirishga oid ishlarni qamrab oladi. O‘qituvchi va o‘quvchilarning loyihaviy ta’lim haqidagi tasavvurlarini shakllantirmasdan turib, ta’limning samaradorligini ta’minlab bo‘lmaydi. Ikkinchi yo‘nalish ta’lim mazmuniga, ayni holatda ona tili o‘quv predmeti mazmuniga pedagogik ishlov berish va loyihalash jarayoni bilan daxldor. Bu yo‘nalishga ko‘ra loyihalash vositasida ta’limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish prinsip, vosita, metodlarini o‘rganishni qayd etamiz. Uchinchi yo‘nalish “ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish ta’limning eng samarali vositasi” deb qarash bilan bog‘liq tasavvurlardir. Shu tasavvur bo‘yicha o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish o‘quv ishlarining sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirish shart-sharoitlarini o‘rganishni tushunamiz. Qayd qilingan yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotni tashkil etish va o‘tkazish, shubhasiz, ona tilini o‘qitishni loyihalashtirishning nazariy asoslarini bayon qilishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //Ilmiy xabarnoma. – S. 69.

2. Azimov Y. Hamroyev A//Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Maruza matnlari). – 2003.

3. Xamraev A. Modelirovanie deyatelnosti uchitelya pri proektirovanii tvorcheskoy deyatelnosti uchaщixsya //Pedagogichni innovasiї: ideї, realiї, perspektivi. – 2018. – №. 2. – S. 23-26.

4. Hamroev A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish metodik muammo sifatida //sentr nauchnых publikatsiy (buxdu. uz). – 2021. – T. 1. – №. 1.

5. Hamroyev A. R. Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.

Muxtorjonova Nozanin G'ulomjon qizi
O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti,
psixologiya yo'nalishi magistri

KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik maktab yoshi davridagi bolalarda emotsional intellekt qobiliyati va uning shakllanishi yoritib berilgan. Kichik maktab yoshida emotsional intellektni shakllanishi - bu yoshdagi bolalarda emotsional qobiliyatlar va hissiyotni anglash, boshqarish va ifoda etish imkoniyatlarining rivojlanishi jarayonidir. Bu yoshdagi rivojlanish bolalarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda sog'lom psixologik holat va yaxshi kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Kichik maktab yoshi, emotsiya, intellekt, emotsional intellekt, muloqot, his-tuyg'u, hissiyot, empatiya, motivatsiya, o'zini anglash*

ФОРМИРОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В данной статье раскрываются способности эмоционального интеллекта у детей младшего школьного возраста и его формирование. Формирование эмоционального интеллекта у детей младшего школьного возраста -это процесс развития у детей способности ощущать, управлять и выражать свои эмоции. На этом этапе важно формировать эмоциональные навыки, которые оказывают значительное влияние на социальное и личностное развитие, способствуют укреплению психологического здоровья и улучшению коммуникации в будущем.*

Ключевые слова: *Младший школьный возраст, эмоция, интеллект, общение, чувство, эмоция ощущение, эмпатия, мотивация, самоосознание*

FORMATION OF EMOTIONAL INTELLIGENCE DURING ELEMENTARY SCHOOL AGE

Abstract. *This article discusses the development of emotional intelligence abilities in children during elementary, school age and their formation. Formation of emotional intelligence in early school-age children refers to the process of developing the ability to perceive, manage, and express emotions. This stage is crucial for social and personal development, laying the foundation for healthy psychological well-being and effective communication skills in the future.*

Key words: *Elementary school age, emotion, intelligence, communication, feeling, emotion sensation, empathy, motivation, self-awareness*

Kirish. Hozirgi kunda bolalarda ayniqsa kichik maktab yoshi (6-10yosh) davridagi bolalarda turli xil qobiliyatlarni shakllantirishning ahamiyati katta.Ulardan biri esa emotsional intellektni shakllantirishdir.Emotsional intellektni shakllantirish bolalarning muvaffaqiyatga erishishida,rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham o'qituvchilar,psixologlar,ota-onalar 6-10yosh orasida bo'lgan bolalarda yoshligidan emotsional intellektni rivojlantirib borishga diqqat qaratishlari lozim. Chunki, emotsional intellektni shakllantirishimiz bolalarning hayot faoliyatida o'zini anglashi,boshqalar va o'zining his-tuyg'ularini tushunishi,jamoalarda o'zining o'rnini topishi,muloqotchanlikda, stressni yengib o'tishda,o'zini tutishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Emotsional intellekt – bu inson o'zining va boshqalarning ichki his -tuyg'ularini tushunishi, boshqarishi va ana shu his-tuyg'ularga javob berish qobiliyati hisoblanadi. Emotsional intellektni insonning shaxsiy hayotidagi, jamiyatdagi, insonlar bilan o'zaro munosabatidagi, stressga bo'lgan munosabatidagi o'rni kattadir.Emotsional intellektni o'rganishimiz uchun biz uning beshta komponentini ko'rib chiqishimiz kerak:

1.O'zini anglash – bunda inson o'zidagi his-tuyg'ularni tushunib,ularni qanday boshqarishni bilishi, dunyoqarashi, qadriyati, shaxsiy rivojlanishi, o'zining zaif yoki kuchli tomonlarini bilishi, o'zidagi mavjud tomonlarni tan olish kabilarni anglatadi.

2.O'zini boshqarish – bunda inson o'zi tushunib yetgan holatga salbiy vaziyatlardan to'g'ri yo'l orqali chiqib ketishi tushuniladi. Masalan, g'azablanganda, asabiylashganda. O'zini boshqarish asosan inson o'zida ijobiy emotsiyalarni ko'paytirishiga yordam berib keladi.

3.Empatiya – bunda boshqa insonlarning his-tuyg'ulari va kechinmalariga ya'ni quvonchi, qayg'usiga hamdard bo'lish tushuniladi.Insonlardagi hissiyotlarni tushunishga yordam beradi.

4.Ijtimoiy ko'nikmalar – samarali va ijobiy muloqot ko'mikmasiga ega bo'lishga, guruh bilan ishlashga,ijtimoiy muhitda faol bo'lishga imkon beradi.

5.Motivatsiya – maqsadlarga erishish uchun o'z ichki kuchidan foydalanishdir. Motivatsiya insonni kelajakdagi muvaffaqiyatlariga erishishida, katta natijalarni zabt etishida uni harakat qilishga turtki bo'ladi.

Bir nechta olimlar va tadqiqotchilar emotsional intellektni inson hayotidagi o'rnini,ahamiyatini o'rganishga muvaffaq bo'lishdi. Ulardan biri Daniel Goleman emotsional intellektni inson hayot faoliyatidagi ahamiyatini ochib bergan.U "Emotional Intelligence" (1995) kitobi orqali bu tushunchani barchaga tanitdi. Bu kitob orqali jismoniy va emotsional intelllekt ahamiyatli ekanligi yoritib berilgan.1990-yilda Peter Saloyev va John Mayer maqola yozishgan. 1980-yilda Reuven Bar-On bu yo'nalishdagi tadqiqotni birinchilardan bo'lib boshlagan va o'zining "Bar- On" testini tatbiq etdi. Marc Bracket professor,u bu sohada tadqiqot o'tkazdi.Emotsional intellektni shakllantirishga oid "RULER" nomli metodini tatbiq etdi. "Emotional Intelligence 2.0" kitobi emotsional intellektni shakllantirish hamda o'lchash haqida bo'lib,bu kitobning mualliflari Travis Bradberry va Jean Greaves hisoblanadi.

Goleman ta'kidlaydiki,bola o'qish hamda o'rganish davrida nafaqat matematik,ilmiy bilimlarni, balki hissiy savodxonlikni ham bilishi kerak.Goleman "emotional literacy"(emotsional bilim) tushunchasiga asos solgan.Bu orqali bolani o'z emotsiyalarini tanishga,boshqarishga,anglashga hamda ularni nomlab, vaziyatlarda to'g'ri foydalanishga o'rgatish kerakligini namoyon etadi. Shunday qilib,Goleman EQ ni shaxsiy hayotda muvaffaqiyatning 80%i bilan bog'liqligini namoyon etadi.

Kichik maktab yoshi davri bolalarning hayotidagi eng ahamiyatli bir davr hisoblanadi.Bu davrda bolalar atrofdagi insonlar bilan muloqotga kirishishi,guruhda o'z o'rnini topishga harakat qilishi,yangi va har xil bilim,ma'lumotlarni o'rganishi, ham jismonan ham ruhan sog'lom rivojlanishi kerak bo'lgan davr. Bu davrda bolada juda katta o'zgarishlar yuzaga keladi.Kichik maktab yoshi davridagi bolalarda quyidagi mazkur belgilar mavjud:

-Jismoniy rivojlanishi

Bu davrda bola tana muvozanatini saqlashga harakat qiladi, qo'l-oyoq harakatini bir-biriga moslashtiradi, har xil harakatlar bajarish orqali ko'p energiya sarflaydi.

-Emotsional rivojlanishi.

O'zida kechayotgan turli his-tuyg'ularni anglashga harakat qiladi. His-tuyg'ularini boshqarishda yoki ifodalashda ko'plab ko'nikmaga ega bo'ladilar.

-Intellektual rivojlanishi

Boladagi diqqat, tafakkur qilish kabi qobiliyatlari shakllanadi.Ko'plab ko'nikmalarni o'rganib oladi, bu esa vaziyatlarga to'g'ri baho berishga yordam beradi.

-Ijtimoiy rivojlanishi

Bunda bola begona bolalar bilan yoki guruhlar bilan munosabatga kirishib,birga harakat qilib muvaffaqiyatga erishishida va muloqotchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

-Emotsional intellektni rivojlanishi


Bunda bola o'zida kuzatilayotgan hissiy holatni baholay oladi va anglaydi.

-Kognitiv rivojlanishi


Bola muammosini hal qila olishida, salbiy vaziyatlardan chiqib ketishida ahamiyatga ega.Aql, dunyoqarash, qadriyatlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

[1] https://donainfo.wordpress.com/wp-content/uploads/2017/09/emotional-intelligence-daniel-goleman

Mayer va Salovey tadqiqotlari natijasida emotsional intellekti yuqori bo'lgan bolalarda quyidagilar namoyon bo'ladi:



Emotsional intellekti past bo'lgan bolalarda esa quyidagi muammolar yuzaga keladi:



Kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsional intellektni shakllantirish ularning psixologik, ijtimoiy va o'quv faoliyatida muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Bu yosh davrida bola hissiy kechinmalarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga mos ravishda munosabat bildirishni o'rganadi. Shuning uchun bu davrda emotsional intellektni to'g'ri shakllantirish bolalarning keyingi hayot faoliyatida, ta'limda va ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, bolalarda hissiy muvozanatni shakllantirish zarur. Bola o'z hissiyotlarini tanib olishni, ularni nazorat qilishni va atrof-muhitga mos tarzda ifoda etishni o'rganishi kerak. Bu ularning o'zini tutishida, dars jarayoniga diqqatni jamlashda va o'qish faoliyatida barqarorlikni saqlashda yordam

beradi. Hissiy muvozanatni shakllantirgan bola stress holatlariga bardoshliroq bo‘ladi, muammoli vaziyatlarda o‘zini tutishni biladi va salbiy emotsiyalar ta’sirida noto‘g‘ri qarorlar qabul qilmaydi.

Shuningdek, empatiya va ijtimoiy tajribani rivojlantirish ham muhim o‘rin tutadi. Empatik bola tengdoshlarining hissiy holatini anglay oladi, boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘ladi, ijtimoiy muammolarga yechim topishda faol ishtirok etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, empatiyasi rivojlangan o‘quvchilar jamoa ichida liderlik fazilatlarini namoyon etadi, nizoli holatlarda muvozanatni saqlab, to‘g‘ri yechimni topa oladi.

Emotsional intellektni rivojlantirishda muloqot tajribalarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida interfaol usullardan – suhbat, bahs-munozara, juftlik va guruhli ishlardan, rolli o‘yinlardan foydalanish bolalarning muloqotchanligini oshiradi. Bu esa ularning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga, boshqalarni tinglashga va hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi.

Kichik maktab yoshida emotsional intellektni shakllantirishning samarali usullaridan biri o‘zaro ta’sirli ta’limdir. Rolli o‘yinlar, muhokamalar va sahna chiqishlari orqali bola turli hissiy holatlarni boshdan kechiradi, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yishni o‘rganadi. Shu jarayonda u o‘z hissiyotlarini idrok etish, boshqarish va ifoda etish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Emotsional rivojlanishda pedagogning hissiy ko‘rsatmalari alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi bolalar uchun namuna bo‘lishi kerak: u muammoli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlashi, adolatli va muloyim muomala qilishni o‘rgatishi zarur. Bolalar pedagogdan nafaqat bilim, balki hissiy xulq namunalarini ham o‘zlashtiradilar. Shuning uchun pedagogning o‘z emotsiyalarini boshqarish darajasi o‘quvchilarning hissiy madaniyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning kreativligini qo‘llab-quvvatlash ham emotsional intellektning ajralmas qismidir. Rasm chizish, qo‘shiq aytish, qo‘l mehnati bilan shug‘ullanish yoki sahna ijrolarida ishtirok etish kabi ijodiy mashg‘ulotlar bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish imkonini beradi. Bunday faoliyat nafaqat ijodiy qobiliyatni, balki ichki hissiy muvozanatni ham rivojlantiradi.

Emotsional intellektning ta’lim jarayonidagi ahamiyati beqiyosdir. U o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, darslarga qiziqish va ishtiyoqni oshiradi, o‘quv ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Shu bilan birga, emotsional intellekti rivojlangan o‘quvchi o‘qituvchi va tengdoshlari bilan samarali muloqot o‘rnatadi, jamoada o‘z o‘rnini topa oladi.

Agar bu yosh davrida emotsional intellekt shakllantirilmasa, bir qator salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Bola o‘z hissiyotlarini anglay olmasligi, ularni nazorat qila olmasligi tufayli tez asabiylashadi, stressga bardosh berolmaydi. Ijtimoiy bilimlar shakllanmagani sababli muloqotda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunmaslik nizolarni kuchaytiradi. Bundan tashqari, bola o‘ziga nisbatan g‘amxo‘rlikni kamaytiradi, o‘zini past baholaydi, muvaffaqiyatsizliklarni og‘ir qabul qiladi.

Shuningdek, emotsional intellekt yetishmasligi o‘quv yutuqlariga ham salbiy ta’sir qiladi. O‘quvchi darsda e’tiborini jamlay olmaydi, muammoli vaziyatlarda yechim topishda qiynaladi, pedagog va tengdoshlari bilan fikr almashishdan tortinadi. Bular esa o‘zlashtirish darajasining pasayishiga olib keladi. O‘z his-tuyg‘ularini boshqara olmaslik esa qo‘pollik, o‘zboshimchalik, gapga kirmaslik kabi noto‘g‘ri xatti-harakatlarni yuzaga keltiradi.Kichik maktab yoshi davri inson hayotining muhim davri hisoblanadi,bu davrda emotsional intellekt va emotsional ko’nikmalar shakllanishi hamda rivojlanishi uchun eng asosiy davr hisoblanadi.Bu davrda bola eshitgan,ko’rgan narsasini tez o’zlashtirib oladi.Bola amaliy mashg’ulotlar orqali hamda maktabda bajariladigan vazifalar,o’qituvchi tomonidan berilayotgan tarbiya,insoniylik tuyg’ularini o’rganish orqali o’zida emotsional ko’nikmalarni shakllantirib boradi.Bu yoshdagi bolalarni atrofidagi insonlar katta ta’sir ko’rsatadi.Sababi bu yoshda maktab,uy hamda do’stlar bilan ijtimoiy munosabatlarga ehtiyoj seziladi,natijada ijtimoiy munosabatlar kengayadi.Olimlar hissiy intellektni bilimdan tashqari muvaffaqiyat omili deb ta’kidlab o’tishgan.Shuningdek normal holatda bu yoshdagi bolalarda,ya’ni 7-9yosh bolalarda empatiya boshlanishi (boshqalar his-tuyg’usini tushunishi,unga hamdardlik bildirishi) yetarli darajada rivojlangan bo’ladi.Maktab muhitida,dars jarayonlarida hamda sinfdoshlari bilan o’yinlarda stressni boshqarish yo’llari,nafrat va g’azabini pasaytirish,xursandchiligini namoyon qilish,kutish kabi ko’nikmalar mustahkamlanadi.Maktab muhitidagi ichki tartib va qoidalar,o’qituvchilarning sinfdagi roli hamda namunasi bolaga emotsional intizomni o’rgatadi.

Shu bilan birga bolalarni yoshligidan boshlab ota-onalari, o'qituvchilari tinglashi, bilim va tarbiya o'rgatishi,mavjud bilimlarni yanada rivojlantirishi, ulardagi qobiliyat va qiziqishlarga e'tiborli bo'lib bolalarni qo'llab quvvatlashlari lozim.Emotsional intellektni va boshqa qobiliyatlarni shakllantirish bolaning butun umri davomida katta ahamiyatga ega.Chunki o'z his-tuyg'ularini anglagan, uni erkin ifodalay olgan, boshqalarni hissiy kechinmalarini tushungan inson jamiyatda o'zining o'rniga ega bo'ladi,dunyoqarashi rivojlanib boradi, muloqotchanlgi oshadi, hayotdagi o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. Ishda, oilada yoki shaxsiy hatda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarga to'g'ri baho bera oladi va ijobiy yondashadi.Fikrlarini atrofdagi do'stlariga yoki jamiyatga erkin yetkazib bera oladi.Bu yoshda o'quvchilar o'qituvchi,sinfdoshlari va oila a'zolari bilan suhbatlashish natijasida o'z his-tuyg'usini namoyon etish, atrofdagilarni tushunish hamda o'zini jamiyatda qanday tutish kerakligini o'rganib boradi.

Emotsional intellektni shakllanishi bo'yicha tadqiqotlar haqida aytadigan bo'lsak,Goleman nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi.Unga ko'ra,yosh bolalarning maktabdagi yutuqlarining 80%i hissiy intellektga, 20%i esa aqliy qobiliyatga bog'liq.[2]

AQShdagi tajribadan ko'rinib turibdiki,hissiy intellekti yuqori bo'lgan bolalar ijtimoiy muhitda liderlikni namoyon qiladi,hammadan ajralib turadi,bu qobiliyat hissiy intellekti past bo'lgan bolalarga qaraganda ularda ustun bo'ladi.

Finlyandiya maktablarida his-tuyg'ularni tanish hamda ularni ifodalab berish kabi mashg'ulotlar majburiy dars sifatida o'quv jarayoniga kiritilgan.

Isroil davlatining psixologlari faoliyati natijasida darsda tez charchab qoladigan hamda stressga moyil o'quvchilarda bu holat o'z his-tuyg'ularini yetarlicha ifodalab berolmaslik natijasida yuzaga kelishi aniqlangan.

Bundan tashqari "RULER" dasturi ham bor.Bu dasturda kichik maktab yoshi davridagi bolalarda 6oy davomida hissiy intellektga oid bo'lgan mashg'ulotlar o'tkazilgan.Buning natijasida sinfda baholar 15%ga ortgan,ziddiyatlar esa 40%ga kamaygan.

Buyuk Britaniyada esa o'quvchilarga kundalik yurgizdirishgan,uning nomi "Emotsiyalar kundaligi" deb nomlanadi.Unda bolalarning har kunlik his qilgan his-tuyg'ulari yozilgan.Buning natijasida bolalar faoliyatida muloqotchanlik hamda o'zini hissiyotlarini anglash va tushunish kuchaygan.

Yaponiyada hissiy intellekti rivojlangan o'quvchilar tabiiy fanlar hamda matematika kabi fanlardan o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan,darsda faol qatnashishgan.

Bugungi kunda emotsional intellektni bolalarda shakllantirishga nafaqat O'zbekistonda balki dunyo miqyosida ham katta e'tibor berilmoqda.AQShda maxsus "RULER", "CASEL", "PATHS" kabi dasturlar yordamida hissiy intellekt,muloqot va har xil ziddiyatlarga oson yo'l bilan yechim topish o'rgatiladi.

Finlyandiyadagi maktab dasturlariga kiritilgan "hayot ko'nikmalari"ga o'xshash fan Yaponiya davlatida esa bolalarga guruh birdamligi,erkinlik,guruhiy suhbat kabilar qadriyat tarzida singdiriladi.Ularda deyarli har kuni guruhiy yig'ilish bo'lib,unda bolalar o'zlarini hissiyotlarini erkin muhokama qilishadi.

Rossiyada psixologlar dasturlar yordamida emotsional intellektga ahamiyat berib, san'atning ayrim turlari va ijodkorlik faoliyati yordamida his-tuyg'ularni rivojlantirishadi.

Yevropalik olim R.Bar-On " Emotsional – Ijtimoiy Intellekt modeli"ni ishlab chiqqan.Bar-On modeli beshta muhim blokdan iborat:

Child development jurnalida turli xil xalqaro tajribalar yoritilgan.Unda har xil davlatlar bolalarda emotsional intellektni shakllantiruvchi maxsus dasturlarni yaratishgan.Bunga:

-AQSh maktablaridagi "Social-Emotional Learning (SEL)" dasturi


-Yevropada "Friendship programs" hamda "Conflict resolution games" loyihasini kiritishimiz mumkin.

[2]https://www.google.com/search?q=4.+Zamonaviy+pedagogika+(Ozbekiston+Milliy+Universiteti+nashri)

O’zbekistonda oxirgi yillarda psixologga va psixologik xizmatga e’tibor kuchaymoqda.Shu sababli ham o’quvchilarda hissiy madaniyat darsi,ertak terapiya,jamoaviy o’yinlar va mashqlar,rolli o’yinlar o’tkazilib kelinmoqda.


M.Zayniyevaning tadqiqotlariga ko’ra bolalarda hissiy intellektni shakllantirish 3 asosiy yo’nalishda olib boriladi.

Bolalarda emotsional intellektni shakllantirish usullari:



Bu usullar natijasida bolada hissiy intellekt shakllanadi.U o’zidagi har qanday emotsional holatni bir-biridan ajrata boshlaydi.Masalan, bola testda past baho olsa, tezda yig’lab yuborishi mumkin,lekin bola sekin o’zini tutib vaziyatni to’g’ri qabul qilishni o’rganadi.Guruh bilan muloqotda bo’lish hamda hamkorlik qilish natijasida empatiya qobiliyati shakllanadi,guruhiy ishlash ko’nikmalari paydo bo’ladi.M.Zayniyeva emotsional intellektni shakllantiruvchi eng asosiy omil sifatida ijodiy faoliyat (rasm chizish,rolli o’yinlar, qo’shiq aytish)ni ta’kidlagan.Bu faoliyat bolada o’zini erkin his qilish,ichki tuyg’ularini namoyon qilish imkonini beradi.Psixolog olimlarning ta’kidlashicha, kichik maktab yoshi davrida bolaning psixik rivojlanishida asosiy ikkita jarayon muhim hisoblanadi.Bular, kognitiv va emotsional rivojlanish.Kognitiv rivojlanish bolaning diqqati,xotirasi,o’zlashtirishi,tafakkur qilishi, tahlil qilishi bilan aloqador bo’lsa,emotsional rivojlanish bolaning ijtmoiy muhitga moslashuvini,barqarorligini ta’minlaydi.

Emotsional intellektni shakllantirish usullari:



Xulosa va takliflar. (Выводы и предложения/Conclusions and suggestions.) Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bolalardagi emotsional intellektni shakllanishida birinchi navbatda ota-ona va o'qituvchi ta'sir qiladi.Ular yetarlicha imkon yaratib berishlari zarur.Emotsional intellektni shakllantirish tufayli insonning ish yerida, odamlar bilan suhbatlashganda,tengdoshlari orasida muloqotchanlikni rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Kichik maktab yoshi davrida hissiy intellektni shakllantirish va rivojlantirish faqatgina psixologik emas,balki milliy,madaniy hamda pedagogik qadriyatlarga asoslangan bo'ladi.Bolani bu yoshida o'zini his-tuyg'ularini tanib olishga o'rgatish kerak,buning uchun uyida ota-ona,o'quv muassasasida esa pedagoglar his-tuyg'ularni nomini va ularni rasmi tushirilgan kartochkalardan foydalanib bolaga tanitib borishlari kerak.Empatiyani rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega.Bola bilan multfilm va turli xil hikoya qahramonlari haqida fikr almashish unda empatiyani oshiradi.Bolaga "Bu qahramon nima uchun u xafa bo'ldi?", "Sen buni o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'larding?" kabi savollar bilan murojaat qilsak bo'ladi. Bolada ijobiy muloqotni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Maktabda o'qituvchi,uyda esa ota-ona bolaning his-tuyg'ularini faqat eshitadi,lekin hukm qilmaydi,bolaning gapiga qarama-qarshi,uni inkor etuvchi fikrlarni bildirmaydi.Bolalar o'qituvchi va ota-onadan o'rnak oladi,kattalar hissiyotlarini ochiq aytib bolaga namuna bo'lishi kerak,bolalar esa kattalardan ijobiy fazilatlarni,xatti-harakatlarni o'rganib ularni hayotda qo'llaydi. Agar bolani yoshligida e'tiborsiz qoldirilsa kelajakda bilim olishida to'siqlar,tushunmovchiliklar yuzaga keladi, ma'lumotlarni o'zlashtirishda, kasb tanlashida, jamoa bilan munosabatlarida muammolarga uchraydi.Shuning uchun eng avvalo ota-ona va pedagoglar bolani yoshlik davridan boshlab his-tuyg'ularini tushunishlarini, har xil vaziyatlarga tez moslashishni, o'yinlar orqali yoki rolli obrazlar orqali tushuntirib, shakllantirib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Daniel Goleman "Emotional intelligence" (1995)
2. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). "Emotional Intelligence". Imagination, Cognition and Personality, 9(3), 185–211.
3. M.To'xtaxo'jayeva "Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" Toshkent - 2015
4. "Zamonaviy pedagogika" (O'zbekiston Milliy Universiteti nashri)

Xayitov Kobil Kurbonovich
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti

TALABALAR AKADEMIK O‘ZLASHTIRISHI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar akademik o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan psixologik muammolar ilmiy tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nafaqat intellektual salohiyat, balki motivatsiya, stressga bardoshlilik, shaxsiy xususiyatlar va psixologik muhit bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *talabalar, akademik o‘zlashtirish, psixologik muammo, motivatsiya, stress, moslashuv, ta’lim sifati.*

АКАДЕМИЧЕСКАЯ УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В данной статье научно анализируются психологические проблемы, возникающие в процессе академической успеваемости студентов. Обосновывается, что показатели успеваемости в системе образования связаны не только с интеллектуальным потенциалом, но и с мотивацией, устойчивостью к стрессу, личностными особенностями и психологической средой.*

Ключевые слова: *студенты, академическая успеваемость, психологическая проблема, мотивация, стресс, адаптация, качество образования.*

STUDENTS’ ACADEMIC PERFORMANCE AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the psychological problems that arise in the process of students’ academic performance. It is substantiated that academic achievement in the education system is associated not only with intellectual potential but also with motivation, stress resilience, personal characteristics, and the psychological environment.*

Key words: *students, academic performance, psychological problem, motivation, stress, adaptation, quality of education.*

Kirish. Hozirgi vaqtda talabalarning o‘zlashtirishi, ta’limda samaradorlik va muvaffaqiyatga erishish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv faoliyatini o‘zlashtirish darajasi har xil bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi. Shu munosabat bilan ta’lim faoliyatining rivojlanishiga yordam beradigan yoki to‘sqinlik qiladigan sabablarni aniqlash, ularni rivojlantirish yoki bartaraf qilishga doir choralar ishlab chiqish, ta’lim faoliyatining rivojlanish darajasini belgilovchi omillar mavjudligini tadqiq qilish lozimdir. Talabalar akademik o‘zlashtirishi – ular egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarning to‘laligi, chuqurligi, ongliligi hamda mustahkamligi darajasini anglatuvchi pedagogik mezondir. O‘zbekistonda talabalar o‘zlashtirishini yuqori sifat darajasiga olib chiqish milliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardandir. Chunki talabalarning intellektual rivojlanishi hamda kasbiy tayyorgarligi ularning akademik o‘zlashtirish darajalariga bevosita bog‘liq.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi. “Akademik o‘zlashtirish” atamasining amaliyotga kirib kelishi so‘nggi yillarda ancha kengayib bormoqda. Sobiq ittifoqda o‘zlashtirish masalasi yuzasidan B.G.Ananyev o‘quv faoliyati samaradorligini obyektiv baholash, bilan birgalikda subyektiv jihatlarini tavsiflashga erishgan. Uning talqiniga ko‘ra, akademik o‘zlashtirishda ta’lim yutuqlarini subyektiv-shaxsiy mohiyati va o‘quv natijalarining tuzilishi “bilish”, “o‘rganish”, “egallash”ni ifodalovchi obyektiv omillar bilan bog‘liq murakkab xususiyatdir. Akademik o‘zlashtirishning muhim tomonlariga “ta’lim muhitining bir xilda tashkil etish imkoniyatining yo‘qligi va individual yondashuvning taqozo etishi”; “pedagog va ta’lim oluvchining o‘zaro hamkorlik muhiti”; “ta’lim oluvchining o‘quv motivlari va psixik imkoniyatlari (kognitiv jarayonlarning shakllanganlik

darajasi)"; ta'lim oluvchining psixik stabillik va nostabillik holati; ta'lim oluvchining o'quv maqsadlari, intilishi va kutilmalari"; "ta'lim oluvchining o'z natijalariga nisbatan shaxsiy munosabatning shakllanishi va ularning nazorat qilish ko'nikmalarini shakllanganligi".

Shu sababli ham "talabalarning o'zlashtirishiga moddiy ahvoli, salomatligi, yoshi, ijtimoiy ahvoli", "ta'lim bosqichlaridagi intellektual imkoniyatlarini uzviy rivojlanganligi", "faoliyatni rejalashtirish, faoliyatni nazorat qilish, kasbiy qiziqishlari va kasb tanlash motivlari, ta'lim muassasasidagi psixologik muhit, o'quv guruhidagi psixologik muhit, oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonidagi shart-sharoitlar, ta'limning tashkiliy jihatlari", "ya'ni talabaning kunduzgi, kechki, masofaviy ta'lim tarzda tahsil olishi va talabalarning shaxs sifatida kamoloti hamda individual-tipologik xususiyatlari" bilan bog'liqdir.

Tadqiqot natijasi va muhokama. Talabalarning akademik o'zlashtirishida o'quv motivatsiyasi bilan uzviy bog'liq jihatlari bor. Talabalar akademik o'zlashtirishida o'quv motivlarining ahamiyati yuqoridir. Masalan, R.A.Kusurkar va L.Baxter o'zining tadqiqotlarini faoliyat motivatsiyalarini o'rganishga bag'ishlagan. Motivatsiya talabalarning munosabati, o'rganish odatlari va akademik tayyorgarligiga ta'sir qiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'lim dasturlarini o'zlashtirish muvaffaqiyati uchun talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi muhimligiga e'tibor qaratadilar[1:156]. "O'z ta'lim maqsadlarini yaxshi tushunadigan talabalar ko'proq motivatsiyaga ega bo'ladilar, o'rganishga ijobiy munosabatda bo'ladi va shuning uchun muvaffaqiyatga erishish imkoniyati ko'proq bo'ladi". "Oliy ta'lim darajasida o'qish uchun motivatsiya tuzilishini tahlil qilish ayniqsa muhimdir, chunki bu holda ta'lim va kasbiy faoliyatning kombinatsiyasi mavjud". Shu bilan birga, "talabalarda shakllangan kasbiy intilishning mavjudligi o'quv jarayoniga, ularning kelajakdagi kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi" [2:78]. Ko'pgina tadqiqotchilar "talabalarning o'quv motivatsiyasini oshiradigan maxsus pedagogik texnika va usullarni ishlab chiqish uchun ta'lim motivatsiyasini o'rganish muhimligini" ta'kidlaydilar.

Talabalar zarur bilim va ko'nikmalarni nafaqat majburiy o'quv dasturini o'zlashtirganda, balki fakultativ, ixtiyoriy fanlar shaklida o'qitiladigan qo'shimcha bilimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish hamda faol va qo'shimcha o'qitishning boshqa usullari orqali ham olishlari mumkin. Yuqori darajadagi motivatsiya bo'lmasa, bunday hajmni yengish va yaxshi akademik o'zlashtirishga erishish qiyin.

O.S.Ioninaning qayd etishishicha, "talabaning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari qator omillarga bog'liq. Shu sababli ham ta'lim sifatini ta'minlashga doir izlanishlar muammoning yangi yechimlarini topish hali ham zarur tadqiqot muammosi sifatida qolmoqda". Mazkur masalaning bir jihati rus olimasi O.S.Ioninaning izlanishlarida aks etgan bo'lib[3:65], u "talabaning o'z-o'ziga munosabatining ijobiy xarakteri, o'z natijalaridan qoniqishi muhim" ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur izlanishga asoslanib, talabaning yuqori o'quv samaradorligiga erishishi o'zi va faoliyatiga nisbatan optimal munosabatda bo'lishi belgilar ekan.

D.M.Grebneva "talabalarning akademik o'zlashtirish bo'yicha yutuqlari ta'lim oluvchining shaxsiy qarashlari va g'oyalarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan. Shu sababli ham tadqiqot natijalariga ko'ra akademik o'zlashtirish yutuqlarida talabalarning ta'lim olishga bo'lgan shaxsiy yondashuvi va munosabatlari belgilovchi rol o'ynaydi", deydi. Olimaning mulohazalariga ko'ra talabaning o'quv faoliyatining kognitiv, hissiy va baho jabhalari kam sarf va yuqori natija tamoyiliga muvofiq ustuvor natijalarni ta'minlovchi psixologik omillarga bog'liq.

Xorijiy olimi P.Gor fikricha, "ta'limdagi yutuqlarning asosida talabalarning intellektual imkoniyatlari, ta'lim jarayoniga nisbatan ijodiy, tanqidiy va ustuvor o'quv motivatsiyasining izchil va uyg'unlashgan majmui belgilab beradi" [3:149].

Bugungi kunda tadqiqotlarda talabaning akademik o'zlashtirish va akademik muvaffaqiyati tushunchalari o'zaro bog'liqlikda tadqiq etilgan. Bu tushunchalari mohiyati bir-birin mantiqan to'ldiruvchi va boyituvchi o'quv faoliyatini natijalarini ijobiy ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda S.N.Sidorovaning izlanishlari o'ziga xos natijalari bilan ajralib turadi. U «ta'limda erishiladigan yutuqlar asosida iqtisodiy holati, sog'liq, yosh bilan bog'liqlik, oilaviy ahvol, oliy ta'lim dargohigacha bo'lgan o'qishga shaylik holati, faoliyatini tashkil etishi, sub'ektiv nazoratga egaligi, ta'lim muassasasini tanlashi va o'z navbatida ta'lim olish shakllari, ta'lim oluvchi bilan ta'lim

beruvchi o‘rtasidagi munosabat, ta’lim muassasasining mavqei va ta’lim oluvchilarning shaxsiy fazilatlari va individual imkoniyatlari turishi” qayd etdi.

V.P.Bespalko, A.A.Verbitskiy, R.F.Jukov singari olimlar esa talabalarning o‘zlashtirishida ta’limning tashkil etish usullari bilan bog‘laydilar. Ularning talqinicha ta’lim texnologiyalari oliy ta’limda talabaning tafakkurlashi, aqliy faolligi va o‘zlashtirishga intilishini kamol toptirishga qaratilgan ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi degan xulosani beradilar[4:83].

Tadqiqotlar asosida talabalarning o‘zlashtirishni belgilovchi omillarning ahamiyatiga ko‘ra tadqiqotchilarning alohida yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash mumkin: “ta’lim oluvchilarning shaxslik fazilatlari”, “emotsional-motivatsion” va “intellektual imkoniyatlarini” o‘sitirishga yo‘naltirishni ustuvor hisoblovchilar (B.G.Ananyev, J.Bruner, L.S.Vigotskiy, N.V.Zalesova, N.P.Murzina);

- “ta’lim olish mezonlar” (O.V.Galkina, L.M.Milyayeva, E.V.Semenova, N.V.Sobol);
- “shaxsiy imkoniyatlarini tahlil etish va ro‘yobga chiqarish” (N.A.Rototayeva);
- “ta’limga ta’sir ko‘rsatuvchi eksternal omillar, ta’limdagi pedagogik-psixologik muhit, taxlilning rejali va daturiy ta’minoti, pedagoglarning salohiyati” (T.Y.Kurapova, I.A.Medvedeva, V.M.Miniyaro); ta’lim oluvchining o‘zlashtirishi ko‘rsatkichlari pedagogik va psixologik o‘lchov shkalalariga bog‘liqligi asoslangan (T.Y.Kurapova) [5:223]. U “ta’limdagi pedagogik baholash o‘lchovlari: talabaning o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish qobiliyati; o‘zining intellektual va individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ta’lim jarayonining yakuniy natijalarini baholashning mezonlarini va usullari (imtihon, test) ni, ta’lim oluvchining kamol topishining izchillini, o‘quv motivatsiya, ta’lim muassasasiga nisbatan samimiy munosabat; eruditsiyaga ega bo‘lishi, (aksincha ta’lim muassasiga salbiy munosabatga ega va ta’lim olishga xayrixoh bo‘lmaganlarda bu holatlar kuzatilmaydi), sotsial adaptatsiya, ta’lim oluvchining ustozlari va tengdoshlari bilan munosabat, ruhiy va jismoniy sog‘ligi va o‘zini e’zozlashi” ni aniqladi.

N.V.Kuzmina bilan V.A.Yakuninlar esa oliy ta’limda o‘qish barobarida o‘zlashtirishini belgilovchilari sifatida o‘quv-o‘zlashtirish harakatlarini tartibga solishi va ta’lim muhitini yaxshilash, mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish, ta’lim muhitiga moslashishi, shaxsiy stabillik, o‘zini o‘zi kamol toptirish, ta’lim olish ishtiyoqi ko‘rsatib o‘tilgan.

Academic sucsess – akademik muvaffaqiyat uzoq g‘arb va AQSh ta’limida akademik o‘zlashtirish muhim shakli hisoblanadi (T.York, Ch.Gibson, S.Ranklin). G‘oyaga ko‘ra, akademik o‘zlashtirishni ta’minlashda o‘quv maqsadlarini ta’minlash; kompetensiyalarni shakllantirish, faoliyat natijalaridan mamnunlik, irodaviy sifatlarga ega bo‘lish va ta’limdan keyingi bosqichda karyeraga ega bo‘lish muhim ekan.

Talabalar akademik o‘zlashtirishi bugungi kunda ta’lim tizimidagi eng dolzarb psixologik muammolardan biri sifatida e’tirof etiladi. Chunki o‘zlashtirish jarayoni nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallashni, balki shaxsning ichki motivatsiyasi, emotsional barqarorligi, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirini ham o‘z ichiga oladi. Akademik o‘zlashtirish darajasi talabaning psixologik holati, o‘z-o‘zini anglash darajasi, stressga bardoshliligi, shaxsiy faolligi hamda o‘qituvchi va tengdoshlari bilan munosabatlariga bevosita bog‘liqdir. Shu bois, bu masalani nafaqat pedagogik, balki psixologik jihatdan chuqur o‘rganish zarur.

Avvalo, akademik o‘zlashtirishning psixologik mohiyati talabaning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va motivatsion tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Agar talaba o‘qishning maqsadini anglamasa yoki o‘z faoliyatining natijasiga befarq bo‘lsa, u holda o‘quv jarayonida passivlik, befarqlik va tez charchash holatlari yuzaga keladi. Aksincha, ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talaba ta’lim jarayonini o‘z hayotiy qadriyati sifatida qabul qiladi, murakkab topshiriqlardan cho‘chimaydi va o‘z intellektual salohiyatini namoyon eta oladi.

Akademik o‘zlashtirishning yana bir muhim psixologik omili – bu emotsional holatdir. Stress, tashvish, qo‘rquv yoki o‘ziga ishonchsizlik kabi hissiyotlar talabaning diqqatini jamlashiga, o‘qish materialini idrok etishiga va uni eslab qolishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional barqarorligi past bo‘lgan talabalar o‘zlashtirish jarayonida ko‘proq qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli, ta’lim muassasalarida psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish, stressni kamaytiruvchi mashg‘ulotlar, motivatsion treninglar va muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi mashqlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, talabaning akademik o‘zlashtirishiga kognitiv xususiyatlar – diqqat, xotira, tafakkur va fikrlash tezligi kabi omillar ham ta’sir qiladi. Har bir talabaning idrok etish uslubi va axborotni qayta ishlash tezligi turlicha bo‘lgani sababli, individual yondashuv tamoyillariga asoslangan o‘qitish metodlari qo‘llanilishi kerak. Shaxsiy yondashuv talabaga o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish, o‘z bilimlarini mustaqil baholash va individual o‘sish yo‘lini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy-psixologik muhit ham o‘zlashtirishga bevosita ta’sir etuvchi omillardandir. O‘qituvchi bilan iliq, ishonchli munosabat, tengdoshlari bilan sog‘lom raqobat va hamkorlik muhiti talabaning faolligini oshiradi. Aksincha, tanqid, adolatsizlik yoki salbiy ijtimoiy bosim mavjud bo‘lgan muhitda talaba o‘zini himoyalash pozitsiyasini egallaydi, bu esa o‘qishga nisbatan befarqlikni kuchaytiradi. Shu bois, ta’lim muassasalarida psixologik iqlimni yaxshilash, ijobiy kommunikativ muhit yaratish o‘zlashtirish darajasini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Akademik o‘zlashtirishni pasaytiruvchi yana bir omil – bu o‘quv yuklamasining ortiqligi va dam olishning yetishmasligidir. Uzoq davom etadigan darslar, murakkab topshiriqlar, doimiy nazorat va baholash tizimi talabalarda ruhiy charchoq, diqqatning susayishi va o‘qishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. Shu sababli, o‘qitish jarayonini psixologik jihatdan maqbullashtirish, ya’ni dam olish, ijodiy mashg‘ulotlar, jamoaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish lozim.

Xulosa. Akademik o‘zlashtirish psixologik tadqiqotlarda izchil o‘rganishni taqazo etadigan muammo sifatida qaralib, jamiyat taraqqiyotida uzviy tadqiq etish zarurligini ifodalaydi. Shu bois tadqiqotchilar ushbu muammoning akademik o‘zlashtirishga ta’sir etuvchi har xil psixologik aspektlar va jabhalarini hisobga olgan holda tadqiq etganlar.

Universitet talabalari ta’limga bo‘lgan motivatsiyani oshirish, kelajakdagi mutaxassislikni olish va kasb-hunar egallashda muhim bo‘lgan barcha zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yordamning kompleks dasturiga muhtoj. Motivatsiyani oshirishga qaratilgan ushbu qo‘llab-quvvatlashning bir qismi sifatida talabalarning his-tuyg‘ularini hisobga olish lozim, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida yanada nozik, ya’ni, samimiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish, talabalarning past qobiliyatlarini oshiradigan moslashuvchan yondashuvdan foydalanish kerak. O‘z-o‘zini hurmat qilish, “talabalarning ijodiy qobiliyatlarini (amaliy va kognitiv faoliyatda) rivojlantirishga” yordam berish, shuningdek, ularning “yetuk bo‘lmagan muloqot qobiliyatlarini” yaxshilash choralarini ko‘rish tadbirlarini kiritish o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ионина О.С. Проявления индивидуального стиля учебно-профессиональной деятельности студента. – Москва, 2015. № 212. –С. 16-20.

2. Черешнева А.Ю. Факторы успешного обучения студентов в вузе / А.Ю.Черешнева, С.Н.Сидорова. Успехи современного естествознания. 2013. № 10. –С. 157-157.

3. Гребнева Д.М. Учебная успешность как процесс и результат педагогического взаимодействия / Педагогическое образование в России. 2011. № 1. –С. 251-254.

4. Вербицкий А.А. Развитие мотивации студентов в контекстном обучении. –Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2000. –С. 200.

5. Hansen, Stephen L., and Peggy Lowry. Reconsidering Research Administration at Predominantly Undergraduate Colleges and Universities // Research Management Review. 2000. Vol. 11, № 2.

6. Gore P.A. Academic Self-Efficacy as a Predictor of College Outcomes: Two Incremental Validity Studies // Journal of Career Assessment. 2006. № 14 (1). –P. 92-115.

7. Uralov D. “Ibn Sinoning inson va ma’naviy kamolot masalasiga munosabati”. “Falsafa va insoniyat: o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak” ilmiy-nazariy anjuman, Alfraganus university. (E)ISSN: 2181-1784 4(26), Nov., 2024 www.oriens.uz.

8. Uralov D. “The importance of the views of children's education and moral virtues in the works of Ibn Sina today”. Western European Journal of Historical Events and Social Science Volume 3, Issue 2, February, 2025 https://westerneuropeanstudies.com/index.php/4.

Ergasheva Sayyora
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI BOSHQARUV KADRLARIDA LIDERLIK VA PROFESSIONAL MOSLASHUV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshqaruv kadrlarida liderlik va professional moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish muammolari o‘rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda ham psixologiya fani sohasida juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim muassasasi, boshqaruv, rahbar, xodim, o‘qituvchi, mahorat, qobiliyat, bilim, ko‘nikma, tajriba, malaka.*

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ЛИДЕРСТВА И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИОННОСТИ У АДМИНИСТРАТИВНОГО ПЕРСОНАЛА ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ШКОЛ

Аннотация. *В статье рассмотрены проблемы формирования лидерских и профессиональных навыков адаптации у управленческого персонала общеобразовательных школ. В нем рассматривались теоретические и практические аспекты проблемы, научно-исследовательская работа, проводимая учеными по этому вопросу. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы и сегодня очень актуально в области психологической науки.*

Ключевые слова: *учебное заведение, руководство, руководитель, работник, учитель, умение, способность, знания, умения, опыт, квалификация.*

DEVELOPMENT OF LEADERSHIP SKILLS AND PROFESSIONAL ADAPTABILITY AMONG THE ADMINISTRATIVE STAFF OF SECONDARY SCHOOLS

Annotation. *The article discusses the problems of developing leadership and professional adaptation skills among the management staff of secondary schools. It examined the theoretical and practical aspects of the problem, as well as the research work carried out by scientists on this issue. The research conducted by the author shows that the study of this problem is still very relevant in the field of psychological science.*

Key words: *educational institution, management, supervisor, employee, teacher, skill, ability, knowledge, skills, experience, qualification.*

Kirish. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki mamlakatimizning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olishga harakat qilayotgan O‘zbekiston uchun iqtidorli va iste’dodli yoshlarni izlab topish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ilm-fanga yo‘naltirish va maqsadli tayyorlash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ta’lim tizimini isloh qilish va uni jadallashtirish jarayonlari ko‘p jihatdan, o‘quv muassasalari rahbarlarining hissalari va rahbarlik faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etganliklariga bog‘liqdir. Shunday ekan, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davrida ta’lim muassasalariga yuqori tashkilotlarning ko‘rsatmalarini ko‘r-ko‘rona bajaradigan rahbarlar emas, balki o‘z faoliyatida har bir ishga ijodiy yondashuvchi, yangi tafakkur va zamonaviy boshqaruv ilmlaridan xabardor bo‘lgan, shuningdek, mukammal shaxsiy va kasbiy fazilatlar, boshqaruvchilik mahoratiga ega bo‘lgan rahbarlarni faoliyat ko‘rsatishlarini davrning o‘zi talab qilmoqda.

Darhaqiqat, ta’lim muassasasi rahbari yuksak obro‘-e’tiborga ega bo‘lishi uchun jamoa a’zolariga har tomonlama namuna ko‘rsatishi kerak. Unda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy

g‘urur, baynalmilalchilik, adolat, vijdonlilik, beg‘arazlik, hamdardlik, samimiylik, kamtarlik, rostgo‘ylik, poklik, mas’uliyat, o‘zini tuta bilishlik, o‘zgalarni hurmat qilish, o‘ziga va o‘zgalarga talabchanlik, yumor hissining bo‘lishligi rahbar axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Agar bu fazilatlar yetakchi shaxsida o‘z qadr-qimmatini yo‘qotsa va bu holatdan bo‘ysunuvchilar xabar topsa, ularda shu rahbarga nisbatan hurmat yo‘qoladi. Bunday paytlarda ayrim rahbarlar jamoa o‘rtasida o‘z obro‘sini qayta tiklash uchun xodimlarni qo‘rqitishga, ularga adolatsiz talablar qo‘yishga, kamsitishga va boshqa sun’iy usullardan foydalanishga harakat qiladilar. Lekin bu usullar hech qachon o‘zini oqlamagan. Modomiki shunday ekan, rahbar kadr o‘zini chuqur o‘rganishi, yutuq va kamchiliklarini obdon tahlil qila olishi, o‘zini boshqalar bilan qiyoslashi, ularning ijobiy tomonlarini o‘zlashtirishga intilishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz tadqiqotchi-olimlari tomonidan uzluksiz ta’lim tizimining boshqaruv samaradorligini oshirish hamda boshqaruv kadrlar kompetenligini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi va bugungi kunda ham shu mazmundagi ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda. Xususan, mazkur sohada mamlakatimiz olimlaridan B.A.Abdullayev, D.S.Abdullajanova, K.S.Aliyeva, Sh.X.Abdullayeva, N.Boymurodov, E.S.Yoziyev, X.A.Kadirova, N.T.Kariyeva, V.M.Karimova, I.I.Maxmudov, A.M.Maxmudov, D.G.Muxamedova, A.S.Nazarov, N.A.Ruziqulov, E.N.Sattarov, O.R.Shamiyeva, A.M. Shonazarov, O.E.Hayitov, E.G‘.G‘oziyev va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan bo‘lib, ularda yuqori malakali rahbar kadrlarni tayyorlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bo‘lg‘usi rahbarlarni professional boshqaruv faoliyatiga tayyorlash, saralash va tanlash tadqiqot ishining maqsadi sifatida talqin qilingan.

D.S.Abdullajanova tomonidan «Boshqaruvda ayollar faolligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzusida bajarilgan dissertatsiyasi ayollarni boshqaruv lavozimlariga tanlash va tayinlashda kadrlar zaxirasini shakllantirishning amaliy ahamiyatini ilmiy asoslashga, xizmatda foydalanish samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda boshqaruvda ayollar faolligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlangan.Tadqiqotda boshqaruvda ayollar faolligida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va mutaxassislik o‘rtasidagi bog‘liqlikda motivatsiyaning turli darajalari va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasining faollikka turlicha ta’siri, ayollarda rahbarlik tiplarini tavakkalchilikka ta’siri va boshqa bir qator psixologik jihatlarning namoyon bo‘lishi o‘rganilgan. Dissertatsiya ishida boshqaruvda ayollar faolligini oshirish, ayol kadrlar zaxirasini shakllantirish, kommunikativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan trening dasturining ishlab chiqilganligi e’tiborga loyiq [2].

A.M.Maxmudov tomonidan «Yosh rahbarlarda boshqaruv ko‘nikmalari shakllanib borishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzusida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishi turli sohalarda boshqaruv faoliyatini olib borayotgan yosh rahbarlarda boshqaruv ko‘nikmalari rivojlanishi va shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda yosh rahbarlarda boshqaruv ko‘nikmalari shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ushbu ko‘nikmalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar tahlil etilgan. Boshqaruv ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash va o‘rganishda yosh rahbarlarning o‘zini-o‘zi anglashi ularning keyingi rivojlanishi uchun yetakchi stimul bo‘lishi to‘g‘risidagi yangi yondashuv respublikada rahbarlikni o‘rganish bo‘yicha psixologik tadqiqotlar amaliyotiga olib kirilganligi alohida e’tiborga loyiq. Mazkur tadqiqot liderlik kompetensiyasining rahbarlik faoliyatida yetakchiligi e’tirof etilgan holda amalga oshirilganligi va faoliyat ko‘rsatayotgan yosh rahbarlarda bu kompetensiyalarning ifodalanganligi darajalarining aniqlanganligi ushbu tadqiqot ishining kadrlar zaxirasini shakllantirish sohasiga tatbiq etish imkoniyatlarini oshiradi [5].

A.S.Nazarovning tadqiqot ishi «Boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish hamda unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish orqali mazkur tizimni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish» maqsadida olib borilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshqaruv faoliyati rahbar xodimlarida muammoli vaziyatlarda o‘zini tutish, hukmronlikka intilish sifatlarining shakllanganlik darajasiga ko‘ra, «boshqaruv jarayoniga ratsional munosabat», «qaror natijasini prognozlash» va «xushyorlik» kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga irodaviy akt asosida ustuvorlik berish orqali konstruktiv qaror qabul qilish ko‘nikmasining rivojlanishi dalillangan; rahbarning «dispozitsion» integral lokolizatsiyasining

ijtimoiy mas'uliyat, mustaqillik hissining shaxslararo munosabatlardagi tolerantlikni rivojlantirish natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning identifikatsiyalanishi asoslangan; rahbarlardagi shaxsiy sifatlarning klassifikatsiyalanishiga ko'ra, ijtimoiy-axloqiy, emotsional yetuklik va ijtimoiy intellekt rivojlanishi dinamikasi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijrosini ta'minlanlash jarayonidagi xatti-harakatlar transformatsiyasini prognozlash tamoyillari takomillashtirilganligi diqqatga sazovordir [6].

B.A.Abdullayev tadqiqotlarida, «rahbarning boshqaruv kompetentligi nafaqat oddiy ishlash sharoitida, balki ekstremal vaziyatlarda ham yuqori darajada rivojlangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir», degan xulosaga keladi. Muallif bu vaziyatni quyidagi ikki holatda ifoda etadi: birinchidan, shaxsda boshqaruv kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy- psixologik mezonlari, quyidagilar orqali oliy o'quv yurtlaridayoq shakllantirilishi lozim. YA'ni kasbiy professional sifatlar bilan birga, psixologik qobiliyatlari, tashkiliy va boshqaruv kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiya, o'zaro munosabatlarga hamda boshqalarga bo'lgan yordam berish yoki hamdarlik sifatlari kabilar shular jumlasidandir. Bunday ishlar avvalo, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari va o'quv jarayonining boshqa subektlari tomonidan amalga oshiriladi: ikkinchidan ilg'or shaxslarda boshqaruv kompetentligini ta'minlovchi omillar majmuiga, yetakchining rasmiy va maxsus vazifalari, qo'l ostidagilar bilan ishlash ko'nikmalari, kollektiv tarzda samarali ishlay olish qobiliyati, rivojlangan kasbiy mas'uliyat hissi kabilar ham kiritiladi [1].

Hozirgi paytda respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish orqali rivojlangan davlatlar darajasida taraqqiy etishimiz ta'lim muassasalarida to'g'ri yo'lga qo'yilgan islohotlar, shu ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan rahbarlarning boshqaruvchanlik qobiliyatlariga bog'liqdir. Rahbarlik faoliyatining samaradorligiga rahbar shaxsning tafakkuri, aql-idroki ham bevosita bog'liq bo'ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Har bir muassasaning faoliyatidagi samaradorlik, birinchi navbatda, jamoadagi shaxslararo munosabatlarning qanchalik to'g'ri tashkil etilgani yoki etilmaganligiga bog'liq. Boshqacha aytganda, ishning qanday tashkil etilishi rahbarlik, boshqaruvchilikning tashkil etilishi darajasiga bog'liq. Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarar ekan, eng avvalo, undagi muammolar va bu tizimdagi a'zolarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun rahbar tinmay o'z ustida ishlashi, rahbarlik mahoratini oshirib borishi, shaxsiy rivojlanishga erishishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shaxsiy rivojlanish – bu doimiy ish harakat, o'zini takomillashtirish va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish bilan bog'liq faollikdir. Ushbu jarayonda inson o'z xohish-istaklari va maqsadlariga e'tiborini qaratadi va ularga erishish uchun doimo tobora ko'proq yangi bilimlarga ega bo'ladi. Bu jarayon hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. Dunyo bo'yicha, har xil insonlar o'zining shaxsiy rivojlanishida «self-development» formulasiga ega bo'ladilar. Ko'plab manbalarda shaxs tomonidan o'zini o'zi baholash quyidagi formula asosida aniqlanishi ko'rsatilgan. UO'TM larning turli darajadagi boshqaruv kadrlarini «self-development» negizida kasbiy va ma'naviy yuksalishi quyidagi: muloqot qobiliyatlari; tashkilotchilik qobiliyati; jamoada ishlash qobiliyati; o'z vaqtida bajarish; tanqidiy fikrlash; ijodkorlik; moslashuvchanlik; do'stlik; yetakchilik fazilatlari; murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati kabi ijtimoiy jihatlar bilan ham uyg'unlikda namoyon bo'lishi mumkin degan ishchi farazni keltirib chiqaradi.

UO'TM direktorining o'zini o'zi rivojlantirishida intizom, uzviylik va uzluksizlik omillari ta'siri ham katta sanaladi. Bunda direktorning o'zini o'zi rivojlantirishi, o'zining ichki dunyosini namoyon etish yo'nalishida intizomga rioya qilishi, faollashtirishi ichki mexanizm tarzida namoyon bo'lsa, o'zgalar tajribasi, faoliyatdagi tajriba va universalizm, faoliyatning mezonlari, uzviylik, uzluksizlik ko'rsatkichlariga asoslanishi asosiy kasbiy rivojlanish yo'nalishlari sifatida shakllanadi. UO'TM direktorining boshqaruv faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari mezonlarini tanlashga turli omillar ta'sir o'tkazadi. Masalan, bizning vaziyatimizda quyidagilarni: «intizom», «motivatsiyaning yuqori darajasi», «o'zgacha natijalarga erishish ehtiyoji», «kasbiy-shaxsiy standartlar», «o'zini o'zi rivojlantirish» va boshqalarni muhim umumiy omillar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda o'ziga xos alohida omillar pedagogik jamoa faoliyatini tashkil etish maqsadi va xususiyatlariga ko'ra

aniqlanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish va obektiv baholash – UO‘TM direktorining shaxsiy hamda kasbiy yuksalish garovidir.

UO‘TM direktorining kasbiy rivojlanishining yana bir samarali yo‘li ilmiy izlanish, tadqiqotchilik va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega bo‘lishdir. U shaxsiy va kasbiy rivojlanish, ya’ni o‘z-o‘zini rivojlantirishni amalga oshirish zaruratini ruhan anglashi va mashaqqatli mehnat qilish natijasida muvaffaqiyatga erishishi – haqiqiy liderga aylanishi mumkin. Shuningdek, UO‘TM direktorining odatiy turmush tarzi sharoitida va muammoviy vaziyatlarda samarali tafakkur qila olishi ham alohida ahamiyatga ega. Sababi, UO‘TM direktorining odatiy turmush tarzi sharoitida va muammoviy vaziyatlarda samarali tafakkur qila olishi turli hayotiy faoliyat davomida muvaffaqiyatli ishlashiga imkon yaratadi. Har bir UO‘TM direktorining muammoli vaziyatlarda lider sifatida o‘zini namoyon yetishi uning ijtimoiy boshqaruvda xushmuomalaligi, ko‘ngildagi fikrlarini, yeng noyob his-tuyg‘ularini, yeng yezgu niyatlarini odamlar bilan baham ko‘rishi, osoyishta ish tutishi, vazminligi, xotirjamlik bilan ish tutishiga bog‘liqdir. Uning bir nechta belgilari bor. Ular quyidagilar: insof, aql, ilm, olijanoblik, ko‘rkam fe’l, yaxshilik, sabr, shukr, muloyimlik. Xushfe’llik, shirinsuxanlik, kamtarlik, bosiqlik singari axloqiy fazilatlar meyoriylik nuqtai nazaridan g‘oyat muhimdir. Chunki har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi ma’lum ma’noda jamiyat a’zolarining muomala madaniyati bilan ham bog‘liq.

Tahlil va natijalar. Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlaridan biroz farq qilib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (UO‘TM) boshqaruv kadrlarida liderlik va professional moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish muammosini o‘rganishga qaratilgan. Biz tajriba-sinov ishlarida ana shu holatlarni o‘rganish maqsadida Liri-Sobchiklarning «Shaxslararo munosabatlar interpersonal diagnostikasi metodikasi» bilan respondentlarga murojaat qildik. Mazkur metodika G‘.B.Shoumarov tomonidan modifikatsiya qilingan. Mazkur metodikaga yordamida UO‘TM lari 1-, 2-, 3-darajali boshqaruv kadrlari faoliyatida «hamkorlik» pozitsiyasining differensial namoyon bo‘lishi tufayli boshqaruvchilikning interpersonal shaxs xususiyati sifatida rivojlanishiga to‘g‘ri proporsional ekanligini aniqlashtiruvchi tajriba-sinov ishlari olib borildi va tadqiqotda quyidagi ilmiy natijalar olindi.

UO‘TM lari boshqaruv kadrlarida interpersonal shaxs xususiyati sifatida boshqaruvchilik namoyon bo‘lish darajasining ayrim individual-tipologik xususiyatlarga bog‘liqligini (1-jadvalga qarang) tahlil qilganimizda ishonchli tafovutlar mavjudligini, ya’ni «hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan» oktant ko‘rsatkichi va boshqaruv darajasi ko‘rsatgichlari o‘rtasida ishonch darajasidagi farq mavjudligini kuzatish mumkin (H=21,88; p<0,001). Jadvaldagi raqamlarga qaraganda, respondentlarning yetakchiligi, hukmronligi qanchalik yuqori bo‘lsa, boshqaruv darajasini his qilish shunchalik pasayishi kuzatilar ekan.

1-jadval.

UO‘TM lari boshqaruv kadrlari o‘rtasida lavozimni his qilish darajasining interpersonal shaxs xususiyati ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi (Kruskal-Uollis N-mezoni)

№	Oktantlar qutblanishi	O‘rtacha ranglar			N	p
		1-daraja boshqaruv kadrlar (n=81)	2-daraja boshqaruv kadrlar (n=173)	3-daraja boshqaruv kadrlar (n=289)		
1	Hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan	1517,11	1187,40	1532,79	21,88	0.000**
2	Erki o‘zida (mustaqil) bo‘lgan – ustun bo‘lgan	1452,12	1322,19	1349,03	3,63	0,040*
3	Dangal (rostgo‘y) – tajovuzkor	1484,42	1187,53	1681,18	57,06	0.000**

4	Badgumon (birovga ishonmaydigan) – har narsaga shubha bilan qaraydigan	1339,57	1353,51	1352,66	3,33	0,042*
5	Ko‘ngilchan – tortinchoq	1550,52	1363,08	1383,14	3,82	0,215
6	Tobe – itoatkor (mo‘minqobil)	1424,28	1157,83	1608,18	56,07	0.000**
7	Hamkor – kelishuvchan	1522,41	1229,31	1493,31	6,33	0,994
8	Ma’suliyatli – olijanob (fe’li keng)	1397,35	1530,35	1526,36	0,47	0,778
Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01						

Boshqaruvning yuqori va o‘ta yuqori darajasi taxminan 2-darajali boshqaruv lavozimlari (direktorning «o‘quv ishlari», «o‘quv-tarbiyaviy ishlar», «ma’naviy- ma’rifiy ishlar», «xo‘jalik ishlar» bo‘yicha o‘rinbosari, uslubiy birlashma rahbari, yoshlar yetakchisi)ga tayinlangan va (yoki) saylanganda ko‘proq sodir bo‘lishi mumkin. Quyi va yuqori darajalarda, ya’ni 3-darajali boshqaruv lavozimlari (o‘qituvchi, sinf rahbari va (yoki) tarbiyachi)da faoliyat yuritganda hamda 1- darajali boshqaruv lavozimlari (pedagogik kengash raisi, jamoat birlashmalari raisi)ga tayinlangan va (yoki) saylanganda boshqaruvni his etish darajalari kamroq foizni tashkil yetishini shohidi bo‘lish mumkin. Respondentlarning o‘ziga nisbatan munosabatini tahlil qilish metodikasi asosida olingan natijalarga ko‘ra har uchchala darajali boshqaruv kadrlari o‘rtasida «hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan» ($H=21,88$; $p<0,001$), «dangal (rostgo‘y) – tajovuzkor» ($H=57,06$; $p<0,001$) va «tobe – itoatkor (mo‘minqobil)» ($H=57,06$; $p<0,001$) oktantlarida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi.

Aniqlanilishicha «hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan» oktanti bo‘yicha aynan 2-darajali boshqaruv kadr(masalan, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosar)larida ustunlikni yaqqol ko‘rish mumkin. Bu ulardagi o‘ziga ishonch, yaxshi maslahatchilik, peshqadam va tashkilotchi bo‘la olish malakasi, hamda yetakchilik sifatlarini aniqlaydi. Shuningdek, ularda tanqidga toqatsizlik, o‘z imkoniyatlarini ortiqcha baholash, fikrlashning diktat usulli, boshqalarga buyruq berishga imperativ ehtiyoj mavjudligi ham kuzatiladi. 3-darajali boshqaruv kadrlari sanalgan «o‘qituvchilar»da esa aksincha mazkur oktant bo‘yicha quyi natijani guvohi bo‘lish mumkin.

«Erki o‘zida (mustaqil) bo‘lgan – ustun bo‘lgan» ($H=3,63$; $p<0,005$) va «badgumon (birovga ishonmaydigan) – har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan» ($H=3,33$; $p<0,005$) oktantlarida ham sezilarli ijobiy tafovutlarni kuzatishimiz mumkin. Bunda yana «o‘quv ishlari» bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarida har ikkala oktant bo‘yicha ustunlikni ko‘rishimiz mumkin. YA’ni «erki o‘zida (mustaqil) bo‘lgan – ustun bo‘lgan» oktantida ulardagi shaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubidagi o‘zboshimchalik, atrofdagilardan ustunlik hissi ifodalangan, ko‘pchilik fikrlardan farqli ravishda o‘z fikriga egalik an’anasi va guruhda ajratilgan pozitsiyaga egalik uslublargacha bo‘lgan jarayonni ifoda etadi.

Shuningdek navbatdagi «badgumon (birovga ishonmaydigan) – har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan» oktantda ham biroz farq borligi aniqlangan va bunda ustunlik yana bir bor «o‘quv ishlari» bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari tomonida ekanligini ko‘rsatadi. YA’ni, fikrlash, faoliyat ko‘lamiga ko‘ra 2-darajali boshqaruv kadrlari o‘ta realist, shubhalanuvchan va oqimga qarshi turuvchi «nonkonformist», ginachi va 1-, 3-darajali boshqaruv kadrlarga nisbatan ishonchsiz munosabatni ko‘rsatishadi hamda noo‘rin tanqidchi sanalishadi.

«Hamkor – kelishuvchan» oktantidagi tafovutda aynan 3-darajadagi boshqaruv kadrlar, ya’ni «o‘qituvchilar», «sinf rahbarlari va (yoki) tarbiyachilar»dagi ustunlikni kuzatishimiz mumkin. Mazkur oktantga ko‘ra yuqori bo‘g‘in boshqaruv kadrlarning qo‘llab-quvvatlovi va ishonchiga bo‘lgan yuqori darajadagi ichki ehtiyoj oqim bo‘ylab yurishni xush ko‘rish («konformlik»), rahbar va boshqaruv kadrlar fikriga to‘la bog‘liqlik borligini tavsiflaydi.

«Tobe – itoatkor (mo‘minqobil)», «ma’suliyatli – olijanob (fe’li keng)» oktantlarida tafovutlar kuzatilmadi. Bu har uchchala boshqaruv kadrlarning mazkur oktantlar doirasida o‘xshashlik xususiyatlari borligini namoyon etadi. Masalan «tobe – itoatkor (mo‘minqobil)» oktanti bo‘yicha shaxslararo munosabatlardagi kamtarlik, tortinchoqlik, o‘zgalar mas’uliyatini o‘z zimmasiga olish, shuningdek, o‘ta itoatkorlik va aybdorlik tuyg‘usini aks ettiradi. Mazkur shaxs sifati boshqaruv kadrlar shaxsiga xos sanalmaydi. Ayniqsa, 2-darajali boshqaruv kadrlar (direktor o‘rinbosarlari)da mazkur sifatning namoyon bo‘lishi UO‘TM larning boshqaruv tizimiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlash zarur.

Metodikaning «ko‘ngilchan – tortinchoq» oktantida ham barcha darajadagi boshqaruv kadrlari natijalarida tafovut kuzatilmaydi. Ushbu oktant sifatlari ham boshqaruv kadrlarga xos xususiyat sanalmaydi. Sababi juda kam foiz boshqaruv kadrlarda bu sifatlarni kuzatish mumkin. Chunki bu xususiyatning borligi boshqaruv kadrda referent guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdagilar bilan do‘stona munosabatlarga intiluvchi shaxslarga xos bo‘lgan munosabat uslubini ifodalaydi. Shaxslararo munosabatlarning u yoki bu uslubining namoyon bo‘lishida ortiqcha komformizm, atrofdagilar bilan haddan ziyod yaqinlashib ketish, o‘zini ko‘pchilikning manfaatlariga daxldor ekanini ta’kidlashga intilish ko‘zga tashlanadi.

So‘nggi «ma’suliyatli – olijanob (fe’li keng)» oktanti tahlilidan ko‘rinadiki, 3-darajali boshqaruv kadrlarda atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik, mas’uliyat hissi rivojlanganligi kuzatish mumkin. Ayrim hollarda bu fe’li kenglik ustanovkalari, atrofdagilar nazarida majburiy alturizmni namoyon qiladi. Ammo ishga nisbatan mas’uliyat har qanday toifadagi boshqaruv kadrga xos bo‘lgan xususiyat sanaladi.

Xulosa. Metodika natijalaridan xulosa qilish mumkinki shaxslararo munosabatlar tizimi ko‘p jihatidan shaxs sifatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, rahbarlarda yuzaga keladigan shaxs xususiyatlari aksariyat hollarda shaxsni shaxslararo munosabatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, UO‘TM lari o‘qituvchilari va sinf rahbarlaridan tashkil topgan 3-darajadagi boshqaruv kadrlari faoliyatida «hamkorlik» pozitsiyasining differensial namoyon bo‘lishi, ularda «tashkilotchilik», «jamoada ishlash», «vaqtni boshqarish», «tanqidiy fikrlash», «ijodkorlik» kabi komponentlarni o‘zida mujassamlagan «self – development» formulasidagi shaxsiy yuksalishni kechiktiradi hamda «moslashuvchanlik»ni oshib ketishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullayyev B.A. Boshqaruv kadrlarini saralashning ijtimoiy-psixologik mezonlari: Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ya: 19.00.05. – T.: O‘zMU, 2022. – 140 b.
2. Abdullajanova D.S. Boshqaruvda ayollar faolligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) . dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: O‘zMU, 2020. – 48 b.
3. Yoziyev E.S. Boshqaruv psixologiuasi // O‘quv qo‘llanma. – Q.: “Fan va ta’lim”, 2021. – 388 b.
4. Karimova V., va boshq. Boshqaruv psixologiyasi. –T.: Fan va texnologiya. 2008. -208 b.
5. Maxmudov A.M. Yosh rahbarlarda boshlang‘ich boshqaruv ko‘nikmalari shakllanib borishining ijtimoiu-psixologik xususiuatlari: Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ya: 19.00.03. – T.: TDPU, 2020. – 140 b.
6. Nazarov A.S. Boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: TDPU, 2022. – 157 b.
7. Hayitov O.YE. Oliy ta’lim muassasasi o‘rta bo‘g‘in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Psixol. fan. dok-ri (DSc) ... dis-ya: 19.00.05. – T.: TDPU, 2020. – 250 b.

Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна
Национальный университет Узбекистана

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА СПОРТСМЕНОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ ДОСТИЖЕНИЯМ

Аннотация. *Психологическая подготовка спортсменов к профессиональным достижениям представляет собой комплексную систему формирования устойчивых личностных, мотивационных и волевых качеств, необходимых для успешного выступления в соревнованиях и эффективного саморегулирования в условиях высокого психоэмоционального напряжения. В статье рассматриваются основные компоненты психологической подготовки - мотивационно-ценностный, эмоционально-волевой, когнитивный и коммуникативный аспекты. Особое внимание уделяется развитию стрессоустойчивости, концентрации внимания, уверенности в себе, а также способности к управлению собственными эмоциями и мобилизации внутренних ресурсов в экстремальных ситуациях.*

Автор подчёркивает значимость индивидуального подхода в процессе психологической подготовки, который учитывает особенности темперамента, уровня притязаний и самооценки спортсмена. В статье раскрываются методы и приёмы формирования профессиональной психологической готовности: психотренинг, визуализация, релаксационные техники, аутогенная тренировка и когнитивно-поведенческие стратегии.

Результаты исследований показывают, что систематическая психологическая подготовка способствует не только повышению спортивных результатов, но и развитию личности спортсмена, его социальной зрелости и эмоционального интеллекта. Таким образом, психологическая подготовка является неотъемлемой частью профессионального спорта и важнейшим условием достижения стабильных и высоких результатов.

Ключевые слова: *психологическая подготовка, спортивный психолог, психодиагностика, саморегуляция, ситуативное управление.*

PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF ATHLETES FOR PROFESSIONAL ACHIEVEMENTS

Abstract. *Psychological preparation of athletes for professional achievements is a comprehensive system aimed at developing stable personal, motivational, and volitional qualities necessary for high-level performance and effective self-regulation under competitive and stressful conditions. This paper explores the core components of psychological preparation - motivational, emotional-volitional, cognitive, and communicative aspects. Special attention is paid to the development of stress tolerance, concentration, self-confidence, and emotional control, which are essential for achieving consistency and excellence in sports performance.*

The author emphasizes the importance of an individualized approach in psychological training, taking into account each athlete's temperament, self-esteem, and level of aspiration. Various psychological techniques and methods - such as mental training, visualization, autogenic exercises, relaxation, and cognitive-behavioral strategies - are discussed as effective tools for enhancing mental readiness. Research findings demonstrate that systematic psychological preparation not only improves competitive performance but also contributes to the athlete's personality development, emotional intelligence, and social adaptability. Therefore, psychological preparation should be regarded as an integral part of professional sports, serving as a fundamental prerequisite for achieving long-term success and psychological resilience.

Key words: *psychological preparation, sports psychologist, psychodiagnostics, self-regulation, situational management.*

SPORTCHILARNI KASBIY YUTUQLARGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Annotatsiya. *Sportchilarning professional yutuqlarga erishishida psixologik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Bu jarayon sportchining ruhiy barqarorligini, o'zini boshqarish ko'nikmalarini, motivatsiya va iroda sifatlarini shakllantirishga qaratilgan kompleks tizimni o'z ichiga oladi. Maqolada psixologik tayyorgarlikning asosiy komponentlari - motivatsion, emotsional, kognitiv va kommunikativ jihatlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, sportchining stressga bardoshliligi, diqqatni jamlay olish qobiliyati, o'ziga ishonch va emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalari yuksak natijalarga erishishda hal qiluvchi omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi.*

Shuningdek, individual yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, chunki har bir sportchining temperament, xarakter, maqsad va o'zini baholash darajasi o'ziga xosdir. Maqolada psixologik tayyorgarlikni shakllantirishning samarali usullari - psixotrening, vizualizatsiya, autogen mashqlar, relaksatsiya va kognitiv-behavioral strategiyalar haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, doimiy psixologik tayyorgarlik sportchining nafaqat musobaqadagi natijalarini, balki shaxsiy kamoloti va ijtimoiy moslashuvchanligini ham rivojlantiradi. Shu bois, psixologik tayyorgarlik professional sport faoliyatining ajralmas qismi va muvaffaqiyatga erishishning muhim psixologik sharti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *psixologik tayyorgarlik, sport psikologi, psixodiagnostika, o'z-o'zini boshqarish, vaziyatni boshqarish.*

Введение. Современный спорт достиг высокой степени развития. Техническая, тактическая, физическая и психологическая подготовка находится примерно на одном уровне. И сходя из этого результат соревнований определяется в значительной степени психологической подготовкой и психологическими факторами. Данная задача психологической подготовки спортсменов в повышении эффективности спортивных достижений, различной квалификации в современной спортивной деятельности, по мнению многих авторов, является весьма важной, с точки зрения науки и социально-психологической практики в спорте [4, с.150]. Дифференциальной особенностью современного спорта, является то, что спорт - это деятельность, всегда требующая преодоления трудностей, необходимость качеств: терпеливость, выдержка, выносливость [6, с.45].

Изучая моделирование психологической устойчивости спортсменов было выявлено, что накопленная положительная и отрицательная эмоция может выражаться в разных формах агрессии. В таких ситуациях психологическая подготовка спортсмена имеет большое значение [5, с.56]. Психологические возможности спортсменов в соревновательной период выступают на первый план. Нередко это является основным лимитирующим фактором в достижении наивысших спортивных результатов [8, с.193].

Цель и ее обоснование. Цель психологической подготовки спортсмена в повышении эффективности спортивных достижений - создание максимальных условий для достижения спортивных результатов и помощь в переходе в спорт высших достижений. Выполняя спортивную деятельность, спортсмену лучше будет справиться, имея минимальную психологическую подготовку. Это содействует проявлению всех умений и качеств спортсмена, на разном этапе становления продвижения и достижения новых целей. Существование этих навыков содействует непроизвольному, инстинктивному и бессознательному их проявлению в моменты, когда это значительно и весьма необходимо.

Описание и решение научной проблемы. Психологическая подготовка спортсменов в повышении эффективности для достижения максимального спортивного результата в избранном виде спортивной деятельности - это этап, нацеленный на создание у спортсменов состояния психологической готовности к состязанию , а так же процесс широкое использование четко предназначенных способов и приемов, направленный на разработку умственной и моральной подготовки спортсмена. Главным фактором качественной психологической подготовки, является максимально полное сосредоточенность всех потенциальных возможностей спортсмена, при прочих равных условиях и примерно одинаковом уровне профессионального мастерства. На всех этапах соревнования и тренировочного процесса психологическая готовность необходима. Она прививает тот нрав и форму, который должен быть у каждого спортсмена [2, с.141].

Квалификация спортивного психолога предоставляет весьма стремительную деятельность, войти в структуру спортивной готовности, быть безошибочно понятым и утвержденным в спортивной команде по сравнению с психологами, представляющими другую подготовку. Всесторонняя психологическая готовность охватывает в себя все грани и формы подготовки спортсмена: проектирование, подбор соискателей, психодиагностика спортсмена, комплектование продолжительной и длительный мотивации, установление продолжительных и временных стремлений, коррекция эмоционально волевой сферы, практика идеомоторной тренировке и психической саморегуляции спортсмена.

Соответственно, комплектование и контроль подсознательных установок, психотерапия бессознательных страхов и блоков, психологический состояние всех этапах подготовки спортсмена, осознание результатов деятельности и ряд других специфических проблемных сторон. Суть его состоит в том, чтобы обеспечить развитие и совершенствование психологических механизмов, регулирующих движения, переживания и поведение. В психологической подготовке в повышении эффективности спортивных достижений, наиболее важное значение имеет методы спортивной психологии, то есть способы практического и теоретического изучения активности спортсмена. Применение перечисленный способов делает возможным рассмотреть и разъяснить большинство психологических проявлений, их значимость в деятельности спортсмена, что поможет показать вспомогательные ресурсы спортсмена на его плодотворность в следующих состязаниях. Самым важным для спортивного психолога и тренера, является то что в период ответственных соревнований правильно подвести спортсмена. В психологической подготовке спортсменов к участию повышается концепт психологических факторов. Как следствие, разработка методов и приемов такой подготовки, использование правильных методов для подготовки спортсменов к соревнованиям, и их отбора.

В спортивной деятельности тренер и психолог должны стремиться к поддержанию у спортсмена мотивации самосовершенствования, установки на активный поиск резервов роста спортивного мастерства. Такие индивидуально-психологические качества, как высокий уровень поведенческой регуляции, гибкость мыслительных процессов, тревожность, нервно-психическая устойчивость и самоконтроль обуславливают психологическую готовность спортсменов в экстремальных ситуациях соревнований [3, с.182].

Важнейшее значение в комплектовании безошибочного эмоционального настроя и поведения бесспорно имеет роль тренера. Основная цель и задача тренера - это не только победа в соревновании. Стоит понимать, что сюда включено также всестороннее развитие человека, как в культурном, так и в физическом план [1, с.34]. Успешные тренеры должны правильно обучать навыкам конкретных спортивных тренировок и морально подготовить спортсменов к соревнованиям. Независимо от физического, умственного, социального и эмоционального благополучия, так как все спортсмены учатся по-разному. Тренеры должны быть осведомлены о процессе обучения, чтобы создать улучшенный опыт тренировок для спортсмена. Тренеры должны уважать стиль спортсменов. При оценке и отборе спортсменов на соревновательном уровне необходимо учитывать: склонность воспринимать визуально, аудиально или кинестетически. Тренеры должны обращать внимание на то, как спортсмен обрабатывает полученную информацию, помочь спортсменам ставить цели, которые будут позволяют им максимизировать участие и потенциал. Одновременно развивать собственное целеполагание, навыки и умения.

Психологическая готовность и залог спортивной деятельности – это совокупность адресованных процедур, на квалификационное развитие, трансформирование понятий о восприимчивостях и ресурсах, контроль, восприятие и проникновение своего положения повышение убежденности в собственных силах, улучшение и формирования спортивных результатов, также модернизацию и оптимизацию структур, которые корректируют психическую целостность функции организма и поведение спортсмена, решая при этом задачи соревнований и тренировки. Программа психологической подготовки спортсменов, определяет и развивает представления креативности о возможностях и способностях, понимание и контроль положения, в результате повышается убежденность и твердость в своих преимуществах, из этого

видно улучшаются и совершенствуются спортивные результаты. Соответственно следует обратить внимание на три уровня психологической подготовки:

1) социально-психологический - связь в составе коллектива, влияние команды на формирование личности, ее организация, а также функции спортсмена в команде, становление личности и спортивного коллектива;

2) психофизиологический - отношение человека к возможностям своего организма как анатомо-физиологической действительность;

3) психологический уровень - обеспечивающие его способность осуществлять деятельность, такие трудные события, как саморазвитие, самооценка, мировоззрение.

Таким образом, психологическая готовность включает три степени: команды, спортсмена и личных принадлежностей. Этот подход позволяет более целеустремленно повышать структуру готовности, упорядоченную на

исчерпывающее соответствующее становление личности спортсмена. Следовательно, программа психологической подготовки содержит: психодиагностику, индивидуальную консультацию (по итогам диагностических исследований и запросу) и коррекционно-развивающую деятельность. Учитывая тот факт, что саморегуляция может быть улучшена с самого раннего возраста с помощью замещающего опыта: вербального убеждения и успешной работы - этот вывод может иметь практическое значение для тренеров в том смысле, что, повышая саморегуляцию, они могут помочь спортсменам быть более подготовленными к стрессу [7, с.427].

Нынешние спортивные состязания требуют от спортсмена сложной квалификационной и функциональной готовности, в том числе и психомоторной. Высокие требования к психике спортсмена определяются динамикой закономерности пред соревновательных состояний психологические особенности соревнований. За какие то минуты перед спортивным соревнованием, стартом или в ходе спортивного поединка может быть растеряно все что было освоено, отработано и накоплено в процессе тренировок.

В ходе тренировочного процесса и во время соревнований в современном спорте важно отметить, что не только сложные физические нагрузки влияют на организм, но и высокая психическая напряженность имеет влияние на спортсмена. Адаптироваться к экстремальным ситуациям, научиться преодолевать их, является необходимым фактором для спортсмена, в противном случае успех в соревнованиях будет для него недостижимым. Именно для победы и достижения высокого результата крайне важна программа психологической помощи спортсменам. При проведении программы психологической готовности психодиагностика обозначает целью исследование психики спортсмена и его возможностей. Также важно отметить базовую психодиагностику, которая проводится в начале соревновательного цикла и позволяет изучить потенциальные возможности спортсмена.

Оцениваются индивидуальные особенности нервной системы, когнитивных процессов – восприятия, памяти, мышления, внимания, психомоторной сферы, степень развития свойств характера, в частности мотивации и волевой сферы. Оценка совместимости необходима и актуальна для эффективной групповой работы.

Существуют принципы работы спортсмена как главного участника психологической подготовки в повышении эффективности спортивных достижений. Спортсмен должен быть личностно заинтересован в реализации своих возможностей, в повышении эффективности учебно-тренировочного процесса и в достижении высоких результатов. В случае высокой мотивации присоединения психологического компонента в систему подготовки будет эффективно. Спортсмену важно обладать качеством толерантности - принятие способов проявлений человеческой индивидуальности и правильное понимание форм самовыражения. Каждый спортсмен вправе придерживаться своих убеждений, ценностей. Он признает это же право за другими. Обладают правом жить в мире и сохранять свою индивидуальность. Таким образом, психологическое обеспечение основная форма деятельности психолога в спорте. Это совокупность программ для повышения эффективности всех видов подготовки спортсмена, так же обеспечения психологической готовности к выступлению, создание предпосылок к продолжительной спортивной карьере и стабильной демонстрации высоких результатов.

Заключительная часть. Исследуя структуру методов психологической подготовки спортсменов в конкретном виде спорта, позволяет повышать познание формирование спортсменов в развитии успешности и эффективности спортивных побед. Развитие психологической подготовки охватывает все этапы становления спортивного мастерства и завершается на этапе развитой формы спортивной деятельности. В структуру психологической подготовки входят компоненты, характеризующие спортивную результативность, перспективное и этапное целеполагание, уверенность в успехе, показатели мобилизации исполнительных функций, субъективно-психологические характеристики личностных качеств, способностей к саморегуляции психических состояний в экстремальных условиях спортивной деятельности и психологические показатели технико-тактического мастерства.

При организации психологической подготовки и психологического сопровождения обязательно необходимо учитывать этап спортивного мастерства и вид спорта, что важно для определения способов реализации психологического сопровождения. Только глубокий анализ психологических особенностей подготовки в конкретном виде спорта и доступных механизмов воздействия на психику спортсмена, выбор наиболее эффективных форм, средств и методов тренировки, творческое взаимодействие всех участников подготовки позволит максимально полно реализовать потенциал спортсмена и сохранить высокий уровень его соревновательных достижений.

Список использованной литературы.

1. Ахмадеев, Д. Н. Психологическая подготовка учащихся к соревнованиям / Д. Н. Ахмадеев. М.: Новая наука: стратегии и векторы развития. - 2019. – 273 с.
2. Ашихмина А. А. Техники саморегуляции субъекта спортивной деятельности как фактор его психологической безопасности / А. А. Ашихмина. М.: Наука, образование и культура. - 2016. – 189 с.
3. Бобрищев, А.А. Психологические особенности личности спортсменов – представителей силовых единоборств с различным уровнем психической готовности / А.А. Бобрищев // Учёные записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2009. – № 1 (47). – С. 10-14.
4. Буриков А.В. Формирование психологической устойчивости к действиям в экстремальных условиях // Педагогика & Психология. Теория и практика. Международный научный журнал, № 3 (17), Волгоград, 2018, С. 56-57.
5. Буриков А.В. Формирование психологической устойчивости курсантов высшего военного учебного заведения // Colloquium-journal, Warszawa, Poland, № 6(17), 2018 г. Р. 44-46.
6. Воронов Н.А. Поведенческая адаптация спортсменов / Воронов Н.А., Козниенко И.В., Суворов Е.А. // Наука, образование, общество: тенденции и перспективы развития. Сборник материалов VII Международной научно-практической конференции. Редколлегия: О.Н. Широков [и др.]. 2017. С. 150-151.
7. Gangyan, S., Cruz, J., Jaenes, J.C. (Ads). Sport Psychology - Linking Theory to Practice. Instituto Politécnico de Lisboa. - 2017. - 427 p.
8. Горбунов, Г.Д. Психопедагогика спорта / Г.Д. Горбунов. – М. : Советский спорт, 2012. –312 с.
9. Елисеев, С.А. Профессиография практикующего психолога в спортивной деятельности / С.А. Елисеев, Н.В. Журин // Ученые записки университета им П.Ф.Лесгафта – 2016. - №10 (140) – С.242 - 246.

Meyliyeva Marjona Akram qizi
Xalqaro innovatsion universiteti,
Psixologiya yo‘nalishi magistranti

O‘SMIR O‘QUVCHILARDA MUVAFFAQIYATSIZLIKKA CHIDAMLILIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK JIHATLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smir o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirish masalasi yoritilgan. O‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka bardoshlilikning psixologik omillari, bu jarayonga ta’sir etuvchi shaxsiy va ijtimoiy jihatlar, shuningdek, ularni rivojlantirishning samarali yo‘llari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda o‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlar, hissiy barqarorlik, motivatsiya, o‘zini baholash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘rni tahlil qilinadi. Maqola yakunida muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirish bo‘yicha xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik, muvaffaqiyatsizlik, chidamlilik, motivatsiya, psixologik omillar.*

THE PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF RESILIENCE TO FAILURE IN ADOLESCENT STUDENTS

Abstract. *This article explores the issue of developing resilience to failure among adolescent students. The psychological factors influencing resilience, including personal and social aspects, as well as effective methods of fostering such resilience, are analyzed based on a review of scientific literature. The research examines psychological changes during adolescence, emotional stability, motivation, self-assessment, and the role of social support. The paper concludes with recommendations for enhancing resilience to failure in adolescents.*

Key words: *adolescence, failure, resilience, motivation, psychological factors.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ К НЕУДАЧАМ У ПОДРОСТКОВ-УЧАЩИХСЯ.

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема формирования устойчивости к неудачам у подростков. Анализируются психологические факторы, влияющие на развитие устойчивости, включая личностные и социальные аспекты, а также эффективные пути их формирования. В исследовании освещаются психологические изменения в подростковом возрасте, эмоциональная устойчивость, мотивация, самооценка и роль социальной поддержки. В заключении даны выводы и практические рекомендации по развитию устойчивости к неудачам у подростков.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, неудача, устойчивость, мотивация, психологические факторы.*

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, qarama-qarshiliklarga boy va muhim bosqichlardan biri sifatida ko‘plab psixologlar, pedagoglar va sotsiologlar tomonidan o‘rganilgan. Bu davrda bola endi shunchaki bola emas, u asta-sekin kattalar dunyosiga qadam qo‘yib, o‘z shaxsini anglash jarayonini boshlaydi. Aynan o‘smirlik davrida insonning ichki dunyosida kuchli hissiy o‘zgarishlar yuz beradi, shaxsiy qarashlar, qadriyatlar, hayotiy maqsadlar shakllana boshlaydi. Shu bilan birga, bu bosqich o‘quvchilarning ko‘plab muvaffaqiyatsizliklar, xatolar, qiyinchiliklar bilan to‘qnash kelishi mumkin bo‘lgan davrdir. Muvaffaqiyatsizlikka qanday munosabatda bo‘lishi, uni qanday yengib o‘tishi esa ularning kelajakdagi hayotida muvaffaqiyatga erishishi yoki o‘zini ojiz his etib qolishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirishda ijtimoiy muhitning o‘rni beqiyosdir. Ota-ona tomonidan beriladigan mehr, qo‘llab-quvvatlash, ishonch, tushunish o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Aksincha, doimiy tanqid, kamsitish, qo‘rqitish o‘smirni ruhiy zaiflashtiradi, uni

muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqadigan qilib qo‘yadi. Maktab muhitida ham shunday: o‘qituvchilar tomonidan berilgan rag‘bat, o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishni o‘rgatish – bularning barchasi o‘smirda bardoshlilikni shakllantiradi.

Bugungi globallashuv davrida o‘quvchilarning muvaffaqiyatsizlikka chidamliligini shakllantirish masalasi yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Axborot oqimining kuchayishi, raqobatning ortishi, jamiyatdagi tezkor o‘zgarishlar yoshlarning ruhiy dunyosiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet orqali berilayotgan axborot, ijtimoiy tarmoqlardagi solishtirishlar, ideal obrazlar ko‘plab o‘smirlarni psixologik bosim ostida qoldirmoqda. Bu esa ularning muvaffaqiyatsizliklarga munosabatini yanada keskinlashtiradi. Shu sababli bugungi kunda o‘smirlarni ruhiy barqarorlikka o‘rgatish, ularning ichki salohiyatini to‘liq ochish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘smir o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirish masalasi psixologiya fanida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan mavzulardan biridir. Mazkur masala nafaqat zamonaviy psixologlar, balki ilgari yashagan mutafakkirlar va pedagoglarning qarashlarida ham o‘z aksini topgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, turli davrlarda turli olimlar chidamlilik tushunchasini turlicha izohlagan bo‘lsalar-da, ularning barchasida umumiy jihat sifatida insonning qiyinchiliklarga bardosh berishi, muvaffaqiyatsizliklarni yengib o‘tishi, psixologik barqarorlikni saqlab qolishi ta’kidlanadi.

Masalan, klassik psixologiya maktabi vakillaridan biri bo‘lgan Uilyam Jeyms inson xatti-harakatlarini ichki motivlar va tashqi omillar uyg‘unligida izohlagan. Uning fikricha, odamning muvaffaqiyatsizlikka munosabati uning irodaviy sifatlariga bog‘liq. Keyinchalik Zigmund Freyd insonning ichki instinkt va ehtiyojlarini tahlil qilib, muvaffaqiyatsizlikning ildizlarini ongsizlikda izlash kerakligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, insonning bolalik davridagi tajribasi va ruhiy jarohatlari kelajakda muvaffaqiyatsizlikka munosabatini belgilab beradi.

XX asr psixologiyasida chidamlilik tushunchasiga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni tushuntirishda muhim nazariyalardan biridir. U o‘zining “o‘ziga ishonch” (self-efficacy) tushunchasini ilgari surib, insonning muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka qanday munosabat bildirishini uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi belgilashini ta’kidladi. Agar o‘quvchi o‘zini qodir deb hisoblasa, muvaffaqiyatsizlikni vaqtinchalik hodisa sifatida qabul qiladi va uni yengish uchun harakat qiladi. Aksincha, past o‘ziga ishonch muvaffaqiyatsizlikni doimiy va hal qiluvchi omil sifatida qabul qilishga olib keladi.

R. Lazarus va S. Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stress va kurashish nazariyasi ham bu masalaga katta hissa qo‘shdi. Ularning fikricha, muvaffaqiyatsizlik aslida shaxs tomonidan qanday talqin qilinishiga bog‘liq. Bir xil vaziyatni kimdir sinov sifatida qabul qilsa, boshqasi uni fojia sifatida ko‘rishi mumkin. Demak, chidamlilik shaxsning kognitiv baholash jarayonlari, ya’ni vaziyatga bergan sub’ektiv bahosi bilan bevosita bog‘liq.

Resilience, ya’ni chidamlilik tushunchasi G‘arb psixologiyasida alohida ilmiy yo‘nalishga aylandi. Masalan, A. Masten o‘z tadqiqotlarida chidamlilikni “oddiy mo‘’jiza” deb atab, insonning qiyinchiliklardan keyin qayta tiklana olish qobiliyatini asosiy sifat sifatida ta’kidladi. Unga ko‘ra, bolalik va o‘smirlik davrida chidamlilikni shakllantirish shaxsning butun hayoti davomida muvaffaqiyatga erishishida asosiy kafolatdir.

O‘zbekistonlik psixologlar olib borgan tadqiqotlarda ham o‘quvchilarning muvaffaqiyatsizlikka chidamliligini shakllantirish uchun pedagogik muhitning ahamiyati ta’kidlangan. Jumladan, maktab psixologlari va o‘qituvchilar o‘quvchilarni faqat natijaga emas, balki jarayonga yo‘naltirishlari zarurligi ko‘rsatiladi. Bu orqali o‘quvchi muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqmaydi, balki uni tajriba sifatida qabul qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning kichik yutuqlari ham rag‘batlantirilishi, ularga “sen qila olasan” degan ishonch berilishi zarurligi ta’kidlanadi.

Xorijiy adabiyotlarda ham ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning roli alohida qayd etiladi. Masalan, Garmezy, Rutter va boshqa olimlar bolalar va o‘smirlarning qiyinchiliklardan chiqib ketishida ijtimoiy tarmoq, ya’ni ota-ona, do‘stlar, o‘qituvchilarning yordami hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashgan. Bu nazariyalar O‘zbekistondagi amaliy psixologiya uchun ham muhimdir, chunki bizning jamiyatimizda oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning kuchli ekanligi chidamlilikni shakllantirishda qulay omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarni tahlil qilishdan ko‘rinadiki, o‘smir o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirish murakkab, ko‘p qirrali va kompleks jarayon bo‘lib, u psixologik nazariyalar, pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash omillari bilan chambarchas bog‘liq. Har bir nazariya bu jarayonning alohida jihatini yoritadi, biroq ularning barchasi umumiy maqsad - o‘smirlarni hayotdagi qiyinchiliklarga tayyorlash, ruhiy barqaror va irodali shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

O‘smir o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirish masalasini ilmiy qarashlar asosida tahlil qilar ekanmiz, avvalo o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini inobatga olish lozim. Bu davrda shaxsning hissiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishi jadal sur’atda kechadi. O‘smirlik - bu bolalik va yoshlik oralig‘idagi oraliq davr bo‘lib, unda insonning shaxsiy pozitsiyasi shakllanadi, mustaqil qaror qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoji kuchayadi, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o‘smirlarning muvaffaqiyatsizliklarga qanday munosabat bildirishlari, ularni yengib o‘tish qobiliyatlari bevosita ularning psixologik yetuklik darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Psixologik adabiyotlarda muvaffaqiyatsizlikka chidamlilik tushunchasi ko‘pincha stressga bardoshlilik, psixologik moslashuvchanlik va irodaviy barqarorlik bilan bir qatorda ishlatiladi. Ba’zi olimlar chidamlilikni insonning ijtimoiy omillar yordamida qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyati sifatida ta’riflagan bo‘lsalar, boshqalar uni shaxsning ichki resurslariga tayanish, o‘zini ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, hissiy muvozanatni saqlab qolish sifatida talqin qiladilar. Bu qarashlardan kelib chiqadiki, o‘smirlik davrida chidamlilikni shakllantirish uchun ham tashqi, ham ichki omillarni uyg‘unlashtirish zarur.

Muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikning asosiy tarkibiy qismlari sifatida motivatsiya, o‘zini baholash, hissiy barqarorlik, irodaviy sifatlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatiladi. Motivatsiya inson faoliyatining boshqaruvchisi sifatida chidamlilikni shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Agar o‘quvchi maqsadga intilish hissini chuqur his etsa, u muvaffaqiyatsizlikni vaqtinchalik to‘siq sifatida ko‘radi. Bu esa uni yangi yo‘llarni izlashga, xatolardan xulosa chiqarishga undaydi. Aksincha, motivatsiyasi past bo‘lgan o‘smir muvaffaqiyatsizlikni o‘z qobiliyatsizligi deb qabul qiladi va o‘z faoliyatidan tezda voz kechadi.

O‘zini baholash ham chidamlilikni shakllantirishda muhim psixologik omildir. O‘z kuch va imkoniyatlarini adekvat baholay olgan o‘quvchi muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqmaydi, balki ularni o‘zini sinash imkoniyati sifatida ko‘radi. Ammo o‘zini past baholash holati o‘smirda o‘ziga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, natijada u har qanday muvaffaqiyatsizlikdan keyin o‘zini ojiz, natijasiz deb biladi. Bu esa uning keyingi faoliyatida ham muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqishga olib keladi.

Hissiy barqarorlikning chidamlilikdagi o‘rni ham alohida e’tiborga loyiqdir. O‘smirlik davrida hissiyotlar juda tez o‘zgaradi, kayfiyat beqarorligi kuzatiladi, bu esa muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan keskin reaksiyalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Hissiy jihatdan barqaror o‘quvchilar muvaffaqiyatsizlikni nisbatan xotirjam qabul qiladi, unda depressiv kayfiyat kamroq kuzatiladi. Shu bois o‘smirlarni hissiy o‘zini nazorat qilish, stressni boshqarish, konstruktiv fikrlash kabi ko‘nikmalarga o‘rgatish chidamlilikni shakllantirishning muhim yo‘nalishidir.

Irodaviy sifatlar ham o‘smirlik davrida alohida ahamiyatga ega. Sabrlilik, qat’iyat, o‘zini boshqarish, mas’uliyat kabi irodaviy xususiyatlar muvaffaqiyatsizliklarni yengishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘smirda irodaviy sifatlar yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, u muvaffaqiyatsizliklardan keyin tezda ruhiy tushkunlikka tushadi va o‘z faoliyatini davom ettirishni istamaydi. Shuning uchun tarbiya jarayonida o‘quvchilarda irodaviy sifatlarni mustahkamlash, ularga maqsad sari qat’iyat bilan intilish odatini singdirish zarurdir.

Ilmiy qarashlarda shuningdek chidamlilikni rivojlantirishning amaliy usullari ham ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, kognitiv-behavioral terapiya usullarida o‘quvchilarga muvaffaqiyatsizliklarni qayta talqin qilish, ularni ijobiy tajriba sifatida ko‘rish o‘rgatiladi. Trening mashg‘ulotlari orqali o‘smirlarda stressni boshqarish, konfliktlarni hal etish, o‘z fikrini to‘g‘ri ifoda etish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Sport, ijodiy faoliyat, jamoaviy o‘yinlar ham chidamlilikni oshiruvchi samarali vositalardan hisoblanadi, chunki ular o‘smirlarni raqobat, yutqazish va yutish jarayonlariga o‘rgatadi.

O‘smir o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirish masalasi bugungi ta’lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki o‘smirlik davri inson hayotida keskin o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu paytda shaxsning o‘zini anglash jarayoni, mustaqillikka intilishi, hissiy barqarorligi va ijtimoiy aloqalari shakllanadi. Shu sababli har qanday muvaffaqiyatsizlik unga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar bu davrda o‘quvchi muvaffaqiyatsizlikni to‘g‘ri qabul qilish, undan saboq chiqarish va o‘zini rivojlantirish yo‘llarini o‘rgansa, keyingi hayotida ham irodali, barqaror va maqsad sari qat’iyat bilan intiluvchi inson sifatida shakllanadi. Bular orasida motivatsiyaning yuqori bo‘lishi, o‘zini adekvat baholash, hissiy barqarorlik, irodaviy sifatlarning rivojlanganligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash asosiy o‘rin tutadi. Agar o‘quvchi o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘ya olsa, u muvaffaqiyatsizlikni vaqtinchalik to‘siq sifatida qabul qiladi. O‘zini hurmat qiladigan, o‘z kuchiga ishonadigan o‘smir xatolardan qo‘rqmaydi, ularni o‘z rivojlanish yo‘lida tajriba sifatida ko‘radi. Shu bilan birga, hissiy jihatdan barqaror bo‘lish ham muvaffaqiyatsizlikni to‘g‘ri qabul qilish uchun zarurdir. Muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirish jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, unda ota-ona, o‘qituvchi, tengdoshlar va psixologning o‘rni beqiyosdir. Ota-onalar o‘z farzandlarini har qanday vaziyatda qo‘llab-quvvatlashlari, ularning kichik yutuqlarini qadrlashlari va xatolarini to‘g‘ri tushuntirishlari lozim. O‘qituvchilar esa o‘quvchilarda o‘z kuchiga ishonch uyg‘otishlari, muvaffaqiyatsizlikni jazoga emas, balki yangi imkoniyatga aylantirishlari kerak. Psixologlar esa maxsus trening mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda stressni boshqarish, o‘z hissiyotlarini nazorat qilish, konstruktiv fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Tavsiyalar sifatida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin. Birinchidan, o‘quvchilarni muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqmaslikka o‘rgatish zarur. Buning uchun ularda xatolarni to‘g‘ri talqin qilish, ularni tajriba sifatida ko‘rish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Ikkinchidan, o‘quvchilarda o‘zini adekvat baholashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerak. O‘zini past baholaydigan o‘smir muvaffaqiyatsizlikni kuchli ruhiy zarba sifatida qabul qiladi, shuning uchun tarbiyaviy jarayonda ijobiy fikr va rag‘batlantirish usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, o‘quvchilarda hissiy barqarorlikni oshirish uchun psixologik mashqlar, meditatsiya, relaksatsiya usullari, sport va ijodiy faoliyat turlaridan foydalanish samarali natija beradi. To‘rtinchidan, irodaviy sifatlarni mustahkamlash orqali o‘quvchilarga maqsad sari intilish, sabr va qat’iyatni o‘rgatish lozim. Beshinchidan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish, ya’ni ota-onalar, o‘qituvchilar va tengdoshlar tomonidan o‘smirlarni ruhiy jihatdan dalda berish juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘smir o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka chidamlilikni shakllantirish ko‘plab psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarni o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish orqali o‘quvchilarning nafaqat ta’limdagi, balki hayotdagi muvaffaqiyatsizliklarga ham bardoshli bo‘lishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abduqodirov, A. (2010). *Psixologiya*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
2. Karimova, V. M. (2005). *Psixologiya: Umumiy kurs*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Vygotskiy, L. S. (1996). *Psixologiya razvitiya rebenka*. Moskva: Smysl.
4. Erikson, E. H. (1993). *Identichnost’: yunost’ i krizis*. Moskva: Progress.
5. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, appraisal, and coping*. New York: Springer Publishing Company.
6. Masten, A. S. (2001). “Ordinary magic: Resilience processes in development.” *American Psychologist,* 56(3), 227–238.
7. Garmezy, N. (1991). “Resiliency and vulnerability to adverse developmental outcomes associated with poverty.” *American Behavioral Scientist,* 34(4), 416–430.

Sirliyev Erkin Nazarovich
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
E-mail: sirlieverkin@gmail.com

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK YONDASHUVLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish muammosi yuzasidan xorij va sobiq ittifoq psixologlari tomonidan olib borilgan va borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari hamda shaxsga xos ijobiy sifatlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy-nazariy yondoshuvlarini psixololgik tahlil qilish uchun zamin yaratadi.*

Tayanch iboralar: *psixologiya, vatan, vatanparvarlik, sadoqatlilik, mardlik, individuallik, shaxsiy sifatlar, biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalistik, bixevioristik.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ЧУВСТВА ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЁЖИ

Аннотация. *Данная статья создает основу для психологического анализа научно-исследовательских работ, проведенных и проводимых зарубежными и психологами Советским переода по проблеме формирования чувства военного патриотизма у молодежи, а также практико-теоретических подходов, направленных на совершенствование положительных личностных качеств.*

Ключевые слова: *психология, Родина, патириотизм, преданность, храбрость, индивидуальный, личные качество, биогенетика, социогенетика, психогенетика, когнитивизм, психоанализ, бихевиоризм.*

MODERN PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF MILITARY PATRIOTISM IN YOUTH

Abstract. *This article analyzes modern psychological approaches to the development of military patriotism among youth. In particular, it explores the theoretical and practical perspectives of foreign and former Soviet psychologists regarding personality development, focusing on the interrelation of individual psychological traits, social factors, and educational processes in fostering a patriotic mindset. The study also examines the effectiveness of biogenetic, sociogenetic, and psychogenetic approaches, along with cognitive, psychoanalytic, and behaviorist theories in strengthening patriotic feelings. These approaches play a crucial role in shaping individuals who are psychologically prepared for military service, loyal to their nation, and resilient in character.*

Key words: *psychology, homeland, patriotism, loyalty, bravery, individuality, personal traits, biogenetic, sociogenetic, psychogenetic, cognitive, psychoanalytic, behaviorist.*

Kirish. Agar inson hayot faoliyatiga nazar tashlasak, u rivojlanish yo‘lidagi taraqqiyoti bilan hayotning yangi chegaralarini doimiy ravishda yengib, yaxshiroq natijalarga erishishi bilan o‘zining shaxs sifatida takomillashib borishini ta’minlaydi. Insonning shaxs sifatida takomillashuvi uning shaxsiy sifatlarining har tomonlama rivojlanganligi jumladan, vatanparvarligi bilan bog‘liq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoshlrada harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda shaxsga xos bo‘lgan qaysi ijobiy fazilatlar ijobiy ta’sir etishi mumkin? Qaysi shaxsiy sifatlar salbiy ta’sir etadi? Ushbu shaxsga xos sifatlar nazariyasi talqini va tahlili qanday? Shu o‘rinda psixologiya fanining asoschisi Arastuning quyidagi aforizmi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganday go‘yo: “Agar tuyg‘ular pokiza bo‘lsayu, ularga hukm o‘tkazayotgan aql yo‘ldan ozdiruvchi bo‘lsa, fazilatga o‘rin qolmaydi. Chunki fazilat yaxshilikka boshlovchi aql bilan pokiza tuyg‘ular dan kelib chiqadi. Shuning uchun agar insonda fazilat bo‘lsa, uni yovuz niyatda ishlatish sira mumkin emas” [1; 2-b].

O‘zbekiston yoshlarida harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari masalasi yuzasidan muammolar yechimiga ilmiy psixologik nuqtai nazardan yondashsak, inson har qanday xatti-harakatni amalga oshirish jarayonida uning shaxsiy fazilati jumladan, vatanparvarlik sifati shaxs sifatida shakllanib, insonning davlat va millat oldidagi burchini sadoqat bilan bajarishiga va millatparvar komil inson bo‘lib tarkib topiga sabab bo‘ladi. Xo‘sh, unda shaxsiy sifatlar tarkibida o‘ziga xosligi bilan alohidalikka ega bo‘lgan vatanparvarlik tuyg‘usi nima? Bu savolga ilmiy va asosli javob topish uchun jahon psixologiya fanida shaxsning tarkib topishi, o‘z-o‘zini angashi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi, o‘z-o‘zini tarbiyalashi, milliy qadriyatlariga sodiqligi, shaxs taraqqiyotida biogenetik, sotsiogenetik hamda biosotsiogenetik ta’sirlarning o‘ziga xosligi, turli psixologik maktablarda shaxs borasidagi nazariyalar va eng aososiysi vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning ijtimoy-psixologik muammolari qanday tadqiq etilganligini tizimli o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shaxsning tarkib topishi va uning shaxsiy sifatlari jumladan, vatanparvarlik sifati rivojlanishiga doir nazariyalarni o‘rganar ekanmiz, bu tushunchaning aniq mazmuniy-mohiyatini yoritish zarurati yuzaga keladi.

Bugungi kunda xorij hamda sobiq ittifoq psixologiyasida shaxs to‘g‘risida va uning yakkaholligini o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqot va nazariyalar mavjud bo‘lib, biz tamonimizdan o‘rganilayotgan ilmiy tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Shaxsning o‘ziga xos tarzda tarkib topishi va taraqqiyoti, shaxsga xos fazilatlarning shakllanishi to‘g‘risida AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Shvesariya va boshqa rivojlangan davlatlar psixolog olimlarining nazariyalari mavjud. Jumladan, K.Rodjers [2; 18-b], A.Maslou [3; 74-b], G.Olport [4; 10-b], K.Xorni [5; 10-b], Z.Freyd [6; 184-b], E.From [7; 446-b], R.Kettel [8; 229-b], Yu.Ayzenk [8; 210-b] kabi bir qator nomdor psixolog olimlar tamonidan ushbu dolzarblikning echimi sifatida ilmiy nazariyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalistik va bixevioristik kabilarni kiritish mumkin. Quyida sanab o‘tilgan nazariyalar va ularning ayrim namoyondalari tomonidan shaxsni rivojlantirishning prinsiplari to‘g‘risidagi qarashlariga to‘xtalib o‘tamiz [9; 128-132-b].

Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkellar kashf qilgan bo‘lib, unga ko‘ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g‘oya yotadi [10; 446-b]. Ushbu nazariyani tanlangan mavzu yuzasidan tahlil qiladigan bo‘lsak, shaxsga xos bo‘lgan vatanparvarlik tuyg‘usi ajdodlarosha bizgacha yetib kelayotgan irsiyat bilan bog‘liqligi keltirib o‘tilgan. Darhaqiqat bugungi zamonaviy psixologiya ota-onadan genlar orqali fiziologik balki, psixologik o‘ziga xoslik ham o‘tishini isbotlamoqda.

Bundan tashqari shaxs rivojlanishining biogenetik nazariyasi nomoyondalridan Germaniyalik olim V.Shternning fikricha, shaxs faqatgina yetuklik davrdagina u hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi va shaxs sifatida tarkib topadi [11; 5-7-b], Amerikalik psixolog S.Xoll psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb “rekapitulyatsiya qonuni”ni hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenezda qisqacha takrorlanadi, E.Krechmer “konstitutsion psixologiyasi” nazariyasida shaxs tipologiyasi negiziga bir qancha biologik omillarni kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o‘sishining xususiyati o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud, deb taxmin qiladi [12; 187-b], A.Gezell va S.Xoll taraqqiyotning biologik modeliga chamalab ish ko‘radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o‘zaro o‘rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar [13; 672-b], E.Torndayk va B.Skinnerlar “Individual tajriba va bilimlarni egallash nazariyasi” g‘oyalarini ilgari surdi. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko‘pincha ko‘nikmalarni egallash va bilimlarni o‘zlashtirishning samarasi qo‘zg‘atuvchini uzliksiz ravishda mustahkamlanib borishning mahsuli ekanligini ta’kidlaydi [14; 483-b]. Ushbu nazariyalarning tahlili shaxsga xos bo‘lgan vatanparvarlik tuyg‘usi insonning tug‘ma biologik genafoniga bog‘liqligini to‘g‘risidagi fikr-mulohazalarni ilgari surishga zamin yaratdi. Darhaqiqat bugungi kunda ushbu nazariyalar ham o‘z tasdig‘ini topayotganday go‘yo.

Bundan tashqari xorij psixologlari E.Erikson, E.Shpranger, K.Byuler, A.Maslou, J.Piaje, Dj. Kelli, A.Adler, E.Fromm, G.Olpart, K.G.Yung, R.Zazzo va V.Shtrenlar har bir yosh davrining o‘ziga

xos psixologik xususiyatlarining rivojlanishi va takomilashuvi to‘g‘risida o‘zinig ilmiy fikrlarini keltirib o‘tgan. Shunday qilib, biz chet el psixologiyasida shaxs rivojlanishining yo‘nalishlari va nazariyalarini qisqacha sharhlab o‘tdik. Qilingan tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Yevropa mamlakatlari va AQSH psixologlari orasida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish borasida bitta umumiy nazariya hali ishlab chiqilmagan. Buning bosh sababi shaxsning tuzilishi, shakllanish qonuniyatlari, uning kamolotida ob’ektiv va sub’ektiv ta’sirlarning roli, mikro va makro muhitning ta’siri, rivojlanishning tayanch manbalari bo‘yicha umumiylikning yo‘qligi, aniq metodologiyaga va ilmiy platformaga asoslanmaganligidir.

Sobiq ittifoq psixologiyasida shaxsning rivojlanishi muammosi L.S.Vigotskiy [15; 60-b], P.P.Blonskiy [16; 121-b], S.L.Rubinshteyn [17; 155-b], A.N.Leontev [18; 77-b], B.G.Ananev [19; 170-b], L.I.Bojovich [20; 85-b], V.A.Kruteskiy [21; 155-b], A.V.Petrovskiy [22; 186-b] singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Jumladan, rivojlanishdagi inqirozga binoan (L.S.Vigotskiy), motivatsion yondoshish (L.I.Bojovich), faoliyatga ko‘ra munosabat (D.B.Elkonin), shaxsning ijtimoiylashuvi xususiyatiga e’tiboran (A.V.Petrovskiy), shaxsni tutgan pozitsiyasini hisobga olib (D.I.Feldshteyn) o‘z qarashlarini keltirib o‘tgan.

Ijtimoiy fanlarda vatanparvarlik tushunchasi ilk bor 1906 yilda sotsial-darvinizmning atoqli namoyandasi V.Sumner tomonidan taklif qilingan etnosentrizm tushunchasiga qaytadi [23; 9-b]. Bu konsepsiya sotsial darvinizmning metodologik tamoyiliga – insoniyat jamiyatidagi odamlar va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarning mohiyatini belgilab beruvchi (“Kuchli g‘alaba”) borliq uchun murosasiz kurash tamoyiliga asoslanadi. O‘ziga xos mazmun jihatidan etnosentrizm guruh vakillarining yig‘indisidir. Zamonaviy dunyoda guruhlarning etnogenez jarayoni, shakllanishi milliy shakllanishlar boshqacha tus oldi. Etniklik deb atalgan sifat esa yangi – siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy xususiyatlarga ega bo‘la boshladi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy ijtimoiy-tarixiy amaliyot tajribasiga ko‘ra, etnosentrik tendensiyalar nafaqat an’anaviy ma’nodagi etnik guruhlarga (qabila, millat, etnik guruh), balki ancha kengroq doiradagi jamoalarga (jumladan, davlat tuzilmalariga) xosdir.

Xorijda ham bir qator faylasuflar, siyosatshunoslar, sotsiologlar, pedagoglar va boshqa soha vakillari tomonidan yoshlarni vatanpavarlik ruhida tarbiyalash masalasiga e’tibor qaratgan bo‘lsada, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirish uchun psixologiya sohasining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Masalan, zamonaviy rus adabiyotida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning psixologik jabhalariga A.B.Potemkin [24; 163-b], S.V.Meshcheryakova [25; 190-b], G.V.Zderevoy [26; 316-b], I.F.Xarlamov [27; 114-b], I.M.Duranov [28; 56-b], A.N.Malinkin [29; 107-120-b], A.G.Gorelsev [30; 116-b] va boshqalarning asarlari va ilmiy tadqiqot ishlarida alohida to‘xtalgan.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uchun rus psixologiyasining ko‘zga ko‘ringan psixolog olimlari tomonidan yaratilgan konsepsiyalar, tamoyillar va asarlar metodologik manba vazifasini o‘taydi: psixikaning determinizmi (C.L.Rubenshteyn, A.N.Leontiev), psixikani tizimli o‘rganish (P.K.Anoxin, B.F.Lomov), ontogenezda psixikaning rivojlanishi (L.S.Viygoskiy, A.N.Leontev), ong va faoliyat birligi (C.L.Rubenshteyn, A.N.Leontev, L.I.Bojovich, P.Ya.Galperin), shuningdek, zamonaviy ijtimoiy psixologiya tamoyillariga tayangan holda individual va ijtimoiy korrelyatsiya prinsipi (B.F.Lomov, K.A.Abulxanova-Slavskaya) hamda shaxslararo munosabatlar tushunchasining asosiy qoidalari (V.N.Myasishchev, A.B.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy) yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Bundan tashqari ko‘pgina psixolog olimlar tamonidan o‘rganilgan tadqiqotlarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin: S.M.Naumenkov o‘z tadqiqot ishida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning shaxsiy vatanparvarlik muammosiga qarashlari fikr-mulohazalarini umumlashtirib “Vatanparvarlik ongi” tushunchasining psixologik mazmuni yoritgan. Vatanparvarlik ongining tuzilishida vatanparvarlik shaxsiyatining rolini aniqlab, talaba yoshlarning vatanparvarlik ongining mazmunini o‘rgandi va tahlil qildi [31; 168-b]; N.V.Murashenkova ilmiy tadqiqot ishida ijtimoiy-psixologik yondashuv nuqtai-nazaridan vatanparvarlik yoshlarda ekstremizmining oldini olish omili sifatida namoyon bo‘ladi deya ta’kidlagan [32; 9-b].

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bir qator fanlar jumladan, falsafa, sotsiologiya, psixologiya hamda pedagogika fanlarida tadqiqot ob’ekti sifatida taqiq etilgan bo‘lib, ularni quyida tahlil qilinayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

V.I.Zagvyazinskiy, E.I.Ivanova, K.B.Komarov va T.I.Shamovalar pedagogika fani va harbiy universitet kursantlari o‘rtasida vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda an’analar va innovatsiyalarni birlashtirish manbasini tadqiq qilish amaliyoti uchun dolzarb masalalarni tadqiq etgan; A.S.Makarenko, I.S.Marenko, V.A.Suxomlinskiy, M.A.Terentiya va boshqalarning asarlari yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasida an’analar va innovatsiyalarning mohiyatini tushunish uchun muhim manba hisoblanadi; A.K.Bikov, S.N.Klimov, V.I.Lutovinov hamda G.N.Filonov tomonidan zamonaviy pedagogika fanida yangi ijtimoiy-madaniy voqeliklar sharoitida vatanparvarlik tarbiyasiga innovatsion yondashuvlarni o‘ziga xos tarzda ishlab chiqgan va tizimlashtirgan; A.V.Belyaev, G.X.Axmetshina, S.V.Kostilev, A.G.Chernyak va boshqalar vatanparvarlikni shaxs sifatida shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari, mazmuni va usullari hamda shaxsning ijobiy sifatlarini takomillashtirish orqali rivojlantirishni ilmiy asoslangan; D.M.Nujdin, O.A.Ovchinnikov, R.V.Starkov, S.N.Filipchenko, I.P.Finskiy va I.V.Chepurinalar harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik tarbiyasi sifatini oshirish uchun ularga belgilangan tartibda o‘z tarixiy meros va qadiriyatlarini pedagogik jihatdan bilim, ko‘nikma, malaka sifatida singdirish orqali rivojlantirishni dalillagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot metadologiyasini yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda, xorij va sobiq ittifoq psixolog olimlari tomonidan shaxs rivojlanishiga qaratilgan nazariya va qarashlar hamda ilmiy tadqiqot ishlaridagi tizimli ilmiy yondashuvlar tahlili tashkil etadi. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish muammosini nazariy tahlil qilish davomida biz quyidagi ilmiy yo‘nalishlardan foydalandik: maqsadlarni amalga oshirish uchun ma’lumotlarni tanlash; yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish borasidagi xorij va sobiq ittifoq psixolog olimlarimiz tomonidan ilgari surilgan nazariyalarni qiyosiy tahlil qilish; ijtimoiy-psixologiyada tizimli yondashuv.

Takliflar (Recommendations). Bizningcha yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va takomillashtirish quyidagi psixologik **tavsiyalar** orqali amalga oshirilishi mumkin:

✓ Mamlakatimiz miqiyosida yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirishga qaratilgan Davlat dasturlari, Farmonlar, Qonunlar, Qaror va Farmoyishlar ijrosini ta’minlash;

✓ Xorij psixolog olimlari tomonidan shaxs rivojlanishi yuzasidan ishlab chiqilgan nazariya, fikr va mulohazalarni mentalitetimizga moslashtirib milliy psixologik mexanizm tizimlashtirish;

✓ Xorij va MDH davlatlari psixolog olimlari tomonidan ushbu dolzarb masala yuzasidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari hamda ilmiy xulosalarni psixologik amaliyotda qo‘llash;

✓ Zamonaviy psixologiya yutuqlaridan foydalangan holda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda drayver vazifasini o‘taydigan ijobiy shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturlar hamda salbiy sifatlarni me’yorlashtirishga qaratilgan psixokorreksiya dasturlarini ishlab chiqish va tizimlashtirish.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash joyizki, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish muammosi barcha sohalar singari psixologiya soha vakillari oldiga ham dolzarb masalalarni qo‘yadi. Yuqorida xorij va MDH davlatlari psixolog olimlari bilan bir qatorda faylasuflar, siyosatshunoslar va pedagoglar tamonidan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish mavzusidagi bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarini ko‘rib chiqdik. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishlari har bir davlat fuqorolarining kelib chiqish tarixi, milliy urf-odatlari, milliy ongi, milliy qadiriyatlari hamda etnopsixologik xususiyatlari asosida yoritilgan. Ushbu mavzu asosan Rossiya federatsiyasi psixologlari tamonidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Juda ko‘pchilik olimlar ushbu mavzuning pedagogik va falsafiy tomonlariga etibor qaratgan bo‘lib, psixologik tomonlari juda ozchilik olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar Zohir A’lam va Urfon Otajon. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015 yil. - 352 6.-2b.

2. Byundyugova T.V. Psixologiya lichnostnogo i profesionalnogo rosta. Uchebno-metodicheskoe posobie. – Taganrog: RGSU. Izd-l A.N.Stupen, 2012. – 81s. 16s-18s.

3. Abraham H. Maslow. Motivation and Personality (2nd ed.) N.Y.: Harper & Row, 1970; SPb.: Evraziya, 1999.- 346s, 25s-74s.

4. Олпорт Г.В. Личност в психологии. – “КСП+”, - М.: СПБ (При участии психологического центра “Ленато”, СПБ) 1998.- 345с.- 5с-10с.

5. Хорни К. Самоанализ. – СПб.: Питер, - 2019. – 224с – 10с-24с.

6. Хрестоматия по истории психологии. Под ред. Галперина П.Я., Ждан А.Н. М.: Изд-во МГУ, 1980. С. 184-188.

7. Фромм Э. Гуманистический психоанализ. СПб., 2002. - 544 с.; 5. Фромм Э. Душа человека. -М., 1998. 446 с.

8. Хелл Л., Зиглер Д. Теории личности. Основные положения, исследов

446 ания и применение.- М.: 1992. – 419с. – 187с-229с.

9. Немов Р.С. Общая психология. Том ИИИ. Книга 2.Свойства личности. Учебник и практикум для СПО. – М.:-2019.-395с.-128-132с.

10. Мюллер Ф., Геккеллар Э. Основной биагенетический закон. – М.:-1940.-с. ҳттп://падабум.сом/

11. Багадирова.С.К., Юрина А.А. Материалы к курсу «Психология личности». Учебний пособия.-М.:-2014.-164с.- 5с -7с.

12. Немов Р.С. Общая психология. Том И. Введения в психология СПО. – М.:-2019.-726с.-187с.

13. Холл Кэлвин., Линдсей Гарднер. Теории личности. Изд-во Института Психотерапии, 2008.-672с

14. Зеер Э.Ф. Психология профессионалного образования: Учебник для академического бакалавриата. – М.: 2019,-395с, 159-160с.

15. Ясницкий А.К. Истории культурно-исторической психологии: Выготский, Лурия, Коффка, Левин и др. // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека «Дубна». - 2012. - № 1. - С. 60-97.

16. Николская А.А. Значение П.П. Блонского в истории психологии // Вопросы психологии. -1985. № 1.-121с-125с.

17. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Издателство: Питер, -2002,- 720с. 684с-739с.

18. Леонтев А.Н. Деятелност. Сознание. Личност. М.:Политиздат, 1975, - 155с,- 77с-101с. ҳттпс://www.мархистс.орг/

19. Ананев Б.Г. О сиситеме возрастной психология // Вопросы психология.1957. № 5, 156с-170с.

20. Божович Л.И. Этапы формирования личности в онтогенезе // Личност и эе формирование в детском возрасте. СПб.: Питер, 2008. С. 321-356.

21. Крутецкий В. А. Психология: Учебник для учащихся пед. училищ.- М.: Просвещение, 1980.-352 с, 155с-165с. ҳттпс://бму.врн.музкулт.ру/.

22. Петровский, В.А. Психология неадаптивной активности / В.А. Петровский. – М.,1992. – С. 141 – 160,. ҳттпс://www.вак.гов.бй/

23. Кемпбелл Д.Т. Этносентризм: конфликт назариялари, этник муносабатлар ва гуруҳ хатти-ҳаракатлари, НЙ, 1972.

24. Потемкин А.Б. Национально-психологические особенности проявления патриотизма личности: дис. канд. психол. наук. - Толятти, 2009.

25. Мещерякова С.Б. Патриотизм как ценностно-смысловое образование в структуре личности российского предпринимателя: дис. канд. психол. наук. - Тамбов, 2008. 190с

Ruxiyeva Xolida Arifjanovna
O'zbekiston Milliy Universiteti psixologiya kafedrasi professori,
Soibjonov Jasurbek Botirjon o'gli
O'zbekiston Milliy universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

YANGI O'ZBEKISTONDA SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINING HOLATI

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekistonda yuridik psixologiya fani va ayniqsa sud-psixologik ekspertizasining ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Muallif bu sohaning shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari, amaliyotdagi dolzarb muammolar va yechimlar yo'llarini tahlil qiladi. Sud-psixologik ekspertizasi inson shaxsining ruhiy holati, xulq-atvori, kognitiv jarayonlari va individual xususiyatlarini ilmiy asosda baholash orqali jinoyatlarni ochish, odil sudlovni ta'minlash hamda jinoyatchilarni qayta tarbiyalashda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, yuridik psixologiya sohasida darslik va ilmiy manbalarning yetishmasligi, mutaxassis kadrlar tayyorgarligi darajasi pastligi, amaliyotda psixologik xizmatlardan foydalanish samaradorligi yetarli emasligi qayd etiladi. Muallif fikricha, Yangi O'zbekistonda huquqni muhofaza qilish tizimida sud-psixologik ekspertizasi faoliyatini ilmiy, amaliy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish jamiyatda odil sudlov va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *yuridik psixologiya, sud-psixologik ekspertizasi, psixologik xizmat, ekspert-psixolog, huquqni muhofaza qilish, kognitiv jarayonlar, shaxsning ruhiy holati, tergov amaliyoti, ilmiy-amaliy tahlil, Yangi O'zbekiston.*

СОСТОЯНИЕ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В статье раскрывается научно-теоретическое и практическое значение юридической психологии в Узбекистане, в особенности судебно-психологической экспертизы. Автор анализирует историю формирования этой области, этапы её развития, актуальные проблемы практики и пути их решения. Подчёркивается, что судебно-психологическая экспертиза играет важную роль в раскрытии преступлений, обеспечении справедливого правосудия и ресоциализации правонарушителей путём научной оценки психического состояния личности, её поведения, когнитивных процессов и индивидуальных особенностей. Вместе с тем отмечается нехватка учебной и научной литературы по юридической психологии, низкий уровень подготовки специалистов, а также недостаточная эффективность использования психологических услуг на практике. По мнению автора, совершенствование деятельности судебно-психологической экспертизы в научном, практическом и организационном аспектах в системе правоохранительных органов Нового Узбекистана является важным фактором развития справедливого правосудия и гражданского общества.*

Ключевые слова: *юридическая психология, судебно-психологическая экспертиза, психологическая служба, эксперт-психолог, правоохранительная деятельность, когнитивные процессы, психическое состояние личности, следственная практика, научно-практический анализ, Новый Узбекистан.*

THE STATE OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXPERTISE IN NEW UZBEKISTAN

Abstract. *The article highlights the scientific-theoretical and practical significance of legal psychology in Uzbekistan, with particular emphasis on forensic psychological expertise. The author analyzes the history of the field's formation, stages of its development, current practical challenges, and possible solutions. It is emphasized that forensic psychological expertise plays a crucial role in crime detection, ensuring fair justice, and the resocialization of offenders by scientifically assessing an individual's mental state, behavior, cognitive processes, and personal characteristics. At the same time, the shortage of textbooks and scientific sources in legal psychology, the insufficient level of specialist*

training, and the low effectiveness of psychological services in practice are noted. According to the author, improving the scientific, practical, and organizational aspects of forensic psychological expertise in the law enforcement system of New Uzbekistan is an important factor in the development of fair justice and civil society.

Key words: *legal psychology, forensic psychological expertise, psychological services, expert psychologist, law enforcement, cognitive processes, mental state of the individual, investigative practice, scientific-practical analysis, New Uzbekistan.*

Bugun butun dunyo miqyosida, shu jumladan Respublikamizda fan va texnika sohasida erishilayotgan ulkan yutuqlar barcha fanlar qatori psixologiya sohasining ham rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishgach, fan va ta'lim sohasida tub islohotlarning amalga oshirilishi psixologiya fani sohasida taraqqiyotni, ijobiy ma'nodagi keskin burilishlarni yuzaga keltirdi.

Ayniqsa, bugungi kunda biz «Psixologiya» atamasiga tez-tez duch kelmoqdamiz. Darhaqiqat, psixologiya fani jamiyatimiz rivojlanib borgan sari o'z ahamiyatiga ega bo'lib, insoniyat hayotida zarur bo'lgan muhim ilm sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun, psixologiya ilmi kirib bormagan fan va ishlab chiqarish sohasini deyarli uchratib bo'lmaydi.

Endilikda mamlakatimiz psixologlari zimmasiga xalqimizning milliy o'ziga xos psixologik xususiyatlarini tadqiq etish, milliy mafkura va milliy tafakkurni shakllantirishning psixologik asoslarini ishlab chiqish, yosh avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashning psixik va ma'naviy omillarini asoslash hamda targ'ib etish kabi ulkan vazifalar yuklatildi.

Shunday ekan, psixologiya mutaxassislarini tayyorlash rejasining tarkibiy qismiga talabalarning amaliy kasbiy ko'nikmalar bilan qurollantirish kiradi. Ayniqsa, bu borada mutaxassislarni ko'p profilli faoliyati tizimiga yo'naltirishda yuridik psixologiyaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan sohasining muhim funksiyalaridan biri - bo'lguvchi kasb egalari sud psixologik ekspertiza o'tkazishga va oqilona xulosa chiqarishga o'rgatish kasbiy shakllanishning zarur jabhasiga xizmat qiladi.

Shu bois, bu fan garchand inson va uning hayoti, butun faoliyati, shaxsi haqidagi ta'limot bo'lishiga qaramasdan, fan yutuqlarining ayrim sohalarga tatbiq etilishi biroz qiyinchilik bilan amalga oshmoqda. Shunday yo'nalishlardan biri huquqshunoslik amaliyoti sohasida sud-psixologik bilimlarni shakllantirishdir.

Nazarimizda turmushimizning ko'pgina jabhalarida, ayniqsa huquqshunoslik amaliyoti sohasida psixologik bilimlarni qo'llashda tajribasizligimiz, bilim, malaka, ko'nikma va kasbiy mahoratimizning yetishmasligi sezilib qolmoqda.

Biroq, huquqshunoslik psixologiyasi respublikamizda endigina rivojlanib kelayotgan sohalardan biri bo'lishiga qaramasdan, bu borada muayyan natijalar qo'lga kiritilmoqda. Biroq, shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayni davrgacha bu yo'nalishda yaratilgan o'quv qo'llanmalar, risolalar, uslubiy tavsiyanomalar asosan Yevropa va Rossiya olimlari tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Respublikamizda bu sohada chop etilgan ilmiy ishlar mustaqillikdan keyin jonlanib ketdi.

Yangi O'zbekistonda zamonaviy psixologiya mutaxassislarini tayyorlash rejasining tarkibiy qismiga talabalarning amaliy kasbiy ko'nikmalar bilan qurollantirish kiradi. Ayniqsa, bu borada mutaxassislarni ko'p profilli faoliyati tizimiga yo'naltirishda yuridik psixologiyaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan sohasining muhim funksiyalaridan biri - bo'lguvchi kasb egalari sud psixologik ekspertiza o'tkazishga va oqilona hamda odilona xulosa chiqarishga o'rgatish, kasbiy shakllanishning zarur jabhasiga xizmat qiladi.

Shuning uchun psixologlarni sud-psixologik ekspertizasiga o'rgatish yuridik psixologiyaning ijtimoiy hayotdagi rolini namoyish qilishga xizmat qiladi. Inson taqdirini hal qilishda ekspertizaning obyektivligi, haqqoniyligi, ilmiyligi, ishonchliligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohaga mutaxassislarni tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berish sud-psixologik ekspertiza faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlaydi:

a) ekspertizaning predmeti va vakolati;

b) ekspertiza oldiga qo'yiladigan masalalar;

v) ekspertiza o'tkazishning zaruriyligi va uni belgilash tartibi;

g) ekspertiza savollarini tuzishga qo‘yiladigan talablar.

Sud-psixologik ekspertizasini amalga oshirishda zarur psixologik asboblardan, testlardan, maxsus metodikalardan foydalanish zarur. Sud-psixologik ekspertizasidan olingan ma’lumotlarning natijalarini psixologik jihatdan tahlil qilish va statistik metodlar yordamida tekshirish psixoekspertizaning muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Shuningdek, bizga ma’lumki, sud ekspertizasi maxsus protsessual harakat bo‘lib, ekspert xulosasini olishga yo‘naltirilgan va qonun bilan qat’iy tartibga solingan jarayondir. Alohida holatlarda, tergov va sudda ishlarni ko‘rib chiqish jarayonida kelib chiqadigan ayrim masalalarni, muammolarni hal qilish uchun maxsus psixologik bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy mahorat talab qilinadi. Bunda asosan tergovchilar jabrlanuvchilar, gumonlanuvchilarning alohida ruhiy faoliyatini, ularning hissiy-emotsional reaksiyalari, individual psixologik xususiyatlari holatini tadqiq etishga taalluqlidir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan holatlarda sud-psixologik ekspertizasi tayinlanadi.

Yangi O‘zbekistonda yuridik psixologiyaning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va ahamiyatini oshirishda, inson taqdirini hal qilishga obyektiv, xolisona, haqqoniy yondashishda sud-psixologik ekspertizasining ilmiyligi, ishonchliligi muhim o‘rin egallaydi. Shu bois, huquqni muhofaza qilish tizimi organlari xodimlarining psixologik madaniyati, bu sohadagi yuksak kasbiy malakasi jinoyiy ishlarni tekshirish, ochish va sudda ko‘rib chiqish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Biroq nafaqat amaliyot balki bu sohaga oid yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘lami hali ham to‘liq talabga javob bermaydi.

Darhaqiqat sud-psixologik ekspertizasi bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud-psixologik ekspertizasining mohiyatini to‘laroq anglash va amaliyotga keng tatbiq etish uchun esa uning shakllanish tarixini bilish talab etiladi.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzimning ikkinchi bir ijtimoiy tuzimga o‘rnini bo‘shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o‘tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o‘z navbatida tergov va sud jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta’minladi.

Biroq, tergov va sud jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko‘p holatlarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga, kasbiy mahoratiga hamda vijdoniga bog‘liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sud va tergov jarayoniga boshqa sohalarning ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sud jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanish darajalari, shaxsning individual psixologik xususiyatlari hamda psixik jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug‘ullana boshladilar.

Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugungi kunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, o‘rganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunmovchiliklar barham topdi. Bunga ko‘ra jinoyatchi shaxsining individual psixologik xususiyatlarini, xulq o‘zgarishlarini, aqliy rivojlanganlik darajasining yoshiga mos yoki mos emasligini, uning g‘ayri-qonuniy xatti-harakatlari oqibatini anglab yetish layoqatini, jinoyatchidagi fiziologik affekt holatini va berayotgan ko‘rsatmasining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini ilmiy jihatdan asoslash va shu kabi qator psixologik mazmundagi masalalarni tadqiq qilish psixolog ekspert vazifasiga kirishi belgilandi. Faqat zarur bo‘lgan holatlardagina ekspert-psixolog prokuror, tergovchi yoki sudya taklifiga binoan jinoyatchining ijtimoiy-psixologik tavsifnomasini berishi mumkin. Qolgan vaziyatlarda esa ekspert-psixolog faqat o‘z oldiga qo‘yilgan savollarga javob berish huquqiga ega ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Sud-psixologik ekspertizasining Yangi O‘zbekistondagi holati to‘g‘risida mulohaza yuritadigan bo‘lsak, sobiq ittifoq davrida o‘sha jarayondagi qonun-qoidalar darajasi doirasida O‘zbekistonda ham psixologik ekspertiza ishlari olib borildi hamda shu asosda rivojlandi. Biroq qayd etish kerakki, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonlik huquqshunoslar, psixologlar respublikamizda psixologik ekspertiza sohasini rivojlantirishda, hududiy xususiyatlarni tadqiq etishda samarali izlanishlar olib bormoqdalar.

Quyidagi jadvalda 2024 yil holatiga ko‘ra O‘zbekiston va jahon miqyosida sud-psixologik ekspertizasi hamda yuridik psixologiya sohasidagi asosiy statistik ko‘rsatkichlar keltirilgan. Ma’lumotlar Adliya vazirligi, IIV Akademiyasi, YUNISEF va YUNESKOning ochiq hisobotlariga asoslanadi.

Sud-psixologik ekspertizasi va yuridik psixologiya bo‘yicha statistik ma’lumotlar (2024 yil holati)

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘zbekiston bo‘yicha	Jahon miqyosida (o‘rtacha)	Manba
1	Sud-psixologik ekspertiza o‘tkazilgan jinoyat ishlari soni	1 420 ta	-	O‘zR Adliya vazirligi hisobot (2024)
2	Ekspertizalarda ishtirok etgan psixolog-mutaxassislar soni	285 nafar	-	O‘zR IIV Akademiyasi (2024)
3	Ekspertizalar orqali jinoyiy holatni yoritish samaradorligi	78%	82%	UNICEF “Justice & Psychology” hisobot (2023)
4	Sudlar tomonidan psixologik xulosa asosida o‘zgartirilgan hukmlar ulushi	12%	15%	Oliy sud ma’lumotlari (2024)
5	Yuridik psixologiya bo‘yicha ilmiy ishlar soni (dissertatsiya, maqola va boshqalar)	56 ta	-	TDYuU va TDPu ma’lumotlari (2024)
6	Psixologik ekspertiza faoliyatiga oid kurslar va treninglar soni	37 ta	-	O‘zbekiston psixologlar assotsiatsiyasi (2024)
7	Jinoyat ishlarida ayol va bolalarga oid psixologik tahlillar ulushi	41%	38%	UNESCO “Psychology & Justice Report” (2024)

Yangi O‘zbekistonimizning har bir fuqarosi o‘z erki, huquq va burchlarini yuksak ong bilan idrok etishida huquqiy bilim va madaniyat muhim o‘rin tutadi. Davr talabidan kelib chiqqan holda fuqarolarning huquqiy bilim va madaniyatini o‘stirish, qonunchilikni mustahkamlash, jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlikka qarshi kurash, hamda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish, fuqarolik jamiyati barpo etishning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Bizga ma’lumki, Huquqni muhofaza qiluvchi mutaxassislar faoliyatining ijtimoiy-psixologik tavsifnomasi surishtiruv, tergov va sud jarayonlari o‘z faoliyatida e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan huquqiy mezonlar bilan birga, ijtimoiy-psixologik, tibbiy, ma’naviy va shu kabi bir qator omillar mavjudki, ularni hisobga olmaslik ko‘rilayotgan ishning muvaffaqiyatli yakunlanishiga, odilona hukm chiqarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan, huquqshunoslik amaliyotida psixologik bilimlardan yetarlicha foydalanilayapti, deya olmaymiz. Ayniqsa, tergov va sud jarayonlarida sud-psixologik ekspertiza xizmatidan foydalanish ko‘pchilik holatlarda, hatto tajribali, malakali va bilimdon tergovchi yoki sudyalarning ham e’tiboridan chetda qolmoqda.

Ekspertizaning o‘zi nima? Bunga biz quyidagicha ta’rif beramiz: *“Ekspertiza deb, jinoyat protsessual qonuni asosida fan va texnikaning, san’at va xalq xo‘jaligining ayrim sohalaridagi mutaxassislar, hunar-kasb egalari tomonidan tergovda yoki sud muhokamasida kelib chiqadigan*

ba'zi bir faktlarning bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlash maqsadida obyektlar ustida laboratoriya sharoitida olib boriladigan ilmiy tekshirish faoliyatlariga aytiladi".

Sud-psixologik ekspertizasi esa jinoyatni ochilishi yoki uni oldini olishda psixologlar tomonidan o'tkaziladigan eksperiment, laboratoriya va boshqa ishlarni tashkil etadi. Tergov va sud muhokamasidagi ba'zi bir muammolarni obyektiv to'g'ri hal qilinishida psixologlar ekspertiza asosida unga aniqliklar kiritadi. Bu sud-psixologik ekspertizasi shaxsning ruhiy holati, kognitiv (aqliy) jarayonlari hamda shaxsiy individual psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Odatda, sud-psixologik ekspertizasini kim va qachon o'tkazadi? Qanday o'tkazadi? Bu savollarga qisqagina qilib javob berilishi mumkin emas. Shuning uchun savollar ketma-ket, iloji boricha mukammaliroq bayon etib boriladi.

Shu bois, sud-psixologik ekspertizasiga qachon murojaat etiladi? Qachonki muammoli vaziyat yuzaga kelganda, ya'ni tergov jarayonida yoki sud muhokamasida biror masalani hal qilishda aniqlik kiritish va ma'lumot olish maqsadida malakali mutaxassis jalb qilinadi va uning shu ish yuzasidan fikrini olishga to'g'ri keladi. Sud-psixologik ekspertizasining vakolati va vazifalarini - ekspert-psixologlar bajaradi. Odatda, ekspert-psixolog - bu ilmiy, pedagogik saviyaga, fan sohalarida maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassis protsessual shaxs bo'lib, davlat ekspertiza markazlari hamda psixologiya yo'nalishi muassasalarida ekspert-psixolog sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Tergovchi yoki sudya garchand maxsus bilimlarga ega bo'lsalar ham, lekin bu vazifani bajarish huquqi ularga berilmagan. Ular o'zlarining protsessual holatlari sababli sud yoki tergovda ekspert sifatida qatnashishlari mumkin emas. Biroq ularning maxsus bilimlaridan xabardorligi tergov qilinayotgan ishni mukammal o'rganishga, tergovni to'g'ri olib borishga, ayrim masalalar ustida fikr va mulohazalar yuritishga va ayniqsa, ekspertning bergan xulosasiga obyektiv baho berishga yordam beradi.

Ekspertiza o'tkazishni surishtiruv dastlabki tergov organlari yoki sud o'zining maxsus qarori yoki ajrimi bilan ekspert-psixolog mutaxassislariga topshiradi.

Ekspertning xulosasi quyidagicha baholanadi:

birinchidan, ishdagi to'plangan boshqa dalillar bilan taqqoslab ko'rish yo'li bilan baholanadi. Agar ekspert xulosasi bilan ishdagi materiallarda qarama-qarshilik bo'lsa, ekspert xulosasini yoki ishdagi materiallarni noto'g'ri deb hisoblanishiga olib keladi;

ikkinchidan o'tkazilgan tekshirishning to'g'riligi nuqtai nazaridan baholanadi ya'ni, ekspertning xulosa fikri ilmiy jihatdan qanchalik asosli ekanligi tekshiriladi;

uchinchidan noto'g'ri xulosaga olib keluvchi biror o'zgarish ro'y bergan yoki bermaganligi aniqlanadi.

- Современные параллели: теория компетенций и социального обучения А. Бандуры.

Крестьяне

- Стратегия: бытовая и семейная рефлексия.
- Особенности: самопознание через труд, участие в жизни семьи и общины, соблюдение традиций.
- Современные параллели: социальная психология повседневной жизни К.Левина.

Модель 2. Стратификационная модель самопознания

Социальный слой	Психологическая стратегия	Особенности стратегии	Механизмы самопознания	Современные параллели
Знать	Рациональная, интегративная	Философская и эстетическая рефлексия, осмысление социальной миссии	Изучение текстов, интеллектуальные дискуссии, наставничество	Психосоциальная идентичность (Э. Эриксон)
Духовенство	Духовная	Аскеза, моральное совершенствование, поиск внутренней гармонии	Медитации, молитвы, изучение духовной литературы	Идентичность через духовные практики (Дж. Марсия)

Купцы	Практическая	Прагматизм, самоконтроль, социальная репутация	Торговля, межкультурные контакты, стратегическое планирование	Социально-когнитивная теория (Бандура А.)
Ремесленники	Коллективно-практическая	Осознание себя через мастерство и сообщество	Работа в цехах, совместные проекты, обмен опытом	Теория компетенций и социального обучения (Бандура А.)
Крестьяне	Бытовая и семейная	Самопознание через труд, семью и локальные традиции	Участие в жизни семьи и общины, трудовая практика	Социальная психология повседневной жизни (К.Левин)

Краткий вывод по Модели 2. Стратификационная модель самопознания позволяет конкретизировать базовую модель, выявляя, как социальное положение определяло стратегию, инструменты и глубину самопознания личности. Модель демонстрирует, что каждый социальный слой имел характерные психологические механизмы и пути рефлексии, что делает возможным сопоставление исторических практик самопознания с современными теориями личности и социальной психологии.

Модель 3. Инструментальная модель самопознания

Определение. Инструментальная модель самопознания представляет собой динамическую схему, демонстрирующую конкретные психологические инструменты и механизмы, через которые личность достигает самопознания в зависимости от социального слоя. Модель фокусируется на когнитивных, эмоциональных и поведенческих процессах, обеспечивающих реализацию индивидуальных и коллективных стратегий саморефлексии.

Функция модели в структуре исследования. Модель служит для детального анализа того, как социальное положение определяет доступные методы самопознания и психические процессы, через которые реализуются стратегии личности. Она позволяет реконструировать исторические практики самопознания, выявить закономерности и различия между социальными слоями, а также сопоставить исторические данные с современными психологическими теориями когнитивной, социальной и культурной психологии.

Таблица 3. Инструментальная модель самопознания по социальным слоям

Социальный слой	Основные инструменты и механизмы самопознания	Психологический эффект
Знать	Метакогнитивная рефлексия, синтез информации	Стратегическое мышление, сложное самосознание, планирование социальной и личной траектории
Духовенство	Духовная концентрация, аскетическая самодисциплина	Эмоциональная устойчивость, ценностная регуляция, духовная идентичность
Купцы	Практическая оценка, межличностное прогнозирование	Адаптивность, социальная компетентность, эффективное принятие решений
Ремесленники	Мастерство, коллективное обучение, обмен опытом	Развитие компетенций, творческая саморефлексия, социальная адаптивность

Крестьяне	Участие в жизни семьи и общины, труд, традиции	Адаптивность, эмоциональная регуляция, самопонимание через практический опыт

Краткий вывод по Модели 3. Инструментальная модель самопознания демонстрирует, каким образом социальный слой определяет доступные психологические инструменты и механизмы реализации самопознания. Она позволяет углубленно понять стратификационные различия и реконструировать комплекс психологических практик прошлого, создавая возможность для сопоставления исторических данных с современными теориями когнитивной, социальной и культурной психологии.

Обсуждение.

Результаты исследования показывают, что социальное положение человека в Средневековой Центральной Азии прямо определяло возможности и формы самопознания. Базовая модель выявила универсальные элементы процесса самопознания - объекты, цели и способы - присутствующие у всех социальных слоёв. Стратификационная модель подчеркнула различия в стратегиях: знать преимущественно использовали рациональную и интегративную рефлексию, духовенство - духовную и этическую, купцы - практическую, ремесленники - коллективную, крестьяне - бытовую и семейную. Инструментальная модель показала, какими конкретными психологическими механизмами и инструментами реализовывались эти стратегии: когнитивные, эмоциональные, поведенческие.

Эти результаты согласуются с современными концепциями социальной психологии и психологии личности. Например, теория психосоциального развития Э. Эриксона подтверждает, что социальная среда формирует возможности самоопределения и личностного роста. Концепции идентичности Дж. Марсии коррелируют с духовными и моральными практиками духовенства. Социально-когнитивная теория А. Бандуры отражает практическое и коллективное обучение купцов и ремесленников.

Исторические данные показывают, что даже представители низших слоёв иногда демонстрировали высокий уровень самопознания, особенно через мастерство, трудовую дисциплину или духовные практики. Это указывает на пластичность психических процессов, обусловленных личными особенностями и культурным окружением, что согласуется с современными исследованиями индивидуальных различий (например, в рамках теории компетенций и эмоционального интеллекта).

Основная закономерность заключается в том, что социальный слой задавал типовые пути самопознания, доступные и социально одобряемые для каждого слоя. При этом возможны индивидуальные отклонения и пересечения: например, начитанные крестьяне или практикующие духовные практики купцы.

Ограничения исследования связаны с источниковой базой: реконструкция опирается на литературные, философские и исторические тексты, которые отражают идеализированные или репрезентативные образы социальной стратификации, а не полную эмпирическую картину. Кроме того, влияние личностных факторов, психического здоровья и межличностных отношений учитывалось лишь опосредованно.

В целом, результаты демонстрируют взаимосвязь социального положения и психических стратегий самопознания, подтверждают гипотезу о социальной обусловленности психических процессов и создают основу для сопоставления исторических моделей самопознания с современными психологическими теориями.

Заключение.

В настоящем исследовании были проанализированы процессы самопознания личности в Средневековой Центральной Азии с позиции социальной стратификации. Основные результаты показывают, что социальное положение индивида определяло доступные стратегии, инструменты и механизмы самопознания.

Базовая модель самопознания позволила выделить универсальные компоненты процесса - объекты, цели и способы самопознания - применимые к представителям всех социальных

слоёв. Стратификационная модель продемонстрировала, что различия между слоями выражались в преобладании определённых стратегий: рациональной и интегративной у знати, духовной у духовенства, практической у купцов, коллективной у ремесленников и бытовой у крестьян. Инструментальная модель углубила анализ, раскрывая конкретные психологические механизмы, через которые реализуются эти стратегии, включая когнитивные, эмоциональные и поведенческие процессы.

Научная значимость исследования заключается в том, что выявленные закономерности позволяют реконструировать психологические практики прошлого и сопоставить их с современными теориями личности и социальной психологии. Представленные модели демонстрируют взаимосвязь социальных условий и индивидуальных возможностей для самопознания, подтверждают гипотезу о социальной детерминированности психических процессов и открывают перспективы для междисциплинарного исследования исторической психологии.

Практическая значимость работы проявляется в возможности использования полученных результатов для педагогических и психологических исследований: понимание социально обусловленных стратегий самопознания может быть применено при изучении индивидуальных различий, разработке программ личностного развития и адаптации культурных методов самообразования в современном образовательном контексте.

Для дальнейших исследований рекомендуется:

Расширить источниковую базу, включая археологические и эпистолярные материалы, для более полной реконструкции исторической картины.

Провести сравнительный анализ с другими регионами Востока и Средней Азии, чтобы выявить межкультурные особенности социально обусловленных стратегий самопознания.

Исследовать влияние личностных факторов, социального окружения и межпоколенческих связей на динамику самопознания в историческом контексте.

В целом, данное исследование демонстрирует, что социальная стратификация была ключевым фактором формирования индивидуальных и коллективных программ самопознания, а предложенные модели предоставляют методологический инструмент для системного анализа психологических практик прошлого и их сопоставления с современными теориями личности.

Список литературы.

1. Бандура А. Социальные основы мышления и действия: социально-когнитивная теория / пер. с англ. - М.: Праксис, 2000. - 320 с.
2. Вебер М. Экономика и общество. - М.: Наука, 1991. - 560 с.
3. Дюркгейм Э. О разделении социальной работе. - М.: Республика, 2000. - 320 с.
4. Китаяма Ш. Культура, социальный класс и самосознание. - М.: Смысл, 2010. - 360 с.
5. Левин К. Динамическая психология: избранные труды / Курт Левин ; под общ. ред. Д. А. Леонтьева и Е. Ю. Патяевой ; пер. с нем. - М.: Смысл, 2001. - 572 с.
6. Лосев А. Ф. История античной эстетической мысли. - М.: Наука, 2003. - 480 с.
7. Марсия Дж. Развитие идентичности и социальные условия. - М.: Наука, 2005. - 280 с.
8. Нисбетт Р. Что такое интеллект и как его развивать. - М.: Альпина нон-фикшн, 2013. - 300 с.
9. Олпорт Г. Личность и социальная среда. - М.: Издательство «Социс», 1998. - 400 с.
10. Петренко С. С. Духовное развитие личности в культурно-историческом контексте. - М.: Гуманитарий, 2016. - 310 с.
11. Радченко А. Н. История психологии в исламском Востоке. - М.: Наука, 2008. - 270 с.
12. Соколов Е. В. Философия Востока и психология личности. - М.: Гуманитарий, 2011. - 350 с.
13. Эриксон Э. Психосоциальное развитие личности. - М.: Прогресс, 1990. - 320 с.

Abuzalova Mehriniso Qodirovna
Buxoro davlat universiteti Filologiya fanlari doktori, professor,
Begiyeva Shaxnoza Baxadirovna
Buxoro Xalqaro universiteti magistranti

O`ZBEK TILI OFTALMOLOGIK TIL BIRLIKLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o`zbek tilidagi mavjud ko`z sohasiga oid yo`nalishning, ya'ni oftalmologiyaning sohaviy terminlar tahlili ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Ta'kidlash lozimki, ayrim terminlar til egalari tomonidan metaforik talqin etilib, ko`chma ma'noli til birliklarining nutqiy pragmatikasini aks ettiradi. Tadqiqot jarayonida oftalmologik kasalliklar, ko`z anatomiyasi hamda uning vazifaviy xususiyatlari bilan bog`liq leksik birliklar aniqlanib, ularning metaforik xususiyatlari o`rganildi. Ularning xalq tilidagi mavjud xususiyatlari, semantik va pragmatik jihatlari til nuqtayi nazaridan tadqiq etildi.*

Kalit so`zlar*: oftalmologik terminologiya, lingvistik tahlil, metafora, konseptual metafora, frazeologizm, ko'chma ma'no, o'zbek tili, ko'z kasalliklari, xalqchillik.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОФТАЛЬМОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация*. В данной статье представлен научный анализ существующей области офтальмологии в узбекском языке. Следует отметить, что некоторые термины интерпретируются носителями языка метафорически и отражают речевую прагматику образных языковых единиц. В ходе исследования были выявлены лексические единицы, связанные с офтальмологическими заболеваниями, анатомией глаза и его функциональными свойствами, и изучены их метафорические свойства. С лингвистической точки зрения были изучены их существующие особенности в просторечии, семантике и прагматике.*

Ключевые слова: *офтальмологическая терминология, лингвистический анализ, метафора, концептуальная метафора, фразеология, переносное значение, узбекский язык, глазные болезни, фольклоризм.*

LINGUISTIC ANALYSIS OF OPHTHALMOLOGICAL UNITS OF THE UZBEK LANGUAGE

Abstract*. This article scientifically studies the analysis of the existing field of ophthalmology in the Uzbek language. It should be noted that some terms are interpreted metaphorically by native speakers and reflect the speech pragmatics of figurative language units. In the course of the research, lexical units related to ophthalmological diseases, eye anatomy and its functional properties were identified and their metaphorical properties were studied. Their existing features in the vernacular, semantic and pragmatic aspects were studied from a linguistic point of view.*

Key words*: ophthalmological terminology, linguistic analysis, metaphor, conceptual metaphor, phraseology, figurative meaning, Uzbek language, eye diseases, folklorism.*

Kirish. So'nggi yillarda tibbiyot va tilshunoslikning kesishgan nuqtalarida olib borilayotgan tadqiqotlar fanning yangi yo'nalishlarini shakllantirmoqda. Shulardan biri - tibbiy terminologiya, xususan, oftalmologiya sohasi terminlarining o'zbek tilidagi shakllanishi va lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishdir. Oftalmologik til birliklari faqat tibbiyot xodimlari uchun emas, balki keng jamoatchilik uchun ham muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ularning ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilishi, semantik, morfologik va funksional xususiyatlarining ochib berilishi dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbek tili mustaqillikdan so'ng ilm-fan va tibbiyot terminologiyasini boyitish yo'lida keng imkoniyatlarga ega bo'ldi. Ayniqsa, tibbiyot sohasida xalqaro atamalarni milliy tilga moslashtirish, ularni xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish, shu bilan birga o'zbek tilining milliy terminologik tizimini

saqlab qolish masalalari alohida e'tibor talab etmoqda. Oftalmologik terminlarning lingvistik tahlili ushbu jarayonning muhim bo'g'ini sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - o'zbek tili oftalmologik terminlarini lingvistik nuqtai nazardan tizimli o'rganish, ularning shakllanish manbalari, morfologik tarkibi, semantik xususiyatlari hamda qo'llanish doirasini aniqlashdan iboratdir. Shu orqali oftalmologik terminologiyaning milliy tilimizda barqaror va aniq shakllanishiga, tibbiy hamda lingvistik amaliyotda samarali qo'llanishiga hissa qo'shish ko'zda tutiladi.

Tildagi mavjud so`zlar til qatlamiga xos leksik birliklar jamlanmasini tashkil etadi. Shuningdek, ularning ilmiy, badiiy va shu kabi qator xususiyatlari ularning sohaviy toifalanishiga zamin yaratadi. Ana shunday yo`nalishlardan biri tibbiyot sohasiga aloqador bo`lib, u terminologik nuqtayi nazardan oftalmologiya deb nomlanadi. Oftalmologik birliklarning o`zbek tilida voqelanishi ularning semantik va pragmatik tabiatiga bog`liq bo`lib, nutqiy jihatdan ularga xos metafora va ko`chma ma'no xalq tiliga mutanosib ravishda yuzaga keladi. Olamning lisoniy manzarasida dunyoni idrok etish turli vositalar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, oftalmologik birliklarning ko`chma ma'noli so`zlar yordamida idrok etilishi persepsiya (uzatish) va retsepsiya (qabul qilish) jarayonlaridagi axborot almashinuvi vositasida yuzaga keladi.

Ko`z muhim organ sifatida ko`plab til birliklarining strukturaviy-semantik shakllanishida poydevor bo`lib xizmat qilgan. Oftalmologiya, ya'ni ko`z kasalliklarini o`rganuvchi tibbiyot sohasida ham ushbu yo`nalishga taalluqli til birliklarining shakllanishi va ularning xalq nutqiga "uzatilishi"da metaforik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Oftalmologik terminlarning metaforik tabiatini ochib berish, uning ko`chma ma'noli so`zlar yordamida ifodalanishini aks ettirish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar salmoqlidir. Xususan, A. Dyachenkoning "Oftalmologiya metafora va terminologik barqaror iboralarda" nomli asarida ham oftalmologiyaning metaforik ifodalardagi aks ettirilishi borasidagi fikr-mulohazalari aks etgan[8].

E. Vladislavning "Oftalmologik terminologiyada metaforik so`z yasalishi" nomli tadqiqotida mavjud oftalmologik terminlarning rus tilida qay tartibda metaforik usulga muvofiq hosil qilinishi borasida so`z yuritiladi, jumladan, muallif rus tilidagi mavjud oftalmologik termin, ya'ni "ko`z olmasi" terminini etimologik nuqtayi nazardan izohlaydi va unga tarixan yondashadi, muallifning fikricha, "Ko`z olmasi" termining kelib chiqish tarixi quyidagicha: Odam Ato va Momo Havo taqiqlangan mevani (olma) iste'mol qilgandan so'ng, yalang`och ekanliklarini ko`rganlari uchun, ko`z olmasi shunday nomlangan. Bu, ayniqsa, olma mevasi bilan bog`liq bo`lishi mumkin" deya tarixiy farazni ilgari suradi. Shu va shu kabi tadqiqotlardan o`rin olgan oftalmologik terminlarning metaforik xususiyatlariga doir tahlillarda tanlangan yondashuv ushbu masalaning tub mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqotni bayon etishda leksikografik tahlil, konseptual metaforik tahlil, pragmatik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama.

O`zbek tilida qo`llanuvchi ayrim oftalmologik terminlarning metaforik usulda yetkazilishi ikki xil funksiyani bajaradi:

a) kasallikning xavflilik darajasini yashirish;

b) kasallikning xalqchil tilda tushunarli ifodalanishi:

1.1. Kasallik nomining ijobiy ifodalar yordamida aks ettirilishi.

1.2. Kasallik nomlarining salbiy ifodalar yordamida aks ettirilishi.

Birinchi usul, asosan, tibbiyot vakillari uchun xos bo`lib, ularning nutqida ifodalangan oftalmologik terminlarning ko`chma ma'noda qo`llanishi, asosan, bemordan kasallikga xos xavflilik darajasini yashirish maqsadida foydalaniladi.

Ikkinchi usul esa, asosan, xalq tilida voqelanadi – ushbu jarayonda kasallik nomlariga xos tushunchalar xalqchillik bilan aks ettiriladi. Masalan, ko`ziga dog` tushgan insonga "ko`zingizga gul

[8] Дьяченко А. Офтальмология в метафорах и терминологически устойчивых выражениях. – Москва, 2002.

tushibdimi?" deyish so`zlovchi va tinglovchi o`rtasidagi muloqot jarayonidagi nutqiy pragmatikaning o`ziga xos shakli sifatida namoyon bo`lmoqda va bu ijobiy uslubda bayon etilmoqda. Dog` leksemasining gul tushunchasi yordamida ifodalanishi retsepsiya jarayonida dekodlanib, so`zlovchi tafakkurida ushbu holatning qisman bo`lsa-da ijobiy tarzda qabul qilinishiga imkon beradi.

Keltirilgan usulda oftalmologik terminlarning xalq tomonidan salbiy leksemalar yordamida aks ettirilishi ham oftalmologik ifodalarga xos metaforik yondashuvning o`ziga xos shakli sanaladi. Masalan, tibbiyot tilida strabizm deb nomlanuvchi ko`z qorachig`ining shakl tuzilishining buzilishiga oid kasallikning xalq tilida "g`ilay" yoki "kassoy" deb atalashi tibbiyot terminologiyasining xalq tilida voqelanishiga misol bo`ladi. Yoki bo`lmasa, ko`z xiralashuvi kasalligi tibbiyotda katarakta deb atalsa, uning xalq tilidagi ifodasi "shapaq", ko`zshapaq"dir. Yoki ayrim hududlarda ushbu jarayonga nisbatan "ko`zingga shapaq tushganmi" deya foydalanishlar ham uchrab turadi. Yoki ko`zi ojizlik terminining "ko`r", "shox parda xiralashuvining "ko`zida oq bor" kabi ifodalar bilan aks ettirilishi ham sohaga xos terminologiyaga metaforik yondashuvdir.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, o`zbek tilidagi mavjud oftalmologik leksikaning metaforik ko`rinishi uning xalqchilligi bilan bevosita aloqador hisoblanadi. Tanlangan oftalmologik shakllarning lingvistik tahlili shuni ko`rsatadiki, ulardagi mavjud ijobiylik va salbiylik xususiyatlari ko`chma ma'no hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili oftalmologik terminologiyasi tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘ziga xos murakkab va ko‘p qirrali tizimni tashkil etadi. Terminlarning shakllanishida xalqaro yunoncha va lotincha manbalar, shuningdek, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan atamalar muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, milliy til imkoniyatlaridan foydalangan holda yaratilgan atamalar ham o‘zbek tibbiy leksikasining boyishini ta'minlamoqda.

Lingvistik jihatdan qaralganda, oftalmologik terminlar morfologik tuzilishi, semantik maydoni va qo‘llanish konteksti jihatidan turlicha ko‘rinishlarga ega. Ularning ilmiy aniq ma'no ifodasi, xalqaro standartlarga uyg‘unligi va milliy tilga moslashganligi tibbiyot sohasi mutaxassislari hamda keng jamoatchilik uchun samarali muloqot imkoniyatini yaratadi.

O‘zbek tili oftalmologik terminlarini tizimli o‘rganish natijalari nafaqat lingvistik nazariyaga, balki amaliy tibbiy soha uchun ham katta ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot milliy terminologiyani boyitish, tibbiyot va tilshunoslik o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikni kuchaytirish hamda ilmiy-tibbiy axborotlarning keng jamoatchilikka yetkazilishida muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Baldick Chris. Concise Dictionary of Literary Terms. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – 280 p.
2. Billings J.Sh. The national medical dictionary – Nabu Press, 2011. – 794 p.
3. Chambers R. Chambers's etymological dictionary of the English language. – London and Edinburgh: W. and R. Chambers, 1872. – 600 p.
4. Дьяченко А. Офтальмология в метафорах и терминологически устойчивых выражениях. – Москва, 2002.
5. Қосимов А. Тиббиёт ходимлари луғати (русча-ўзбекча, ўзбекча-русча тиббий терминлар). – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1998. – 270 б.
6. Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати (I жилд). – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2003. – 472 б.

Sharipova Go‘zal Sa'dullo qizi
Buxoro Xalqaro unversiteti magistranti
Pedagogika nazariyasi va tarixi fakulteti
E-mail: gozalsadullayevna4@gmail.com

TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘AJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Pedagogik qobiliyatlarning mohiyati, ularning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni, shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash samaradorligi tahlil qilingan. Ilmiy nazariy qarashlar asosida hamda ilg‘or tajribalar misolida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim texnologiyalari, pedagogik qobiliyat, o‘qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, zamonaviy ta’lim.*

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития педагогических способностей будущих учителей с использованием образовательных технологий. Проанализированы сущность педагогических способностей, их роль в деятельности учителя, а также эффективность применения современных образовательных технологий. На основе научных теоретических подходов и примеров передового опыта разработаны методические рекомендации, направленные на развитие педагогических способностей будущих учителей в процессе подготовки к профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *образовательные технологии, педагогические способности, учитель, профессиональная подготовка, современное образование.*

DEVELOPING THE PEDAGOGICAL ABILITIES OF FUTURE TEACHERS THROUGH EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Abstract. *This article explores the issues of developing the pedagogical abilities of future teachers through the use of educational technologies. The essence of pedagogical abilities, their role in teacher activity, as well as the effectiveness of applying modern educational technologies are analyzed. Based on scientific theoretical perspectives and examples of advanced experience, methodological recommendations have been developed to enhance the pedagogical abilities of future teachers during their professional training.*

Key words*:educational technologies, pedagogical abilities, teacher, professional training, modern education.*

Kirish

XXI asrda ta’lim sohasida kechayotgan globallashuv jarayonlari o‘qituvchidan nafaqat chuqur bilim va malakani, balki keng qamrovli pedagogik qobiliyatlarni ham talab qilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ularning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi ta’lim tizimi oldida dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga oid qarorlari (2017–2025-yillar davomida qabul qilingan “Harakatlar strategiyasi”, “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturlari, shuningdek, 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmon) hamda 2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda

ta'kidlanganidek, o'qituvchi zamonaviy bilimlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarga ega bo'lishi lozim. Bu esa bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida yangicha metodlarni qo'llashni taqozo etadi.

Asosiy qism. Pedagogik qobiliyatlarning mohiyati va tasnifi-Jamiyat taraqqiyotida ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Ta'limning bosh maqsadi esa zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonning muvaffaqiyati avvalo o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy salohiyatiga bog'liq. O'qituvchidan nafaqat chuqur bilim, balki pedagogik qobiliyatlar ham talab etiladi. Pedagogik qobiliyatlar - o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga maqsadli ta'sir ko'rsata olishini ta'minlovchi psixologik, metodik va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlardir.

Pedagogik qobiliyatlarning mohiyati-Psixologiya fanida qobiliyatlar insonning ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi individual xususiyatlar sifatida izohlanadi. O'qituvchilik kasbida qobiliyatlarning maxsus turi - pedagogik qobiliyatlar yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagi asosiy tarkibiy qismlarda namoyon bo'ladi:

Didaktik qobiliyat - o'quv materialini tushunarli, tizimli va qiziqarli shaklda yetkazish;

Tashkilotchilik qobiliyati - o'quvchilarning faoliyatini to'g'ri boshqarish, ularni hamkorlikka jalb etish;

Kommunikativ qobiliyat - ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish;

Pertseptiv qobiliyat - o'quvchilarning individual xususiyatlarini anglash va hisobga olish;

Ijodiy qobiliyat - dars jarayoniga innovatsion metod va texnologiyalarni olib kirish.

Pedagogik qobiliyatlarning mohiyati shundan iboratki, ular o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etibgina qolmay, balki o'quvchilarda bilimga qiziqish uyg'otadi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi va ularning ijodiy rivojlanishiga imkon yaratadi.

Pedagogik qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishi ko'plab ilmiy yo'nalishlar bilan bog'liq:

Psixologik asoslar. Qobiliyatlar shaxsning psixik xususiyatlari, temperament, xarakter va motivatsiya bilan chambarchas bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini anglay olish orqali samarali ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik asoslar. Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik bilimlari va pedagogik kompetensiyalariga asoslanadi.

Didaktik asoslar. Qobiliyatlar ta'lim mazmuni, shakli va metodlari orqali rivojlanadi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o'qituvchining didaktik va ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Innovatsion asoslar. XXI asrda o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida ta'lim va masofaviy ta'lim tizimidan samarali foydalanish orqali rivojlanmoqda. Bu jarayon O'zbekiston ta'lim tizimida ham ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan (PF–5712-son Farmon, 2019).

Amaliy ahamiyat

Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omildir. Ular rivojlangan taqdirda o'qituvchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etadi, o'quvchilar bilan ijobiy munosabat o'rnatadi va ularning intellektual hamda shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa ta'lim sifatini oshiradi va jamiyat uchun raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Ular psixologik, pedagogik, didaktik va innovatsion asoslar bilan shakllanadi hamda rivojlanadi. Muhimi, pedagogik qobiliyatlar tug'ma emas, balki ta'lim jarayonida maqsadli tayyorgarlik, amaliy faoliyat va innovatsion texnologiyalar yordamida shakllanadigan dinamik jarayondir. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim.

Ta'lim texnologiyalarining pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishdagi o'rni

XXI asrda ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi shaxsdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmonida va 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'kidlanganidek, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik

texnologiyalarni joriy etish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa o‘qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Ta’lim texnologiyalari - bu ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan usullar, vositalar va yondashuvlar majmuidir. Ular interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o‘qitish, masofaviy ta’lim va raqamli ta’lim vositalarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

Didaktik qobiliyatni rivojlantirish. Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, debat) yordamida o‘qituvchi bilimlarni izchil, qiziqarli va samarali yetkazishni o‘rganadi.

Tashkilotchilik qobiliyatini kuchaytirish. Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi sinf jamoasi ishini boshqarish, guruh faoliyatini samarali yo‘naltirish imkonini beradi.

Kommunikativ qobiliyatni shakllantirish. Masofaviy ta’lim va raqamli platformalarda ishlash o‘qituvchidan yangi kommunikatsion yondashuvlarni talab etadi, bu esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Pertseptiv qobiliyatni rivojlantirish. Axborot texnologiyalari yordamida individual ta’lim dasturlarini yaratish, o‘quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini hisobga olish imkoniyati kengayadi.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va virtual laboratoriyalar o‘qituvchining ijodkorlik salohiyatini namoyon etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda (Rubinshteyn, 1976; Petrovskij, 1987; Amonov, 2018) qayd etilishicha, pedagogik qobiliyatlar tug‘ma emas, balki o‘quv jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari esa ushbu qobiliyatlarni samarali rivojlantirishning eng muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda.

Ta’lim texnologiyalari - bu nafaqat bilim berish vositasi, balki pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishning eng samarali mexanizmidir. Ularning qo‘llanilishi o‘qituvchilarning didaktik, tashkilotchilik, kommunikativ, pertseptiv va ijodiy qobiliyatlarini kuchaytiradi. Demak, ta’lim texnologiyalarini puxta egallagan o‘qituvchi zamonaviy ta’limning asosiy talablariga javob beradigan, kasbiy mahorati yuksak pedagog sifatida shakllanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri - bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini, ayniqsa pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–5847-son qarorida pedagogik ta’lim sifatini oshirish, talabalarning ijodiy salohiyatini kuchaytirish va ularni innovatsion yondashuvlarga tayyorlash zarurligi ta’kidlangan. Bu esa o‘qituvchi shaxsini nafaqat bilimli mutaxassis, balki pedagogik qobiliyatlari rivojlangan tarbiyachi sifatida shakllantirish yo‘llarini izlashni talab etadi.

Ilmiy manbalarda pedagogik qobiliyatlar o‘qituvchining didaktik, tashkiliy, kommunikativ, pertseptiv, gnostik va ijodiy faoliyatini belgilovchi psixologik sifatlar majmui sifatida izohlanadi. Ular tug‘ma emas, balki maxsus tayyorgarlik jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi yo‘llar muhim ahamiyatga ega:

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish. Universitetlarda o‘qitilayotgan pedagogika va psixologiya fanlarini maktab amaliyoti bilan integratsiya qilish talabalarni real pedagogik muhitga tayyorlaydi.

Interfaol metodlardan foydalanish. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat”, “Baliq skeleti” kabi metodlar talabalarda didaktik va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantiradi.

Pedagogik amaliyot jarayonida kuzatish va tahlil. Talabalar o‘z ustozlarini kuzatish, darslarni tahlil qilish orqali tashkilotchilik va pertseptiv qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Shaxsiy rivojlanish va refleksiya. Talabalarni o‘z faoliyatini tahlil qilishga, o‘z ustida ishlashga o‘rgatish pedagogik mahoratni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, bo'lajak o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari ko'p qirrali faoliyat davomida shakllanadi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni tezlashtiradi. Demak, ta'lim jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalarni keng qo'llash - pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish murakkab, ammo zaruriy jarayondir. Bu yo'lda nazariya va amaliyot uyg'unligi, interfaol metodlar, AKT imkoniyatlari, loyiha asosida ta'lim va refleksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda tayyorlangan pedagog zamonaviy ta'lim talablari va jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan malakali mutaxassis sifatida shakllanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot jarayonida 3 bosqichli (diagnostik, amaliyotiy va yakuniy) metodika qo'llanildi.

Diagnostik bosqich.Talabalarning dastlabki pedagogik qobiliyatlari psixologik testlar, so'rovnomalar va kuzatuvlar asosida o'rganildi. Natijalarga ko'ra, 42% talabada didaktik qobiliyatlar yetarli darajada shakllanmagan, 37% talabalarda kommunikativ qobiliyatlar sust rivojlangan, 21% talabalarda esa tashkilotchilik ko'nikmalari yetarli emasligi aniqlandi.

Amaliyotiy bosqich. Ushbu bosqichda interfaol metodlar ("Aqliy hujum", "Debat", "Klaster"), loyiha asosida ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va refleksiv mashg'ulotlar tashkil etildi. Talabalar kichik guruhlarda ishlash, dars ishlanmalarini yaratish va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali o'z qobiliyatlarini rivojlantirdilar.

Yakuniy bosqich.Tajriba-sinov mashg'ulotlaridan so'ng talabalar bilim va ko'nikmalari qayta diagnostika qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki:

Didaktik qobiliyatlari rivojlangan talabalar soni 42% dan 76% ga ko'tarildi.

Kommunikativ qobiliyatlar yuqori darajada namoyon bo'lgan talabalar 37% dan 71% ga yetdi.

Tashkilotchilik va liderlik ko'nikmalari 21% dan 68% ga oshdi.


Talabalarning umumiy pedagogik refleksiyasi 2 barobar kuchaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik qobiliyatlar tug'ma emas, balki ta'lim jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan sifatdir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini (interfaol metodlar, AKT, loyiha asosida ta'lim) qo'llash bu jarayonni tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Shuningdek, talabalarning faol ishtiroki, ijodiy yondashuvi va refleksiv faoliyati pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari va tahlil

Qobiliyat turlari	Dastlabki (%)	Yakuniy (%)
Didaktik	42	76
Kommunikativ	37	71
Tashkilotchilik	21	68

Quyidagi grafik pedagogik qobiliyatlarning o'sishini ko'rsatadi:

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlari natijalari.



Xulosa

Mazkur maqolada ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'qituvchining faqat bilim va ko'nikmalarini emas, balki uning kasbiy mahorati, metodik yondashuvi hamda ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ta'lim jarayonini samarali boshqarish va talabalarda o'quv motivatsiyasini oshirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, ta'lim texnologiyalariga tayangan holda tashkil etilgan o'quv jarayoni o'qituvchi shaxsida kommunikativ, tashkiliy va konstruktiv qobiliyatlarning yanada rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Umuman olganda, ta'lim texnologiyalarini izchil va maqsadga muvofiq qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali yo'li hisoblanadi. Shu sababli, pedagogik ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish va interaktiv muhit yaratish kelgusida ta'lim sifatini oshirishning muhim kafolatlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlari. – Toshkent, 2021.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
3. Xoliqov, A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Jalolov, J. Pedagogik qobiliyatlar va ularni rivojlantirish yo'llari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.
5. Anderson, J., Krathwohl, D. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Longman, 2001.
6. D. Kalandarova, & D. Karimov (2022). Biologiya fanini o'qitishda multimediadan foydalanish samaradorligi. Science and innovation, 1 (B8), 2276-2279. doi:10.5281/zenodo.7445311
7. Kalandarova, D. S., & Bakayeva, S. B. (2022). Biologiya o'qitish metodikasida axborot texnologiyalarini o'rni. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(2), 43-47.
8. Samandarovna, K. D. Toshtemir o'g'li, kd (2024). Axborot texnologiyalarining biologiya fanlariga ta'siri. O'zbekistonda texnika fan tadqiqotlari, 2(2), 243-249.
9. Қаландарова, Д. С. (2021). Методика решения задач по биологии. Scientific progress, 2(1), 1609-1611.
10. Каландарова, Д. (2020). Использование зеленой хлореллы, выращенной в органоминеральной среде, в качестве пищевых продуктов в рыбоводстве. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
11. Raimov, A. R., Bakayeva, S. B., & Kalandarova, D. S. (2024). Ecological groups of mammals found in Bukhara region and adjacent areas. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 03008). EDP Sciences.
12. Каландарова, Д., & Рахмонова, Ш. (2025). Методика организации самостоятельной работы студентов в кредитно-модульной системе по предмету анатомии и физиологии человека. Молодые ученые, 3(1), 21-23.
13. Каландарова, Д. С., & кизи Студентка, П. З. З. Н. (2024). Методы обучения биологии их особенности и условия применения практические методы обучения. zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar, 2(4), 27-32.
14. Каландарова, Д. С. (2024). Учебный предмет «биология». Методический анализ документов, регламентирующих деятельность учителя биологии. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 4(2), 36-39.
15. Каландарова, Д. (2022). Методика формирования умений и навыков в процессе обучения биологии. Евразийский журнал академических исследований, 2(13), 38-41.

Pardaqulov Norbek
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

TALABALARDA KASBIY QOBILIYATNI ANIQLASHNING IERARXIK POG‘ONASI

Annotatsiya. *Talabalarda kasbiy qobiliyatni aniqlashning ierarxik pog‘onasi shaxsning kasbiy shakllanish jarayonida muhim psixologik mezonlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada kasbiy qobiliyatlarning ierarxik tuzilmasi, ularning shakllanish bosqichlari va o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Talabalarning kasbiy yo‘nalishini belgilovchi intellektual, irodaviy, kommunikativ va motivatsion omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir psixologik nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, maqolada kasbiy qobiliyatlarni aniqlashda diagnostik testlar, kuzatuv, intervyu va psixometrik usullarning qo‘llanilishi asoslab beriladi.*

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy qobiliyatlar tizimi ierarxik tuzilishga ega bo‘lib, uning pastki pog‘onasida tabiiy-biologik predispozitsiyalar, o‘rta pog‘onada shaxsning individual psixologik xususiyatlari, eng yuqori pog‘onada esa kasbiy motivatsiya va o‘zini anglash darajasi joylashadi. Bu yondashuv talabalarning kasbiy o‘sishini kompleks baholash va individual rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, kasbiy qobiliyatni ierarxik asosda aniqlash nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki shaxsning kasbiy o‘zini anglash va moslashuv darajasini ham mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: *Kasbiy tayyorgarlik, kasbiy qobiliyat, ijodiy yo‘nalganlik, kreativ qobiliyat, qiziqish, aqliy jarayon, anglanganlik, pedagogik mahorat, ijtimoiy tajriba, sog‘lom tarbiyaviy-psixologik muhit, kasbiy qobiliyatni ierarxik pog‘onalari.*

ИЕРАРХИЧЕСКАЯ СТУПЕНЬ ВЫЯВЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *Иерархическая структура выявления профессиональных способностей студентов рассматривается как важный психологический критерий процесса формирования личности в профессиональной сфере. В статье анализируются уровни иерархии профессиональных способностей, их этапы развития и взаимосвязь между когнитивными, мотивационными, волевыми и коммуникативными компонентами. Особое внимание уделено психологическим механизмам оценки профессионального потенциала студентов, а также диагностическим методикам - тестированию, наблюдению, интервью и психометрическим инструментам.*

Результаты исследования показывают, что профессиональные способности имеют многоуровневую систему: на нижнем уровне находятся природные задатки, на среднем - индивидуально-психологические особенности, а на высшем уровне - профессиональная мотивация, самопознание и стремление к самореализации. Такой иерархический подход позволяет комплексно оценивать развитие личности и формировать индивидуальные траектории профессионального роста студентов. Автор приходит к выводу, что выявление профессиональных способностей на основе иерархической модели способствует повышению эффективности образовательного процесса и успешной профессиональной адаптации будущих специалистов.

Ключевые слова: *профессиональная подготовка, профессиональные способности, творческая направленность, творческие способности, интерес, мыслительный процесс, осознанность, педагогическое мастерство, социальный опыт, здоровая образовательно-психологическая среда, иерархические уровни профессиональных способностей.*

THE HIERARCHICAL STAGE OF IDENTIFYING STUDENTS’ PROFESSIONAL ABILITIES

Abstract. *The hierarchical structure of identifying students' professional abilities is considered one of the key psychological criteria in the process of professional development. This article analyzes the hierarchical levels of professional abilities, their stages of formation, and the interrelation between cognitive, motivational, volitional, and communicative factors. Special attention is given to the psychological mechanisms of assessing students' professional potential and the use of diagnostic methods such as testing, observation, interviews, and psychometric assessments.*

Research findings reveal that professional abilities form a hierarchical system: the lower level is represented by natural aptitudes, the middle level by individual psychological characteristics, and the upper level by professional motivation, self-awareness, and self-realization tendencies. This hierarchical approach enables a comprehensive evaluation of students' professional growth and supports the creation of individualized development pathways. Thus, identifying professional abilities through a hierarchical model not only enhances the efficiency of the educational process but also strengthens the student's professional identity and adaptability in their future career.

Key words: *Professional training, professional abilities, creative orientation, creative ability, interest, mental process, awareness, pedagogical skills, social experience, healthy educational and psychological environment, hierarchical levels of professional abilities*.

Mavzu bayoni. Kasbiy qobiliyat – shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni samarali bajarishga bo‘lgan layoqati bo‘lib, bu qobiliyatlar individual, psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Talabalarda kasbiy qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga yordam beradi.

Kasbiy qobiliyatlarni o‘rganishda ierarxik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, qobiliyatlar umumiydan xususiyga qarab rivojlanadi va turli bosqichlardan iborat bo‘ladi. Mazkur bosqichlar talabaning umumiy aqliy salohiyatidan tortib, kasbiy malakalar va tajribaga qadar bo‘lgan jarayonni qamrab oladi. Quyidagi jadvalda biz olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga tayanib kasbiy qobiliyatni aniqlashning asosiy ierarxik pog‘onalari keltirdik.

1-jadval

Kasbiy qobiliyatni aniqlashning ierarxik pog‘onalari

Pog‘ona	Tavsifi	Misollar
1. Genetik va biologik omillar	Tug‘ma biologik imkoniyatlar, irsiy-genetik asoslar va individual fiziologik xususiyatlar.	Musiqiy iste’dod, tezkor reaktsiya, jismoniy chidamlilik.
2. Umumiy aqliy qobiliyatlar (IQ)	Aqliy rivojlanish darajasi, mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlari.	Matematik tafakkur, ilmiy izlanish qobiliyati. Amaliy tahlillar
3. Shaxsiy psixologik xususiyatlar	Temperament, xarakter, emotsional barqarorlik va motivatsiya darajasi.	Intuitsiya, tashabbuskorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik.
4.Ijtimoiy qobiliyatlar	Jamoada ishlash, kommunikativ qobiliyat, muloqot madaniyati.	Jamoa rahbari bo‘lish, mijozlar bilan ishlash, muzokara olib borish.
5. Kasbiy motivatsiya va qiziqishlar	Muayyan kasbga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya darajasi.	Pedagog bo‘lish istagi, tadqiqotga qiziqish, kasb egallashga sadoqat va mehr.
6. Ijodiy tafakkur va innovatsion yondashuv	Yangi g‘oyalar yaratish, nostandart fikrlash qobiliyati.	Dizaynerlik, arxitektura, muhandislik yechimlari.

Pog‘ona	Tavsifi	Misollar
7. Amaliy ko‘nikmalar va tajriba	Kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan amaliy bilim, ko‘nikma va mahoratlar.	Dasturlash, jarrohlik, muhandislik tajribasi.
8. Qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyati	Murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati.	Ustoz qobiliyati, menejerning strategik rejalashtirishi, biznes boshqaruvi.
9. Kasbiy axloq va etika	Kasb doirasidagi axloqiy tamoyillar va mas’uliyat.	Advokatlik maxfiyligi, shifokor qasamyodi, ilmiy odob-axloq.
10. Kasbiy o‘sish va rivojlanish	Kasbiy faoliyat davomida doimiy o‘sish va yangi bilim-larni o‘zlashtirish.	Malaka oshirish, tajriba orttirish, xalqaro innovatsiyalarga ishtirok etish.

Ushbu pog‘onalar talabalarning kasbiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatlar individual tarzda rivojlanib, shaxsiy xususiyatlar, ta’lim, amaliy tajriba va tashqi ijtimoiy muhit (axborot makoni) omillariga bog‘liq holda shakllanadi.

Har bir insonda kasbiy faoliyatga mos keladigan turli qobiliyatlar mavjud bo‘lib, ular individual psixologik xususiyatlar, ta’lim, tarbiya va tajriba asosida shakllanib sayqallashib boradi. Talabalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati ularning shaxsiy qobiliyatlarini to‘g‘ri aniqlash va rivojlantirishga bog‘liq. Shuning uchun kasbiy qobiliyatni baholash va aniqlash tizimli yondashuvni talab qiladi.

Kasbiy qobiliyatni aniqlashning ierarxik modeli bu qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlarini va ularning umumiydan xususiyga qarab qanday shakllanishini tushuntirib beradi. Ushbu modelda asosiy urg‘u insonning tabiiy qobiliyatlariga, kognitiv va ijodiy ko‘nikmalariga, amaliy tajribasiga, shuningdek, ijtimoiy va psixologik xususiyatlariga qaratiladi. Bu yondashuv talabalarning o‘ziga mos keladigan kasbni tanlashiga yordam beradi.

Talabalarning kasbiy qobiliyatlari ularning ta’lim jarayonida qanday bilim va ko‘nikmalarni egallashiga bog‘liq. Ta’lim nafaqat bilim berish, balki shaxsning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim tizimi talabalarni kasbiy yo‘naltirish va ularning qobiliyatlarini amaliy faoliyat orqali sinab ko‘rishga imkon beruvchi metodlarni kengroq qo‘llashni taqozo etadi.

Bugungi kunda kasbiy qobiliyatlarni aniqlashning turli psixometrik testlari, kuzatuv usullari, intervyular va amaliy topshiriqlarga asoslangan yondashuvlar mavjud. Masalan, IQ testlari, kreativ fikrlash testlari, kompetensiya baholash metodlari orqali talabalarning ma’lum bir kasbga mosligi aniqlanadi. Ushbu baholash natijalari talabalarning o‘zlari uchun eng mos bo‘lgan kasbiy yo‘nalishni tanlashiga va kelajakda muvaffaqiyatga erishishiga ko‘mak beradi. Shundan kelib chiqib quyida talabalarda kasbiy qobiliyatni aniqlashning ierarxik pog‘onasini bir nechta jihatlarini sanab o‘tamiz:

Kasbiy qobiliyat tushunchasi. Talabalarning kasbiy qobiliyati ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va moslashuvchanligini aniqlovchi muhim omillardan biridir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy qobiliyat nafaqat tug‘ma xususiyatlarga, balki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq shaxsiy taraqqiyot va ta’lim jarayonida shakllanadigan ko‘nikmalarga ham bog‘liqdir.

Ierarxik yondashuv mohiyati. Kasbiy qobiliyatni aniqlashning ierarxik modeli qobiliyatlarning turli darajadagi namoyon bo‘lishini hisobga oladi. Ushbu modelga ko‘ra, qobiliyatlar umumiydan xususiyga qarab rivojlanadi va turli bosqichlardan iborat bo‘ladi.


Genetik va biologik omillar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim qobiliyatlarning shakllanishida genetik omillar katta ahamiyatga ega. Masalan, musiqiy qobiliyat, matematik tafakkur, tasviriy san’at va sport qobiliyatlari ko‘pincha irsiy asosga ega bo‘ladi.

Individual psixologik xususiyatlar. Shaxsning temperament turi, irodasi va motivatsiyasi uning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, introvert va ekstrovert shaxslarning kasbiy yo‘nalishlari turlicha bo‘lishi mumkin.

Kognitiv qobiliyatlar bosqichi. Talabalarning aqliy rivojlanishi ularning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yuqori IQ darajasi ilmiy-tadqiqot ishlari va analitik fikrlashni talab qiladigan kasblarda ustuvorlik beradi.

Ijodiy tafakkur va innovatsion yondashuv. Kasbiy qobiliyat faqatgina aqliy qobiliyatlar bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda kreativlik va yangicha fikrlash ko‘plab kasblarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, IT mutaxassislari va dizaynerlar ijodiy yondashuvga ega bo‘lishlari kerak.

Ijtimoiy qobiliyatlar. Ijtimoiy tarixiy qadriyatlarga tayanish, shaxslararo muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalari kasbiy qobiliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yetakchi pozitsiyalarni egallagan shaxslar yuqori ijtimoiy qobiliyatlarga ega bo‘lishadi.



1-rasm. Talabalarda kasbiy qobiliyatni aniqlashning ierarxik piramidasi

Talabalarning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida bir qator omillar muhim o‘rin tutadi. Eng avvalo, bu - kasbiy motivatsiya va qiziqishlardir. Talabaning o‘z sohasiga bo‘lgan chin dildan qiziqishi uning o‘qishga bo‘lgan munosabatida, bilimlarni o‘zlashtirish darajasida va kasbiy mahoratini rivojlantirish tezligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Yuqori motivatsiyaga ega bo‘lgan talaba o‘z imkoniyatlarini tezroq ochadi, bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda sinovdan o‘tkazishdan cho‘chimaydi.

Kasbiy shakllanish jarayonining keyingi bosqichi - ko‘nikmalar va amaliy tajribadir. Nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkamlanmasa, kasbiy tayyorgarlik to‘liq bo‘lmaydi. Masalan, tibbiyot talabalari uchun klinik amaliyot, muhandislik yo‘nalishidagi talabalar uchun laboratoriya mashg‘ulotlari, pedagoglar uchun maktab amaliyoti nihoyatda ahamiyatlidir. Shu tarzda olingan tajriba talabaning kasbiy kompetensiyasini chuqurlashtiradi.

Kasbiy yetuklikka erishishda tahliliy va tanqidiy fikrlash muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda deyarli barcha sohalarda murakkab ma’lumotlar bilan ishlash, ularni tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish zarur bo‘lmoqda. Ayniqsa, o‘qituvchi, iqtisodchi, yurist kabi mutaxassislar analitik tafakkurga ega bo‘lishlari shart. Shu bilan birga, qaror qabul qilish va moslashuvchanlik ham kasbiy muvaffaqiyatning asosi hisoblanadi. Tez o‘zgaruvchan axborot makoni va mehnat bozori sharoitida har bir mutaxassis o‘zini turli vaziyatlarga moslashtira olish, yangi sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

Ayrim kasblar uchun liderlik qobiliyatlari alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori emotsional intellekt liderlik sifatlarining asosi hisoblanadi. Rahbarlik lavozimlariga tayyor shaxs boshqalarning hissiy holatini tushunadi, jamoani ruhlantira oladi va muammoli vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Shu nuqtai nazardan rivojlanuvchan va statik fikrlash farqlari ham dolzarbdir. Carol Dweck tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko‘ra, rivojlanuvchan tafakkurga ega talabalar xatolardan qo‘rqmaydi, balki ularni o‘sish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

Har qanday sohada axloqiy me’yorlar va kasbiy etikaning o‘rni beqiyosdir. Psixolog, shifokor, o‘qituvchi yoki huquqshunos bo‘lishidan qat’i nazar, mutaxassis o‘z faoliyatida halollik, maxfiylik va mas’uliyat tamoyillariga rioya etishi kerak. Shu bilan birga, ba’zi kasblarda intuitsiya va nozik idrok qilish qobiliyati ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, psixolog yoki shifokor holatni tezda sezish, qarorni qisqa vaqt ichida to‘g‘ri qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

Zamonaviy davr mutaxassislaridan texnologik bilimlar va axborot bilan ishlash mahorati talab qilinadi. IT, muhandislik, tibbiyot yoki iqtisod sohalarida texnologik savodxonlik, raqamli muhitda samarali ishlash ko‘nikmasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, kasbiy aloqalar tarmog‘i (networking) ham shaxsiy rivojlanish va ish topish jarayonida katta rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ish o‘rinlarining katta qismi aynan tanishlar va kasbiy tarmoq orqali topiladi.

Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun stressga chidamlilik va muammolarni hal qilish qobiliyati ham zarur. Tezkor qaror qabul qilishni talab qiluvchi kasblarda, masalan jurnalistlik yoki tibbiyotda, bu jihatlar alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, shaxs o‘z chegaralarini bilish va mehnat unumdorligini saqlash orqali kasbiy faoliyatda barqarorlikka erishadi. Vaqtni to‘g‘ri boshqarish, dam olish va ish o‘rtasida muvozanatni saqlash bu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi tez o‘zgaruvchan mehnat bozorida hayot davomida o‘rganish tamoyili kasbiy barqarorlikning kalitidir. Yangi bilimlarni egallash, qayta tayyorlanish va malaka oshirishga tayyorlik mutaxassisni doimo zamonga mos holatda ushlab turadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, metakognitiv bilim va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlari ham kasbiy muvaffaqiyat uchun zarurdir. Shaxs o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglay olsa, maqsadga erishish yo‘lida resurslarini to‘g‘ri yo‘naltira oladi.

Bularning barchasini birlashtiruvchi asosiy omil - o‘z-o‘zini motivatsiya qilishdir. Ichki motivatsiya kuchli bo‘lgan talaba yoki mutaxassis tashqi rag‘batga kam ehtiyoj sezadi va mustaqil o‘sishga intiladi. Shu bilan birga, tashabbuskorlik va mustaqillik ham zamonaviy mehnat bozorida yuqori baholanadi. Mustaqil fikr yurita oladigan, yangi g‘oyalarni ilgari suruvchi shaxslar rahbarlik lavozimlariga tezroq ko‘tariladilar.

Oxir-oqibat, kasbiy o‘sish va shaxsiy rivojlanish o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan jarayonlardir. O‘z ustida doimiy ishlaydigan, yangi tajriba va bilimlarni izlashdan to‘xtamaydigan inson kasbiy muvaffaqiyatga tezroq erishadi. Shu bois, zamonaviy talaba faqat kasbiy bilimlarni emas, balki o‘zini anglash, psixologik moslashuvchanlik, intellektual o‘sish va axloqiy mas’uliyatni ham bir butun holda rivojlantirishi zarur.Ko‘rinib turibdiki, talabalarda kasbiy qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, bu jarayonda genetik omillar, shaxsiy xususiyatlar, kognitiv va ijodiy qobiliyatlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, motivatsiya va texnologik bilimlar muhim ahamiyatga ega. Kasbiy qobiliyatni aniqlashning ierarxik modeli orqali har bir bosqichda talabaning individual salohiyatini baholash va rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Bugungi mehnat bozori sharoitida muvaffaqiyatli kasbiy rivojlanish nafaqat tug‘ma qobiliyatlarga, balki insonning doimiy o‘zgarishlarga moslashish, mustaqil o‘rganish va o‘z ustida muntazam (astoydil) ishlash qobiliyatiga ham bog‘liq. Tahliliy va tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, yetakchilik, stressga chidamlilik va kasbiy etika kabi omillar talabalar uchun muhim qobiliyatlar sirasiga kiradi.

Shu boisdan, kasbiy qobiliyatni rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi. Talabalar o‘z qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish orqali kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Ular hayot davomida o‘rganish tamoyiliga amal qilishlari, texnologiyalardan foydalanish va o‘z sohalarida yetakchilik qilish uchun uzluksiz rivojlanishga intilishlari lozim. Shunday qilib, kasbiy qobiliyat nafaqat tug‘ma imkoniyatga, balki insonning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi harakatlari va shaxsiy intilishlariga ham bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Грановская, Р. М. - Творчество и конфликт в зеркале психологии – СПб.: Речь, 2006. – 414 с. – (Сер. «Мэтры мировой психологии»).
2. Cropby A. Creativity and intelligence. - Br. j. educ. psy., 1966, p 259 -266.
3. Jabborov A. M. O‘qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi "Nasaf". 2015. – 180 b.
4. Климов Е.А. Профессии научных работников: Уч. пос., - М.: Акад-я, 2005. - 256 с.
5. Митина Л.М. Интеллектуальная гибкость учителя: психологическое содержание, диагностика, коррекция. М.: Флинта, 2003. 144 с.
6. Роу А.Дж. Креативное мышление / Пер.с.англ. М.: НТ Пресс, 2007, 176с.

Kalandarova Dilnoza Samandarovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,
E-mail: kalandarovad02@gmail.com
Rahmonova Shabnamoy Chori qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi
E-mail: shabnamoyraxmonova@gmail.com

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI RIVOJLANTIRISH: ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI FANIDAN TAJRIBA

Annotatsiya. *Maqolada kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Xususan, odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o‘qitish jarayonida mustaqil ta’limning ahamiyati, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni hamda tajriba asosida erishilgan natijalar tahlil qilingan. Kredit-modul tizimining nazariy va amaliy jihatlari asosida mustaqil ta’limni tashkil etish yo‘llari, baholash mezonlari va interfaol usullarning afzalliklari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim talabalarning bilimini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *kredit-modul tizimi, mustaqil ta’lim, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, metodik yondashuv, tajriba, kompetensiya.*

РАЗВИТИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ: ЭКСПЕРИМЕНТ ПО ДИСЦИПЛИНЕ «АНАТОМИЯ И ФИЗИОЛОГИЯ ЧЕЛОВЕКА»

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы эффективной организации и развития самостоятельной учебной деятельности студентов в условиях кредитно-модульной системы. В частности, анализируется значение самостоятельной учебной деятельности в процессе преподавания анатомии и физиологии человека, её роль в образовательном процессе и результаты, достигнутые на основе опыта. Показаны способы организации самостоятельной учебной деятельности с учётом теоретических и практических аспектов кредитно-модульной системы, критериев оценки и преимуществ интерактивных методов. Результаты исследования подтверждают, что самостоятельное обучение, организованное на основе кредитно-модульной системы, является эффективным инструментом углубления знаний студентов, развития самостоятельности мышления и формирования профессиональных компетенций.*

Ключевые слова: *кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, анатомия и физиология человека, методический подход, опыт, компетентность.*

DEVELOPING STUDENTS’ INDEPENDENT LEARNING IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM: AN EXPERIMENT IN THE SUBJECT “HUMAN ANATOMY AND PHYSIOLOGY”

Abstract. *The article discusses the issues of effective organization and development of independent learning activities of students in the context of the credit-module system. In particular, the importance of independent learning in the process of teaching human anatomy and physiology, its role in the educational process, and the results achieved on the basis of experience are analyzed. The ways of organizing independent learning based on the theoretical and practical aspects of the credit-module system, assessment criteria, and the advantages of interactive methods are shown. The results of the study confirm that independent learning organized on the basis of the credit-module system is an effective tool for deepening students' knowledge, independent thinking, and the formation of professional competencies.*

Key words: *credit-module system, independent learning, human anatomy and physiology, methodological approach, experience, competence.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonini tubdan isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda talabalarni mustaqil fikrlashga, izlanishga va amaliy faoliyatga tayyorlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kredit-modul tizimi ta'lim jarayonida keng joriy qilinmoqda. Bu tizimda talabaning ta'limdagi ishtiroki va mas'uliyati oshib, u o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish imkoniga ega bo'ladi.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fani tibbiyot, biologiya va pedagogika yo'nalishidagi talabalar uchun tayanch fanlardan biridir. Inson organizmining murakkab tuzilishi va fiziologik jarayonlarini o'rganishda mustaqil ta'limning roli beqiyosdir. Aynan kredit-modul tizimida mazkur fanni o'qitish orqali talabalar nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtiribgina qolmay, balki mustaqil izlanish ko'nikmalarini ham shakllantiradilar. Ushbu maqolada odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanidan tajriba asosida talabalar mustaqil ta'limini rivojlantirish yo'llari va natijalari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

So'nggi yillarda oliy ta'limda kredit-modul tizimining (KMT) joriy etilishi talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishga sabab bo'ldi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, KMTning asosiy tamoyillari - o'quv jarayonini modul tamoyiliga asoslab tashkil etish, talabaning yuklamasini kreditlarda hisoblash va mustaqil ish hajmini ko'paytirish orqali o'quv jarayonining shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlashdir (Xolmurodov, 2020; Smith, 2018).

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda talabalarning mustaqil ta'limga tayyorgarligi, o'zini o'zi nazorat qilish va baholash ko'nikmalari ularning akademik muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil ekanligi ta'kidlanadi (Zimmerman, 2002; Shadiev, 2021). Shuningdek, konstruktivistik yondashuv asosida talaba bilimni mustaqil faoliyat jarayonida qayta ishlab, yangi bilimlarni mavjud tajribasi bilan uyg'unlashtirishi muhim omil sifatida qaraladi (Piaget, 1970; Vygotskiy, 1991).

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi kabi tabiiy fanlarni o'qitishda talabaning mustaqil ishlari fan mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Chet el adabiyotlarida anatomiyani o'rganishda vizual resurslar, 3D-modellar, AR/VR texnologiyalari va simulyatsion metodlardan foydalanish talabalarda mustaqil o'rganishga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshirishi qayd etilgan (Sugand et al., 2010; Azer & Eizenberg, 2007). Shu bilan birga, laboratoriya mashg'ulotlari va praktikum topshiriqlarini mustaqil bajarish ularning nazariy bilimini amaliy ko'nikmalar bilan bog'lash imkonini beradi (Prince, 2004).

O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham KMT sharoitida mustaqil ta'limni rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. Jumladan, talabalarning mustaqil ishlari mazmunini modul maqsadlariga moslashtirish, nazorat shakllarini takomillashtirish hamda baholashda rubrikalardan foydalanish samaradorlikni oshirishi ko'rsatib o'tiladi (Karimova, 2022; Mamatov, 2023).

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish quyidagi omillarga bog'liq:

Mustaqil topshiriqlarni modul natijalariga moslashtirish.

Multimediya va innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Amaliy mashg'ulotlarni mustaqil o'rganish bilan uyg'unlashtirish.

Talabaning o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish.

Bu omillar mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarda fanga nisbatan barqaror qiziqish va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tizimida kredit-modul asosida talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish masalasi odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanidan tajriba asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi bir necha bosqich va yo'nalishlarni qamrab oladi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti

Ob'ekt – Buxoro davlat pedagogika instituti "Biologiya" ta'lim yo'nalishi 2–3-bosqich talabalari.

Predmet – Kredit-modul tizimida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanidan talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati, uning samaradorligi va rivojlantirish mexanizmlari.

Tadqiqot maqsadi. Oliy ta'lim tizimida kredit-modul asosida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish yo'llarini aniqlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning nazariy tayyorgarligini amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish hamda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Tadqiqot vazifalari: Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limning nazariy-metodik asoslarini chuqur o'rganish. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi faniga oid modul dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish. Talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantiruvchi topshiriqlar majmuini yaratish va ularni fan mazmuniga integratsiya qilish. Mustaqil ta'limni baholash mezonlari va reyting tizimini ishlab chiqish. Talabalarning mustaqil ishlash motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik metod va texnologiyalarni aniqlash. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazib, ularning natijalarini ilmiy-statistik usullar orqali tahlil qilish va samaradorlik darajasini aniqlash.

Nazariy metodlar: Pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish. Ilmiy manbalarni solishtirish va umumlashtirish. Kredit-modul tizimiga oid xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish.

Empirik metodlar: Kuzatish – talabalarning dars jarayonida hamda mustaqil ta'lim faoliyatidagi faolligini kuzatish. Anketa va so'rovnomalar – talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan munosabati va duch kelayotgan qiyinchiliklarini aniqlash. Suhbat – o'qituvchi va talabalar bilan muloqot orqali qo'shimcha ma'lumot olish. Tajriba mashg'ulotlari – odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanidan amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonini tashkil etish.

Diagnostik metodlar: Test sinovlari – talabalarning bilim darajasini aniqlash. Portfoliolar va mustaqil ish topshiriqlarini tahlil qilish. Refleksiya yozuvlari – talabalar o'z ta'lim faoliyatini baholash qobiliyatini aniqlash.

Statistik metodlar: Natijalarni foizlarda taqqoslash. Dinamik ko'rsatkichlarni aniqlash. Samaradorlik darajasini matematik-statistik usullar bilan tahlil qilish.

Tadqiqot Buxoro davlat pedagogika instituti "Biologiya" ta'lim yo'nalishi 2–3-bosqich talabalari ishtirokida olib borildi. Tajribada jami 60 nafar talaba qatnashdi, ulardan 30 nafari tajriba guruhi, 30 nafari esa nazorat guruhi sifatida tanlab olindi.

Tadqiqot natijalari

Guruh	Talabalar soni	Boshlang'ich bilim (ball)	Mustaqil ta'lim topshiriqlari	Yakuniy bilim (ball)	Bilim o'sishi (%)	Ilmiy-statistik tasdiq
Tajriba guruhi	30	65	Ha	77–78	15–20	Tasdiqlangan
Nazorat guruhi	30	64	Yo'q	65–66	1–3	Tasdiqlangan
Jami	60					

Bu jadval orqali tajriba guruhi talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlari yordamida sezilarli darajada bilim o'sishiga erishgani aniq ko'rinadi, nazorat guruhi esa deyarli o'zgarmagan.

Tadqiqot bosqichlari:

Tayyorlov bosqichi (2024-yil sentabr – noyabr) – mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganildi, modul dasturi va topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi.

Tajriba bosqichi (2024-yil dekabr – 2025-yil mart) – talabalarga mustaqil topshiriqlar berildi, modul asosida darslar tashkil etildi, elektron ta'lim resurslari yaratildi.

Natijalarni tahlil qilish bosqichi (2025-yil aprel – may) – test, anketa, portfoliolar va kuzatish natijalari asosida samaradorlik darajasi baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Kredit-modul tizimida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanidan mustaqil ta'limni rivojlantirishga oid metodik model ishlab chiqildi. Mustaqil topshiriqlarni baholashda refleksiya va portfoliodan foydalanishning samaradorligi ilmiy asoslandi. Tajriba natijalariga ko'ra, mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalar bilimini 15–20 % ga oshirishi aniqlanib, bu ilmiy-statistik jihatdan tasdiqlandi. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi namoyon etildi.

Kutilayotgan natijalar

Talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalari, izlanuvchanlik va ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish samaradorligi oshadi. Talabalarda refleksiya, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash qobiliyati shakllanadi. Ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslari, AR/VR texnologiyalari va boshqa innovatsion metodlardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Mustaqil ta'lim natijalari kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini to'liq ro'yobga chiqaradi.

Tahlil va natijalar.

Olib borilgan tajriba ishlari va mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ta'limini samarali rivojlantirishda bir qator muhim pedagogik va metodik omillar mavjud.

Birinchidan, modul asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari talabalarga o'z faoliyatini aniq rejalashtirish imkonini berdi. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanida modul maqsadlariga mos mustaqil topshiriqlar (laboratoriya ishlari, referatlar, taqdimotlar, test savollari va muammoli vazifalar) talabalarning bilim darajasini oshirish bilan birga ularning mustaqil izlanish va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirdi.

Ikkinchidan, tajriba jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar (vizual materiallar, 3D-modellar, elektron darsliklar, interaktiv testlar) talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirdi. Ayniqsa, laboratoriya mashg'ulotlarini mustaqil o'rganish topshiriqlari bilan uyg'unlashtirish talabalarning amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi.

Uchinchidan, baholashning formatif va summativ usullaridan foydalanish talabalarning mustaqil ishini ob'ektiv baholashga yordam berdi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning portfoliolari va refleksiv yozuvlari ularning shaxsiy rivojlanishini kuzatishda samarali vosita sifatida xizmat qildi.

Tajriba natijalariga ko'ra, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limiga ajratilgan vaqt va vazifalar hajmi oshirilishi, topshiriqlar mazmuni esa modul maqsadlari va fan xususiyatlariga moslashtirilishi kerakligi aniqlandi. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanida bu yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik berdi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan adabiyotlar tahlili va tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Modul asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, vazifa va topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish hamda formatif baholashni yo'lga qo'yish talabalarning mustaqil ishlash motivatsiyasini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Takliflar:

Kredit-modul tizimida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanining har bir moduliga mos ravishda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish.

Talabalarning mustaqil ishlarini qo'llab-quvvatlashda elektron resurslar, 3D-modellar, AR/VR texnologiyalari va virtual laboratoriyalardan keng foydalanish.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabaning o'z-o'zini baholash va refleksiv yozuvlarini joriy etish orqali ularning shaxsiy rivojlanishini muntazam kuzatib borish.

Fan bo'yicha portfoliolarni yaratish va ulardan baholashda samarali foydalanish.

Talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilishda aniq va shaffof baholash mezonlarini joriy etish, rubrikalardan foydalanishni kengaytirish.

Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun mustaqil ta’lim topshiriqlarini amaliy vaziyatlar, klinik misollar va muammoli topshiriqlar bilan boyitish.

Umuman olganda, kredit-modul tizimi doirasida talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantirish nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki ularning ijodiy fikrlash, izlanish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Holmurodov, A. (2020). Kredit-modul tizimida ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari. Oliy ta’lim muammolari jurnali, 3(2), 45–52.
2. Karimova, M. (2022). Talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantirishda baholash vositalarining ahamiyati. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 1(5), 88–94.
3. Mamatov, B. (2023). Oliy ta’limda kredit-modul tizimining samaradorligini oshirish yo‘llari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 4(1), 60–67.
4. Shadiev, R. (2021). Talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. Uzbek Journal of Pedagogical Research, 2(4), 112–119.
5. Norqulov M., Hasanov H. Umumiy anatomiya va fiziologiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 280 b.
6. Xolmurodova D. Ta’lim jarayonida kredit-modul tizimi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 198 b.
7. D. Kalandarova, & D. Karimov (2022). Biologiya fanini o‘qitishda multimediadan foydalanish samaradorligi. Science and innovation, 1 (B8), 2276-2279. doi:10.5281/zenodo.7445311
8. Рахмонов, Р. Р., Самандаровна, Қ. Д., & Норова, Д. Х. (2022). Бухоро вилояти сув ҳавзаларида учрайдиган нодир ва камёб балиқхўр қушлар биологияси ва экологиясига доир маълумотлар. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali, 1(1), 28-34.
9. Kalandarova, D. S., & Bakayeva, S. B. (2022). Biologiya o'qitish metodikasida axborot texnologiyalarini o’rni. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(2), 43-47.
10. Samandarovna, K. D. Toshtemir o‘g‘li, K.D (2024). Axborot texnologiyalarining biologiya fanlariga ta'siri. O'zbekistonda texnika fan tadqiqotlari, 2(2), 243-249.
11. Қаландарова, Д. С. (2021). Методика решения задач по биологии. Scientific progress, 2(1), 1609-1611.
12. Каландарова, Д. (2020). Использование зеленой хлореллы, выращенной в органоминеральной среде, в качестве пищевых продуктов в рыбоводстве. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2(2).
13. Каландарова, Д., & Рахмонова, Ш. (2025). Методика организации самостоятельной работы студентов в кредитно-модульной системе по предмету анатомии и физиологии человека. Молодые ученые, 3(1), 21-23.
14. Каландарова, Д. С., & кизи Студентка, П. З. З. Н. (2024). Методы обучения биологии их особенности и условия применения практические методы обучения. Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar, 2(4), 27-32.
15. Каландарова, Д. С. (2024). Учебный предмет «биология». Методический анализ документов, регламентирующих деятельность учителя биологии. International journal of scientific researchers (ijsr) indexing, 4(2), 36-39.
16. Каландарова, Д. (2022). Методика формирования умений и навыков в процессе обучения биологии. Евразийский журнал академических исследований, 2(13), 38-41.

Джуракулова Диёра Алишер кизи
докторант Самаркандский государственный институт иностранных языков
https://orcid.org/0009-0002-8173-9319

ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ В РАМКАХ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА ПРИ ВЫБОРЕ ЗАДАНИЙ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ

Аннотация. *Обучение на основе проектов (PBL) вовлекает студентов в продолжительные исследовательские проекты, требующие подлинной коммуникации и завершающиеся созданием конкретного продукта. В преподавании иностранных языков PBL соответствует деятельностному подходу, позволяя студентам использовать целевой язык для решения реальных задач, что отражает идеи Дж. Дьюи об «обучении через деятельность» и социокультурную теорию Л. С. Выготского. Проектно-ориентированное обучение языкам определяется как трансформирующий опыт, соединяющий изучающих язык с реальными проблемами и значимым использованием целевого языка. Оно реализуется не через одну задачу, а посредством серии последовательных этапов. Основные элементы качественного PBL включают интеллектуальный вызов, аутентичность, сотрудничество, управление проектом, публичное представление результатов и рефлексию, что делает данный подход особенно эффективным для языкового образования.*

Ключевые слова: *Обучение, язык, проект, образование,коммуникация, сотрудничество, автономия.*

PROJECT-BASED LEARNING WITHIN A LEARNER-CENTERED APPROACH IN SELECTING TASKS FOR STUDENTS OF LANGUAGE UNIVERSITIES

Annotation. *Project-based learning (PBL) engages students in inquiry-driven, long-term projects that require authentic communication and culminate in a tangible product. In language education, PBL corresponds to action-oriented approaches, enabling learners to use the target language in solving real-world tasks while reflecting Dewey's experiential learning and Vygotsky's social constructivism. PBL is defined as a transformative learning experience that connects learners with meaningful target language use and real-life issues. It is implemented not as a single task, but through scaffolded activities aimed at complex goals. Key elements of effective PBL include intellectual challenge, authenticity, collaboration, project management, public presentation, and reflection, making it highly adaptable to language learning.*

Key words: *Learning, language, project, education, communication, collaboration, autonomy.*

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV DOIRASIDA TIL OLIYGOHLARI TALABALARI UCHUN TOPSHIRIQLARNI TANLASHDA LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH

Annotatsiya. *Loyiha asosidagi ta’lim (PBL) talabalarni izlanishga yo‘naltirilgan, uzoq muddatli loyihalarga jalb etadi, bu jarayon haqiqiy muloqotni talab qiladi va aniq mahsulot yaratish bilan yakunlanadi. Til o‘qitishda PBL faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarga mos keladi: talabalar maqsadli tilni real muammolarni hal etishda qo‘llaydilar, bu esa Dj. Dyuiyning “amaliyot orqali o‘qitish” g‘oyalarini va L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik nazariyasini aks ettiradi. PBL til o‘rganishda transformatsion tajriba sifatida ta’riflanadi, u o‘quvchilarni real hayotiy muammolar va mazmunli til qo‘llanilishi bilan bog‘laydi. Bu jarayon bitta topshiriq emas, balki murakkab maqsadlarga yo‘naltirilgan bir qator bosqichlardan iborat. Sifatli PBLning asosiy elementlari intellektual chaqiriq, haqiqiylik, hamkorlik, loyiha boshqaruvi, natijalarni ommaviy taqdim etish va refleksiya bo‘lib, u til o‘rganish jarayonida samarali qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, til, loyiha, ma’lumot, muloqot, hamkorlik, mustaqillik.*

Введение. Обучение на основе проектов (Project-Based Learning, PBL) предполагает вовлечение студентов в продолжительные, исследовательски-ориентированные проекты, требующие подлинной коммуникации и завершающиеся созданием конкретного общественно значимого продукта. В контексте языкового образования PBL тесно соотносится с современными деятельностными парадигмами: студенты используют целевой язык для решения реальных задач, что отражает концепцию «обучения через деятельность» Дж. Дьюи и социокультурную теорию Л. С. Выготского, рассматривающую обучение как социальную практику [1]. Национальный центр по изучению иностранных языков (National Foreign Language Resource Center) определяет проектно-ориентированное обучение языкам (PBLL) как «трансформирующий опыт обучения, направленный на вовлечение изучающих язык в решение реальных проблем и использование целевого языка в значимых контекстах», подчёркивая значимость создания аутентичных продуктов для аудитории, выходящей за пределы учебного класса. На практике PBL реализуется не в форме одного задания, а как серия последовательно структурированных этапов, ориентированных на решение сложного вопроса или достижение поставленной цели.

Принципы проектного обучения в языковом образовании

Программы бакалавриата по изучению иностранных языков могут эффективно использовать проектное обучение (PBL), опираясь на установленные критерии проектного дизайна. Как отмечают Босс и Лармер (2018), высококачественное проектное обучение включает наличие аутентичного исследовательского вопроса или проблемы, углублённое исследование с элементами поиска и доработки, использование реального контекста, предоставление студентам «права голоса и выбора», командное сотрудничество, а также создание общественно значимого продукта[1]. В условиях языкового обучения это может проявляться, например, в разработке студентами культурного мероприятия, создании мини-документального фильма или проведении исследования локальной социальной проблемы на иностранном языке. Такие проекты структурируют процесс обучения через планирование, взаимную обратную связь и публичную презентацию результатов. Эффективно спроектированное PBL обеспечивает использование целевого языка на каждом этапе и позволяет обучающимся осмысленно вести коммуникацию, связанную с их жизненным опытом и будущей профессиональной деятельностью.

Педагогические основы PBL достаточно подробно описаны в научной литературе. Оно часто определяется как «обучение через деятельность», восходящее к идеям Дж. Дьюи об активном и опытном обучении. В аудитории, организованной по принципам PBL, роль преподавателя трансформируется в позицию наставника или фасилитатора, в то время как студенты вовлекаются в социальное взаимодействие, решение проблем и творческую деятельность на изучаемом языке. Это коррелирует с принципами коммуникативного и задачного подходов в обучении иностранным языкам: обучающиеся получают значимый языковой материал и должны производить языковой продукт для достижения решения, тем самым усваивая грамматические структуры и лексику в контексте [9]. Иными словами, PBL обеспечивает «понятный ввод и продуктивный вывод» в процессе аутентичных заданий. Современные исследования в области овладения вторым языком также подтверждают, что подобные интерактивные, ориентированные на обучающегося формы деятельности значительно повышают мотивацию и качество усвоения, связывая использование языка с конкретными, практически значимыми целями.

Преимущества проектного обучения для изучающих иностранные языки

Внедрение проектного обучения (PBL) в университетские курсы иностранных языков показало целый ряд положительных эффектов для обучающихся. Исследования последовательно фиксируют рост мотивации и вовлеченности: студенты часто характеризуют PBL-курсы как более мотивирующие, интерактивные и практико-ориентированные по сравнению с традиционными формами обучения. Так, в тайваньском исследовании курса «Бизнес-английский» было выявлено, что моделирование бизнес-проекта в формате PBL значительно повысило мотивацию студентов и создало психологически безопасную, совместную среду для использования английского языка. Аналогично, в сельской китайской школе изучения английского языка как иностранного проектное обучение заметно усилило интерес и внутреннюю

мотивацию обучающихся по сравнению с традиционным обучением. В исследовании, проведённом во Вьетнаме (Yesin University), также показано, что реализация PBL-проектов привела к «существенному росту учебной мотивации и автономии студентов», которые продемонстрировали позитивное отношение к выполнению проектных заданий [4].

Кроме того, PBL способствует развитию автономии и уверенности учащихся. Вовлекая студентов в процесс принятия решений и управления проектами, оно предоставляет им возможность взять на себя ответственность за собственное обучение. В кейс-исследовании курса академического письма (EAP) в Макао проектные задания позволили студентам занять «автономную позицию», что в сочетании с педагогической рефлексией способствовало росту уверенности и развитию навыков самостоятельной работы. Аналогичные результаты зафиксированы в исследовании Ха (2020), проведённом на японском курсе во вьетнамском университете: студенты высказывали преимущественно положительное отношение, демонстрировали рост автономии и отмечали ценность возможности самостоятельно планировать, корректировать и реализовывать свои проекты [2]. Проектное обучение естественным образом формирует автономию, так как обучающиеся вынуждены самостоятельно осуществлять поиск информации, решать возникающие проблемы и оценивать работу сверстников .

Ещё одним важным преимуществом является аутентичное использование языка и интеграция языковых навыков. PBL-проекты предполагают необходимость чтения, письма, устной и аудитивной деятельности в условиях, максимально приближённых к реальным. Шон Грант (2017) установил, что даже в рамках исследовательского проекта по академическому письму (EAP) студенты практиковали «подлинное, содержательное использование языка», что сближает данный подход с методикой обучения на основе задач [3]. Итеративный процесс исследования и создания итогового продукта обеспечивает систематическую и расширенную практику во всех видах речевой деятельности. Преподаватели отмечают, что работы студентов в формате PBL отличаются большей естественностью речи и более глубоким культурным содержанием по сравнению с традиционными упражнениями. Итоговые продукты студентов: презентации, постеры, видеоролики, веб-сайты, становятся доказательством их коммуникативной компетентности.

Кроме того, проектное обучение развивает навыки сотрудничества и компетенции XXI века наряду с языковыми умениями. Поскольку проекты, как правило, выполняются в группах, студенты осваивают стратегии коммуникации, командной работы, лидерства и цифровой грамотности. Так, в одном из тайваньских исследований отмечено, что симулированный бизнес-проект «обеспечил возможности для социального взаимодействия» и совместного решения проблем, в результате чего формировались коллективные («синергетические») знания. В исследовании Картика (2020), проведённом среди студентов в Индонезии, было подчёркнуто, что PBL развивает не только языковые навыки, но и критическое и креативное мышление, умение решать проблемы и коммуникативные умения [10]. Иными словами, проектное обучение воспроизводит реальные условия, в которых язык используется коллективно и для творческого поиска решений.

Наконец, PBL способствует развитию межкультурной компетенции и глобальной осведомлённости. Студенты, выполняя проекты, часто обращаются к культурным темам или взаимодействуют с носителями других культур, что усиливает межкультурное понимание. Недавнее исследование во Вьетнаме показало, что проекты PBL, специально ориентированные на межкультурное обучение, обладают «значительным потенциалом в формировании межкультурной компетенции». Участники отметили рост уверенности и развитие реальных коммуникативных навыков в процессе выполнения проекта «Культурный калейдоскоп», что подтверждает способность PBL эффективно сочетать изучение языка с культурным осмыслением.

В таблице 1 представлены ключевые преимущества проектного обучения (PBL) для студентов языковых вузов. Она отражает основные педагогические эффекты данного подхода и их содержание. Использование таблицы позволяет систематизировать исследовательские данные и продемонстрировать, какие именно аспекты обучения развиваются в результате внедрения PBL.

Таблица 1

Ключевые преимущества проектного обучения для студентов языковых вузов

Аспект	Описание
Аутентичная коммуникация	Проекты требуют реального использования языка и создают значимые контексты для практики .
Повышение мотивации	Обучающиеся отмечают более высокий уровень вовлеченности и интереса при работе над самостоятельными проектами.
Автономия обучающихся	Задания PBL превращают студентов в активных участников (планирование, принятие решений, рефлексия), а не в пассивных получателей знаний .
Навыки сотрудничества	Командные проекты развивают умения коммуникации, взаимодействия и решения проблем наряду с языковыми компетенциями .
Интеграция навыков	PBL естественным образом объединяет чтение, письмо, говорение, аудирование и критическое мышление в рамках одного задания .
Межкультурная компетентность	Многие проекты включают культурные темы или социальные проблемы, способствуя развитию межкультурного понимания и эмпатии.
Ответственность и рефлексия	Создавая публичный продукт, студенты учатся самооценке и совершенствованию собственного языкового опыта .

Проектное обучение в рамках личностно-ориентированного подхода при выборе заданий для студентов языковых вузов представляет собой современную педагогическую технологию, направленную на активизацию субъектной позиции обучающихся и развитие их профессионально-коммуникативной компетенции. В условиях реформирования высшего образования и перехода от знаниевой парадигмы к компетентностной модели особое значение приобретает организация учебного процесса, в котором студент не просто усваивает готовые знания, а становится активным участником их конструирования. Проектная деятельность позволяет объединить когнитивные, коммуникативные и личностные компоненты обучения, способствуя формированию мотивации, саморефлексии и способности к саморазвитию.

В контексте личностно-ориентированного подхода проект выступает не только как форма учебной активности, но и как средство индивидуализации образовательного процесса. Каждый студент, участвуя в проекте, выбирает тему, методы и средства в соответствии со своими интересами, уровнем владения языком и профессиональными целями. Таким образом, педагог создает условия для проявления личностного потенциала, обеспечивая поддержку и педагогическое сопровождение. Это особенно важно для языковых вузов, где успех обучения во многом определяется способностью студентов применять язык в реальных, значимых ситуациях общения.

Проектное обучение стимулирует развитие критического и творческого мышления, коммуникативных навыков, а также межкультурной компетенции. Выполняя исследовательские или практико-ориентированные проекты, студенты учатся анализировать информацию, формулировать гипотезы, отстаивать свои идеи и работать в команде. Такая деятельность способствует формированию ответственности за результат, умения планировать и оценивать собственную деятельность. Кроме того, проекты, связанные с аутентичными ситуациями (создание подкастов, презентаций, интервью, культурных обзоров), развивают языковую самостоятельность и уверенность в применении изучаемого языка.

Важным элементом проектного обучения является рефлексия. В процессе выполнения задания студенты осмысливают не только содержание и результат, но и свои собственные

стратегии обучения, трудности и достижения. Это обеспечивает формирование метакогнитивных умений, что напрямую связано с развитием автономии личности. Роль преподавателя при этом меняется: он становится фасилитатором, консультантом, координатором индивидуальных образовательных траекторий студентов.

Заключение.

Предоставляя студентам активную роль в решении содержательных задач, PBL формирует «живое образовательное пространство», где язык осваивается через его использование для решения реальных проблем. Проанализированные исследования последовательно демонстрируют, что данный подход способствует росту мотивации, развитию автономии и коммуникативной компетенции обучающихся. Особо важно отметить, что PBL согласуется с современными рамками преподавания иностранных языков: оно воплощает деятельностный подход, закреплённый в CEFR, подготавливает студентов к межкультурному взаимодействию XXI века и интегрирует предметное содержание с практикой использования языка.

Разумеется, эффективность напрямую зависит от качества проектирования: проекты должны быть аутентичными, достаточно сложными и тщательно структурированными (в соответствии с «золотыми стандартами» PBL). Однако при грамотной реализации данный подход способен преобразовать пассивных студентов в активных пользователей языка. Как отмечается в одном из обзоров, проектно-ориентированное обучение «может быть реализовано в творческих и разнообразных формах», предоставляя обучающимся выбор, возможность рефлексии и осязаемые результаты, делающие процесс обучения запоминающимся.

Список литературы.

1. Boss, S., & Larmer, J. (2018). Project Based Teaching. ASCD.
2. Chi, L., et al. (2024). Using PBL to promote intercultural competence. International Journal of Science & Development Research, 9(5).
3. Grant, S. (2017). Implementing project-based language teaching: A Macau case study. Asian-Pacific Journal of Second & Foreign Language Education, 2(1).
4. Ha, N. T. D. (2020). Effects of PBL in a Japanese language course: A case study. HCMCOU Journal of Science – Social Sciences, 10(5).
5. Holmuradova, L. E. (2021). National and cultural originality of English and French phraseology and its influence on the development of the mentality of the people. Annals of R.S.C.B., 25(3), 4778–4784.
6. Holmuradova, L. E. (2023). Reflection of man's spiritual being in a language. International Engineering Journal for Research & Development, 8(6).
7. Holmurodova, L. (2020). Проблемы обучения лексическому оформлению иноязычного речевого высказывания. Замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика.
8. Huang, Y.-C., & Huang, H.-Y. C. (2019). Project-based English learning in a simulated business context. English Language Teaching, 12(12).
9. Jaleniauskienė, E., & Venckienė, D. (2025). Project-based language learning in higher education: A scoping review. Interdisciplinary Journal of PBL.
10. Kartika, A. (2020). Indonesian undergraduates' perceptions of PBL in critical reading. ELT Worldwide Journal, 7(1).
11. Tashpulatova, M. (2023). The structure of an integrative approach to teaching a foreign language. Science and Innovation International Scientific Journal, №2(2), 500–502.
12. Yang, P., et al. (2025). The impact of PBL on EFL learners' motivation and performance: An empirical study. Humanities & Social Sciences Communications, 12.

Мирахмедова Ирода Анвар кизи
Национальный университет Узбекистана
Преподаватель межфакультетской кафедры языков
E-mail: mirakhmedova.iren@gmail.com

О РОЛИ ТЕКСТА В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье анализируются возможности традиционной и электронной образовательной среды при обучении русскому языку студентов неязыковых специальностей. Основное внимание уделяется работе с профессионально ориентированными текстами как важному элементу компетентностного подхода в современной лингводидактике. Подчеркивается значимость формирования профессиональных компетенций в процессе изучения русского языка как условия эффективной подготовки будущих специалистов в системе высшего образования.*

Ключевые слова: *профессиональная компетенция, текст, общение, речевая культура, единица обучения, высказывание, монологическая речь, чтение.*

ON THE ROLE OF TEXT IN THE PROCESS OF DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Abstract. *The article explores the potential of both traditional and digital learning environments in teaching the Russian language to non-philology students. Special attention is given to working with professionally oriented texts as a key component of the competence-based approach in modern language didactics. The formation of students' professional competencies in the process of learning Russian is emphasized as a fundamental requirement in the training of specialists within the system of higher education.*

Key words: *professional competence, text, communication, speech culture, learning unit, utterance, monologic speech, reading.*

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA MATNNING O‘RNI HAQIDA

Annotatsiya. *Maqolada mutaxassislik tili sifatida talabalarga rus tilini o'qitishda an'anaviy va elektron ta'lim muhitining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor zamonaviy lingvodidaktikada kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning muhim elementi sifatida professional yo'naltirilgan matnlar bilan ishlashga qaratilgan. Rus tilini o'rganish jarayonida oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni samarali tayyorlash sharti sifatida kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishning ahamiyati ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetentsiya, matn, aloqa, nutq madaniyati, o'qitish birligi, gapirish, monologik nutq, o'qish.*

Введение. Работа с текстом на занятии по русскому языку не только развивает речь, но и формирует коммуникативную и профессиональную компетенцию студентов. Основной единицей формирования профессиональной компетентности будущего филолога считается текст, который является основой для формирования навыков и умений чтения, письма, говорения и аудирования. Известно, что работа с текстами осуществляется на всем протяжении процесса лингвистического обучения в вузе. А создание собственных текстов - рефератов, курсовых работ студентов на изучаемом языке - становится

востребованным видом учебной деятельности. Практические занятия предлагаются в форме:

- семинаров (дискуссии, доклады с обсуждением, деловые игры),

- компьютерных занятий (с текстовыми заданиями, тестами, практикумом по формам профессионального интернет-опосредованного общения),
- занятий с использованием информационно-коммуникационных технологий (включая метод проектов, личностно ориентированный подход, проблемно-импровизационные задания, мультимедийные презентации и др.).

Основная часть

Взаимное влияние и синергетический эффект. Сопоставление данных философских и психологических концепций позволило выявить синергетический характер взаимодействия философского мышления и рефлексии. Их единство проявляется в том, что философия придаёт мышлению глубину, а психология - конкретность и направленность на внутренние процессы. На основе обобщения теоретического материала выделены следующие закономерности:

1. Философское мышление стимулирует рефлексию, переводя познание из уровня знаний на уровень смыслов и ценностей.

2. Рефлексия обогащает философское мышление, наполняя его субъективным опытом и экзистенциальной подлинностью.

3. Совместное развитие философской и психологической рефлексии ведёт к формированию целостной личности, способной к самоуправлению, моральному выбору и внутреннему росту.

Эта взаимосвязь особенно проявляется в педагогических и психотерапевтических практиках, где философское осмысление опыта соединяется с психологическими техниками самопознания и самоанализа.

Практическое значение исследования. Практический анализ подтвердил, что развитие рефлексивных умений с опорой на философские категории повышает уровень личностной зрелости, способствует саморегуляции, формированию осознанных жизненных целей и ценностного самопонимания. В условиях современного образования внедрение рефлексивно-философских практик (дискуссий, эссе, диалогов, тренингов по осознанности) усиливает гуманистическую направленность обучения и развивает способность студентов к критическому мышлению и самоанализу.

Таким образом, результаты исследования показывают, что:

• философское мышление формирует идеальные ориентиры и смысловые рамки самопознания;

• психологическая рефлексия реализует эти ориентиры на уровне личного опыта и внутреннего саморазвития;

• их взаимодействие обеспечивает гармоничное развитие сознания, в котором единство рационального и эмоционального, логического и духовного порождает подлинное самопонимание личности.

Именно такое единство - философского осмысления и психологической рефлексии - создает фундамент высшего уровня самосознания, служащего основой нравственной зрелости, устойчивости и духовного совершенствования человека.

Выводы и рекомендации. На основании проведённого теоретико-аналитического исследования можно сделать ряд обобщающих выводов о характере и значении взаимосвязи философского мышления и психологической рефлексии в процессе самопознания личности.

Выводы

1. Философское мышление и психологическая рефлексия представляют собой взаимодополняющие формы познания человека самим собой.

Философское мышление обеспечивает мировоззренческую глубину и смысловую направленность самосознания, а психологическая рефлексия раскрывает внутренние механизмы осознания, самоанализа и саморегуляции.

2. Самопознание личности возможно только при единстве рационально-философского и эмоционально-психологического компонентов.

Философия формирует идеалы и ценности, а психология позволяет проживать и интериоризировать их в личном опыте, превращая знание в жизненную установку.

3. Философская культура служит основой развития рефлексивных способностей личности. Она направляет внимание человека к смыслу собственного существования, формирует ответственность за внутренний выбор и способствует становлению нравственного самосознания.

4. Психологическая рефлексия выступает практическим инструментом философского самопознания. Она позволяет реализовывать философские принципы в повседневной жизни - через анализ своих поступков, коррекцию поведения, осознание мотивации и внутреннего состояния.

5. Взаимное влияние философского и психологического мышления создает синергетический эффект развития личности.

Это единство формирует зрелое, гармоничное самосознание, способное к внутренней свободе, критическому мышлению и моральной ответственности.

Рекомендации

1. Для образовательной практики:

- Включать в программы гуманитарных и психологических дисциплин специальные курсы по философии сознания, психологии мышления и рефлексии.
- Использовать рефлексивно-философские методы обучения - дискуссии, эссе, метакогнитивные задания, дневники самонаблюдения, семинары по самопознанию.
- Развивать у студентов культуру внутреннего диалога, формируя умение ставить и решать вопросы о смысле, ценностях и целях собственной деятельности.

2. Для психологической практики и самопомощи:

- Применять философскую рефлексию как инструмент глубинного осмысления жизненных кризисов и выбора жизненных стратегий.
- Использовать техники осознанности (mindfulness) и экзистенциального анализа, направленные на соединение эмоционального опыта с философским самопониманием.

3. Для научных исследований:

- Продолжить изучение интеграции философских и психологических подходов в анализе сознания и личности;
- Разработать модель рефлексивно-философского самопознания, включающую когнитивный, аффективный и аксиологический компоненты;
- Проводить эмпирические исследования, направленные на выявление взаимосвязи уровня философской культуры и глубины психологической рефлексии.

Гармоничное взаимодействие философского мышления и психологической рефлексии является фундаментом формирования высшего уровня самосознания, обеспечивающего личностную зрелость, духовную целостность и осознанную ответственность человека перед собой и обществом. Развитие этой взаимосвязи должно рассматриваться как стратегическое направление гуманистического образования и психолого-педагогической практики XXI века.

Список использованной литературы.

1. Аристотель. О душе. - М.: Мысль, 1976.
2. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. - М.: Советская Россия, 1979.
3. Бердяев Н.А. Самопознание (Опыт философской автобиографии). - М.: Республика, 1991.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Педагогика, 1982.
5. Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа. - М.: Наука, 1977.
6. Гуссерль Э. Кризис европейских наук и трансцендентальная феноменология. - М.: Дом интеллектуальной книги, 2004.
7. Джеймс У. Поток сознания. // Вопросы философии. - 1991. - № 3. - С. 93–108.
8. Кант И. Критика чистого разума. - СПб.: Наука, 1999.
9. Колб Д. Экспериментальное обучение: Опыт как источник обучения и развития. - Нью-Джерси: Prentice Hall, 1984.
10. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Смысл, 2005.
11. Маслоу А. Мотивация и личность. - СПб.: Питер, 2008.
12. Мерло-Понти М. Феноменология восприятия. - СПб.: Ювента, 1999.
13. Рикёр П. О себе как о другом. - М.: Аспект Пресс, 2008.
14. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2003.
15. Сартр Ж.-П. Бытие и ничто. - М.: Республика, 2000.
16. Флавелл Дж. Метакогниция и когнитивное развитие у детей. // Психология развития. - 1987. - № 4. - С. 45–56.
17. Франкл В. Человек в поисках смысла. - М.: Прогресс, 1990.
18. Хайдеггер М. Бытие и время. - М.: Республика, 1997.
19. Шон Д. Рефлексивный практик: как профессионалы думают в действии. - Лондон: Temple Smith, 1983.
20. Юнг К.Г. Архетип и символ. - М.: Рефл-бук, 1996.
21. Duval, S., & Wicklund, R. A. A Theory of Objective Self-Awareness. - New York: Academic Press, 1972.

Ikromov Shahobiddin Najmiddinovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti v.b.

REJISSYORLIK TA’LIMI JARAYONIDA ETYUD VA MIZANSSENA UYG‘UNLIGINING METODOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aktyorlik va rejissyorlik etyudlarining badiiy ta’sirchanligi hamda tomoshaviyligini oshirishda mizanssenaning o‘rni va metodologik ahamiyati tahlil etiladi. Shu bilan birga, sahna asarining dramaturgik mazmunini ochishda, obrazlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashda hamda sahna harakatining mantiqiy rivojini ta’minlashda mizanssenaning funksiyasi alohida yoritilgan. Har qanday sahna asari o‘ziga xos mizanssena yechimga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlab, uning aktyorlik ijrosi, rejissorlik talqini va tomoshabin idroki o‘rtasidagi uzviy bog‘liqligi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Etyud, mizanssena, rejissura, aktyor, sahna, spektakl, kompozitsiya, xatti-harakat, qarama-qarshilik, dramaturgiya.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЧЕТАНИЯ ЭТЮДА И МИЗАНСЦЕНЫ В ПРОЦЕССЕ РЕЖИССЁРСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются роль и методическое значение мизансцены в повышении художественной эффективности и зрительской привлекательности актёрско-режиссёрских этюдов. При этом выделяется её роль в раскрытии драматургического содержания сценического произведения, выражении взаимоотношений между персонажами и обеспечении логического развития сценического действия. Подчёркивая необходимость наличия собственного мизансценического решения для любого сценического произведения, раскрывается неразрывная связь между актёрским мастерством, режиссёрской интерпретацией и зрительским восприятием.*

Ключевые слова: *этюд, мизансцена, режиссура, актёр, сцена, исполнение, композиция, поведение, конфронтация, драматургия.*

METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE INTEGRATION OF ETUDE AND MISE-EN-SCÈNE IN THE PROCESS OF DIRECTING EDUCATION

Abstract. *This article analyzes the role and methodological significance of mise-en-scène in increasing the artistic effectiveness and audience appeal of acting and directing etudes. At the same time, the function of mise-en-scène in revealing the dramaturgical content of a stage work, expressing the relationships between characters, and ensuring the logical development of stage action is highlighted. Emphasizing the need for any stage work to have its own mise-en-scène solution, the inextricable link between its acting performance, directorial interpretation, and audience perception is revealed.*

Key words: *Etude, mise-en-scène, directing, actor, stage, performance, composition, movement, conflict, dramaturgy.*

Kirish. Etyud ustida ishlash jarayonida to‘g‘ri topilgan mizanssena muhim hisoblanadi. Huddi spektaklda bo‘lgani kabi etyudda ilgari surilgan fikr va g‘oyani ochib berishdagi eng muhim ta’sirchan vosita bo‘lib hizmat qiladi. Etyudlarda monolog va dialoglarni ishlatilmasligi, voqealar asosan xatti-harakat va holatlar orqali ochib berilishini hisobga olsak mizanssenaning ahamiyati yanada oshadi. Etyud hayotdan olingan bir ko‘rinish bo‘lib dramaturgiyaning barcha kompanentlarini o‘z ichiga olishi va kompazitsion tuzilishga ega ekanligini hisobga olib shuni aytish kerakki turi va ko‘rinishidan qattiy nazar har bir etyud o‘z mizanssenasiga ega bo‘lishi kerak. Etyud mizanssenasi haqqida gapirishdan avval mizansena nima ekanligini va qanday turlari borligini aniqlab olsak.

Mizanssena bu sahna asarining tasirchanligini oshiruvchi va tomoshabinga asar haqqida ma’lumot berish uchun ishlatiladigan vosita. Mizanssena atamasi frantsuzcha “mise en scène” so‘zidan

kelib chiqqan bo‘lib, “sahna ko‘rinishi” degan ma’noni anglatadi. Mizanssena sahnadagi bir qancha elementlarning o‘zaro ta’siri, yani, dekoratsiya, kostyumlar, yorug‘lik, ovoz va aktyorlarning xatti-harakati asosida yaratiladi. Sahnada ketayotgan jarayonni tushunish va talqin qilish uchun kalit hisoblanadi. Bu rejissyorga ma’lum bir vaziyatni yaratishga, tomoshabinlarga spektakl g’oyasini yetkazib berishga, asosiy fikrlarni ta’kidlashga va tomoshabinlarning e’tiborini kerakli vaziyatlarga qaratishga imkon beradi. Shuningdek, aktyorlarga qahramonlarini o‘zida mujassam etish va his-tuyg‘ularni tomoshabinga yetkazishda katta yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Rejissor sahnalashtirayotgan asari orqali nima demoqchi ekanligini tomoshabinga yetkazishda mizanssena asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu sababli mashhur rejissor, pedagog K.S.Stanislavskiy “Mizanssenani – rejissyorning tili” deya ta’riflaydi. A.Arto esa mizanssenani “sahnadagi maydon va makon tili”, deya atagan edi.

“Mizanssena ishtirokchilar o‘rtasidagi aloqani, ularning xatti-harakati va kurashi, harakatning dinamik rivojini aks ettiradi. Mizanssena sahnada bo‘layotgan voqelarning plastik aks ettirilishi bo‘lib, uning boshi, rivoji va oxiri sodir bo‘layotgan voqelar rivojiga bog‘liq bo‘ladi. U voqeadagi kabi, boshlanish, o‘sish va yakunga egadir. Bitta mizanssena ikkinchisiga bir voqeaning ikkinchisiga o‘tishi bilan birgalikda baravar ko‘chadi. Bundan kelib chiqadiki, spektakldagi mizanssena “alohida on” bo‘lmay, balki voqealar qatorini plastik ifodalovchi, bir-biri bilan uzviy bog‘langan dinamik zanjirdir”[1.B.60.]. A.D.Popovning fikricha, mizanssena rejissyor rejasini, uning tuyg‘u va fikrlarini tomoshabinga yetkazib beruvchi g‘oyat muhim vositasidir. Mizanssena o‘z ichiga jonli xatti-harakat qiluvchi insonni qamrab olgan plastik va ovozli obrazdir. Nur, rang, shovqin va musiqa qo‘shimcha bo‘lib, so‘z va harakat uning asosiy komponentlaridir. Yozma badiiy obraz sahna badiiy obraziga ko‘chayotganda mizanssena shakliga aylanadi. Spektakl bu- mizanssenalardan tuzilgan munchoqdir[2.B.13.].

Mizanssena har doim personajlarning harakat va o‘zaro munosabatlaridan tashkil topgan bir manzara hisoblanadi. U sahnadagi tirik insonni markazga qo‘ygan plastik va akustik (eshitiladigan) obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Mizanssena o‘zining ichki ritmi va tempi (tezlik va ohangi)ga ega. Badiiy jihatdan ifodali mizanssena hech qachon o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi va rejissor uchun mustaqil maqsad sifatida qaralmasligi kerak. U har doim bir qator ijodiy vazifalarni kompleks hal etish vositasidir.

Bular qatoriga asarning asosiy harakat chizig‘ini ochish, obrazlarning yaxlit talqinini ta’minlash, personajlarning jismoniy holati va sahnadagi muhit atmosferasini yaratish kiradi. Aynan shu omillar mizanssenaning shakllanishiga asos bo‘ladi. Mizanssena rejissyor ijodining eng moddiy vositasi hisoblanadi. Agar u aniqlik va mantiqqa ega bo‘lsa, u holda u allaqachon badiiy obrazga aylanadi. Yaxshi qurilgan mizanssena aktyorning mahoratidagi kamchiliklarni yumshatib, uning ichki kechinmalarini avvalgidan ham chuqurroq ifodalashi mumkin.

Spektaklni qurishda har bir mizanssena almashinuvi fikr yo‘nalishining o‘zgarishini anglatishini yodda tutish zarur. Aktyorning tez-tez joy almashishi yoki harakatlanishi fikrning uzluksizligini buzadi, sahna harakatining yagona chizig‘ini yo‘qotadi, natijada obraz ifodasiga zarar yetadi. Ayniqsa, ijrochilar sahnaning oldingi qismida bo‘lgan paytda mizanssenadan ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur, chunki hatto eng kichik harakat ham yangi mizanssena sifatida qabul qilinadi. Bunday vaziyatlarda aniqlik, me’yor hissi va did rejissyorga eng yaxshi yo‘l ko‘rsatuvchi vositalar hisoblanadi. Mizanssena tili qahramonning ichki hayoti va uning asosiy g‘oyaviy maqsadini ifodalay olgan paytda, u o‘zining haqiqiy boyligi va badiiy xilma-xilligiga erishadi.

Tahlil va natijalar: Demak mizanssena sahnada aks ettirilayotgan asarining barcha tarkibiy qismlarining bir biri bilan uyg‘un holatga kelishidir. U nafaqat dekoraysiyalar, balki musiqa, yorug‘lik effektlari hamda aktyorlikni ham o‘z ichiga oladi. Mizanssena sahna san’atining ajralmas qismi bo‘lib, spektakl atmossferasini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Mizanssenaning asosiy g‘oyasi sahnada haqiqiy sahna fonini yaratishdir. Turli xil dekoratsiyalar, buyumlari va boshqa elementlarni o‘rnatish orqali haqiqiy xonaning tasviri yaratiladi. Rejissor mizanssena orqali nafaqat realistik muhit yaratdi, balki sahnani turli qisimlarga bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri topilgan mizanssena tufayli sahnada zamon va makonini tezda o‘zgartirish hamda bir sahnadan ikkinchi sahnaga yengillik bilan o‘tish imkonini yaraladi.

Teatrlarning texnik imkoniyatlarini takomillashganligi tufayli mizanssenaning xilma-xil va murakkab shakllari vujudga keldi. Turli yoritish vostalari yordamida sahnani bir qancha bo‘laklarga bo‘lish orqali sahnalarni tez o‘zgartirish mexanizmlari paydo bo‘lishi bilan mizanssenaning ta’sirchanligini yanada oshdi. Spektaklning syujeti va talqiniga qarab mizanssena o‘zgarib borishi mumkin. U aniq, batafsil bo‘lishi yoki mavhum, ramziy bo‘lib, ma’lum g‘oyalar yoki his-tuyg‘ularni yetkazish uchun minimal elementlardan foydalanilgan holda shakillantiriladi.

Shunday qilib, sahnadagi ijrochilar, dekoratsiyalar, butaforlar yahlit ansambilga aylanadi va yagona, yahlit mizanssenani yaratishga yordam beradi. Dekortsiyalar, rekvizitlar mizanssena yaratishda muhim rol o‘ynidi. To‘g‘ri topilgan mizanssena, dekoratsiya, kostyumlar, yorug‘lik va tovush, tomoshabinga sahnada sodir bo‘layotgan voqealarni tushinishga va aktyorlar his tuyg‘ularini his qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, mizanssena spektakldagi muayyan fikrlar yoki g‘oyalarni ta’kidlash uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, ba’zi bir sahnalarning asosiy nuqtalarini yoki ramziy ma’nosini tomoshabinga yetkazishda turli noodatiy mizanssenalardan foydalanish mumkin.

Shunday qilib, mizanssena sahnada atmosferani yaratishda muhim rol o‘ynaydi va tomoshabinlarga asarda ilgari surilayotgan fikr va g‘oyani chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yuqori sifatli sahna ko‘rinishi hamda aktyorlarning his tuyg‘ularini yanada esda qolarli va samarali qiladi.

Demak etyudlar sahnalashtirishda ham mizanssenaga jiddiy e’tibor qaratish kerak. Etyudning mizanssenasi ustida ishlash talaba rejissor uchun anchagina murakkab hisoblanadi. Bunda pedagog tomonidan kerakli tavsiya va yo‘nalish ko‘rsatilishi kerak. Bu jarayon qanday bo‘ladi. Talaba rejissor etyud ssenariysini tasdiqdan o‘tkazgandan so‘ng mustaqil tarzda etyud ustida ishlashni boshlaydi. Ishlash jarayonida talaba rejissor shu kungacha o‘zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlari orqali etyud mizanssenasini yaratadi.

Yaratilgan mizanssena pedagog tomonidan to‘g‘irlanishi, o‘zgartirilishi, bazi qo‘shimchalar kiritilishi mumkin. Ishlash jarayonda pedagog talabaga miznssena tushuntirishlar berib ketadi.

Sahnadagi har qanday harakatni mizanssena deb bo‘lmaydi. Chunki, mizanssenaning ham o‘z qonun-qoidalari bor. Har qanday mizanssenaning to‘g‘riligini belgilovchi omil, bu uning hayot haqiqatiga monandligi va mizanssena harakatchanligiga bog‘liqdir. Rejissyor tomonidan aktyorga nisbatan maqsadli mizanssena berilishi kerak. Berilgan mizanssenada aktyor harakat qilmasdan tura olmasin. Ya’ni uni o‘z-o‘zidan harakatga soladigan kuch bo‘lishi kerak. Mizanssenaning o‘zida, har bir ishtirokchi uchun alohida jismoniy harakatlar chizig‘i aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lmog‘i zarur. Sahnada ortiqcha harakatga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi[3.B.284.] deb takidlaydi professor J.A.Mamatqosimov o‘zining aktyorlik mahorati kitobida.

Xulosa. Etyudlarda diyaloglar ishlatilmasligini inobatga olgan holda mizanssenaga jiddiy etibor qaratish kerak. Etuyudlarda mizanssenalar qiziq va haqqoniy bo‘lishi kerak. Talabalar ishlash jarayonida sahnada tinimsiz harakat qilishni, holatlar tez-tez o‘zgartirilishini mizanssena deb hisoblaydi. Aslida bunday emas. Sahnada bosilayotgan har bir qadam, har bir harakat aniq maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak. Aktyor tomonidan amalga oshirilayotgan har bir xatti-harakat turli mayda chudalar va arzimagan harakatlardan xoli bo‘lishi kerak. Aks holda, harakatning sahnaviy qiymati tushib ketadi.

Rejissyor aktyorni shunday joylash kerakki, u pyesaning umumiy g‘oyasiga javob bera olsin va asarning kompozitsiyasini tashkil qilsin. Bu ish uchun rejissyor fikrining to‘g‘riligi haqida aktyor tushinib turib ijod etsin, o‘z vazifasini yaxshi bilsin - shunda aktyor sahna hayotida o‘z o‘rnini ishonib egallaydi. Haqiqiy mizanssena, sahnaviy harakat yaratadi.

Mizanssena yaratishning ikki usuli mavjud bo‘lib, bu rejisorning mahorati hamda tajribasiga bog‘liq. Birinchi uslubda rejissor asar mavzusi, g‘oyasi va oliy maqsadidan kelib chiqqan holda avvaldan o‘ylab topgan mizanssenadir. Bu uslub rejissor maqsadini ifodviy talqin etishga yordam beradi. Ikkinchi uslubda esa mizanssenalar asosan ishlash jarayonida aktyorlar bilan hamfikr bo‘lgan holda o‘ylab topiladi. Bunday usulda asarda ilgari surilgan voqea va personajlar xarakteri muhim hisoblanadi.

Demak sahna asari katta yoki kichikligidan qatiy nazar o‘zining aniq va tog‘ri topilgan mizanssenasiga ega bo‘lishi kerak. Bu qoida etyudlarga ham birdek ta’luqlidir. Etyud mizanssenasi ijrochilarning tashqi va ichki holatini tomoshabinga yetkazishga xizmat qilishi va xatti-harakatni, tashqi ko‘rinishini ifodalashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T.: Aloqachi 2008
2. Rustamov V.Q. Xalq teatri rejissurasi. T.: TDMI bosmaxonasi. 2008
3. B.Sayfullayev, J.Mamatqosimov. Aktyorlik mahorati. T.: "Fan va texnologiya", 2012
4. *С.Юткевич*. Общие вопросы режиссуры эстрадного номера. С.Петербург. 2005 год.
5. *И.Г.Шароев*. Режиссура эстрады и массовых представлений. Москва. Просвещение. 1986.г.
6. М.Умаров. Эстрада ва оммавий томошалар тарихи. Т. 2007 й.

Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

SHOYIM BO‘TAYEV HIKOYALARI BADIIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shoyim Bo‘tayev hikoyalarining badiiyati, syujet va obraz yaratish xususiyatlari, shuningdek, ularning adabiy jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot Shoyim Bo‘tayev ijodining mohiyatini ochib berish va o‘zbek hikoyachiligi rivojiga qo‘shgan hissasini yoritishga qaratilgan bo‘lib, bu mavzuning adabiyotshunoslik uchun dolzarbligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek hikoyachiligi, hikoya turlari , hikoya tasnifi, hikoyada milliy an’analar, Shoyim Bo‘tayev, nutq, uslubiyat, badiiy obraz, karakter va asar uyg‘unligi.*

ХУДОЖЕСТВЕННОСТЬ РАССКАЗОВ ШОЙИМ БУТАЕВ

Аннотация. *В данной статье анализируется художественность рассказов Шойима Бутаева, особенности создания сюжета и образов, а также их место в литературном процессе. Данное исследование направлено на раскрытие сущности творчества Шойима Бутаева и освещение его вклада в развитие узбекской новеллистики, что подчеркивает актуальность данной темы для литературоведения.*

Ключевые слова: *Узбекская новеллистика, виды рассказов, классификация рассказов, национальные традиции в рассказах, Шойим Бутаев, речь, стилистика, художественный образ, гармония характера и произведения.*

ARTISTRY OF SHOYIM BO'TAYEV'S STORIES

Abstract. *This article analyzes the artistic qualities of Shoyim Bo'tayev's stories, the characteristics of his plot and character creation, as well as their place in the literary process. This research aims to reveal the essence of Shoyim Bo'tayev's work and highlight his contribution to the development of Uzbek short story writing, emphasizing the relevance of this topic for literary studies.*

Key words: *Uzbek storytelling, types of stories, classification of stories, national traditions in storytelling, Shoyim Bo'tayev, speech, stylistics, artistic imagery, harmony of character and work.*

Kirish. Adabiyot har bir millatning ma’naviy boyligini, tarixiy o‘zligini va madaniy darajasini aks ettiruvchi muhim ko‘zgudir. O‘zbek adabiyoti ana shu ko‘zguda o‘zining boy merosi va zamonaviy yondashuvlari bilan alohida ajralib turadi. Shoyim Bo`tayev o‘zbek adabiyotida badiiy so‘z ustasi sifatida e’tirof etilib, uning hikoyalari o‘ziga xos badiiy uslub va falsafiy teranlik bilan ajralib turadi. Yozuvchining ijodida inson qalbi, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar va milliy qadriyatlar teran ifodasini topadi.

Adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, zamonaviy hikoyachilik ham boshqa janrlar kabi bir joyda qotib qolgani yo‘q, hikoyachilik tarzi, yo‘sini, hikoya mavzusi, janri taraqqiy etib, takomillashib bormoqda. “Hozirgi davr hikoyachiligi o‘tmishdagi hikoyalardan anchagina xususiyatlari bilan farq qiladi: bu – hikoya janrining klassik namunalari uchun xos bo‘lgan xarakterlarning “qotgan” shaklda berilishi (“Bemor”, “O‘g‘ri”) o‘rniga xarakterlarning ma’lum darajada, janr doirasida taraqqiyot jarayonida ko‘rsatilishida (Asqad Muxtorning “Xonimning tug‘ilgan kunlari. P.Qoridovning “Qalbdagi quyosh”), asar nihoyatda kichik bir epizodninggina emas, anchayin kengroq hayotiy epizodning qamrab olinishida, bir-ikkigina emas, bir nechta xarakterlar yaratilishga intilishda sezilmoqda”[1]. Shu ma’noda Shoyim Bo‘tayev hikoyalari ham mustaqillik yillarida nisbatan takomillashganini kuzatish mumkin.

[1] Назаров Б. Каримов Э. Эпос – адабиётнинг тури сифатида / Адабий тур ва жанрлар. Уч дилдлик. Биринчи жилд. Эпос. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 31.

Shoyim Bo‘tayevning hikoyalari mazmunan boy, usluban aniq va badiiy mahorat bilan bezatilgan bo‘lib, ularning syujet qurilishi va obrazlar talqini o‘zbek adabiyoti kontekstida alohida o‘ringa ega. Shoyim Bo‘tayev– borliqni boricha tasvirlaydigan, soxtalik, sun’iylikdan, balandparvozlikdan yiroq bo‘lgan ijodkor. Uning asarlarida qadim yurtimizning an’analari, o‘ziga xosligi, betakror va shirin shevasi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Shoyim Bo‘tayev asardagi syujet va voqelikni kitobxonga tayyor xulosalar bilan taqdim etmasdan, balki kitobxonning o‘zini ham mushohada yuritishga, fikrlashga undashi bilan ahamiyatli. Yozuvchining asarlarida milliylik va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada Shoyim Bo`tayev hikoyalarining badiiyati, syujet va obraz yaratish xususiyatlari, shuningdek, ularning adabiy jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot Shoyim Bo`tayev ijodining mohiyatini ochib berish va o‘zbek hikoyachiligi rivojiga qo‘shgan hissasini yoritishga qaratilgan bo‘lib, bu mavzuning adabiyotshunoslik uchun dolzarbligini ta’kidlaydi. Shoyim Bo`tayevning hikoyalari badiiyati o‘zining chuqur psixologik tasvirlari va personajlarning ichki dunyosini keng yoritishi bilan ajralib turadi. U o‘z asarlarida insonga oid murakkab hissiy holatlarni, ruhiy izlanishlarni va ma'naviy qiyinchiliklarni o‘rganadi. yozuvchining hikoyalari badiiylik va ilmiy yondashuvni uyg‘unlashtirib, nafaqat individual psixologik holatlarni, balki jamiyatning ijtimoiy va axloqiy muammolarini ham aks ettiradi. U o‘z hikoyalarida insonning ichki kechinmalarini va ular bilan bog‘liq tafakkur jarayonlarini tahlil qilishda ilmiy yondoshuvni qo‘llaydi, bu esa uning asarlarini yanada boy va chuqurroq qiladi. Yozuvchi o‘z asarlarida realizmning barcha xususiyatlarini – ya’ni, voqelikni aniq va tabiiy tarzda aks ettirishni, insonni va uning atrofidagi muhitni haqiqiy tasvirlashni o‘zining badiiy metodiga asos sifatida qabul qiladi. Shoyim Bo`tayevning hikoyalari, ko‘pincha, individual va ijtimoiy muammolarni chuqur psixologik tahlil orqali o‘rganadi, shuning uchun uning asarlarida psixologizm va ijtimoiy realizmning sintezi ko‘rinadi. Shoyim Bo`tayevning badiiy uslubi an'anaviy usullardan farqli o‘laroq, voqea rivojini va personajlar ichki kechinmalarini o‘rgatishda noan'anaviy metodlarni qo‘llashni afzal ko‘radi. Bunda ichki monologlar, tashqi voqealardan ko‘ra, personajlarning ruhiy holatiga ko‘proq e'tibor qaratiladi. Hikoyalarda voqea va zamon muammolariga yangi, ilg‘or ilmiy yondashuvlar orqali, ularning psixologik va sotsial tabiati yoritiladi. Shoyim Bo`tayevning hikoyalarida qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlar, asosan, psixologik tahlil va ijtimoiy realizmga asoslanadi. Yozuvchi o‘z asarlarini yaratishda, ko‘pincha, personajlarning ichki fikrlarini, hissiy va ruhiy holatlarini, ularning o‘zaro munosabatlarini keng yoritishga harakat qiladi. Bu jarayonda ichki monolog va psixologik portret metodlari keng qo‘llaniladi, bu esa o‘quvchiga personajlarning ichki dunyosiga kirib borishga imkon beradi. Metodologik jihatdan, Shoyim Bo‘tayev hikoyalari ko‘pincha zamon va fazoni cheklovsiz ravishda kengaytiradi, bu esa voqeani chuqurlashtiradi va hikoya davomida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarning ta’sirini kuchaytiradi. Shuningdek, yozuvchi asarlarini yaratishda “noaniqlik” va “kutilmagan holatlarni ham keng qo‘llaydi, bu esa hikoyalarga sirli va murakkablikni kiritadi. Personajlarning ichki dunyosidagi noaniqliklarni va ularning kutilgan reaksiyalarini ta’riflash, asarlarning ilmiy-tahliliy jihatlarini boyitadi va o‘quvchini fikr qilishga majbur qiladi. Shuningdek, Shoyim Bo`tayev o‘z hikoyalarida ko‘pincha badiiy detallarga va voqea rivojiga asoslangan sintez metodini qo‘llaydi. Har bir detal va kichik voqea alohida ilmiy va badiiy ahamiyatga ega, ular asarlarning umumiy tasvirini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bu metodologik yondashuv, o‘z navbatida, hikoyaning chuqur ilmiy va badiiy qadriyatini oshiradi.

Tahlil va natijalar: Shoyim Bo‘tayev hikoyalari badiiyati o‘zbek adabiyoti rivojida alohida o‘rin tutadigan jihatlari bilan ajralib turadi. Uning asarlarida milliy qadriyatlar, zamonaviylik va insoniylik masalalari o‘ziga xos badiiy uslubda yoritilgan. Tadqiqot davomida quyidagi jihatlar muhokama qilindi:

1. Milliy qadriyatlarning aks ettirilishi: Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida milliylik tushunchasi markaziy o‘rinda turadi. Uning qahramonlari o‘zbek xalqining urfodatlari, an‘analari va tarixiy xotiralarini o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan, yozuvchi asarlaridagi obrazlar orqali inson qalbi va milliylik o‘rtasidagi uyg‘unlik badiiy talqin etilgan.

2. Zamonaviylik va an’analar uyg‘unligi: Yozuvchi hikoyalarida zamonaviy hayot bilan milliy an‘analar o‘rtasidagi bog‘liqlikning badiiy tadqiqi amalga oshirilgan. Shoyim Bo`tayev zamonaviy

jamiyatning muammolarini yoritishda, ularni milliy mentalitet va qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda, ijtimoiy hayotning turli ko‘rinishlarini tasvirlashga erishadi.

3. Inson ruhiyati tasviri: Yozuvchi o‘z hikoyalarida inson ruhiyatini teran ochib berishga e‘tibor qaratadi. Qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va hayotiy kurashlari orqali inson mohiyatining murakkab qirralari badiiy yondashuv bilan namoyon etiladi.

4. Til va uslub xususiyatlari: Tadqiqotda Shoyim Bo`tayevning til va uslubdagi o‘ziga xosliklari ham tahlil qilindi. Yozuvchi hikoyalarida oddiy, lekin ta‘sirchan til vositalari orqali o‘quvchini qahramonlar hayotiga chuqur kirib borishga undaydi. Jumlalardagi ritm, obrazlarning jonliligi va tasviriy ifoda kuchi hikoyalarning o‘qishli bo‘lishiga xizmat qiladi.

5. Ijtimoiy va ma’naviy masalalar: Shoyim Bo`tayev asarlarida o‘zbek jamiyatining dolzarb masalalari, xususan, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, yoshlarga oid muammolar keng yoritilgan. Yozuvchi bu masalalarni badiiy talqin qilish orqali jamiyat hayotini to‘laqonli ifodalashga erishgan. Shoyim Bo`tayev hikoyalari badiiyati milliy adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo‘shadi. Ushbu asarlar nafaqat milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, balki ularni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi hikoyalarida milliy va zamonaviy tushunchalar birligi orqali adabiyotni yangi bosqichga olib chiqishga erishgan. Asarlardagi badiiy tasvir va ruhiy tahlil uslubi milliy adabiyotimizda o‘ziga xos o‘rin egallagan. Shoyim Bo`tayevning ijodi o‘zbek adabiyoti doirasida o‘rganilishi va kelajak avlodga tanishtirilishi lozim bo‘lgan bebaho merosdir. Umuman olganda, Shoyim Bo`tayev hikoyalarida milliy ruh va zamonaviylikning uyg‘unligi, inson tabiatining chuqur tahlili va badiiy tasvirning yuksak darajada qo‘llanishi kuzatiladi. Ushbu jihatlar yozuvchining ijodini kengroq o‘rganish va targ‘ib qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Shoyim Bo‘tayevning hikoyalari o‘zining badiiy jihatlari va yozuv uslubi bilan o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchi o‘z asarlarida inson ruhiyatining murakkabligini, uning ichki kechinmalari va jamiyatdagi o‘rnini chuqur tahlil etadi. Bo‘tayevning hikoyalari, ko‘pincha, real hayotdagi ziddiyatlarni, ijtimoiy muammolarni va insoniyatning nozik tomonlarini ko‘rsatishga qaratilgan. U o‘z asarlarida boshqacha qarashlar va nuqtai nazarlarni ifodalashda ijodkorlikni namoyon etadi. Shoyim Bo‘tayevning badiiy uslubi oddiy va sodda bo‘lib, lekin shu bilan birga tasvirlar va simvollarning chuqurligi, o‘quvchiga ko‘proq o‘ylashga va his etishga imkon beradi. U hikoyalarida jamiyatdagi turli qatlamlarning hayotini tasvirlaydi, lekin ularni kamsitmasdan, aksincha, insoniy qadriyatlarni saqlagan holda yoritadi.

Shoyim Bo‘tayev hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish uchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Har qaysi o‘quvchi o`zicha tushgunadi. Shuning uchun ham mazkur yozuvchining hikoyalari germinevtik tahlilga juda mos keladi. “Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo‘lib o‘tgan voqea, real hayotning bir bo‘lagi, epizodi bo‘lib gavdalanadi. Hikoyalarning ko‘pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o‘zi ko‘rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Muallif yoki personajlar tomonidan aytilgan gaplarga, asardagi detallarga, voqealarga kitobxon ishonmasa, hatto shubha qilsa ham, asarning qiymati qolmaydi. Detalni tafsilotdan farq qimoq kerak. Tafsilotdan farqli o’laroq, detal qisqa va ixcham bo‘ladi”. Masalan, “Haykal” hikoyasidagi mana bu qismiga e`tibor beraylik: “Birov biron narsa xarid qiladimiqilmaydimi - farqsiz, kirib kelib, besh-olti kishi sig‘adigan xarrakka o‘tirib oladi. Negaki, terifurushning uzoq-uzoq yurtlardan yo‘qlab keladigan oshnolari bisyor. Ular shunchalik ko‘p narsalarni bilishadiki, eshitib yoqangni tutamlaysan, tavba, tarvuzday bir kallaga shuncha gap sig‘adimi-ya, deya hayron qolasan”. U tasvir obyektini sintezlashtirib ko‘rsatish, u haqida kitobxonda tez va aniq tasavvur hosil qilish xususiyatiga ega. Detal haqida maxsus kitob yozgan boshqa bir olim, taniqli adabiyotshunos va publisist Saydi Umarov esa unga quyidagicha ta’rif beradi: “Detal, odatda, yirik planda beriladi, u o‘quvchini bir lahza to’xtatib, uning diqqat e’tiborini muhim bir narsaga jalb etadi, tasvir obyektini bo’rttirib, qabartirib ko‘rsatib, u haqda tez va aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi”. Shoyim Bo`tayevning “Haykal “ hikoyasi ham o`z o`rnida detallarning o`ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Buni esa aynan hikoyaga germinevtik yondashib, aniqlasak bo`ladi.

Germenevtika tushunilishi og‘ir bo‘lgan matnini anglash kechimi, ruhoniy butunlikning betakror qismlarda ifodalanish yo‘sinini tushunishdan iborat. Keksa ajdodlarimiz ibratli voqea-hodisalar orqali bolalarni tarbiyalash usulidan keng foydalanishgan. Shu ma’noda farzandlariga

ibratli voqealar, hikoyalarni so‘zlab bergan. Ibratli hikoyalar qisqaligi va yodda qoluvchvnligi, ta’sir doirasi kengligi bilan tarbiyada ahamiyatli hisoblangan. Masalan, quyidagi Shoyim Bo`tayev ijodidagi ibratli hikoyani tahlil qilamiz: bir kuni ko‘chada sayr qilib yurgan kishi yo‘l chetida o‘tirgan keksa odamni ko‘rib qoldi. U mo‘ysafidning qarshisiga kelib, murojaat qildi:

– Otaxon, ulug‘ yoshli inson ekansiz, anchagina uzoq hayot yo‘lini bosib o‘tgansiz. Shubhasiz, juda dono bo‘lsangiz kerak. Ayting-chi, mana, men yosh va

kuchliman-u, ammo hech qayerdan ish topa olmayapman, o‘g‘lim giyohvandlikka berildi, qizimni ham yaxshi tarbiyalay olmayapman, ayolim esa kun bo‘yi uyda o‘tirsa ham, hech qayerga qaramaydi. Xo‘sh, men bu vaziyatda qanday yo‘l tutishim kerak? Nima qilsam, bularning hammasini o‘zgartira olaman?

Qariya javob berdi:

– Eshiging ustiga kichkinagina taxtacha osib, unga “Hamisha shunday bo‘lavermaydi” deb yozib qo‘y.

– Shu xolosmi? – hayron bo‘ldi erkak.

– Shu xolos, – javob qildi keksa kishi.

U uyiga borib, qariya aytgandek qildi. Bir qancha vaqt o‘tgach, uning o‘g‘li giyohvandlikni tashladi va hatto qilgan ishi gunoh ekanini tan olib, tavba qila boshladi. Qizi yosh bilan yigit bilan yaxshi ko‘rishib, oila qurdi. Ayoli ham o‘zgardi va risoladagi bekaga aylandi. Erkakning o‘zi esa serdaromad ishga joylashdi va ko‘p o‘tmay, hatto mashina sotib oldi. Kunlarning birida u tanish ko‘chadan o‘tib borayotib, ikki yilcha oldin keksa mo‘ysafidni uchratgan joyida to‘xtadi. Qariya hali ham shu yerda o‘tirgandi. Erkak uning oldiga yaqinlasharkan, mashinadan tushmagan holda, uning oynasini ochib, so‘z qotdi:

– Ha, boboy, haliyam o‘tiribsizmi? Men bo‘lsa, ko‘rib turganingizdek, ancha narsaga erishdim. O‘g‘lim giyohvandlikni tashladi, endi u taqvoli yigit, qizim sevib, sevilib turmushga chiqdi. Ayolim ham yaxshi rafiqaga aylandi. O‘zim ishga joylashdim va endi ishxonamda martabali boshliqman. Siz esa haliyam o‘shandek o‘tiribsiz, no‘noq chol! Xo‘sh, endi menga nima deb maslahat berasiz?

Bu gaplardan qariyaning chehrasi o‘zgarmadi, aksincha, u suhbatdoshiga xotirjam tikilgancha, dedi:

– Haligi taxtacha bor edi-ku, shuni olib tashlamagin…

Hikoyada boshingga qandaydir tashvish kelsa, bundan tushkunlikka tushib ketma, aksincha, juda zo‘r hayot kechirayotgan bo‘lsang, bundan havolanib ketma, hamisha shunday bo‘lavermaydi, degan hikmatli gapni shior qilib olgin, deyiladi germinevtik tahlilida.

Hikoya hikmatomuzligi bilan birga nihoyatda hayotiy. Deylik, barchamizning boshimizdan kechirishimiz mumkin bo‘lgan yoki kechirgan iholatimizni qamrab olgan. U shu jihati bilan esda qolarli va ibrat bo‘larli, eng asosiysi tarbiya usulida ishonchliligi bilan ahamiyat kasb etadi. Afsuski, oliygohlar o‘qituvchilarining aksariyati maktabni bitirib endigina katta hayot ostonasiga qadam qo‘ygan talabalarni tarbiyasiga e’tibor berishmaydi. Aksincha, talabamisan, maktab bolasimisan, istasang o‘qi, istamasang, katta ko‘cha, qabilida muomala qilishadi. Ammo yuqorida zikr etilgan hadisdan kelib chiqadigan bo‘lsak, tarbiyalanishning, ilm olishning chegarasi va vaqti yo‘q. Shunday ekan, qaysi fan o‘qituvchisi qanday mavzuni o‘tishidan qat’i nazar, auditoriyada mavzuga yoki talabalarning kayfiyatiga qarab ibratli voqealarga bir necha soniyalarni ajratsa, birinchidan, talaba darsdan chalg‘imagan holatda zerikish hissini tuymaydi.

Xulosa: Shoyim Bo‘tayevning yozgan hikoyalari o‘quvchiga nafaqat o‘zini, balki jamiyatni ham qayta ko‘rish va tahlil qilishga undaydi. Shoyim Bo‘tayevning hikoyalari o‘zining badiiy boyligi, nafosati va ichki ma'nosi bilan adabiyotda alohida o‘rin tutadi. Uning asarlarida inson qalbining eng nozik holatlari va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritishning o‘ziga xos usuli, uni zamonaviy o‘zbek adabiyotining ajralmas qismiga aylantirgan. Shoyim Bo`tayev hikoyalari faqat o‘zbek adabiyotining yuksalishiga hissa qo‘shmaydi, balki global adabiyotda ham insoniyatning umumiy muammolarini yoritishda o‘ziga xos tarzda ifodalangan asarlar sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Quronov D., Sheraliyeva M., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, 2013. – B.382.
2. Shoyim Bo'tayev. Shamol o'yini. – Toshkent, "Yozuvchi" nashriyoti, 1995. – B.151.
3. Shoyim Bo'tayev. Ko'chada qolgan ovoz. – Toshkent, ma'naviyat, 2005. – B.236.
4. Oripova, G. M., & Tolibova, M. T. Q. (2021). Composition Of Modern Uzbek Stories. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(03), 245-249.
5. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sanostandart» nashriyoti, 2017-yil, 154-157
6. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

Mamadiyarov O‘lmas Ergashovich
Qarshi davlat universiteti,
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

SURUNKALI SOMATIK KASALLIKLAR BILAN XASTALANGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada surunkali somatik kasalliklar bilan xastalangan bolalarning psixologik holati, emotsional rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi o‘rganiladi. Surunkali kasalliklar nafaqat bolaning jismoniy salomatligiga, balki ruhiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda bolalarning stress darajasi, xavotir, depressiya holatlari, shuningdek, oilaviy va ijtimoiy muhitning ularga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik yordam va reabilitatsiya usullari, korreksion psixologik yondashuvlar muhokama qilinadi. Maqola bolalar psixologiyasi, klinik psixologiya va sog‘liqni saqlash sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *surunkali kasalliklar, somatik kasallik, bolalar psixologiyasi, emotsional rivojlanish, stress va xavotir, psixologik yordam, reabilitatsiya, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, psixokorreksiya, klinik psixologiya.*

ПСИХОЛОГИЯ ДЕТЕЙ С ХРОНИЧЕСКИМИ СОМАТИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается психологическое состояние, эмоциональное развитие и социальная адаптация детей, страдающих хроническими соматическими заболеваниями. Хронические заболевания оказывают негативное влияние не только на физическое здоровье ребёнка, но и на его психоэмоциональное состояние. В исследовании анализируются уровни стресса, тревожности и депрессии у детей, а также влияние семейной и социальной среды. Кроме того, обсуждаются методы психологической помощи, реабилитации и коррекционные психологические подходы. Статья может быть полезна специалистам в области детской психологии, клинической психологии и здравоохранения.*

Ключевые слова: *хронические заболевания, соматические болезни, детская психология, эмоциональное развитие, стресс и тревожность, психологическая помощь, реабилитация, семейная поддержка, психокоррекция, клиническая психология*

PSYCHOLOGY OF CHILDREN WITH CHRONIC SOMATIC DISEASES

Abstract. *This article explores the psychological state, emotional development, and social adaptation of children suffering from chronic somatic diseases. Chronic illnesses negatively affect not only the child's physical health but also their mental and emotional well-being. The study analyzes stress levels, anxiety, and depression in these children, as well as the impact of family and social environments. Psychological support, rehabilitation methods, and corrective psychological approaches are also discussed. The article may be useful for professionals in child psychology, clinical psychology, and healthcare.*

Key words: *chronic diseases, somatic illness, child psychology, emotional development, stress and anxiety, psychological support, rehabilitation, family support, psychocorrection, clinical psychology*

Kirish. Zamonaviy tibbiyot va psixologiyada surunkali somatik kasalliklarga chalingan bolalarning psixologik holatini chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday kasalliklar nafaqat bolaning jismoniy holatiga, balki uning ruhiy salomatligi, emotsional rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Kasallikka chalingan bolalar uzoq muddatli davolanish, harakat va ijtimoiy faoliyatdagi cheklovlar, tengdoshlari bilan to‘laqonli muloqotning cheklanishi kabi omillar sababli psixologik muammolarga duch keladilar. Bu

holatlarda xavotir, depressiv reaksiyalar, o‘ziga past baho berish, ijtimoiy izolyatsiya va stress holatlari kuzatiladi.

Adabiyotlar tahlili. Surunkali somatik kasalliklarga chalingan bolalarning psixologik holatini o‘rganish so‘nggi yillarda psixologiya, pediatriya va sotsiologiya sohalarida dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlarda bu mavzuga oid ko‘plab yondashuvlar va nazariy qarashlar mavjud bo‘lib, ular orqali bolaning jismoniy holatidan tashqari ruhiy va ijtimoiy holatini baholash imkoniyati yaratilgan.

Ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, surunkali kasalliklarga chalingan bolalarda tashvish, depressiya, o‘ziga past baho berish, ijtimoiy izolyatsiya holatlari ko‘proq kuzatiladi (Kovacs, 2003; Hains et al., 2007). Bu bolalar hayot sifati past bo‘lgan guruhlar sirasiga kiradi. Ularning rivojlanishi jarayonida psixologik noqulayliklar va stressli holatlar ustuvor rol o‘ynaydi (Yalom & Leszcz, 2005).

Masalan, World Health Organization (WHO, 2021) tomonidan e’lon qilingan hisobotda, surunkali somatik kasalliklar (masalan, diabet, astma, revmatoid artrit) bolalarning psixologik va emotsional barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bunday bolalarda ijtimoiy muloqot darajasi pasaygan, do‘stlar bilan aloqa sustlashgan, maktabdagi faoliyatdan chetlashish holatlari ko‘p uchraydi.

Surunkali kasallikka chalingan bolalarda psixologik muammolar darajasi ko‘pincha ota-onalarning ularga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq bo‘ladi (Rolland, 1994). Ba’zi ota-onalar ortiqcha himoya qiluvchi (giperqayg‘uruvchan) bo‘lib, bolani mustaqillikdan mahrum qilishi mumkin, bu esa bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi.

Karimov o‘z tadqiqotida shunday xulosaga kelgan: bolaning psixologik barqarorligiga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash - ya’ni oila, maktab, tibbiy xodimlarning birgalikdagi yondashuvi - katta ta’sir ko‘rsatadi.

Sharipova o‘z asarida psixologik reabilitatsiya jarayonining samarali bo‘lishi uchun bolaning individual xususiyatlarini, kasallikning xususiyatlarini va oilaviy vaziyatni inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Bronfenbrenner (1979)**ning ekosistemik nazariyasiga ko‘ra, bolaning rivojlanishi faqat oilaviy muhit emas, balki maktab, do‘stlar, tibbiyot muassasalari bilan o‘zaro aloqadorlikda kechadi. Shu bois, surunkali kasallikka chalingan bolalar uchun maktabda individual yondashuvlar, psixologik yordam va moslashuv dasturlarining mavjudligi muhim hisoblanadi.

Vygotskiy ham bolaning rivojlanishida atrof-muhitning rolini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, bolalar uchun ijtimoiy muloqot rivojlanishning asosiy manbai hisoblanadi. Surunkali kasallikka chalingan bolalarda esa bu muloqot cheklangan bo‘ladi.

Mahalliy manbalarda ham bu masala dolzarb bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi, psixologik markazlar, hamda pedagogika institutlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda surunkali kasalliklarga chalingan bolalarning psixologik holatini baholash va ularga yordam ko‘rsatish usullari keng yoritilgan.

Surunkali kasalliklar bilan bog‘liq psixologik muammolar quyidagilardan iborat:

Tashvish va depressiya: Surunkali kasalliklar bolalarda tashvish va depressiyaning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Kasalliklardan tashvishlanish, kelajakdagi sog‘liq holati va davolanish usullari haqidagi xavotirlar bolalar psixikasida katta o‘zgarishlarga olib keladi. Bu o‘zgarishlar, ko‘pincha, bolalar o‘zlarini kambag‘al, yakkalanib qolgan, yoki hayotdan umidlarini uzgan his qilishlariga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy izolyatsiya: Kasallik bolaning o‘zini boshqalardan ajratib, ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Boshqa bolalar bilan o‘ynash yoki maktabda ishtirok etishning qiyinlashishi bolalarda o‘zini qabul qilishda muammolarni keltirib chiqaradi. Ular ko‘pincha boshqa bolalarga nisbatan o‘zlarini past baholaydilar.

Tuyg'usal o'zgarishlar: Surunkali kasalliklar bolaning ruhiy holatini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin. Masalan, bola doimiy og‘riq yoki charchoq bilan kurashayotganda, u o‘zida bezovtalik, g‘azab, qayg‘u yoki qaytadan hissiy cheklanishni his qilishi mumkin. Ushbu tuyg‘ular, agar ular hal qilinmasa, bolaning hayot sifatini yomonlashtirishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Surunkali somatik kasalliklarga chalingan bolalar psixologiyasini o‘rganish davomida olingan ilmiy ma’lumotlar chuqur tahlil qilinar ekan, bu toifadagi bolalarda emotsional

beqarorlik, o‘z-o‘zini baholashdagi salbiy o‘zgarishlar, ijtimoiy cheklanish va moslashuv qiyinchiliklari aniqlandi. Quyida asosiy tahliliy natijalar bayon etiladi:

Tadqiqotda qatnashgan surunkali kasalliklarga chalingan bolalarning 70–80 foizi turli darajadagi emotsional beqarorlik belgilarini namoyon etgan. Ayniqsa, quyidagi holatlar kuzatildi:

Doimiy xavotir va qo‘rquv hissi (masalan, kasallik qaytarilishidan qo‘rqish);

Depressiv alomatlar (bezovtalik, tushkunlik, yig‘loqilik, kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi);

G‘azab va salbiy reaktsiyalarning kuchayishi, ayniqsa ota-onalar va tengdoshlar bilan munosabatda.

Shuningdek, ba’zi bolalarda hissiy o‘zini ifoda etishda sustlik, ichki to‘siqlilik holatlari kuzatildi. Bu holatlarning barchasi bolalarning uzoq muddatli davo jarayonlari, og‘riq sindromlari va kundalik cheklovlar bilan bog‘liq ekani aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, surunkali kasalliklarga chalingan bolalarning ko‘pchiligi maktabga qayta moslashishda va tengdoshlar bilan muloqotda qiyinchilikka uchraydi:

60% bola maktabga qaytishda moslashuv muammolarini boshdan kechirgan;

55% bola do‘stlari bilan aloqalari yo‘qligini yoki zaif ekanligini bildirgan;

40% bola o‘zini ijtimoiy jihatdan ajralgan deb hisoblagan.

Bundan tashqari, ayrim hollarda maktab jamoasida bolaning kasalligiga nisbatan tushunmovchilik va ajratilish holatlari mavjudligi ham qayd etilgan. Bu esa bola ruhiyatida "men boshqachiman", "men to‘liq emasman" degan o‘zini inkor etuvchi fikrlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Surunkali kasalliklarga chalingan bolalarning ko‘pchiligida o‘z-o‘zini past baholash holati aniqlandi:

Ularda sog‘lom bolalarga nisbatan kamchilik hissi kuchli;

O‘z salohiyatiga bo‘lgan ishonch past;

Ayrim hollarda o‘zini ayblash yoki o‘ziga nisbatan negativ fikrlar shakllangani aniqlangan.

Tahlillarda, ayniqsa, 10–14 yoshdagi bolalarda ushbu holatlar yaqqolroq namoyon bo‘lgan.

Ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar va psixologik testlar natijasiga ko‘ra:

Oila a’zolarining aksariyati bolaga nisbatan ortiqcha himoyachilik (giperqayg‘uruvchanlik) ko‘rsatmoqda;

Bu holat bolada mustaqil fikrlash, tashabbus ko‘rsatish va muammoni hal qilish qobiliyatining sustlashishiga olib kelmoqda;

Ota-onalarning o‘z holatini nazorat qila olmasligi bolada yana ham ko‘proq xavotir uyg‘otmoqda.

Shu bilan birga, ayrim oilalarda bolani kasallik sababli jazolash, unga achinish, ortiqcha e’tibor orqali uning "farq qilishini" kuchaytirish holatlari ham aniqlangan.

Muhokama.

Surunkali somatik kasalliklar bilan xastalangan bolalar psixologiyasi zamonaviy klinik va rivojlanish psixologiyasi uchun eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Bunday bolalarda ruhiy rivojlanish jarayoni oddiy sog‘lom tengdoshlariga nisbatan murakkabroq kechadi, chunki uzoq davom etuvchi kasalliklar ularning hayot tarzini, ijtimoiy faolligini, hissiy holatini va o‘z “men”i haqidagi tasavvurlarini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Surunkali kasallik nafaqat organizmning jismoniy holatiga, balki bolaning ruhiy, hissiy va ijtimoiy moslashuv tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bunday bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuv har tomonlama, ya’ni biopsixososial model asosida olib borilishi lozim.

Kirish. Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi: O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar faoliyatini sifatli shu bilan birga samarali boshqarishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli asosda mazmun-mohiyatini yoritib berish, yurtimizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy boshqaruv subyektlari boshqaruvini zamonaviy qiyofasini yaratish, boshqaruvning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish, kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlar hajmini talab va taklif asosida aholiga mos keladigan zamonaviy turlarini ishlab chiqish, korxonalar va ularda faoliyat yuritayotgan mehnat jamoasi o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratishga erishish bugungi kunda hal etilishi zarur bo‘lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat Yangi O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini qamrovini kengaytirish, maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari, texnoparklar hamda klasterlarning boshqaruv jarayonlarini ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida mehnat unumdorligini yanada qamrovini va sifatlilik darajasini muntazam oshirib borishga erishish, rahbar va jamoa o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni samarali tashkil etish orqali ishbilarmonlik muhitini yaratish bugungi kun uchun zarur hisoblanadi.

Usbvu keltirib o‘tilgan natijalarni qo‘lga kiritish uchun yurtimizning milliy iqtisodiyotini izchillik bilan rivojlantirish uchun avvalo iqtisodiy boshqaruv subyektlarini faoliyatini yanada takomillashtirish, maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar faoliyatini sifatli yo‘lga qo‘yishning istiqbolli reja va dasturlarini ishlab chiqish, rahbar hamda mehnat jamoasini o‘zaro hamjihatliligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik sog‘lom muhitni yaratish, mavjud resurslardan samarali foydalangan holda ishlab chiqariladigan milliy mahsulotlar salmog‘ini muntazam oshirib borish orqali jahon bozoriga chiqishni yo‘lga qo‘yish, boshqaruvda eng zamonaviy uslublarni qo‘llay olishga erishish zarur hisoblanadi. Buday islohatlarni amalga oshishi natijasida avvalo milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga olib keladi va sohaga oid hal etilishi zarur bo‘lgan dolzarb muammolarning yechimi topiladi. Bularning barchasi maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnopark va klasterlar faoliyatini sifat va samaradorligini oshirib, boshqaruvning ijtimoiy-psixologik samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy maqolaning predmeti: O‘zbekistonda kichik sanoat zonalari, texnopark va klasterlar faoliyatini samarali boshqarishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli yoritib berishga qaratilgan bo‘lib, bunda asosan sohaga oid hal etilishi zarur bo‘lgan muammolarni tizimli tahlil qilish orqali asoslangan yechimlar topish natijasida zamonaviy boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga erishishni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad: O‘zbekistonda kichik sanoat zonalar, texnoparklar va klasterlar faoliyatini samarali boshqarishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng ko‘lamli asoslarini yaratish natijasida boshqaruv jarayonlarini zamonaviy qiyofasini kashf etish, rahbarlarning boshqaruvchanlik xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik mexanizmlar asosida maxsus iqtisodiy zonalar tuzilmalariga jalb etish, boshqaruvda onglilik, faollik va zamonaviylik nuqtai-nazaridan yondashish orqali ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma hamda hayotiy tajribalarini ish unumdorligini oshirishga yo‘naltirish va boshqaruvda iqtisodiy tafakkur, ijtimoiy faollik, psixologik motivlashtiruvchi tavsiyaviy xarakterdagi ega bo‘lgan dunyoqarashni shakllantirishdan iborat hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotning obyekti: O‘zbekistonda kichik sanoat zonalar, texnoparklar va klasterlar faoliyatini samarali boshqarishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib berish, rahbar va mehnat jamoasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yanada yaxshilash, mehnat jamoasi hamda ularning ruhiy holatlarini sog‘lom ijtimoiy muhit sharoitida rivojlantirish, boshqaruv jarayoniga zamonayiy yondashuvlarni tatbiq etishga qaratilgan zamonaviy usul va vositalarni jalb etishdan iborat.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy tahlillar va tadqiqot natijalaridan kelib chiqib ilmiy tadqiqotning amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar belgilab olindi. Ilmiy tadqiqot davomida amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar quydagilardn iborat:

1) O‘zbekistonda kichik sanoat zonalar, texnoparklar va klasterlar faoliyatini samarali boshqarishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritib berishga ijobiy ta’sir etuvchi omillarni

aniqlash, boshqaruvga salbiy ta'sir etuvchi muammolarni aniqlab o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

2) Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalar, texnoparklar va klasterlar faoliyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy adabiyotlar hamda manbalarni chuqur tahlil qilish, boshqaruv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida ilmiy-nazariy dalillar to'plash va to'plangan dalillarni amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etish;

3) O'zbekistonda kichik sanoat zona, texnopark va klasterlar faoliyatini samarali boshqarishga asoslangan ijtimoiy-psixologik xususliyatlarini aniq yechilmalar asnosida yoritib berish;

4) Yurtimizda maxsus iqtisodiy zonalarning tarkibiy tuzilmalari faoliyatini barqaror rivojlantirishga erishish natijasida keng qamrovli amaliy takliflar, kichik sanoat zonalar, texnoparklar va klasterlar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun yo'naltirilgan tavsiyalar, takliflar hamda ilmiy xulosalar ishlab chiqish va ularni sohani rivojlantirishga safarbar qilishdan iborat hisoblanadi.

Ushbu yuqorida keltirib o'tilgan hal etilishi zarur bo'lgan vazifalarni ko'zlangan maqsad asosida bartaraf etish, boshqaruv jarayonini ma'naviyat bilan boyitish, mehnat jamosini ishchanlik motivlari asosida ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirish, boshqaruvning tub mohiyatini ochib berishda ishchi-xodimlarni mehnatga bo'lgan munosabatini onglilik va faollik asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu esa boshqaruv jarayoni uchun ahamiyati yuqori hisoblandi va ushbu jarayon ijtimoiy-psixologik tomondan olib qaralganda rahbar hamda mehnat jamoasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Boshqaruv jarayonini ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, boshqaruv bu rahbarning kompetentlik qobiliyatini amaliy ifodasi hisoblanib, bunda rahbar va mehnat jamoasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uyg'unlashuvi hamda ularning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, milliy va umuminsoniy tushunchalarning hamohangligi o'z aksini topadi. Shuningdek boshqaruv jarayonini amalga oshirishda rahbardan tashabbuskorlikni, tejamkorlikni, aqliy salohiyatni, yangicha kreativ fikrlashni, zamonaviy dunyoqarashni, onglilik va faollikni talab etadi.

O'zbekistonda kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar faoliyatini boshqarish jarayonini ijtimoiy-psixologik tomondan olib qaralganda mazkur jarayon har tomonlama murakkab jarayon bo'lib, bunda rahbar boshqa ko'plab tarmoq va sohalar rahbarlaridan farqli boshqaruv jarayonini amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Chunki ushbu boshqaruv jarayoni iqtisodiy boshqaruv jarayoni bo'lib, rahbar ham tadbirkor rolida, ham iqtisodiy boshqaruv subyekti rolida gavdalanadi. Shuningdek, ushbu jarayonni amalga oshirish mobaynida rahbar tadbirkor bo'lishi bilan bir qatorda, sarmoya kirituvchi, uni maqsadli yo'naltiruvchi, tavakkal qiluvchi, foyda ko'ruvchi hamda zarar qiluvchi inson sifatida ham namoyon bo'ladi.

Yurtimizda maxsus iqtisodiy zonalar tuzilmalarini boshqarish, ularni sifat va samaradorligini ta'minlash, sohani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan texnika va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, boshqaruvning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli mexanizmlar asosida yoritib beruvchi yangicha usul va vositalarni yaratish, ishbilarmonlik muhitini o'zida aks ettiruvchi boshqaruvning zamonaviy asoslarini yaratish orqali kelgusida milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishga erishish ayni paytda tadqiqot ishining jamiyat hayoti uchun muhim ekanligini anglatadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, boshqaruv jarayoni insoniy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi, takomillashadi, tarkib topadi va rasmiy ma'noda o'z ta'sir kuchiga ega bo'lgan ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida o'z ifodasini topadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy yondashuvlardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, boshqaruv jarayonini amalga oshirish mobaynida rahbar mehnat jamosi o'rtasidagi turli qiyofa, turli xarakter, turli temperament va turli qobiliyatlarini egalarini o'ziga xos sifatlari, ichki imkoniyatlari, mehnatga bo'lgan munosabati hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga, ularning har biriga alohida yondashishga, ular bilan muntazam muloqot qilishga to'g'ri keladi. Ushbu yuqorida keltirib o'tilgan ijtimoiy-psixologik xususliyatlarining barchasi bugungi kunga kelib zamonaviy rahbardan ko'plab yuksak darajada tashkil topgan boshqaruv jarayonlarinig amalga oshirish va ilmiy asoslanishini talab etadi.

Aslini olganda boshqaruv murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, iqtisodiy tomondan olib qaralganda boshqarish (iqtisodiyotda) - xo'jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga

solish va yo‘naltirish jarayoni, subyektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy obyektlarga ongli maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo‘naltirish va ko‘zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Boshqaruv jarayonini ijtimoiy-psixologik tomondan yoritadigan bo‘lsak, boshqaruv faoliyatining psixologik qonunlarini o‘rganadigan psixologiya fanining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, bunday ijtimoiy-psixologik hodisalar eng avvalo boshqaruv sohasini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish, mehnat mahsuldorligi va insoniy munosabatlar tizimini tartibga solish asosida o‘z ifodasini topadi. Boshqaruvning ushbu shakli asosan shaxsni boshqarish, guruhlarni boshqarish, jamoani va jamiyatni boshqarish bilan bir qatorda ularning ruhiy holatlarini nazorat qilish, ijtimoiy-psixologik jarayonlarni mazmun-mohiyatini ochib berish kabilarda namoyon bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har qanday boshqaruv jarayoni motivatsiyasiz hech qanday qiymatga ega emas, chunki barcha faoliyatning mahsuldorligi motivlar asosida shakllanadi va rivojlanadi, bu holat boshqaruv jarayoni uchun katta ahamiyatga egadir.

Umuman olganda boshqaruv ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan maqsadga muvofiq va muntazam ta’sir ko‘rsatish jarayoni hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonalar tuzulmalarini boshqarishni yuqori darajada tashkil topgan boshqaruv mexanizmlari asosida amalga oshiriladi, yuksak darajada tashkil etilgan boshqaruv deganda yuqori sifat va samaradorlik, maqsadni aniq qo‘yilganligi, aniq yo‘nalishga ega bo‘lgan tizimlilik, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan dasturlarni strategik rejalashtirish, resurslardan samarali foydalsnish, qat’iy tartib-intizom, vazifalar taqsimoti, aniq nazorat va rahbarlik hamda tashkiliy maqsadlarga erishish uchun barcha iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik elementlarning uyg‘unlashganini nazarda tutadi. Boshqaruvning bunday shakli har bir mehnat jamoasi va ishchi-xodimning roli, vazifalari hamda javobgarligi aniq bo‘ladi, shuningdek, ochiq kommunikatsiya va uzluksiz rivojlanish ta’minlanadi. Shuning uchun ham zamonaviy rahbar boshqaruv jarayonlarida faol bo‘lishi bilan bir qatorda serqirra ijodkor bo‘lishi, iqtisodiy hamda ijtimoiy-psixologik bilimlarni ilmiy, nazariy va amaliy jihatlarini o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar faoliyatini samarali boshqarish jarayonini nazariy va amaliy ahamiyatini ilmiy tahlil qilish natijasida kelgusida boshqaruv jarayonini sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni quydagi yo‘nalishlari ishlab chiqilib, ularni keng qamrovli yoritib berish belgilab olindi:

1. Boshqaruv jarayonini davomiyligini ta’minlanganligi – bunday boshqaruvda aniq istiqbolga ega bo‘lgan strategik dasturlar, davomli chora-tadbirlar hamda ularni uzoq muddatliligini ta’minlashga qaratilgan pshiq mazmunga ega bo‘lgan loyihalarni ishlab chiqish.

2. Boshqaruvda aniqlik yo‘nalganlik va tizimli tahlil qila bilishlik – bunday boshqaruvda har bir ijtimoiy-psixologik jarayon belgilangan vazifa asosida hamda aniq belgilab qo‘yilgan, tartibga solingan qiyosiy tahlillar asosida ijobiy raqobatbardoshlilik darajasini aniqlashga va shu asosda mehnat jamoasi bilan birgalikda faol harakat qiladilar.

3. Boshqaruvda davlat va jamiyat manfaatlariga mos keladigan strategik yo‘nalishlarni belgilanganligi – bunday boshqaruv asosan sifatli boshqarish jarayonlarini rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni rag‘batlantirish bilan davom ettirilib, kelajakdagi maqsadlarga erishish uchun uzoq muddatli va aniq rejalar tuzishdan iborat bo‘ladi.

4. Mavjud resurslar va imkoniyatlardan samarali foydalanish – bunday boshqaruv jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi mavjud resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-psixologik va insoniy resurslardan samarali tarzda ishlatiladi.

5. Boshqaruvda qat’iy tartib-intizom, doimiy nazorat va rahbarlik – bunday boshqaruv ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida qurilgan bo‘lib, bunda asosan boshqaruvchilar amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarning bajarilishini muntazam nazorat qiladilar va mehnat jamoasidagi ishchi-xodimlarga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar va shu asosda nazoratni o‘z qo‘llariga oladilar.

6. Boshqaruvda ochiqlik va kommunikatsiya jarayonlarini sifati tashkil etish – bunday boshqaruv barcha darajalarda axborot almashinuvi jarayonlarini ochiqlik va erkin tarzda amalga oshiradi.

7. Mehnat jamoasida ishchi-xodimlarning malakalilik darajasini muntazam oshirilishi – bunday boshqaruv davomida ishchi-xodimlar o‘zlariga tegishli bo‘lgan va amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarini bajarishlari uchun yetarli darajadagi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va hayotiy tajribalarga ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi.

8. Kichik sanoat zonalari, texnoparaklar va klasterlar faoliyatini doimiy rivojlantirish – bunday boshqaruvda maxsus iqtisodiy zonalar tuzilmalari o‘z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib boradi, sohani rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlar asosida nufizli ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlar bilan istiqbolli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qiladi.

10. Maxsus iqtisodiy zonalar tuzilmalarini boshqarishda aniq maqsadlarga erishish – bunday boshqaruv jarayonini amalga oshirishda boshqaruv subyektlarining faoliyatiga aloqador barcha harakatlar tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishga qaratilganligi bilan aniq belgilab qo‘iladi va umumiy jamoaning barcha harakatlari aniq maqsadga yo‘naltiriladi.

Keltirib o‘tilgan ilmiy dalillar va yondashuvlar asosida fikr yuritadigan bo‘lsak, yuqori darajada tashkil topgan boshqaruv jarayonlari maxsus iqtisodiy zonalarning tarkibiy tuzilmalarini o‘zida qamrab oladigan korxonalar va tashkilotlar muvaffaqiyati hamda ularning samaradorligi albatta sifatli boshqaruv asosida tarkib topadi. Shu tufayli ham boshqaruv faoliyatini samarali amalga oshirilishi ko‘zlangan aniq maqsadlar asosida uning barqaror yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Bu kabi yuqori darajadagi samaradorlikka erishish kelgusida ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga olib keladi va uning raqobatbardoshlik muhitini ta’minlaydi.

Boshqaruv jarayonida samaradorlikka erishish uchun quydagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

Iqtisodiy boshqaruv subyektlarining o‘zaro munosabatlar tizimida ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarga tayangan holda tashkiliy-uslubiy qobiliyatlarini tatbiq eta olishi;

Rahbarlarning boshqaruv mahoratini yuzaga chiqarishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik ta’sir eta olish mexanizmlaridan foydalana olishi;

Boshqaruvda kognitiv, kreativ va kompetentsiyaviy qobiliyatlarini safarbar qila olishi;

Rahbarga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri yo‘naltira oladigan motivlashtiruvchi qobiliyatlarini ish hajmiga qarab safarbar eta olishi;

Boshqaruvda ma’naviy-axloqiy va milliy qadriyatlarga tayangan holda mehnat jamoasi bilan o‘zaro sog‘lom ishbilarmonlik muhitini yarata olishi;

Zamonaviy rahbar sifatida boshqaruv jarayonlarini ro‘yobga chiqarishda siyosiy, huquqiy, ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik savodxonlikka ega bo‘lishi hamda ularni amaliyotga tatbiq eta olishi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan rahbarga xos bo‘lgan qobiliyatlarni namoyon bo‘lishi ayni paytda boshqaruv jarayonini isloh qilishda muhim hisoblanadi. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan har bir kichik sanoat zonalar, texnoparklar va klasterlar uchun sarflanayotgan vaqt, mehnat albatta bugungi kun uchun ijtimoiy zaruriyat sifatida davlat va jamiyat hayotida alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham har bir mehnat jamoasining vazifasi yohud rahbar tomonidan beriladigan topshiriqlar yig‘indisi yanada samarali, foydali va manfaatli bo‘lishi uchun mazmunan to‘g‘ri harakat qilish muhim hisoblanadi. Aks holda boshqaruv jarayonida birgina qilingan arzimas xato kelgusida ko‘plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, har bir zamonaviy rahbar o‘z jamoasini boshqarish davomida ongli faoliyat yuritishi bugungi kunda muhim hisoblanadi. Bunday boshqaruvdagi harakatlar esa individual (yakka) va kollegial (jamoaviy) holatlarda amalga oshirilib borilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zamonaviy dunyo, mehnat bozorining takomillashuvi, insonlardagi dunyoqarashning kengayishi, raqobat muhitini paydo bo‘lishi, ko‘plab iqtisodiy strategik loyihalarni yaratilayotganligi kabi o‘zgarishlarni barchasi boshqaruv jarayonida talabchanlikni va zamonaviy yondashuvlarni ortib borishi taqazo etadi. Shu tariqa zamonaviy boshqaruvning samarali tashkil etilishi jamiyatdagi ijtimoiy normalar asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Bozor munosabatlarini ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri keskinlashayotgan va tezkor axborotlshgan bir davrda zamonaviy boshqaruvning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli amaliy ahamiyatini tizimli ravishda yoritib berish, Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy iqtisodiyot va

ijtimoiy sohalarni rivojlanishiga hissa qo‘shishga xizmat qiladigan har qanday sohani rivojlanishi albatta millat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Ilmiy tahlillarga qaraganda O‘zbekistonning asosiy moliyaviy hujjatiga ko‘ra, yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 5,6-5,8 foiz, inflyatsiya darajasi 8-10 foiz darajasida rejalashtirilgan bo‘lib, buni amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotni ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonning asosiy moliyaviy hujjatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilib qaraydigan bo‘lsak, mamlakatini rivojlantirishning 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025 va 2026-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari iqtisodiyotning sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarida yo‘nalishlar bo‘yicha o‘sish darajasi asosida shakllanadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini o‘tgan yillarga nisbatan o‘sib borishi maxsus iqtisodiy zonalar tuzilmalari hissasiga to‘g‘ri kelishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bu esa boshqaruv jarayonida yangi yo‘nalishlarni paydo bo‘lishi hamda ularning ijtimoiy-psixologik asoslarini vujudga kelishiga zamin yaratilishiga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy tadqiqot natijalari va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni boshqaruv jarayoninig ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ta’sirini o‘rganib, hamda ularni boshqaruv faoliyatini tashkiliy-iqtisodiy negizi bilan bog‘lab, batafsil ochib beradigan bo‘lsak, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar faoliyatiga mos ravishda samarali rivojlantirish kelgusida ushbu sohani taraqqiy etishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar faoliyatini samarali boshqarishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yanada rivojlantirish, iqtisodiy boshqaruv subyektlarining boshqaruvchanlik qobiliyatlarini ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatini tatbiqiy asoslarini yaratish, rahbar va mehnat jamoasi faoliyatini ijtimoiy-psixologik qiymatini belgilab berish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmini sifat va samaradorligini oshirishni, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni aholini talabchanlik xususiyatlariga mos holatda tayyorlash va ularni yetkazib berishni, mehnat taqsimoti asosida vazifalarni berilishini mas’uliyatli ishchi-xodimlarga taqsimlashini ta’minlanishini yo‘lga qo‘yish davlat va jamiyatning taraqqiyotiga uchun muhim hisoblanadi.

Ushbu keltirib o‘tilgan iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jihatlar o‘z vaqtida amalga oshirilsa kelgusida maxsus iqtisodiy zonalar tuzilmalarining faoliyatini yanada samaradorligini ochishiga erishiladi va boshqaruv jarayonlarining natijadorligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2025 yildagi PF-41-son, 1-3-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi.- https://stat.uz. 2025-yil.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya:. Darslik – Toshkent, 2012, – 172 b.
4. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi:. Darslik – Toshkent, 2021, 211 b.
5. Shonazarov A.M. Kasb psixologiyasi:. O‘quv qo‘llanma – SamDU, 2024, 134-135 b.
6. http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/ 7169.
7. https://www.inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view/98425

Allakov Ilhom Okmurodovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O‘SMIRLAR XULQ-ATVORINING SHAKLLANISHIDA AXBOROT ISTE’MOLI MADANIYATINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smirlik davrida shaxs kamoloti va xulq-atvor shakllanishiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida axborot iste’moli madaniyatining o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi o‘smirlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ularni zamonaviy raqamli muhitda mustaqil, tanqidiy va ongli fikrlashga yo‘naltirish, axborotlarni saralash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Axborot iste’moli madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari – tanqidiy fikrlash, raqamli gigiyena, axborot xavfsizligi, etik me’yorlar va media savodxonlik kabi jihatlar o‘smirlar hayotida qanday ahamiyat kasb etishi ushbu maqolada ilmiy-nazariy asosda bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik, axborot iste’moli, media savodxonlik, onlayn xavflar, raqamli gigiyena, xulq-atvor.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль и значение культуры информационного потребления как важного фактора, влияющего на формирование личности и поведения в подростковом возрасте. Стремительное развитие информационных технологий, широкое распространение интернета и социальных сетей оказывает сильное влияние на сознание подростков. В связи с этим особенно актуальной становится задача формирования у подростков навыков самостоятельного, критического и осознанного мышления в цифровой среде, а также способности к отбору, анализу и эффективному использованию информации. В статье научно-теоретически обосновано значение основных компонентов культуры информационного потребления – критического мышления, цифровой гигиены, информационной безопасности, этических норм и медиаграмотности – в жизни подростков.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, информационное потребление, медиаграмотность, онлайн-угрозы, цифровая гигиена, поведение.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL IMPACT OF INFORMATION CONSUMPTION CULTURE ON THE FORMATION OF ADOLESCENT BEHAVIOR

Abstract. *This article analyzes the role and significance of information consumption culture as an important factor influencing personality development and behavior formation during adolescence. The rapid development of information technologies and the widespread use of the internet and social media have a strong impact on adolescents' consciousness. Therefore, it has become an urgent task to guide adolescents toward independent, critical, and conscious thinking in the modern digital environment, and to develop their skills in selecting, analyzing, and effectively using information. The article provides a scientific and theoretical explanation of the importance of the key components of information consumption culture critical thinking, digital hygiene, information security, ethical standards, and media literacy in the lives of adolescents.*

Key words: *adolescence, information consumption, media literacy, online threats, digital hygiene, behavior.*

Kirish. O‘smirlik - inson hayotidagi eng murakkab, shu bilan birga eng faol rivojlanish davridir. Psixologlar (Erikson, Piaget) bu davrni identifikatsiya shakllanish bosqichi deb atashadi. Shaxs bu paytda o‘z qadr-qimmati, ijtimoiy roli va axloqiy qarashlarini belgilaydi. XXI asrning asosiy xususiyati shundaki, bu jarayonlar endi nafaqat oilada yoki maktabda, balki keng qamrovli raqamli

axborot makonida sodir bo‘lmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va internetning hayotimizdagi o‘rni tobora ortib borar ekan, axborot oqimi o‘smirlar ongiga bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonda o‘smirlar har kuni turli xil manbalardan katta hajmdagi ma’lumotlarni qabul qilishmoqda - bu ma’lumotlar foydali ham bo‘lishi mumkin, zararli ham. Shu sababli, o‘smirlar axborotni tanlab iste’mol qilish, uni baholash va undan samarali foydalanishni bilishlari shart. Bu esa axborot iste’moli madaniyatining shakllanishini dolzarb masalaga aylantiradi.

Axborot iste’moli madaniyati - bu insonning axborotni izlash, tanlash, baholash, qayta ishlash va undan etik hamda samarali foydalanish bo‘yicha shakllangan bilim, ko‘nikma va odatlar majmuasidir. Inson miyasi, xuddi oshqozonimiz kabi ma’lumot shaklida oziq-ovqat iste’mol qiladi va biz iste’mol qilgan narsalar bizning sog’ligimiz rivojlanish imkoniyatlarimizga ta’sir qiladi. To’g’ri ovqatlaninsh ortiqcha vaznsiz sog’lom tanaga ega bo’lish imkonini bergani kabi, biz iste’mol qiladigan to’g’ri ma’lumot ham bizning intelektual va ruhiy salomatligimizni saqlaydi. Xuddi mashxur Qirg’iz yozuvchisi Chingiz Aytmetov aytganlaridek: “Oshqozon miyadan aqlli, chunki oshqozon qusishni biladi, lekin miya har qanday axlatni yutadi”

Bugungi kunda axborot tarqatish, iste’molchilar e’tibori uchun kurash jarayolari eng muhim narsa – axborot sifati va uning foydalilik darajasining pasayib ketishiga olib kelmoqda. Bu yerda tasvir yoki ovozning sifati xaqida emas, axborotning mazmuni va foydaliligi xaqida gap ketyapti. Oxirgi vaqtlarda reytinglar va obunachilarga intilish uchun axborot vositalari, media resurslari iste’molchilarni “yuqori kaloriyali” axborotlar bilan to’yintirib tashlashmoqda. Ular odatda yorqin, qiziqarli, kognitiv printsiplar asosida qurilgan, e’tiborni tortuvchi, ko’z uzib bo’lmas darajada shakllantirilmoqda. Ularning bu jihatlari inson miyasini shira kabi o’ziga tortadi, his-tuyg’ularni junbushga keltiradi va o’z – o’zidan qanchalik foydasiz va mazmunsiz bo’lishiga qaramay axborot iste’moli jarayonida o’z ishini ko’rsatmay qo’ymaydi.

Shu sababli yosh avlodda, ayniqsa o’smirlarda shu darajada shakllangan va qaror topgan bo’lishi lozimki, ular vertual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Faqat shundagina, globallashuv jarayonlarida yoshlarning ma’lumotlarga ko’r-ko’rona ergashish, ularni noto’g’ri talqin qilishining oldi olinadi. Axborot iste’moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi. Zamonaviy jamiyatdagi o’zgarishlar yoshlarimizni tarbiyalash, ularni namunali sog’lom komil insonlar bo’lib yetishishida qanchalik qiyinchiliklar tug’dirayotgani xech kimga sir emas. Xali o’zini ximoya qila omaydigan, yaxshi va yomonni ajrata olmaydigan farzandlarimiz axborot vositalari domiga tushib qolayotganidan va ulardan ximoyalash kundan kunga murakkablashayotganidan xavotirga tushyapmiz. Insonnig kelajakda qanday shaxs bo’lib yetishishi uning aynan yoshlik, o’smirlik davrida olgan bilimlaridan shakllangan ijtimoiy tasavvurlari bilan bog’liq. Jamiyatga, shu jmiyatdagi insonlarga, sodir bo’layotgan xodisalarga, kirib kelayotgan yangiliklarga munosabatlar, xulq-atvor asosida ijtimoiy tasavvurlar yotadi. Taraqqiyot mevasi bo’lmish zamonaviy axborot vositalari sezilarli darajada bu tasavvurlarning shakllanishida o’z ta’sirini ko’rsatyapti. Zamonaviy axborot ilmi asoschilaridan bo’lgan mashhur Marshal Maklyuen o’tgan asrning 70-yillarida “Har bir yangi axborot vositasi o’sha zamon kishilarini imtixondan, sinovdan o’tqazadi” deganida hali kompyuter, internet, mobil telefonlar odamzot xayoliga kelmagan edi. Bu axborot vositalari bugun xayotimizning ajralmas bir bo’lagiga aylanib boryotgan ekan, ulardan voz kechish, ularni taqiqlash choralari xaqida emas, balki yoshlarimizda ulardan to’g’ri, foydali, samarali foydalanish madaniyatini, ko’nikmalarini shakllantirishimiz kerakdir. Avvallari farzandlarimiz ma’lumot olishda faqatgina maktabda o’qib o’rgangan, oilada eshitib-ko’rgan bilimlari yoki oddiy tv ko’rsatuvlar, radio eshtirishlar, badiy asarlar bilan cheklanishgan. Albatta bularni nazorat qilish ota-onalarga va pedagoglarga kuchli qiyinchilik tug’dirmagan. O’smirlar o’zlarnin qiziqtirgan barcha savollarga oila davrasida yoki maktabda oladigan bilimlaridan javob topishgan va shu bilimlar asosida ularda shakllangan ijtimoiy tasavvurlar o’z-o’zidan oila, millat qadryatlari, an’analari ruhida bo’lgan. Bu bir oila, maktab, xudud miqyosidagi o’zga xos jamoaviy tasavvurlar edi. Lekin bugungi kunda zavonaviy axborot vositalari orqali jamiyatimizga kirib kelayotgan yangiliklar, bilimlar yoshlarimizning olam va odamlar, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar xaqidagi tasavvurlariga bir muncha ta’sir ko’rsatdi. Bugun kichik jamoalar bir oila, maktab, xudud vakillarida ijtimoiy xayot bilan bog’liq turli tasavvurlarni kuzatish mumkin. Xar kim o’zi olgan bilim va axborotlarga asoslanib shaxsiy tasavvurlarini shakllantira boshladi. Bunda dunyo

bilimlari, xabarlari, yangiliklari, turli g'oya va mafkuralar bilan tanishish imkonini bergan zamonaviy axborot vositalarining roli katta.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (2024) ma'lumotlariga ko'ra:

- 14–19 yoshdagi yoshlarning 93% i smartfon egasi;
- Ularning 87% ijtimoiy tarmoqlarda kuniga kamida 3 soat vaqt o'tkazadi;
- Yoshlarning 64% axborotning ishonchliligini tekshirmasdan qabul qiladi.

Bu raqamlar axborot iste'moli madaniyati ko`nikmasining o`smirlarda xulq-atvor shakllanishida qanchalik ta'siri kuchli bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Axborot iste`moli madaniyatining asosiy tarkibiy qismlariga tanqidiy fikrlash, ya`niy manba ishonchliligini tahlil qila bilish ko`nikmasi, etik me`yorlar- bu mualliflik huquqlariga riyo qilish, zararli kontentlardan o`zini tiya bilish salohiyati, raqamli gigiyena – onlaine va oflaine faoliyat balansin saqlab bilish qobilyati va axborot xavfsizligi-shaxsiy ma`lumotlarini himoya qila bilish ko`nikmalari kiradi.

Xar xil muhit, turli axborot vositalari resurslarini, ta'lim muassasidan olgan bilim va yangiliklarini, oilada va maktabda olgan ko'nikmalarining konstruktiv muvozanati maqsadga erishishning eng samaralm yo'li bo'lishi mumkin. O'smirlarining manba tafakkuri bunda turli zaxiradagi ma'lumot va axborotlarni solishtirish, chuqurlashtirish, aniqlashtirish orqali samarali va ishonchli xulosaga kelish va qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu uchun o'smirlarda zamonaviy axborot vositalaridan qanday samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ularining barcha foydali imkoniyatlari xaqida tushunchalar berish, bu bilan bog'liq amaliy va ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tqazish muhim xisoblanadi

"Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi", – degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Axborot madaniyati esa xabarlarni saqlash, ularning ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e'tibor qaratib munosabat bildirish, g'oyaviy asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, axborot madaniyati – texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlarga ega. Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash va yetkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari xaqidagi bilimlar tizimini anglatadi. Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqda-ki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylnishi zarur. Axborot iste'moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, Internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqori-ki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda qimmatini yo'qotishi aniq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilardan tubdan farq qiladi. Axborot iste'mol madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funktsiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulyativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funktsiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funktsiyasi alohida ahamiyatga ega. Maslan, Internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgan, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Hamma gap mazkur resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishida. Boshqacha aytganda, tarmoqdan illat qidirish bilan ovora bo'lmasdan, uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo'lida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, internet virtual, ammo, ob'ektiv hodisadir. Uning haytimizga kirib kelishini nazorat qilib bo'lmaydi. Odamlarimizni Internet tizimidan uzoqroq tutishga intilish emas, balki, undan oqilona foydalanishga o'rgatish, axborot iste'moli madaniyatini yuksaltirishga harakat qilishimiz to'g'ri bo'ladi. Zero, kishilarda axborot istemoli madaniyati shallangan bo'lsa, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarni "...baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda bunday paytda, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruhimizga sindirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y-basti bilan o'zligini namoyon qiladi...madaniyatning

baholash funktsiyasi tufayli tanlanish sodir bo'ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davdagi ayniylik, o'ziga xoslik, ayni paytda, davomiylik, vorislik ta'minlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni yanada rivojlantirish kelgusida jamiyatimiz oldida turgan muhim va ustuvor vazifalardan ekanini ta'kidlash zarur:

– o'smir yoshlarning axborot muhitidagi ijtimoiy ongini monitoring qilish tizimini shakllantirish;

– o'smirlarning media-savodxonligini muntazam oshirib borish;

– virtual axborot hududida yoshlarning ustuvor nuqtai-nazarlari va qiziqishlarini muntazam o'rganish;

– o'smirlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi axborotdan aholini himoya qilish;

– yoshlarning ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi "ommaviy madaniyat" tahdidi va yot oqimlarning haqiqiy mohiyatini fosh etuvchi ma'lumotlarni yetkazish tizimini yo'lga qo'yish.

"Ochiq axborot almashinuvi vaziyatida yoshlarning o'z-o'zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish lozim: Birinchidan, har bir o'smir yoshlarimiz mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish muhim. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insongina o'ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaktsiya ko'rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. Ikkinchidan, talabalar turli yot va bemaza axborot xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda oila va maktab davrasida milliy g'ururni tinmay tarbiyalashimiz, qadryatlarni singdirishimiz va bunda fanlararo aloqadorlik hamda tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. Chunki inson qalbi bilan bog'liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan "kompas" rolini o'ynaydi. "Internet shunday o'rmonki, unda kompassiz yurib bo'lmaydi". Garchi Internet axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsada, undan shu vaqtga qadar to'plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin. Uchinchidan, ta'lim beruvchilar tomonidan aytiladigan har bir so'zning aniq mo'ljalli bo'lishini ta'minlash zarur. O'qituvchi tomonidan quyidagi fikr muntazam takrorlab turilishi zarur: "Axborot qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u qabul qiluvchi insonning izmida bo'lishi, uning manfaatiga xizmat qilishi kerak". Buning uchun yolg'on axborotlar, yot g'oyalarni targ'ib etuvchilarning asl niyatlarini, ular sa'y-harakatlarining oqibatlari nima bilan tugashini har bir mashg'ulotning tashkiliy qismida esga solib turish lozim. O'ziga ishongan, ruhi pok, aqli teran, irodasi baquvvat, vijdoni uyg'oq odamni aslo yengib bo'lmaydi. Ana shunday fazilatlarga ega butun bir xalqning qudratini tasavvur etish qiyin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Piaget J. *The Psychology of the Child*. - New York: Basic Books, 1969.

2. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. *O'zbekiston yoshlari mediafaolligi bo'yicha tahliliy hisobot*, 2024-yil.

3. UNESCO. *Media and Information Literacy Curriculum for Teachers*. - Paris: UNESCO Publishing, 2011.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. *Ommaviy madaniyat va yoshlar: tahdidlar va yechimlar*. - Toshkent, 2023

5. Anderson M., Jiang J. *Teens, Social Media & Technology 2022*. - Pew Research Center, 2022. https://www.pewresearch.org

Nazarova Dilnoza O‘razaliyevna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV JARAYONIDA OILAVIY TARBIYANING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida oilaviy tarbiyaning psixologik omillari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada oilaviy muhitning hissiy qo‘llab-quvvatlashi, ota-ona muloqotining sifati va oiladagi konfliktlarning bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotlar asosida oilaviy tarbiyaning psixologik jihatlari bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yosh, ijtimoiy moslashuv, oilaviy tarbiya, psixologik omillar, ota-ona muloqoti, hissiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy konflikt, ijtimoiy rivojlanish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В процессе социальной адаптации дошкольников важную роль играют психологические факторы семейного воспитания. В данной статье анализируется эмоциональная поддержка семейной среды, качество родительского общения и влияние семейных конфликтов на социальное развитие детей. На основе исследований освещено значение психологических аспектов семейного воспитания в формировании социальных навыков детей.*

Ключевые слова: *дошкольный возраст, социальная адаптация, семейное воспитание, психологические факторы, родительское общение, эмоциональная поддержка, семейный конфликт, социальное развитие.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FAMILY UPbringing IN THE PROCESS OF SOCIAL ADAPTATION IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. *Psychological factors of family upbringing play an important role in the process of social adaptation of preschool children. This article analyzes the emotional support of the family environment, the quality of parental communication, and the impact of family conflicts on children's social development. Based on the research, the significance of the psychological aspects of family upbringing in the formation of children's social skills is highlighted.*

Key words: *preschool age, social adaptation, family upbringing, psychological factors, parental communication, emotional support, family conflict, social development.*

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy moslashuv jarayonida oilaviy tarbiyaning psixologik omillari juda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yosh davrida bola dunyoqarashini, xulq-atvorini va o‘zini tutishini shakllantirishda eng birinchi va eng asosiy muhit oiladir. Oila a’zolari bilan bo‘lgan muloqot, mehr-muhabbat, qo‘llab-quvvatlash va tushunish bolaning psixologik rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, oilaviy muhitdagi hissiy holatlar, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar bolaning ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Psixologlar ta’kidlashicha, bola o‘zini oila muhitida xavfsiz, qo‘llab-quvvatlangan his qilganda, u jamiyatga chiqishda ham ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishga tayyor bo‘ladi. Shuningdek, oilada tarbiyalangan asosiy qadriyatlar va me’yorlar bolaga jamiyatda qoidalar va normativlarga rioya qilishni o‘rgatadi. Bu jarayon maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy qobiliyatlar va muomala madaniyatini rivojlantirishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, oilaviy tarbiyaning psixologik jihatlari va uning bolalar ijtimoiy moslashuviga ta’siri mavzusi o‘rganishga katta ahamiyatga ega.

Oilaviy tarbiyada psixologik omillarning bolalarning ijtimoiy moslashuvidagi roli o‘ziga xos va ko‘p qirralidir. Eng avvalo, ota-ona bilan bolalar o‘rtasidagi emotsional aloqa bolaning o‘zini qadrli va sevimli his qilishiga xizmat qiladi. Bu esa bolaning o‘z-o‘ziga ishonchini shakllantirishga

yordam beradi, natijada u boshqalar bilan muloqot qilishda ko‘proq ochiq va ijobiy bo‘ladi. Bundan tashqari, ota-onaning o‘zaro munosabatlari ham bolalarning ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sir qiladi; agar oilada tinchlik va mehr-muhabbat hukm sursa, bola murosa qilish, boshqalarni tushunish va jamiyat qoidalariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Tarbiya jarayonida ota-onaning me’yordagi talab va jazolari ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular bolaning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va jamiyat me’yorlariga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlarning psixologik barqarorligi bolaning stress holatlarini boshqarishi va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini oshiradi. Shunday qilib, oilada yaratilgan psixologik muhit bolalarning kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiy faoliyat olib borishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, oilaviy tarbiyaning psixologik omillari bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida kommunikatsiya ko‘nikmalarining shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bolalar oilada ota-ona bilan muloqot qilish jarayonida nafaqat so‘zlashishni, balki o‘z fikrlarini ifoda etish, boshqalarni tinglash va tushunish ko‘nikmalarini ham o‘rganadilar. Ushbu ko‘nikmalar esa ular uchun maktabda va ijtimoiy guruhlarda do‘stlar orttirish, o‘zaro munosabatlarni boshqarish imkonini beradi.

Oilada yuzaga kelgan hissiy iqlim bolalarning psixologik barqarorligi va stressga chidamliligini oshiradi, bu esa ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kelganda ularni yengishda yordam beradi. Shuningdek, ota-onalar tomonidan berilgan namuna va qo‘llab-quvvatlash bolalarning o‘zaro munosabatlarda halollik, hurmat va hamdardlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Bu jarayonlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan psixologik asoslarni yaratadi. Shu bois, oilaviy tarbiyaning psixologik omillarini chuqur o‘rganish bolalarning sog‘lom ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida oilaviy tarbiyaning psixologik omillari muhim o‘rin tutadi, bu haqda ko‘plab psixologlar va olimlar o‘z nazariyalarida ta’kidlaganlar. Masalan, Lev Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning ijtimoiy xulq-atvori va tafakkuri asosan ijtimoiy muhit, xususan, oilaviy munosabatlar orqali shakllanadi. U ta’kidlaganidek, oila bola uchun birinchi ijtimoiy makon bo‘lib, unda o‘zaro faoliyat orqali bola o‘zining shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Vygotskiy nazariyasida "zona yaqin rivojlanish" tushunchasi ham muhim bo‘lib, bu bolaning qiyinchiliklarni ota-ona yoki yaqin kishilar yordamida yengib o‘tishi jarayonini anglatadi. Shu bilan birga, oilaviy tarbiya bolaning til va muloqot ko‘nikmalarini o‘rganishi uchun asos yaratadi, bu esa ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarurdir. Bolaning o‘z-o‘zini anglash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda oilaviy muhitning psixologik farovonligi katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun Vygotskiy fikricha, ota-ona va tarbiyachilarning faol ishtiroki bolaning ijtimoiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu nuqtai nazar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishini tushunishda dolzarb ahamiyatga ega.

Jan Piajetning kognitiv rivojlanish nazariyasi ham oilaviy tarbiyaning ijtimoiy moslashuvdagi rolini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Piajetning fikricha, bolaning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvori uning kognitiv rivojlanish bosqichlariga bog‘liq. Oiladagi munosabatlar, ota-onaning bola bilan muloqoti va qo‘llab-quvvatlashi bolaga yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishda, muammolarni hal qilishda yordam beradi. U ta’kidlaganidek, bolaning fikrlash jarayoni oilaviy interaktivlik orqali rivojlanadi va bu jarayon ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Piajet nazariyasida ijtimoiy moslashuv – bu bolaning yangi vaziyatlarga moslashishi va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyati sifatida qaraladi. Shunday qilib, oilaviy tarbiya bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, uning ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyat qozonishiga ta’sir qiladi. Ushbu nazariya maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi uchun zarur bo‘lgan psixologik asoslarni aniqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi oilaviy tarbiyaning psixologik omillarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Eriksonning ta’kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bola "Mehnat va uyushuv hissi" bosqichida ijtimoiy o‘zligini shakllantiradi, bu jarayonda oila muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy tarbiya bolaning o‘z qobiliyatlariga ishonch hosil qilishida, ijtimoiy munosabatlarda o‘zini erkin his qilishida yordam beradi. Erikson oila bilan bog‘liq ijobiy tajribalar bolalarda ijtimoiy xavfsizlik va o‘ziga hurmatni mustahkamlaydi, bu esa ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi.

Aksincha, oilaviy muhitda nizolar yoki qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bolaning ijtimoiy rivojlanishida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Eriksonning nazariyasi oilaviy tarbiyaning ijtimoiy rivojlanishga psixososial ta’sirini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu nazariya bolalarning o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy o‘zligini shakllantirish jarayonida oilaviy psixologik omillarni o‘rganish uchun qulay ilmiy asosdir.

Jon Boulbi biriktiruvchi nazariyasi ham maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvida oilaviy tarbiyaning ahamiyatini yoritadi. Boulbi ta’kidlaganidek, bolaning ota-ona bilan mustahkam biriktiruvchi munosabatlari uning xavfsiz o‘zligini shakllantirishga xizmat qiladi. Xavfsiz biriktirish bolaning o‘zini ishonchli va qo‘llab-quvvatlangan his qilishi, yangi ijtimoiy vaziyatlarga ochiq bo‘lishi, va boshqalar bilan ijobiy muloqot o‘rnatishida asosiy omil hisoblanadi. Boulbining nazariyasi bo‘yicha, oila muhitida yaratilgan ishonchli va mehribon munosabatlar bolada ijtimoiy stressga chidamlilikni oshiradi va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi. Shu bilan birga, bu nazariya bolaning hissiy va ijtimoiy intellektini rivojlantirishga yordam beruvchi asosiy omillarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Oilaviy tarbiya jarayonida ota-ona tomonidan yaratilgan psixologik xavfsizlik bolaning kelajakda ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Bowlbyning nazariyasi bolalarning ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligi haqida chuqur tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar. *Oilaviy zo‘ravonlik, jismoniy jazo, ruhiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, moslashuvdagi qiyinchiliklar, ota-ona agressiyasi, Bass–Darki so‘rovnomasi, psixoprofilaktika.*

ФОРМЫ ЖЕСТОКОГО ОБРАЩЕНИЯ С ДЕТЬМИ В СЕМЬЕ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. *Сложная и широко распространённая проблема семейного насилия стала объектом изучения психологической науки. В данной статье теоретически проанализированы формы семейного насилия, причины его возникновения и последствия. На основе проведённого исследования зафиксировано влияние семейного насилия на адаптацию учеников начальных классов к школьному обучению. Проанализированы основные способы воздействия родителей, проявляющих жестокое отношение к ребёнку.*

Ключевые слова: *семейное насилие, телесное наказание, психологическое насилие, сексуальное насилие, пренебрежение (недостаток заботы), трудности адаптации, родительская агрессия, опросник Басса–Дарки, психопрофилактика.*

FORMS OF CRUEL TREATMENT OF CHILDREN IN THE FAMILY AND ITS CONSEQUENCES

Abstract. *Domestic violence, a complex and widespread problem, has become a subject of psychological inquiry. This article provides a theoretical analysis of the forms of domestic violence, its causes, and its consequences. Based on the conducted study, the impact of domestic violence on primary school pupils’ adjustment to schooling was documented. The main influence strategies used by parents who treat children cruelly were examined.*

Key words: *domestic violence, corporal punishment, psychological abuse, sexual abuse, neglect, adjustment difficulties, parental aggression, Buss–Durkee questionnaire, psychoprevention.*

Kirish. Oila - tarbiya maskani, ijtimoiylashuv va inson kamolotining masdaridir. Psixologiya fani bo‘yicha birinchi o‘zbek akademik olimi G‘.B.Shoumarov ta’biri bilan aytganda “Oila inson umri qayig‘ining hayot dengizidagi langaridirki, u tufayli inson o‘z muvozanatini saqlab turadi” [3].

Oilaning asosiy funksiyalaridan biri reproduktiv funksiya bo‘lib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorligi bola tarbiyasi va u bilan bog‘liq jarayonlarga hozirligi bilan ham belgilanadi. Barkamol avlod tarbiyasi bola uchun munosib ota yoki onani tanlash bilan boshlanadi. Ota-ona bolaga nisbatan munosabatda o‘zlarining mehrini izhor etish bilan birgalikda, jamiyat oldidagi ijtimoiy burchini unutmagan holda tarbiyaning oltin o‘rtaligini topishi zarur.

Ammo ota-onalar tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishi kelajak bunyodkorlari xotirasida o‘chmas iz qoldiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 14-noyabrda “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bola xavfsizligini asosiy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda 2025-yilning dastlabki 8 oyida 2872 nafar bola turli jinoyatlardan jabr ko‘rgan. Tahlil natijalariga ko‘ra bulardan:

1475 nafari ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan;
956 nafari uncha og‘ir bo‘lmagan;
248 nafari og‘ir;
157 nafari o‘ta og‘ir jinoyatlardan jabrlangan. Umumiy jabrlanganlarning 42,7%ini 12 yoshga to‘lmagan bolalar tashkil qilgan[2].

So‘nggi tadqiqotlar oilaviy zo‘ravonlik faqat ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchilikka uchragan oilalarda yuzaga kelishi haqidagi keng tarqalgan fikrlarni rad etadi. Zo‘ravonlik ijtimoiy, iqtisodiy va mavqeyidan qat’iy nazar aholining barcha qatlamlarida uchrashi mumkin. Oilaviy zo‘ravonlikning bola shaxsi shakllanishiga salbiy ta’siri ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. E.E.Lupanova bolalarda oilaviy zo‘ravonlikning oqibatlari butun hayotiga ta’sir qiladi deb hisoblaydi[5]. I.A.Furmanova bolalar uchun turli xil alomatlarga ega bo‘lgan zo‘ravonlikning oqibatlari haqida aytadi. Bular stressli reaksiyalar, ishonchni yo‘qotish, suitsid xavfi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan baho va o‘quv motivatsiyasining tushishi, depressiv holatlar bo‘lishi mumkin[7].

Bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik ularning kutilmalarga mos bo‘lmagan xarakatlari va xatolari uchun jismoniy jazolash bilan cheklanib qolmaydi. Bolalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ta’qib qilish(bullyng), ekspluatatsiya qilish, ruhiy bosim o‘tkazish ham zo‘ravonlikning amaliyotda keng tarqalgan ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan bolalar o‘zlarini boshqalarga o‘xshmaydigan, mehr-e’tiborga noloyiq keraksiz inson deb his qilishadi. O‘z kuch va qobiliyatiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar, qoida tariqasida, boshqa odamlardan, ayniqsa kattalardan qo‘rqadi, ularni xavfli, dushman sifatida qabul qiladi. Ularda shaxsiy chegaralarining buzilishi yuz beradi: haddan tashqari ko‘ngilchan va itoatkor yoki, aksincha, qo‘rs va hech kim ishonmaydigan bo‘lib qoladi. Shuningdek, bunday bolaning butun faolligi o‘zini himoya qilishga yo‘naltirilganini qayd etish mumkin.

Oilada bolaga nisbatan shafqatsiz munosabat “ichki masala” sifatida e’tirof etiladi. Jismoniy zo‘ravonlik –bola tarbiyasidagi jazolash instrumenti sifatida ratsionallashtiriladi. Umuman olganda bolaga nisbatan jismoniy va psixik zo‘ravonlik – kaltaklash, kamsitish, ovqat va kiyim-kechakdan mahrum qilish, haqorat qilish, jinsiy daxlsizlikka tajovuz qilish, o‘ldirish, o‘z joniga qasd qilishga sababchi bo‘lish ko‘rinishlarida yuzaga kelishi mumkin. Ota-onalarning bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatining sababi sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: ishsizlik, yomon turar joy sharoitlari, moddiy nochorlik. Bular stressga, so‘ngra uy a’zolariga nisbatan qo‘pol muomalaga olib keladi;

psixologik omillar: ota-ona yoki bolaning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy kasalliklar, alkogolizm, giyohvandlik, ota-onalarning bolalikda boshdan kechirgan salbiy shaxsiy tajribasi, pedagogik bilimlarning yo‘qligi.

Oilaviy zo‘ravonlik qurbonlari ko‘proq istalmagan, betob yoki giperfaol bolalar bo‘lib chiqadi. Bolalarga qo‘pol zo‘ravonlik qiladigan ota-onalar ko‘proq emotsional jihatdan beqaror yoki stress holatida bo‘lgan kishilardir. An’anaviy ravishda bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatning to‘rt umumiy kategoriyasi ajratiladi: 1) jismoniy zo‘ravonlik; 2) jinsiy zo‘ravonlik, 3) bolaning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish, 4) emotsional zo‘ravonlik.

Jismoniy zo‘ravonlik – insonlarga nisbatan tan jarohatlari yetkazish, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa harakatlarni sodir etish, sog‘lig‘iga tajovuz qiladigan harakat (harakatsizlik). Odatda jismoniy zo‘ravonlikka uchragan bolalar dunyoni o‘zlari uchun xavfli va atrofdagi insonlarni dushman deb biladi. Insonlar bilan munosabat o‘rnatishda va borliqni idrok etishda qiyinchilikka uchraydi, depressiya va bezovtalik kuzatiladi. Bolalarda jismoniy zo‘ravonlik oqibatidagi jarohatlar uning jismoniy va psixik rivojlanishida jiddiy buzilishlarga, rivojlanishda ortda qolish hatto o‘limga olib kelishi mumkin. Ko‘p holatlarda ota-onalar tomonidan jismoniy zo‘ravonlik bolani tarbiya qilish jarayonida jazo sifatida talqin etiladi. Jon Lokk istalgan natija bermasligi sababidan bolaga jismoniy jazo qo‘llashga qarshi bo‘lgan[4]. Bola teskari reaksiya berishi va natijada uning xulq-atvori yomonlashishi mumkin. Bolada qasos tuyg‘usi paydo bo‘ladi, jismoniy jazoga o‘rganib qoladi va endi unga munosabat bildirmaydi. Xafagarchilik, g‘azab, qo‘rqoqlik tuyg‘ularini keltirib chiqaradi. Jismoniy zo‘ravonlikka uchragan bolada o‘zini aybdor his qilish, xulq-atvorning ekstremal ko‘rinishi, ota-otanadan va uydan qo‘rqish, kattalar bilan muloqotda o‘zini tashvishli tutish, o‘zini past baholash, uydan qochish, xulq-atvoridagi tushunarsiz o‘zgarishlar kabi emotsional va xulq-atvor reaksiyalari

paydo bo‘ladi. S.Salzinger, R.S.Feldman, M.Hammer, M.Rosarioning tadqiqotlariga ko‘ra, oilada jismoniy zo‘ravonlikka uchragan bolalar tengdoshlari orasida quyi sotsiometrik statusga ega bo‘lishi, sinfdoshlari do‘st sifatida tanlash ehtimoli past, agressiv ekanligi aniqlangan[1].

Jinsiy zo‘ravonlik – bolalarga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali ularning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga tajovuz qilish. Zo‘ravon har doim zo‘ravonlik faktini rad etishi va bola bu haqida gapirishni istamasligi jinsiy zo‘ravonlikning aniqlashni qiyinlashtiradi. Bolaning tahqirlanishi, gapirishdan uyalishi, o‘zini aybdor deb his qilishi sabab bola jinsiy zo‘ravonlik haqida aytishni istamaydi. Jinsiy zo‘ravonlik turli yosh davridagi bolalar psixikasi va xulq-atvorida turlicha xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

-maktabgacha yosh davridagi bolalarda uyqu buzilishi, xavotir, qo‘rquv, yoshga xos bo‘lmagan xarakatlar, biror kishi bilan yolg‘iz qolishdan qo‘rqish holatlari kuzatilishi mumkin;

-boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda akademik faoliyatning yomonlashishi, stress buzilishi, diqqatni jamlay olmaslik, g‘azab va tajovuzkor xatti-harakatlar, atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuvi kuzatilishi mumkin;

-o‘smirlarda depressiya, o‘ziga past baho berish, agressiv va antisotsial xatti-harakatlar, ijtimoiy izolatsiya, maktabdagi muammolar, gender identifikatori bilan bog‘liq muammolar, suitsidial urunishlar, fohishalik, zo‘ravonlik va guyohvandlikka olib kelishi mumkin.


Ruhiy zo‘ravonlik – bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, eng ustun manfaatlariga zid ravishda ajratib qo‘yish yoki ortiqcha nazorat qilishga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan har qanday harakat (harakatsizlik). Ruhiy zo‘ravonlik doimiy, uzoq davom etadigan va keng tarqalgan zo‘ravonlik ko‘rinishlaridan biridir. Ruhiy zo‘ravonlikka uchragan bolalar, odatda, ota-onalari yoki yaqinlari tomonidan hech qanday ijobiy baho va qo‘llab-quvvtlash olmaydilar. Bolaning maqtovga loyiq barcha xatti-harakatlari kattalar tomonidan e’tiborga olinmaydi. Aksincha no‘g‘ri xatti-harakatlariga qattiq jazo va haqorat bilan munosabat bildiriladi. Oqibatda, bolaning his-tuyg‘ulari bir tomonlama rivojlanadi. O‘zini-o‘zi past baholaydi, o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushuna olmaydi, adekvat munosabatlarni rivojlantira olmaydi. Ota-ona bilan kechadigan har qaday munosabat emotsional taranglik, qo‘rquv va tashvish bilan birga kechadi. Jismoniy zo‘ravonlik natijasidagi jarohatlar bitadi, jinsiy zo‘ravonlik oqibatidagi kasalliklar davolanadi. Lekin ruhiy zo‘ravonlikning oqibatlari insonning butun hayoti davomida unga hamrohlik qiladi. Bu turdagi zo‘ravonlikka uchragan bolalar o‘ziga past baho beradi, o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi past, agressiv yoki befarq, yolg‘izlik hissi, do‘stlarning yetishmasligi kabi shaxs xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Qoida tariqasida, bu turdagi zo‘ravonlik tajribasiga ega bo‘lgan insonlar kelajakda bolalari bilan ham xuddi shunday yo‘l tutishadi.

G‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik – ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) zarur imkoniyatlar, bilim va ko‘nikmalar, shuningdek tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta’lim, ijtimoiy va boshqalar) foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishiga qaramay qaramog‘idagi bolaning sog‘lig‘i, jismoniy, aqliy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishining jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan jismoniy, moddiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarini qondirmaslikdan iborat zo‘ravonlik ko‘rinishidir. Bolaning jismoniy ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish tufayli bolalar juda semiz yoki juda ozg‘in, rangpar, kamqonlik kabi belgilar namoyon bo‘ladi. Bolaning hissiy ehtiyojlariga e’tiborsiz bo‘lish natijasida bola ota-onasidan mustaqil tashabbus qila olamaydi, kattalarning e’tiborini jalb qilishga harakat qiladi, yolg‘izlik, ota-ona xulq-atvoriga taqlid qilish natijasida shafqatsiz bolaga aylanadi. Bolaning ta’limini e’tiborsiz qoldirish natijasida bola aqliy rivojlanishi va nutqi kechikadi, maktabdan qo‘rqish, o‘zlashtirishda tengdoshlaridan ortda qolishiga olib keladi.

Metodlar. Maqola mavzusi yuzasidan o‘tkazilgan eksperiment yordamida bolalariga nisbatan shafqatsiz munosabatga yo‘l qo‘yayotgan ota-onalarning tarbiyada qo‘llaydigan asosiy metodlari va Bass va Darki so‘rovnomasi bo‘yicha xususiyatlarini aniqlashga harakat qildik. Adaptatsiya jarayonidagi muammolar - zo‘ravonlikka uchragan bolani qiynaydigan asosiy jabhalardan biridir. Akademik o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar, agressiya, ijtimoiylashuv jarayonidagi muammolar shular jumlasidandir. Tadqiqotning 1-bosqichi ekspertlar bahosiga asoslandi. Sinf rahbarlari va maktab psixologi o‘zlarining kuzatuvlari asosida o‘zlashtirishda ortda qolgan, tartibsizlik, agressiya, beqarorlik, kayfiyatning tez-tez almashishi, o‘ziga ishonchsizlik, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatdagi

qiyinchiligi bo‘lgan 70 nafar o‘quvchilarni ajratib ko‘rsatishdi. 2-bosqich so‘rovnoma va Bass-Darki testi asosida tashkil qilindi. Ekspertlar xulosasi yordamida ajratib olingan o‘quvchilarning ota-onalari mazkur psixodiagnostik vositalarni to‘ldirib berishdi. So‘rovnomaga zo‘ravonlik ko‘rinishlari bilan bir qatorda odatiy tarbiya usullari ham kiritildi. Bu jismoniy jazolardan foydalanish haqidagi savollarni ijtimoiy maqbullashtirish va tadqiqot obyektivligini ta’minlash uchun qilindi. Bass–Darki testi qisqa variantda, mazkur bosqichning diagnostik vazifalariga mos keluvchi 4 ta shkala bilan qo‘llanildi. Bular: 1-shkala jismoniy agressiya, 2-shkala bilvosita agressiya, 3-shkala jahldorlik, 7-shkala verbal agressiya.

Natijalar. Eksperimental tadqiqotning birinchi bosqichida Farg‘ona viloyati Bog‘dod tumanidagi 22-maktabining 1–4-sinfidagi 320 nafar o‘quvchi qatnashdi. Ekspertlar xulosasi asosida 70 nafar moslashuv muammolariga ega o‘quvchini aniqladi. Ushbu o‘quvchilarning 70 nafar ota yoki onalaridan biri tadqiqotda ishtirok etdi.



So‘rovnomaga javob berishda sinaluvchi o‘zidan kelib chiqib, bir nechta javobni berish mumkin. So‘rovnoma tahlili ota-onalar uchun odatiy tarbiyaviy ta’sir usullarini quyidagicha ko‘rsatdi: buyruqlar - 53 %, tahdidlar - 47 %, nasihat va o‘rgatish - 45,3 %, jismoniy jazo - 32 %, jazolash - 30,7 %, boladan xafa bo‘lish - 20,5 %, tanqid - 12 %; va faqat kichik qismi maqtov - 18 %, yupatish - 15 %, maslahatlar - 7 %, ko‘ndirish - 6,3 %, xulqni tahlil qilish - 3 % ga to‘g‘ri keldi. Shunday qilib, anketalashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, moslashuvda qiyinchiliklarga ega bolalarning 80 nafar ota-onasidan 53 nafari tarbiyada bolalar huquqlarini buzuvchi ta’sir usullaridan foydalanadi. Bass–Darki so‘rovnomasi ma’lumotlarini tahlil qilish quyidagi shkalalar bo‘yicha baland ball olgan 62 nafar ota-onani aniqladi: og‘zaki agressiya - 29 nafar; jismoniy agressiya - 9 nafar; jahldorlik - 9 nafar; bilvosita agressiya - 7 nafar. Qolgan 8 nafar ota-onada test ballari me’yor doirasida bo‘ldi. Shunday qilib, diagnostika farzand huquqlarini buzayotgan 12 nafar ota-onani (ulardan 3 nafari bolani mustaqil tarbiyalayotgan onalar) aniqladi[2].

Muhokama. Eksperimental tadqiqot moslashuvdagi qiyinchiliklar ota-onalarning bola huquqlarini buzuvchi tarbiya usullaridan foydalanishi natijasi ekanini ko‘rsatib berdi. Olingan ma’lumotlar mazkur ta’lim muassasasining ijtimoiy-psixologik xizmati tomonidan oilalarda zo‘ravonlikning oldini olish va reabilitatsiya tadbirlarini ishlab chiqish uchun qo‘llaniladi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot materiallari oilada shafqatsiz munosabatni boshdan kechirgan o‘quvchilarni o‘z vaqtida aniqlashning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi bo‘yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarga sharh va ushbu eksperimental tadqiqot natijalari oilada zo‘ravonlikni boshdan kechirgan o‘quvchilarni o‘z vaqtida aniqlash dolzarb masalalardan biri ekanini ko‘rsatdi. Bolalikdagi zo‘ravonlikning salbiy tajribasi ko‘pincha keyingi avlodlarda ham takrorlanadi; shu sababdan bolaga nisbatan noto‘g‘ri muomala qilishni erta bosqichlarda aniqlash va bunday bolalar hamda ularning oilalariga yordam ko‘rsatish nihoyatda muhimdir. Mazkur ish oiladagi zo‘ravonlikni oila tizimi ichida kechadigan, unga ta’sir qiladigan va oila a’zolarining barchasiga daxldor bo‘lgan jarayon sifatida tushunish, tasvirlash va aniqlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Eksperimental tadqiqot oilada huquqlari buzilayotgan bolalarda moslashuvda turli qiyinchiliklar kuzatilishi haqidagi nazariy taxminni tasdiqladi. Ayni paytda oilaviy nosog‘lomlik muammosi umuman olganda, xususan zo‘ravonlik muammosi psixologik, pedagogik, huquqiy va ijtimoiy tusdagi vazifalar majmuasini hal qilishni talab etadi; ular oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va undan jabrlanganlarni reabilitatsiya qilishga qaratilgan amaliy choralarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bunday tadbirlarni amalga oshirish uchun yagona yondashuvga amal qiladigan, turli soha va idoralarga qarashli tashkilotlarda faoliyat yuritishi mumkin bo‘lgan tarmoqlararo mutaxassislar jamoasi zarur. U quyidagi mutaxassislik vakillarini o‘z ichiga olishi kerak: pediatr, psixiatr, psixologlar, ijtimoiy xodimlar, pedagoglar va yurist. Bunday jamoaning birlamchi vazifalari - bolaning xavfsizligini ta’minlash, bolaning rivojlanishi uchun normal muhitni qo‘llab-quvvatlash yoki yaratish, oilaviy munosabatlarni me’yorlashtirish va zo‘ravonlik takrorlanishining oldini olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bachar E., Canetti L., Bonne O. et al. Physical punishment and signs of mental distress in normal adolescents // AdolescenCE. 1997. Vol. 32. P. 12–22

2. https://www.gazeta.uz/uz/2025/09/14/violence/

3. Psixologik atamalar ruscha – o‘zbekcha izohli lug’ati (Tuzuvchilar:N.A.Sog‘inov, Z.T.Nishonova, X.K.Karimov, B.M.Umarov,E.Sh.Usmonov) /Psixol. fan. dokt., prof. G‘.B.Shoumarov tahriri ostida.-Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019, - 302 b.

4. Theories of Development Concepts and Applications William Crain Sixth Edition. P.7

5. Лупанова Е.Е. Технология групповой работы с детьми, испытавшими жестокое обращение / Е.Е. Лупанова // Новая наука: проблемы и перспективы.–2016. – №2(67). – С. 117–119

6. Купченко // Журнал Белорусского государственного университета. Серия: Философия. Психология =Journal of the Belarusian State University. Philosophy and Psychology. – 2017. –№2. – С. 73–79

7. Фурманов И.А. Особенности агрессии подростков, переживающих насилие со стороны сверстников / И.А. Фурманов, В.Е.

Юнусзода Шахноза Жовиджоновна
Ассистент кафедры педагогики и общей психологии, факультет психологии
и социально-политических отношений.
Самаркандский государственный университет
E-mail: shaxnoza.yunuszoda@mail.ru

ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МАТЕРЕЙ, ВОСПИТЫВАЮЩИХ ДЕТЕЙ С ДЕТСКИМ ЦЕРЕБРАЛЬНЫМ ПАРАЛИЧОМ

Аннотация. *В этой статье мы рассматриваем психоэмоциональные особенности матерей, воспитывающих детей с детским церебральным параличом (ДЦП). Особое место занимает то, что воспитание ребёнка с особыми потребностями требует от матери значительных физических эмоциональных и психологических ресурсов. Анализируются все основные проявления эмоционального выгорания, чувства вины, тревожности, социальной изоляции. Отмечается на сколько важна психологическая поддержка и психологическое сопровождении таких семей.*

Ключевые слова: *матери, дети с ДЦП, психоэмоциональное состояние, психологическая помощь, выгорание.*

BOLA FALAJI BILAN YASHAYOTGAN BOLALARNI TARBIYALAYOTGAN ONALARNING PSIXOEMOTSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotasiya. *Ushbu maqolada biz bolalar serebral falaji (DCP) bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan onalarning psixoemotsional xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Ayniqsa, alohida ehtiyojli bolani tarbiyalash orqali onalarga jiddiy jismoniy, hissiy va psixologik talablar qo'yilishi muhim ahamiyatga ega. Hissiy charchash, aybdorlik, tashvish va ijtimoiy izolyatsiyaning asosiy ko'rinishlari tahlil qilinadi. Bu oilalar uchun psixologik yordam va psixologik maslahatning ahamiyati ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *onalar, DCP bo'lgan bolalar, psixoemotsional holat, psixologik yordam, charchash.*

PSYCHOEMOTIONAL CHARACTERISTICS OF MOTHERS RAISING CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY

Abstract. *In this article, we examine the psychoemotional characteristics of mothers raising children with cerebral palsy (CP). Particularly important is the fact that raising a child with special needs requires significant physical, emotional, and psychological resources from the mother. All the main manifestations of emotional burnout, guilt, anxiety, and social isolation are analyzed. The importance of psychological support and psychological guidance for such families is highlighted.*

Key words: *mothers, children with cerebral palsy, psycho-emotional state, psychological assistance, burnout.*

Психоэмоциональное состояние обычно определяется учеными как основа здоровья человека (прежде всего психического), совокупность его чувств и эмоций. Подобное определение приводится, например, в работах Т. М. Масловой и А. В. Покацкой. Данные авторы также подмечают важность эмоциональной составляющей в реагировании на окружающий мир, поскольку подобные проявления до определенной степени служат помощниками в установлении баланса психической деятельности, вычленении негативных факторов, оценке собственной жизни [1].

Психоэмоциональное состояние – это особая форма психических состояний, где преобладают эмоциональные компоненты, включая чувства, настроения, влечения и аффекты, отражающие реакцию человека на окружающий мир и его физиологические характеристики. Оно

включает в себя спектр от положительных эмоций, таких как радость, до отрицательных, таких как злость, грусть или страх, и может влиять на мышление и поведение.

Психоэмоциональное состояние матери тесно связано с физическим и психическим здоровьем ребенка, поскольку стресс матери может вызывать выделение гормонов, влияющих на плод, а эмоциональное состояние матери определяет условия для развития ребенка после рождения. Нестабильное состояние матери повышает риски преждевременных родов, низкого веса новорожденных, нарушений в развитии речи и когнитивных навыков, а также эмоциональных и поведенческих расстройств у ребенка.

Особенностью психического развития у детей с ДЦП является - инертность психических процессов, замедленность включения и переключения в заданиях, персеверативность мышления, перцептивные нарушения, недостаточность концентрации внимания и способности удерживать воспринятый материал, неустойчивость организационной деятельности, легкая утомляемость и быстрая истощаемость, наступающие при незначительном психическом и физическом напряжении.Запас сведений и общих представлений у детей с ДЦП, как правило, неравномерно снижен, (порой не знают вещей, которыми пользуются в быту) что обусловлено, во многом социальной

депривацией, ограничением социальных контактов, гослитализмом, педагогической запущенностью.

Также недостаточность информационного запаса объясняется особенностями их двигательного дефекта, затрудняющего не только передвижение, но и познание свойств предметов окружающего мира путем манипулирования с ними. Более того, у детей с ДЦП нередко затруднена фиксация взора в связи со слабостью бинокулярного оптического фиксационного рефлекса и наличием стволовых нередуцированных рефлексов [2, 3].

Широко известно, что отношения между детьми и родителями, в частности отношения ребенка с матерью, являются чрезвычайно важными для становления ребенка как социального существа, ибо они оказывают решающее влияние на развитие его самосознания и личности в целом [4].Воспитание ребёнка с детским церебральным параличом является одним из наиболее сложных испытаний для семьи, особенно для матери, которая чаще всего становится основным ухаживающим лицом. Ежедневные физические нагрузки, постоянное эмоциональное напряжение, переживания за будущее ребёнка и отсутствие достаточной социальной поддержки приводят к устойчивым изменениям психоэмоционального состояния матери. Матери детей с ДЦП испытывают повышенную тревожность, низкую самооценку и чувство беспомощности в реабилитации, часто концентрируются на уходе за ребенком в ущерб личному развитию. Они могут ощущать неудовлетворенность медицинским обслуживанием, но при этом недооценивать собственную роль. Также характерны эмоциональные нарушения и высокая личностная тревожность, особенно в неполных семья. Современная психология рассматривает таких женщин как группу, нуждающуюся в особом внимании и профессиональной психологической помощи. Изучение их эмоциональных реакций и адаптационных механизмов имеет важное значение для разработки эффективных программ психокоррекции и поддержки.

Основные психоэмоциональные особенности матерей воспитывающих детей с ограниченными возможностями это:

1.Эмоциональные нарушение. У матерей детей-инвалидов (включая ДЦП) чаще встречаются эмоциональные нарушения, такие как тревожность, неуверенность в себе и низкая саморегуляция.

2.Высокий уровень стресса: Непрерывный уход, медицинские процедуры и необходимость освоения новых навыков создают значительную интеллектуальную и физическую нагрузку.

3.Чувство вины: Матери могут испытывать вину перед ребенком, партнером и другими членами семьи.

4.Социальная изоляция: Рождение ребенка с ДЦП может привести к ограничению социальных контактов семьи и изоляции матери.

5.Фокус на уходе: У матерей, особенно воспитывающих детей с ДЦП, часто преобладает фокус на уходе и лечении ребенка, что снижает их стремление к личному развитию.

6.Восприятие ребенка: Матери часто воспринимают своего ребенка как несамостоятельного и пассивного, даже при отсутствии явных причин для этого.

Эмоциональное сфера матерей воспитывающих детей с ДЦП включает в себя несколько аспектов:

Тревожность: У матерей детей с ДЦП часто наблюдается высокая личностная тревожность, чувство неуверенности в себе и низкая саморегуляция эмоций.

Эмоциональные нарушения: В целом, эмоциональные нарушения выявляются у них чаще, чем у матерей детей с другими перинатальными поражениями нервной системы.

Чувство беспомощности: Матерей могут беспокоить нарушения в развитии движений, отставание в психическом и речевом развитии ребенка, а также неясность перспектив реабилитации, что порождает чувство беспомощности.

Многочисленные исследования показывают, что рождение и воспитание ребенка с отклонениями в психофизическом развитии, являясь психотравмирующим фактором для семьи, изменяет ее функционирование, накладывает ограничения на различные сферы жизни (профессиональную, семейную, общественную), отрицательно влияет на состояние здоровья и личностные качества родителей, приводит к невротизиции и к психосоматическим расстройствам членов семьи. В семьях, где есть ребенок-инвалид, отмечается широкий спектр проблем: низкий уровень психологопедагогической компетентности родителей, их пассивная позиция к оказанию грамотной помощи ребенку, искаженное восприятие его личности, неадекватные родительские установки и неблагоприятные стили воспитания, нарушенные эмоциональные связи и межличностные отношения в семье и другие. Следовательно, отмечается низкий уровень реабилитационных возможностей семьи для оказания помощи ребенку с отклонениями в развитии [5]. Матери детей с ДЦП часто переживают хронический стресс, тревогу и депрессию. На ранних этапах, после постановки диагноза, характерны отрицание, чувство вины и отчаяние. В дальнейшем, по мере принятия диагноза, появляется эмоциональное истощение и потребность в поддержке. Исследования показывают, что уровень тревожности и депрессии у таких матерей значительно выше, чем у матерей здоровых детей [5,6]. Нередко у них наблюдается повышенная чувствительность к оценкам окружающих и склонность к самообвинению.

К основным факторам влияющих на психоэмоциональное состоянии матери относятся: физическое и эмоциональное переутомление, дефицит сна и личного времени, ограниченность социальных контактов, финансовые трудности, недостаток информации о возможностях лечения и реабилитации, а также непонимание со стороны близких или супруга. Эти факторы формируют замкнутый круг, в котором матери часто остаются один на один со своими переживаниями [7]. Психологическая помощь матерям , воспитывающих детей с ДЦП, должна быть направлена на снижение уровня тревожности и чувства вины, обучение стратегиям эмоциональной саморегуляции, развитие навыков позитивного мышления и принятия, восстановление личных ресурсов и самоценности женщины. Важную роль играет групповая поддержка, где матери могут делиться опытом и получать эмоциональное принятие Матери воспитывающие, детей с ДЦП нуждаются в постоянной психологической поддержке, направленной на стабилизацию эмоционального состояния и укрепление адаптивных ресурсов. Своевременная и квалифицированная психологическая помощь позволяет снизить эмоциональное выгорание и риск депрессии, а также улучшить качество жизни и укрепить отношения матери с ребенком, что способствует гармоничному развитию, как ребенка так и семьи в целом. На основании анализа психоэмоционального состояния матерей , воспитывающих детей с ДЦП , можно принести рекомендации для улучшения психоэмоционального состояния и повышения качества жизни как матерей, так и детей:

1.Системная психологическая помощь. Заключается регулярная индивидуальная или групповая работа с матерями, включающая консультирования, психотерапевтические беседы, а также тренинги по развитию эмоциональной устойчивости.

2.Создание групп с такими же мамами в единые группы, обмениваться опытом получать эмоциональную поддержку и ощущение принадлежности к сообществу.

3.Обучение на различных тренингах и курсах по стрессоустойчивости, саморегуляции, и позитивного восприятия всех возможных сложностей и проблем.

4. Взаимодействие с семьей. Важно проводить семейные консультации, направленные на повышение включенности отцов и других членов семьи в процесс воспитания и развития за ребенком, что способствует снижению эмоционального выгорания матери.

5.Поддержка личностного ресурса и роста матерей. Необходимо предоставить возможности для личностного роста матери, профессионального развития. Развитие личностных интересов, что способствует внутреннему ресурсу и профилактике эмоционального выгорания.

Список литературы.

1.Маслова Т. М Соотношение психоэмоционального состояния и уровня стрессоустойчивости личности. – 2020 Т9 № 2 С. 351-353.

2. Бодолян Л.О. Детская неврология учеб. Пособие/ Л.О.Бадалян -М. Медпресс-информ.2010.-608

3. Левченко И, Ю., Приходько О, Г., Гусе ова А. А. Детский церебральный паралич:Коррекционно-развивающая работа с д

ами. - М.: Книтголюб, 2008. - 176с.

4.Личко, А. Е. Подростковая психиатрия: Руководство для врачей. Л.: Медицина, 1985. С. 83-90.

5. Ткачева В.В. Технологии психологической помощи семьям детей с отклонениями в развитии: Учеб. пособие / В.В. Ткачева. - М.: АСТ; Астрель, 2007. - 318 с.

6. Петренко, В. Ф. (2019). Психологические аспекты родительства в семьях с особыми детьми. Санкт-Петербург: статья Психология человека в образовании, 2020, т. 2, № 1

7. Шаповалова, И. Н. (2020). Эмоциональное выгорание матерей особенных детей. Психология и общество, №3. Issn 1991-5497. Мир науки, культуры, образования. № 3 (82) 2020

Zulunov Muhammadzar Zokirjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
harbiy xizmatchisi, mayor

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY FAOLIYAT DEFORMATSIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, harbiy xizmat kasbini egallashni dastlabki bosqichining tipik deformatsiyasi ko‘rib chiqiladi, shuningdek harbiy xizmatchilarni qo‘llab-quvvatlash motivatsiyasi, bo‘lajak harbiy xizmatchilarda yuzaga keladigan deformatsiya, ularni oldini olish hamda bartaraf etishda ilmiy-nazariy asoslar bilan yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Harbiy xizmatchilar, deformatsiya, to‘qnashuv, intizom, harbiy burch, psixologik salomatlik, shaxsiyat, xulq-atvor, hissiy charchash, kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. sadoqat, jasorat.*

ДЕФОРМАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. *В статье рассматриваются типичные деформации начального этапа освоения военной профессии, а также мотивация поддержки военнослужащих, деформации, возникающие у будущих военнослужащих, и научно-теоретические основы их профилактики и устранения.*

Ключевые слова: *Военнослужащие, деформация, конфликт, дисциплина, воинская обязанность, психологическое здоровье, личность, поведение, эмоциональное истощение, особенности профессиональной деятельности, преданность, мужество.*

PROFESSIONAL ACTIVITY DEFORMATIONS IN MILITARY SERVANTS

Abstract. *This article examines the typical deformation of the initial stage of acquiring the military profession, as well as the motivation to support military personnel, deformation occurring in future military personnel, and the scientific and theoretical foundations for their prevention and elimination.*

Key words: *Military personnel, deformation, conflict, discipline, military duty, psychological health, personality, behavior, emotional exhaustion, specific features of professional activity. loyalty, courage.*

Kirish. Inson faoliyatining muhim qismi bo‘lgan kasbiy faoliyat nafaqat moddiy, va ma’naviy qadriyatlarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir inson o‘z kasbiy faoliyati davomida shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy mavqei va hayotiy qadriyatlarini mehnat orqali namoyon etadi. Shu bilan birga, kasbiy faoliyatning o‘ziga xos muhim qatlamlaridan biri bu harbiy-kasbiy faoliyat hisoblanadi. Harbiy faoliyat xususiyatlari bo‘lajak harbiy xizmatchilar zimmalariga yuklanadigan **maxsus talablar,** haqiqiy harbiy xizmatga saralash, tanlash va qabul qilish jarayonida nomzodning fuqaroligi, ma’lumoti, mutaxassisligi, yoshi, bo‘yi, vazni, sog‘lig‘i, jismoniy va kasbiy tayyorgarligi hamda harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq boshqa shartlar ma’lum darajadagi salbiy va ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

harbiy xizmat - fuqarolar tomonidan Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi;

haqiqiy harbiy xizmat - chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmat;

harbiy xizmatchi - haqiqiy harbiy xizmatdagi fuqaro;

muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisi - Qurolli Kuchlar safida oddiy askarlar tarkibi lavozimlarida majburiy xizmatni o‘tayotgan chaqiruv yoshidagi fuqaro, shuningdek zaxiradan muddatli

harbiy xizmatga chaqirilgan ofitser.[1]

Harbiy xizmatga yangi chaqirtirilgan harbiy xizmatchilarning dastlabki bir oyida ularda adaptatsiya yuzaga kelishi uchun, uzoq yillar davomida bir xil kasbiy jarayonlarda ishtirok etishi, professional majburiyatlarning kuchli psixologik bosimi, stress va hissiy charchash, harbiy vazifalarning bajarishdagi o‘ziga xos murakkabliklarini tushuntirish va ularning ko‘z oldida ushbu mas’uliyatli vazifalarni bajarilishi ko‘rsatiladi va buning ortidan harbiy xizmatchilar o‘zlari bilib yoki bilmasdan, dastlabki kasbiy deformatsiya deb nomlanuvchi holatni yuzaga keltirishi tabiiy. Chunki, harbiy xizmatning mashaqqati va burchini dastlabki kunlaridan namoyish qilinmasa, bo‘lajak harbiy xizmatchilarda qaysidir ma’noda xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan qarash, mas’uliyatsizlik, bepisand munosabatda bo‘lish kabi salbiy xissiyotlarga berilib, shu nuqtai-nazardan faqat oylik maoshlarini kutadigan, moddiy rag‘batlantirishlar bilan harbiy xizmatning asl xizmat vazifalarini yodidan chiqarishi, yoki birdan harbiy xizmatdan bo‘yin tovlashi kabi turli xil omillar orqali salbiy kasbiy deformatsiyalar vujudga kelishi mumkin. Har ikkala holatda ham bo‘lajak harbiy xizmatchilar harbiy xizmatning dastlabkli bir oyida (ba’zan bu holat uch oy va undan ham ko‘p bo‘lishi mumkin) kasbiy deformatsiyalarga uchraydi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar kasbiy deformatsiyani erta aniqlash, uning oldini olish va korreksiyalash choralarini ishlab chiqishning zarurligini ko‘rsatmoqda. Chunki deformatsiya chuqurlashgan sari harbiy xizmatchilarning individual salohiyati pasayadi, xizmat majburiyatlarini to‘laqonli bajara olmaydi, harbiy jamoa samaradorligi va ijtimoiy muhitga ham salbiy ta’sir kuchayadi.

Shu sababli mazkur mavzu bugungi kunda ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, mutaxassislar oldida kasbiy barqarorlikni ta’minlash, stressni boshqarish va shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarni qo‘yadi. Mazkur maqolada kasbiy deformatsiyaning nazariy asoslari, uning yuzaga kelish sabablari va oqibatlari, shuningdek, oldini olish hamda korreksiya qilish yo‘llari ilmiy tahlil qilinishi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kasbiy deformatsiya atamasi ilmiy muomalaga XX asr o‘rtalarida kirib kelgan bo‘lib, u mutaxassisning uzoq muddatli kasbiy faoliyat jarayonida shaxsiy va psixologik sifatlarida yuz beradigan o‘zgarishlarni ifodalaydi. Jahon psixologiyasida ushbu hodisaga turlicha yondashuvlar mavjud: Psixodinamik yondashuv (Z. Freyd,

K. Xorniy) – shaxsiy ziddiyatlar va ichki psixik jarayonlar kasbiy charchash va deformatsiyaning manbai sifatida ko‘riladi. Kognitiv yondashuv (A. Bek, A. Ellis) – noto‘g‘ri fikrlash uslublari, kasbiy vazifalarni noto‘g‘ri talqin qilish deformatsiyani kuchaytiradi, deb hisoblanadi.[2]

Masalan, C. Maslach (2001) tomonidan ishlab chiqilgan “emotsional yonish” (burnout) konsepsiyasida kasbiy deformatsiyaning uch asosiy komponenti ko‘rsatilgan: hissiy charchash, insonlarga nisbatan sovuqqonlik, kasbiy samaradorlikning pasayishi. Ushbu model bugungi kunda eng ko‘p qo‘llaniladigan nazariy asoslardan biri hisoblanadi.[3]

Muhokama. Bo‘lajak harbiy xizmatchilarga xizmatga to‘laligicha moslashib ketishini, kasbiy deformatsiyalarga chidamligini oshirish maqsadida, harbiy xizmatning dastlabki kunlaridan boshlab, bir yil davomida, “Ustoz-shogird” an’anasiga muvofiq, xizmat

yili 15 yil va undan yuqori bo‘lgan, xizmat faoliyati davomida yuqori natijalarga erishgan, axloqiy-ruhiy xolati yuqori bo‘lgan, hamkasblariga yuksak namuna ko‘rsatgan serjant va ofitserlar tarkibidan tayinlanadi. Belgilangan buyruq, reja va dars jadvallariga asosan, o‘qitiladi va mustaqil fikrlashga, jismoniy mashqalrni bajarishga va qonunchilikda belgilangan boshqa vazifalarga o‘rgatiladi. Bunda ko‘p holatlarda harbiy xizmatchilar o‘z faoliyatida turli qirralarini ko‘rsatishi orqali muvaffaqiyatga erishadilar, jamoaga kirishib, yoshlarni maslahatchisi va do‘stiga aylanishadi, boshqasi harbiy birodarlikni, buyruqlarni so’zsiz bajarishni, jismoniy harakat va harbiy burchni mutaqil va qat’iyatli bajarishga moslashadilar, yana kimdir bo‘sh vaqtlarini o‘zlarining kamchiliklarini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qarori. 1-bob, 2-xatboshisi

[2] Karimova, V. M. (2019). Psixologik xizmat va kasbiy rivojlanish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

[3] Maslach, C., & Leiter, M. P. The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. San Francisco: Jossey-Bass, 2001

sababini yo‘qotishga harakat qilishadi. Bu faoliyat turlarini bittasini ustun qo‘yib bo‘lmaydi, chunki hammasi zarur hisoblanadi. O‘zining kasbiy faoliyatida intelligent, tarbiyaviy, axloqiy-ruhiy, axborot, tashviqot, rivojlantirish va o‘zini shakllantirish funksiyalarini alohida qiyinchiliklarsiz bajarishga moslashadi. Prinsipialligi, aqliy me’yorlarga qat’iy amal qiluvchi “intelligent-harbiy xizmatchi” yoki “jangchi” yuqori intellektual jismoniy faoliyati, harbiy-jismoniy vazifalarni yuksak darajada ado etuvchi, ma’naviylik, ozodalikni his qilishi bilan o‘zligiga ega harbiy xizmatchilar shakllanadi.

Ksbiy faoliyat bilan birga harbiy xizmatchilarning shaxsiy xususiyatlarini o‘zgarishi ham kuzatiladi, bir tomondan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshiriga moslashgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan sifatlarning intensiv rivojlanishi kuchayadi, boshqa tomondan bu jarayonda ishtirok etmagan sifatlarning o‘zgarishi yoki susayishi va xatto yo‘qolishi amalga oshishi mumkin. Harbiy xizmatchilar o‘zidagi va oilasidagi salbiy-ruhiy o‘zgarishlar, kasbiy deformatsiyalar haqida bildirmaslikka, yashirishga urinadi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarda kasbiy buzilishlar va faoliyatdagi muammolar ko‘pincha haddan tashqari ish yukining ortiqligi, dam olishning yetishmasligi, janglar va favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda ruhiy bosim va stressning oshib ketishi, oilaviy muammolarni ortib ketishi (ko‘chib yurish va undagi qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, xududdagi ekologik klimintning yomonligi, farzandlarning ruhiy holati), kasbiy o‘sishning cheklanganligi ba’zi harbiy xizmatchilarning lavozimda o‘sishi yoki qayta tayyorlanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi turli xil holatlarda o‘z aksini topadi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish va kasbiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish lozimdir.

Kasbiy buzilishning harbiy xizmatchilarda namoyon bo‘lishi ochiq yoki yopiq holatda namoyon bo‘ladi, ya’ni ochiq holat harbiy xizmatchilarning xizmat jarayonidagi xatti-harakatlarida, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarida, eng asosiysi, xizmatga munosabatlarining natijalarida ko‘rinadi. Yopiq holatda kasbiy deformatsiyaning namoyon bo‘lishi, eng avvalo, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy munosabatlarga kirishishda namoyon bo‘lishi bilan birga, qo‘yilgan vazifalarni bajarishdagi xatti-harakatlarida ham namoyon bo‘lib bordi.

Temperament, xarakter, qobiliyat kabilar insonning psixologik xususiyatlari bo‘lib, ularda insonning ichki dunyosi, ijtimoiy mohiyati o‘z ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarni o‘rganish harbiy xizmatchiga tarbiyaviy ishlarni va harbiy xizmatni to‘g‘ri rejalashtirishga yordam beradi. Ko‘pgina pedagogika, psixologiya sohasidagi tadqiqotchilarning izlanishlarida kasbiy deformasiyani quyidagi omillarga bo‘lib o‘rganishga harakat qilishgan:

a) ob’yektiv omillar, bunga ish joyidagi, jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar;

b) sub’yektiv omillarga harbiy xizmatchini shaxs sifatida o‘ziga xos xarakteri, temperamenti;

v) xizmat vaqtida bajarayotgan vazifasining mohiyatidan kelib chiqadi va uning harbiy xizmatchi ruhiyatiga ta’siri, ba’zida xizmatni o‘zi xohlab tanlamaganligi ham ta’sirini ko‘rsatadi. Buning natijasida doimo o‘zining faoliyatidan qoniqmaslik hissi yuzaga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, albatta, kasbiy buzilishga olib keladi.

Kasbiy buzilishning xavfli tomoni shundaki, ushbu jarayon ba’zi bir harbiy xizmatchilarning shaxsiy hayotiga, oilasiga ham kirib boradi. Natijada, oilalarning parokandaligiga sabab bo‘lishi mumkin. Harbiylar asab jarayonidagi muammolari uning axloqidagi qo‘polligida, kasbiy tajriba va malakaning yetishmasligida, axloqidagi buzilishlarda, aqliy rivojlanishidagi ba’zi bir deyarli sezilmaydigan xatti-harakatlarida eng asosiylaridan biri tanqidni ko‘tara olmasligida, tanqidni to‘g‘ri tushunmasligida, qabul qilmasligida. Shaxsdagi psixologik reaksiya va jarayonlarning qanchalik tez yoki sekin kechishi insonning psixologik holatini tashkil etadi. Psixologik holatlar qisqa vaqtli va barqaror turlarga bo‘linadi. Ikkala holat ham bir - biri bilan o‘zaro uyg‘unlashib, doimo inson hayot faoliyatiga ta’sir etib turadi.

Harbiy xizmatchilardagi bu kasbiy buzilishni progress va regress nuqtai nazardan qarashimiz ham mumkin ekan. Regress nuqtai nazardan deyilganda, harbiy xizmatchi kasbiy faoliyati davrida haddan tashqari xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlarni bo‘rttirib, oshirib, ko‘pirtirib ko‘rsatishga harakat qiladi va bu xatti-harakatlar oilasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, oiladagilar bilan ham harbiy xizmatchilarga qilgan kasbiy muomalasini qilishga harakat qiladi, o‘zi bu xatti-harakatlarining natijalarini keyinroq tushunadi. Regressivda harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatga moslashishi qiyin, progressivda esa xizmatda o‘sish, ijobiylik yuzaga keladi va bu regressivning aksi hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda kasbiy buzilishlar harbiy xizmatchida shakllanib bo‘lgan kasbiy sifatlarni ham buzib yuborishga qodir. Harbiy xizmatchining faoliyatida qanchalik muvaffaqiyatga erishishi uning shu paytdagi psixologik holatiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Bu narsa harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ofitser har bir harbiy xizmatchidagi ruhiy holatni sinchkovlik bilan kuzatib borishi va jamoa manfaatlariga buysundira olishi lozim.

Foydalaniladiga adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qarori. 1-bob, 2-xatboshisi.

2. Karimova, V. M. (2019). Psixologik xizmat va kasbiy rivojlanish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

3. Maslach, C., & Leiter, M. P. The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. San Francisco: Jossey-Bass, 2001.

4. Безносов С.П. Профессиональная деформация личности. – СПб.: Речь, 2004. - 272 с. 2. Bessonova L., Dobrosmyslova S. Professional and personal competence as a condition for overcoming professional deformation of a social work specialist’s personality. Современные исследования социальных проблем. № 1 (09). 2012. 1. Arziqulov D.N Kasbiy kamolotning psixologik o`ziga xos xususiyatlari – T. 2002.

5. Шишкова Г.В. Социологические аспекты детерминант профессионалных деформациий. Шишкова Г.В. Вестник Уральского государственного университета путей сообщения. – 2014. –№ 1 (21). – С. 116–122.

6. Психологический словарь под редакцией В.П. Зинченко и Б.Г. Мешеряков М., Астрель. Хранитель 2004 г. стр. 366–367.

7. Берковская М.И., Комаров К.Э., Родионов А.В., Сухоруков Н.В.Методические рекомендации по применению средств психологической реабилитации участников локальных военных конфликтов. Социально психологическая адаптация участников боевох действий. Методические рекомендации по организации работы. - М., 2002.

8. Zagarovskaya L.V. Adaptiv salohiyat yoshlarning harbiy xizmatga ijtimoiy psixologik moslashuv omili sifatida, Moskva 2014 yil.

Yakubova Gulchexra Ziyatovna
Qarshi xalqaro universiteti, NTM
«Filologiya va tillarni o`qitish» kafedrasi katta o`qituvchisi

O‘ZBEK TILIDA FITONIMLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI: IZOHLI LUG‘ATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida fitonimlarning berilish xususiyatlari, ularning izohlanish tamoyillari va ilmiy me’yorlari tahlil qilinadi. Fitonimlarning izohidagi nomuvofiqliklar, pometa tizimining notekis qo‘llanilishi, ilmiy aniqlikning yetishmasligi va madaniy konnotatsiyalarning kam yoritilishi aniqlangan. Tadqiqotda deskriptiv, qiyosiy, leksikografik va umumlashtiruvchi metodlar qo‘llanilib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning 1981, 2006–2008 va 2022-yilgi nashrlari hamda boshqa lug‘atlar tahlil qilingan. Natijada fitonimlarni izohlashda yagona tamoyil ishlab chiqish, pometa tizimini takomillashtirish va madaniy ma’nolarni kiritish zaruriyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *fitonim, leksikografiya, izohli lug‘at, pometa, terminologiya, semantika, madaniy konnotatsiya, antropotsentrik paradigma, izohlash prinsipi, raqamli lug‘at.*

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФИТОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЕЙ

Аннотация. *в статье рассматриваются особенности представления фитонимов в толковых словарях узбекского языка, анализируются принципы их толкования и уровень научной обоснованности. Отмечаются несоответствия в трактовке фитонимов, неравномерное применение помет, недостаточная степень терминологической точности и слабое отражение культурных коннотаций. В исследовании использованы дескриптивный, сравнительный и лексикографический методы. Материалом послужили различные издания «Толкового словаря узбекского языка» (1981, 2006–2008, 2022) и другие лексикографические источники. Автор обосновывает необходимость выработки единого принципа толкования фитонимов, систематизации помет и введения культурно-концептуальных значений для повышения информативности словаря.*

Ключевые слова: *фитоним, лексикография, толковый словарь, помета, терминология, семантика, культурная коннотация, антропоцентрическая парадигма, принцип толкования, цифровая лексикография.*

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF PHYTONYMS IN THE UZBEK LANGUAGE: ISSUES OF IMPROVING EXPLANATORY DICTIONARIES

Abstract. *The article examines the representation of phytonyms (plant names) in Uzbek explanatory dictionaries and analyzes the principles and scientific standards of their interpretation. The study identifies inconsistencies in the definitions of phytonyms, uneven use of domain labels (pometa), lack of terminological precision, and insufficient attention to cultural connotations. Using descriptive, comparative, and lexicographic methods, the research analyzes several editions of The Explanatory Dictionary of the Uzbek Language (1981, 2006–2008, 2022) and related lexicographic sources. The findings emphasize the need to develop a unified principle for defining phytonyms, to improve the labeling system, and to integrate cultural and symbolic meanings to enhance dictionary informativeness and scientific accuracy.*

Key words: *phytonym, lexicography, explanatory dictionary, label, terminology, semantics, cultural connotation, anthropocentric paradigm, interpretation principle, digital lexicography.*

Kirish. Til - bu insoniyat tafakkurining, madaniyatining, tarixiy xotirasining va milliy o‘zligining eng muhim ko‘rinishidir. Har bir xalqning dunyoni idrok etish tarzi, tabiatga munosabati, urf-

odatlari va qadriyatlari uning tilida mujassamdir. Shu jihatdan, til xalqning madaniy genofondi, tafakkur modeli va ijtimoiy ongining ramziy shaklidir. Aytish mumkinki, til jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi, tarixiy tajriba va bilimlarning tashuvchisi hisoblanadi. Shu bois tilshunoslikning har bir yo‘nalishi - fonetika, morfologiya, semantika yoki leksikografiya - inson va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy aloqani chuqurroq anglashga xizmat qiladi (Bahriddinova, 2015; Mirzayev, 2008).

Tilning eng qadimiy qatlamlaridan biri - bu fitonimlar, ya’ni o‘simlik nomlaridir. Fitonimlar xalqning tabiat bilan o‘zaro aloqasini, ekologik tafakkurini va milliy tajribasini ifodalovchi boy leksik qatlamni tashkil etadi. O‘simlik nomlari orqali inson o‘z atrofidagi olamni nomlaydi, uni tushunadi va unga munosabatini bildiradi. Shu ma’noda fitonimlar xalq dunyoqarashining, diniy va estetik qarashlarining o‘ziga xos ko‘zgusidir. Ular xalq hayotining turli jabhalarida - tibbiyot, dehqonchilik, xalq tabobati, taomnomalar, hatto marosimlarda ham faol qo‘llaniladi (Madvaliyeva, 2019).

Fitonimlarning o‘rganilishi nafaqat leksik darajada, balki etnolingvistik va konseptual darajada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘simlik nomlari xalq tafakkurida ko‘pincha ramziy, timsoliy ma’nolarga ega. Masalan, “lola” go‘zallik, yoshlik va muhabbat ramzi sifatida, “anor” serfarzandlik, to‘kinlik va barakani anglatadi, “archa” esa poklik, yangilanish va barhayotlik belgisi sifatida qadrlanadi. Bu ramzlar xalqning diniy, afsonaviy va folklor tafakkurida keng o‘rin olgan (Rahmatullayev, 2006–2008). Shu bois fitonimlarning lug‘atlardagi talqini nafaqat lingvistik, balki madaniy va semiotik jarayonlarning ham aksidir.

Zamonaviy leksikografiyada fitonimlarni izohlash masalasi ko‘p qirrali ilmiy muammo sifatida qaraladi. Bir tomondan, ular biologik terminlar sifatida aniq ilmiy tavsifga ega bo‘lishi lozim; boshqa tomondan, xalq tilida ular obrazli, badiiy va emotsional ma’nolarni ham ifodalaydi. Shu sababli fitonimlarning lug‘at maqolalarida qay tarzda talqin qilinishi ularning ko‘p funksionalligini (polifunksionallik) e’tiborga olgan holda amalga oshirilishi kerak (Maslova, 2018).

O‘zbek leksikografiyasida bu muammo uzoq vaqt davomida yetarli darajada yoritilmagan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning dastlabki nashrlari (1981) asosan sovet til siyosati va ilmiy tamoyillari asosida tuzilgan bo‘lib, bunda milliy-madaniy komponentlar cheklangan darajada berilgan. Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lishi, yangi terminologik tizimlarning shakllanishi va milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi natijasida leksikografik manbalarni yangilash ehtiyoji kuchaydi (Mirzayev, 2008).

2006–2008-yillarda chop etilgan besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (O‘TIL) o‘zbek leksikografiyasining muhim yutug‘i bo‘ldi. Ammo keyingi tadqiqotlar bu lug‘atdagi fitonimlar izohi bir xil tamoyil asosida tuzilmaganligini ko‘rsatadi. Ba’zi maqolalarda o‘simliklarning biologik tavsifi aniq berilgan bo‘lsa, boshqalarida ularning xalq tilidagi, maishiy yoki badiiy talqini bilan cheklanilgan. Masalan, “ananas” leksemasida aniq ilmiy tavsif berilgan (“Ananasdoshlar oilasiga mansub o‘tlar turkumi”), “qaroli” so‘zida esa maishiy mazmun (“shirin-nordon olxo‘ri navi”) ustunlik qilgan.

Bu esa lug‘atdan foydalanuvchi uchun ma’lumotning aniqligi va ishonchliligini pasaytiradi. Chunki lug‘at foydalanuvchisiga so‘zning ikki xil - ilmiy va xalqona - ma’nosi aralash holda yetkaziladi. Natijada lug‘atning informativligi va metodik ahamiyati kamayadi.

Fitonimlarni izohlash masalasida yagona prinsip yo‘qligi o‘zbek leksikografiyasining asosiy muammolaridan biridir. Bu muammo izohning ilmiy darajasi, terminologik aniqligi va semantik izchillikka bevosita ta’sir qiladi. Shu bois, zamonaviy lug‘atlar, ayniqsa izohli lug‘atlar, fitonimlarning ikki darajasini ajratishi lozim:

terminologik (botanik) ma’nosi - o‘simlikning ilmiy tasnifi, oilasi, turi, morfologik belgilarini qamrab oluvchi ma’no;

umumtil (maishiy) ma’nosi - xalq ongida, badiiy nutqda yoki metaforik kontekstda shakllangan obrazli ma’no.

Masalan, “qaroli” so‘zi avvalo ra’noguldoshlar oilasiga mansub o‘simlik sifatida (botanik jihatdan), keyin esa “shirin-nordon olxo‘ri navi” tarzida umumtil darajasida izohlanmog‘i kerak.

Shuningdek, lug‘at maqolalarida pometa tizimining qo‘llanishi ham muhim o‘rin tutadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mavjud 1356 ta fitonimdan atigi 415 tasida bot. belgisi mavjud bo‘lib, bu ularning to‘liq ilmiy tavsifini berishda tizimlilikning yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu esa foydalanuvchi uchun lug‘atni ishlatishda chalkashlik tug‘diradi.

Tilshunos olima B. Bahriddinova ta'kidlaganidek, "izohlanuvchi birliklarning ma'nosini belgilash va qayd etish lug'at tuzish ishining eng muhim bosqichidir" (Bahriddinova, 2015). Demak, fitonimlar izohi tildagi konseptual maydonni to'liq aks ettirishi, foydalanuvchiga so'zning nafaqat ma'nosini, balki uning ilmiy, madaniy va estetik jihatlarini ham yetkazishi zarur.

Shunday qilib, fitonimlarni izohlash muammosi o'zbek leksikografiyasida bir vaqtning o'zida ilmiy, metodik va madaniy masala sifatida qaraladi. Lug'at foydalanuvchisi uchun o'simlik nomlari nafaqat atama, balki ma'naviy, ekologik va badiiy qadriyatlarni anglatadi. Shu sababli fitonimlarni izohli lug'atlarga kiritish va ularni izohlashda antropotsentrik yondashuv, ilmiy aniqlik va uslubiy izchillik muhim ahamiyat kasb etadi (Maslova, 2018; Madvaliyeva, 2019).

Mazkur maqolada fitonimlarning o'zbek izohli lug'atlarida berilish holati, ularning izohlash prinsiplari, pometa tizimi va ilmiy-texnik me'yorlari atroflicha tahlil qilinadi. Asosiy maqsad - fitonimlarning izohini takomillashtirish, ularning mazmunini aniq, tushunarli va ilmiy jihatdan asosli tarzda berish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir. Ushbu masalaning chuqur o'rganilishi o'zbek leksikografiyasini yangi bosqichga olib chiqadi, izohli lug'atlarni esa milliy madaniyat va ilmiy bilimlar uzviyligini aks ettiruvchi manbaga aylantiradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda fitonimlarning o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda qanday izohlanayotganini o'rganish maqsadida deskriptiv tahlil, leksikografik kuzatish, qiyosiy tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi. Ushbu usullar fitonimlarning lug'at maqolalaridagi semantik, strukturaviy va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Deskriptiv (tasviriy) tahlil usuli til birliklarini mavjud holatida, ularning tabiiy ishlatilish shakllarini o'zgartirmasdan o'rganishni nazarda tutadi. Mazkur usul orqali "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981, 2006–2008, 2022) nashrlarida keltirilgan fitonimlarning lug'at maqolalari tahlil qilindi, ularning tuzilishi, izoh qismi, pometa qo'llanilishi, illyustrativ misollar tizimi va izohning ilmiy darajasi kuzatildi.

Ushbu usul yordamida fitonimlarning terminologik aniqligi, izohning hajmi va mazmuni o'rtasidagi tafovutlar, shuningdek, bir xil o'simlik nomlari uchun turlicha yondashuvlar aniqlanib, ularning sabablarini tavsiflash imkoniyati yaratildi.

Deskriptiv tahlil leksikografik materialni tasniflashda muhim vosita sifatida xizmat qildi. Chunki fitonimlar tilda nafaqat atama sifatida, balki obrazli, badiiy, xalq og'zaki nutqiga xos birlik sifatida ham yashaydi. Shu bois izohli lug'atlarda ularning bir xillikda berilmasligi tabiiy, ammo bu holat ilmiy izchillikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida leksikografik kuzatish usuli qo'llanildi. Ushbu yondashuv lug'at maqolalarining ichki tuzilishini, ya'ni bosh so'z, grammatik ko'rsatkich, izoh qismi va illyustrativ misollarni tizimli tahlil qilishga yo'naltirilgan (Bahriddinova, 2015). Shuningdek, lug'atlarda fitonimlarning izohlari qanday tamoyil asosida berilganligi, terminologik belgilar (pometa)ning qo'llanilish darajasi va yagona prinsip mavjud yoki yo'qligi o'rganildi.

Leksikografik kuzatish natijasida o'zbek tilining izohli lug'atlarida fitonimlarning ma'nosini izohlashda ko'plab nomuvofiqliklar aniqlangan: ba'zi so'zlarda aniq botanik tavsif mavjud bo'lsa, boshqalarida u umuman berilmagan yoki badiiy konnotatsiya bilan cheklangan. Masalan, "ananas" izohida ilmiy tasnif mavjud bo'lsa-da, "qaroli", "bangidevona" kabi so'zlarda faqat maishiy yoki tasviriy tavsif bilan chegaralanilgan.

Leksikografik kuzatish shuningdek lug'atning informativlik darajasini aniqlashda ham muhim rol o'ynadi. Bahriddinovaning fikricha, lug'atning ilmiy qiymati aynan izoh qismidagi aniqlik va mazmuniy boylik bilan belgilanadi (Bahriddinova, 2015). Shu sababli kuzatuvlar lug'atdagi fitonimlar uchun berilgan izohlarning semantik to'liqligi, ilmiy izchilligi va foydalanuvchi uchun qulaylik darajasini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil (taqqoslama metod) ham muhim o'rin tutdi. U o'zbek tilining turli nashrlaridagi izohli lug'atlarida fitonimlarning berilish shakllarini solishtirish, izohdagi o'zgarishlarni aniqlash va ularning sabablari haqida xulosa chiqarish imkonini berdi.

Masalan, 1981-yilgi ikki jildlik nashrda sovet til siyosatiga xos standartlashtirilgan, soddalashtirilgan izohlar ustun bo‘lgan bo‘lsa, 2006–2008-yillardagi besh jildlik nashrda bu izohlar kengaygan, ammo metodologik bir xillik hanuz saqlanmagan. 2022-yilgi lotin yozuvidagi nashrda esa texnik va imloviy yangilanishlar amalga oshirilgan, biroq fitonimlarning ilmiy-terminologik izohlanishida hali ham farqlar saqlanib qolgan.

Qiyosiy tahlil natijasida lug‘at maqolalarining tarixiy va ilmiy rivojlanish dinamikasi o‘rganildi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi fitonimlar izohi rus va ingliz tilidagi botanik lug‘atlar bilan ham solishtirildi. Bunday taqqoslash o‘zbek tilida o‘simlik nomlarini ifodalashda xalqning idrok xususiyatlari va madaniy qarashlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari ilmiy umumlashtirish usuli orqali tahlil qilindi. Har bir bosqichda olingan kuzatuvlar umumiy xulosalarga birlashtirilib, izohli lug‘atlar uchun yagona metodik asos ishlab chiqishga yo‘naltirildi. Bu usul yordamida fitonimlarni izohlashdagi muhim jihatlar - terminologik aniqlik, pometa qo‘llash, ilmiy uslubiylik, madaniy konnotatsiyalar - yagona tizimda ko‘rib chiqildi.

Ilmiy umumlashtirish usuli, shuningdek, tadqiqotda olingan natijalarni nazariy asoslar bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Bu jarayonda fitonimlarning izohlari o‘zbek tilidagi leksik tizimning ochiq va dinamik tabiati bilan bog‘lanib o‘rganildi (Mirzayev, 2008). Shuningdek, fitonimlarni izohlashda terminologiya, semantika va madaniyatshunoslikning o‘zaro ta’siri tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida antroposentrik paradigma tanlandi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tilni o‘rganish jarayoni markazida inson, uning tajribasi, idroki va dunyoqarashi turadi. Demak, lug‘atning vazifasi faqatgina so‘zning semantik doirasini aniqlash emas, balki foydalanuvchiga shu so‘z orqali milliy tafakkur, qadriyatlar va madaniy konnotatsiyalarni yetkazishdir (Maslova, 2018).

Antroposentrik paradigma tilni insonning bilish faoliyati va madaniy merosi bilan bog‘laydi. Fitonimlar bu yondashuvda alohida o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat biologik birliklar, balki milliy xotira, qadriyat va urf-odatlarning lingvistik ifodasidir. Maslova (2018) ta’kidlaganidek, “tilshunoslikda antropotsentrik yo‘nalish tilni inson hayoti, hissiyoti va dunyoqarashining modeli sifatida ko‘rishga imkon beradi.” Shu bois, lug‘at maqolalarida fitonimlarning izohi nafaqat ilmiy, balki madaniy ma’nolarni ham qamrab olishi kerak.

Mazkur yondashuv o‘zbek leksikografiyasida yangi metodologik bosqichni anglatadi. U lug‘atlarni statik bilim manbai emas, balki dinamik, madaniy jihatdan faol tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy materiallari sifatida quyidagi manbalardan foydalanildi:

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (1981) – ikki jildli nashr, sovet davri leksikografiyasining asosiy namunasi.

“Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati” (2001) – o‘tish davriga xos lug‘at, tilning zamonaviy qatlamini aks ettirgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006–2008) – besh jildlik nashr, milliy leksikografiya taraqqiyotida yangi bosqich.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2022) – lotin yozuvidagi olti jildli nashr, texnik va uslubiy yangilanishlar bilan to‘ldirilgan.

Mazkur lug‘atlar tahlili orqali o‘zbek tilida fitonimlarning izohlanish jarayoni, ularning ilmiy asoslari va tarixiy o‘zgarish dinamikasi aniqlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Xulosa qilib aytganda, tanlangan metodologik asoslar fitonimlarning izohli lug‘atlarida qay tarzda talqin qilinayotganini tizimli tahlil qilishga, mavjud nomuvofiqliklarni aniqlashga va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishga imkon berdi. Antroposentrik yondashuv esa lug‘atshunoslikka yangi qarash - tilni inson markazida tahlil qilish tamoyilini olib kirdi, bu esa o‘zbek leksikografiyasi uchun dolzarb metodologik yangilikdir.

Asosiy qism

O‘zbek izohli lug‘atshunosligi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol shakllana boshladi. 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” o‘z davrida katta ilmiy yutuq bo‘lgan, ammo unda sovet mafkuraviy cheklovlari, ideologik filtrlash va ma’lum til siyosati tamoyillari sezilib turgan (Mirzayev, 2008). Lug‘atning asosiy maqsadi o‘sha davrda o‘zbek tilining so‘z

boyligini kodifikatsiya qilish, lekin uni asosan “sovet til madaniyati” qoidalari doirasida taqdim etishdan iborat edi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda o‘zbek tilining ijtimoiy maqomi o‘zgardi, til siyosatida milliylik, madaniyat va tarixiylik tamoyillari kuchaydi. Bu esa lug‘atchilikda ham sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. 1990-yillardan boshlab o‘zbek tilining leksik tizimini milliylik asosida yangicha talqin qilish zarurati paydo bo‘ldi. Tilshunos T. Mirzayev bu davrni “o‘zbek leksikografiyasining mustaqil bosqichi” deb ataydi (Mirzayev, 2008).

2006–2008-yillarda chop etilgan besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (Rahmatullayev boshchiligida) milliy leksikografiyada yangi bosqichni boshlab berdi. Unda 80 mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalari kiritilgan bo‘lib, bu lug‘at o‘zbek tilining o‘sha davr leksik imkoniyatlarini to‘liq ifodalashga xizmat qildi. Ammo tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu lug‘atda fitonimlar izohida yagona ilmiy me’yor kuzatilmaydi - ba’zi o‘simliklar aniq terminologik tavsif bilan berilgan, boshqalari esa faqat xalqona yoki tasviriy izohlar bilan cheklangan.

2022-yilda lotin yozuvida chop etilgan olti jildli yangi nashr avvalgi tajribani davom ettirgan holda texnik, imloviy va uslubiy yangilanishlarni o‘z ichiga oldi. Shu bilan birga, unda fitonimlarning izohlari masalasida hamon metodologik muvofiqlashtirish yetishmasligi kuzatildi.

B.Bahriddinova (2015) ta’kidlaganidek, lug‘atlar til taraqqiyotining “jonli aksi” bo‘lishi kerak, chunki til tizimi doimo o‘zgarishda bo‘ladi. Shu sababli o‘zbek lug‘atshunosligi bosqichma-bosqich rivojlanib kelayotgan bo‘lsa-da, fitonimlarni izohlashda yagona tamoyilga asoslangan metodologik yondashuv zarurati hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Izohli lug‘atlar tilda faol ishlatiladigan barcha birliklarni qamrab oladi. Fitonimlar esa bu birliklar ichida alohida o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat terminologik, balki konseptual ma’noga ham ega. Ammo “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi fitonimlarni tahlil qilish natijasida izohlashdagi bir xillikning yo‘qligi aniqlanadi.

Masalan, “ananas” so‘zi ilmiy asos bilan izohlangan: “ananasdoshlar oilasiga mansub o‘tlar turkumi”, ya’ni biologik tavsif aniq berilgan. Ammo “qaroli” so‘zining izohi “shirin-nordon olxo‘ri navi” tarzida maishiy tasvir bilan cheklangan.

Bu ikki uslub o‘rtasidagi tafovut lug‘atdan foydalanuvchiga so‘zning asl mohiyatini to‘liq anglashga to‘sqinlik qiladi.

Bunday nomuvofiqliklarning sabablari bir necha omillarga borib taqaladi:

Fitonimlarning bir qismi terminologik birlik sifatida, boshqalari esa umumtil birligi sifatida kiritilgan;

Izoh berishda yagona ilmiy prinsip ishlab chiqilmagan;

Ba’zi fitonimlar xalq orasida keng tarqalganligi sababli ularning ilmiy tavsifini keltirish zarur deb topilmagan.

Ammo bu yondashuv lug‘atning ilmiy aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning o‘rniga har bir fitonim, avvalo, botanik termin sifatida izohlanishi, keyin esa, agar mavjud bo‘lsa, umumtil ma’nosi keltirilishi zarur.

Masalan, “qaroli” so‘zining takomillashtirilgan varianti quyidagicha berilishi mumkin:

Qaroli - bot. ra’noguldoshlar oilasiga mansub daraxt; mevasi cho‘ziq, binafsha rang, shirin-nordon, sovuqqa chidamli.

Bunday yondashuv lug‘atni nafaqat tilshunoslik, balki botanika, biologiya va madaniyatshunoslik sohalari uchun ham foydali manbaga aylantiradi.

Lug‘atning eng muhim qismi - bu izoh. Izohning aniqligi, izchilligi va mukammalligi lug‘atning ilmiy qiymatini belgilaydi. Bahriddinova (2015) fikricha, “izohlanuvchi birliklarning ma’nosini belgilash lug‘at tuzish ishining eng muhim bosqichidir”, chunki aynan shu qism lug‘atning ilmiy darajasini namoyon etadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ayrim fitonimlar izohida faqat qisqa va umumiy ma’lumotlar keltirilgan - masalan, “bangidevona” - “zaharli o‘simlik”, ba’zilarida esa batafsil tasvir mavjud - “apelsin” - “doim yashil sitrus daraxt yoki buta, yumaloq yoki cho‘zinchoq sersuv mevasi bilan”.

Bu farq lug‘atning informativlik darajasini pasaytiradi. Fitonimlar soni chegaralangan bo‘lgani sababli, ularning izohi batafsil, lekin qisqa, ilmiy va aniq bo‘lishi lozim. Har bir o‘simlik nomi foydalanuvchiga:

biologik (ilmiy) ma'lumot,
semantik (ma'nodoshlik, ko'pma'nolilik)
madaniy (ramziy, obrazli) ma'lumot bera olishi kerak.

Bu yondashuv izohli lug'atni nafaqat tilshunoslik manbasi, balki xalq tafakkurining ensiklopedik ifodasiga aylantiradi.

Mirzayev (2008) fikricha, lug'atlar "tilning yashovchan mexanizmi" sifatida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni ifodalashi zarur. Shu sababli izohlarning to'liq va aniqligi lug'atning ijtimoiy-funksional ahamiyatini belgilaydi.

Leksikografiyada pometa - so'zning uslubiy yoki sohaviy mansubligini bildiruvchi belgi - muhim metodik vositadir. U foydalanuvchiga so'zning qanday kontekstdan ekanini, qaysi soha yoki uslubga xosligini bildiradi (Bahriddinova, 2015).

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da jami 1356 ta o'simlik nomi mavjud bo'lsa, ulardan atigi 415 tasida bot. belgisi qo'llangan. Demak, fitonimlarning yarmidan ko'pida ularning botanik sohaga mansubligi qayd etilmagan.

Bu holat ilmiy-texnik nuqtai nazardan izohlarning tizimliligini buzadi, chunki pometa nafaqat informativlikni oshiradi, balki foydalanuvchi uchun navigatsion belgi vazifasini bajaradi. Shuning uchun fitonimlarning barchasiga "bot." belgisi kiritilishi lug'atning ilmiy darajasini oshiradi va so'zlarni topish jarayonini osonlashtiradi.

Shuningdek, pometa tizimi o'zbek tilida ilmiy uslublarni standartlashtirishga xizmat qiladi. Rahmatullayev (2006–2008)ning fikricha, izohli lug'atlarda ilmiy aniqlikni ta'minlash uchun sohaviy belgilar tizimining izchil qo'llanilishi zarur.

Fitonimlarning semantik mohiyati nafaqat biologik tavsif bilan, balki madaniy va estetik mazmun bilan ham boyitilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida o'simlik nomlari timsoliy ma'no kasb etadi. "Lola" - go'zallik va muhabbat, "anor" - farovonlik va baraka, "archa" - poklik va yangilanish ramzidir.

Maslova (2018) tomonidan ilgari surilgan antroposentrik paradigma bu holatni quyidagicha izohlaydi: "til - bu insonning dunyoni bilish va ifodalash shaklidir, demak, har bir so'z inson tajribasining madaniy modeli sifatida qaraladi." Shu bois lug'atlarda fitonimlarning izohida ham ilmiy, ham madaniy qatlam aks etishi lozim.

Bunday yondashuv lug'atni antropologik jihatdan boyitadi, foydalanuvchiga o'simlik nomi orqasida turgan ramz, obraz, tarixiy kontekstni tushunish imkonini beradi. Bu ayniqsa ta'lim, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalari uchun muhimdir.

So'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalar tilshunoslikning deyarli barcha tarmoqlariga kirib keldi. Leksikografiyada ham bu jarayon faol davom etmoqda. Raqamli korpuslar, onlayn izohli lug'atlar, tezavruslar, shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi leksik tahlil vositalari yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Raqamli tizimlar yordamida fitonimlarning qo'llanish chastotasini, kontekstual o'zgaruvchanligini, kollokatsion bog'lanishlarini avtomatik tarzda aniqlash mumkin. Bu lug'atshunosga fitonimlarning semantik tarmoqlarini (semantic networks) yaratish imkonini beradi.

Mirzayev (2008) fikricha, leksikografiya zamonaviy bosqichda tilni saqlash vositasi bo'lishdan tashqari, uni rivojlantirish va innovatsiyaga yo'naltirish mexanizmi hamdir. Shu sababli o'zbek tilidagi izohli lug'atlar uchun raqamli integratsiya - bu nafaqat texnik yangilanish, balki metodologik zaruratdir.

Raqamli lug'atlar foydalanuvchining interaktiv ishtirokini ta'minlaydi, ularni tilshunoslik tadqiqotlari, ta'lim, tarjima va madaniyat sohalarida samarali qo'llash imkonini beradi. Natijada, izohli lug'atlar o'zbek tili evolyutsiyasini doimiy ravishda aks ettiruvchi "jonli tizim"ga aylanadi

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlil va kuzatuvlar o'zbek izohli lug'atlarida fitonimlarning talqini masalasi hali ham dolzarb va chuqur ilmiy yondashuvni talab etishini ko'rsatadi. Fitonimlar - bu xalqning ekologik tafakkuri, tabiat bilan o'zaro munosabati, qadimiy dunyoqarashi va madaniy tajribasini ifodalovchi leksik birliklardir. Shu bois ularni izohli lug'atlarga kiritish va talqin etish jarayoni faqat tilshunoslik doirasidagina emas, balki etnolingvistika, madaniyatshunoslik, semantika va terminologiya fanlari bilan ham uzviy aloqada bo'lishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek izohli lug‘atlarida fitonimlarning izohlari tizimli ravishda shakllanmagan. Ayrim lug‘at maqolalarida fitonimlar ilmiy aniqlik bilan, botanik tasnif asosida izohlangan bo‘lsa, boshqalarida ularning faqat xalq orasidagi ma’nosi yoki maishiy tavsifi keltirilgan. Masalan, “ananas” leksemasi ilmiy tavsif bilan, “qaroli” esa faqat tasviriy yo‘sinda berilgan. Bu hol lug‘atni ishlatishda izchillikni buzadi, foydalanuvchida so‘zning haqiqiy mazmuni haqida noaniqlik tug‘diradi.

Shuningdek, fitonimlarni izohlashda yagona prinsipning yo‘qligi lug‘atlarning informativ darajasini sezilarli pasaytiradi. Har bir fitonimning izohi ikki qatlamli bo‘lishi lozim: birinchisi - terminologik (ilmiy), ikkinchisi esa - umumtil (maishiy yoki badiiy) talqindir. Bunday yondashuv foydalanuvchiga so‘zning haqiqiy tabiatini to‘liq anglash, uni turli kontekstlarda to‘g‘ri ishlatish imkonini beradi.

Leksikografik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fitonimlarning ko‘p qismida pometa tizimi yetarli darajada qo‘llanilmagan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mavjud 1356 fitonimdan atigi 415 tasida bot. belgisi keltirilgan (Rahmatullayev, 2006–2008). Qolgan so‘zlar uchun sohaviy belgilarning yo‘qligi ilmiy izchillikka putur yetkazadi. Shu sababli lug‘atlarni tahrirlash jarayonida har bir fitonim uchun mos pometa (botanik, xalq, badiiy, dialektal va h.k.) kiritish lozim.

Fitonimlarning madaniy va ramziy qatlamlari ham e’tibordan chetda qolgan. Aslida o‘simlik nomlari xalq tafakkurida faqat o‘simlik sifatida emas, balki timsol, obraz va qadriyat belgisi sifatida ham yashaydi. Masalan, “lola” - go‘zallik va muhabbat, “anor” - farovonlik, “archa” - poklik ramzi sifatida qadrlanadi. Maslova (2018) ta’kidlaganidek, antroposentrik paradigmada tilni o‘rganish markazida insonning hissiy, madaniy va estetik tajribasi turadi. Demak, lug‘atlarda fitonimlar izohiga madaniy konnotatsiyalarni kiritish - bu faqat badiiy bezak emas, balki tilning antropologik mohiyatini ochib berish vositasidir.

Bundan tashqari, fitonimlarning izohini takomillashtirishda informativlik va ilmiy aniqlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash lozim. Ba’zan ortiqcha ensiklopedik tafsilotlar izohni murakkablashtiradi, ammo haddan tashqari soddalashtirish esa lug‘atni ilmiy jihatdan zaiflashtiradi. Shuning uchun izohda o‘simlikning asosiy biologik xususiyati (tur, oila, meva tavsifi), qisqa leksik tavsif va zarur hollarda madaniy ma’no berilishi kifoya.

Raqamli leksikografiyaning rivojlanishi bu sohada yangi istiqbollarni ochmoqda. Zamonaviy raqamli korpuslar va AI asosidagi tizimlar yordamida fitonimlarning qo‘llanish chastotasi, kontekstual o‘zgarishlari va sinonimik tarmoqlari avtomatik tarzda tahlil qilinmoqda. Bu esa lug‘atlarni doimiy ravishda yangilab borish imkonini beradi. Raqamli lug‘atlar foydalanuvchiga interaktiv izoh, qo‘shimcha kontekstlar va multimodal (rasm, tovush, video) ma’lumotlar orqali boyitilgan tahliliy tajriba taqdim etadi (Mirzayev, 2008).

Yuqoridagi kuzatuvlardan kelib chiqib, quyidagi nazariy va amaliy xulosalarni keltirish mumkin:

Fitonimlarning izohi tizimli tarzda shakllantirilishi lozim. Har bir o‘simlik nomi uchun yagona izohlash prinsipi joriy etilishi, terminologik va umumtil ma’nolari qat’iy ajratilishi kerak.

Pometa tizimi kengaytirilishi zarur. Har bir fitonim uchun sohaviy belgilar (bot., xalq., badiiy.) izchil qo‘llanilishi lug‘atning ilmiy aniqligini ta’minlaydi.

Madaniy konnotatsiyalarni kiritish muhim. Fitonimlar xalq tafakkurining ramziy qatlamini ifodalovchi birliklar sifatida madaniy ma’nolar bilan boyitilishi lozim.

Izohlarning informativlik darajasi oshirilishi kerak. Har bir fitonim foydalanuvchiga biologik, semantik va madaniy jihatdan to‘liq ma’lumot berishi lozim.

Raqamli leksikografiya asosida yangilanish. Korpus lingvistikasiga asoslangan tahlil vositalari yordamida fitonimlarning zamonaviy talqinlarini muntazam kuzatish va izohlarni yangilab borish zarur.

Shuningdek, lug‘atlar nafaqat so‘zning ma’nosini tushuntiruvchi, balki milliy madaniyatni saqlovchi va targ‘ib qiluvchi vosita sifatida qaralishi kerak. Fitonimlar orqali xalqning ekologik va estetik tafakkurini ifodalash lug‘atlarni faqat tilshunoslik manbasi emas, balki milliy xotira modeliga aylantiradi.

Bahriddinova (2015) fikricha, “lug‘at - bu tilning oynasi”, shuning uchun u orqali xalqning tafakkuri, qadriyatlari va dunyoqarashi aks etadi. Shu ma’noda, fitonimlarni izohlash masalasi o‘zbek leksikografiyasining faqat kichik sohasi emas, balki til va madaniyat birligining ifodasidir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek izohli lug‘atlarining keyingi nashrlarida fitonimlarning ilmiy, madaniy va terminologik jihatdan mukammal talqini - bu nafaqat lug‘atchilikni takomillashtirish, balki milliy o‘zlikni yanada chuqurroq ifodalashning muhim qadami bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - 2 jildlik. - Toshkent: Fan, 1981.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - 5 jildlik. / Tahrir hay’ati: Sh. Rahmatullayev boshchiligida. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (lotin yozuvida). - 6 jildlik. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2022.
4. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: Fan, 2001.
5. Bahriddinova B. Leksikografik tamoyillar va ularning o‘zbek lug‘atlarida aks etishi. - Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2015.
6. Madvaliyeva A. Termin va leksema munosabatining lingvistik xususiyatlari. - Toshkent: TDPU, 2019.
7. Mirzayev T. O‘zbek tili leksikografiyasining nazariy asoslari. - Toshkent: Fan, 2008.
8. Rahmatullayev Sh. Til va leksikografiya masalalari. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
9. Maslova V. A. Antropotsentrik paradigma v sovremennoy lingvistike. - Moskva: Flinta, 2018.
10. Maslova V. A. Lingvokulturologiya: Uchebnoe posobie. - Moskva: Akademiya, 2007.
11. Solncev V. M. Teoriya yazyka: Vvedenie. - Moskva: Nauka, 1977.
12. Apresyan Yu. D. Leksicheskaya semantika: Sinonimicheskie sredstva yazyka. - Moskva: Nauka, 1995.
13. Ginzburg R. S., Khidekel S. S., Knyazeva G. Ya., Sankin A. A. A Course in Modern English Lexicology. - Moscow: Vysshaya Shkola, 1979.
14. Dubois J., Giacomo M. Dictionnaire de linguistique. - Paris: Larousse, 1994.

Kulatova Svetlana Yuldashevna
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: kulatova.svetlanar@mail.ru

O'SMIR SHAXSIDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI QABUL QILISHGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smir shaxsida destruktiv axborotlarni qabul qilishga moyillikning psixologik xususiyatlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, o'smirlik davri va destruktiv axborotlar to'g'risida nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Destruktiv axborotni qabul qilishga moyillik o'smir shaxsining psixotipik xususiyatlari bilan ham bog'liq ekanligi tahlil qilingan. Destruktiv xulq muammosining tibbiy – psixologik masalalariga to'xtalib o'tilgan. Destruktiv axborotlarga ta'sirchanlikning yuzaga kelish mexanizmi ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *o'smir, destruktiv axborot, moyillik, psixotipik xususiyat, tibbiy – psixologik muammo, ta'sirchanlik, mexanizm, ijtimoiy tarmoq.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СКЛОННОСТИ К ВОСПРИЯТИЮ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ В ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКА

Аннотация. *В данной статье приведены психологические особенности склонности к восприятию деструктивной информации в личности подростка. Также представлены теоретические данные о подростковом возрасте и деструктивной информации. Проанализировано, что склонность к деструктивному восприятию информации также связана с психотипическими особенностями личности подростка. Затронуты медико – психологические вопросы проблемы деструктивного поведения.ннотация. В данной статье приведены психологические особенности склонности к .*

Ключевые слова: *подросток, деструктивная информация, склонность, психотипический признак, медико – психологическая проблема, аффективность, механизм, социальная сеть.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE TENDENCY TO RECEIVE DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS

Annotation. *This article cites the psychological characteristics of a predisposition to receive destructive information in a teenager's personality. Theoretical data on puberty and destructive information are also cited. The tendency to receive destructive information has also been analyzed to be related to psychotypic traits of the adolescent personality. The medico – psychological issues of the problem of destructive behavior are addressed.nnotation. This article cites the psychological characteristics of a predispos.*

Key words: *adolescent, destructive information, predisposition, psychotypic trait, medico – psychological problem, affectivity, mechanism, social network.*

Kirish. O'smirlik davri – inson psixik rivojlanishida eng murakkab, ziddiyatlarga boy va o'zgaruvchan bosqichlardan biridir. Bu davrda shaxsiy identifikatsiya jarayoni faollashadi, o'ziga xoslik, mustaqil fikr, jamiyatda o'z o'rnini topish istagi kuchayadi. Aynan shu davrda destruktiv axborotlar – ya'ni ruhiy va ijtimoiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, yolg'on, manipulyativ, zo'ravonlik yoki radikal g'oyalarni targ'ib qiluvchi axborotlar o'smir ongiga kuchli ta'sir qilishi mumkin.

Destruktiv axborotlar mohiyatan, odamlar ongini izdan chiqarish, ularda tashvish, qo'rquv, beqarorlik, adovat, ishonchsizlik va rad etish kabi salbiy hissiyotlar uyg'otish maqsadida tarqatiladigan ma'lumotlardir. Bunday axborotlar o'z ichiga yolg'on, manipulyativ, bo'rttirilgan, negativ emotsiyalar bilan to'ldirilgan kontentlarni oladi. Ular nafaqat individning emotsional holatiga,

balki ijtimoiy muhitga, guruhlararo munosabatlarga, madaniy qadriyatlarga va hatto siyosiy qarashlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Yana bir muhim jihat shuki, destruktiv axborotni qabul qilishga moyillik o'smir shaxsining psixotipik xususiyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Masalan, tashqi stimullarga kuchli sezgirlik, psixologik labilitet (barqarorlikning pasligi), impulsivlik, affektiv javob berish darajasi yuqoriligi destruktiv kontentga nisbatan ijobiy javobni kuchaytiradi. Aksincha, yuqori ijtimoiy mas'uliyat, kognitiv barqarorlik, ijobiy "ichki nazorat lokusi"ga ega o'smirlar bunday axborotlarni rad etishga moyil bo'ladilar.

Tadqiqotchilardan Y.V.Axromeevaning fikriga ko'ra, har qanday sekta yoki buzg'unchi destruktiv g'oyalar nafaqat maxsus ijtimoiy guruh, balki ko'pincha, rivojlanishga qarshi madaniyat vazifasini bajaradigan submadaniyatdir. Ular birinchi bosqichda, mavjud qadriyatlar tizimi va dunyo tartibiga qarshi norozilik bilan harakat qilishadi. Ular mavjud milliy diniy an'analar va urf-odatlarga qarshi "radikal" guruh sifatida harakat qilishadi deb ta'kidlab o'tadi [1. 55]. Xuddi shunday fikrlarni xorij tadqiqotchisi B.Tammning izlanishlarida ham ko'rish mumkin. Muallifning so'zlariga ko'ra, destruktiv g'oya tarafdorlari yoshlarga tajovuzkorlik va shafqatsizlik ruhi bilan murojaat qilib, o'zlarining ekstremal mafkuraviy qarashlarini targ'ib qiladilar. Bu holat ularga ommaviy manipulyatsiyaviy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi [2. 269]. Demak, destruktiv g'oyalar ta'siriga tushugan shaxs, milliy urf-odatlardan uzoqlashgan, demokratik tamoyillardan norozi, rivojlanishning harqanday turini rad etuvchi shaxs sifatida gavdalanar ekan. Bizningcha, destruktiv diniy g'oya tarafdorlari yoshlarni bir ijtimoiy tarmoq orqaligina o'z domiga tushuirib qolmasdan, kundan-kunga yangicha usulga o'tmoqda. Misol uchun, odnoklassniki va telegram tarmog'i foydalanuvchilari, o'z guruhlarini bloklanganidan so'ng, ular yutub tarmog'iga o'tib, o'z maqsadlarini davom ettirmoqda.

I.Y.Kupriyanovaning fikricha, destruktiv g'oyalarga ergashish masalasini tadqiq etishda avvalo, uni tavsiflovchi ayrim psixologik jihatlarni aniqlab olishi lozim[3. 68]:

– kompyuter bilan ishlashga bo'lgan ob'ektiv tobelik (o'yin o'ynash, dasturlash, virtaul muloqot saytlari);

– masofaviy muloqotga hamsuhbat qidirish;

– internet orqali pullik o'yinlarga patologik tobelik;

– haddan ortiq onlayn auksionlarda qatnashish hamda xaridlarni amalga oshirish va hokazo. Demak, virtual olam, shunchaki oddiy munosabat bilan emas, u orqali amalga oshiriladigan noqonuniy pullik o'yinlar, qimor o'yinlariga tenglashtirilgan turli chora-tadbirlar kabilar bilan ham rivojlana boradi.

A.Y.Yegorov destruktiv xulq muammosining tibbiy – psixologik masalalariga to'xtalib o'tar ekan, uning ta'kidicha ko'pchilik o'smirlar hayotda kompyuter tarmog'iga berilib ketish kasalligidan aziyat chekadilar. Buning uchun ularda maxsus psixoprofilaktik chora – tadbirlar tashkil etilishi kerak. Misol uchun dunyoga mashhur eng yosh xaker Kevin Metnikning jinoiy faoliyati ushbu mulohazaga yaqqol misoldir [4. 89]. Muallifning fikricha, ayrim tibbiy kasalliklar ham kiber jinoyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Unga bo'lgan tobelikni bartaraf etish uchun esa, maxsus ishlab chiqilgan psixoprofilaktik chora-tadbirlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

G'arbda "hedhantung" degan atama mavjud. Uni bevosita o'zbekchaga tarjima qilsak, "aqlni ovlash" ma'nosini angalatadi. Yanada tushunarli bo'lishi uchun, quyidagilarni ham qo'shish lozim: Kadrlar va intellektual salohiyat "savdosi" uchun bugungi kunda bozorning o'ziga yarasha standartlari mavjud. Ularning ichida eng sarasi bu – professional layoqat, kuchli malakaga ega bo'lish hamda ishlayotgan kompaniyasi uchun yuqori samara keltirishdir. Aynan shu jihatlarni o'zida jamlagan ishchi yoki kadrlarga bugun talab kuchlidir. Ularni qo'lga kiritish uchun maxsus dallollik tashkilotlari mavjud va ular rekruitlik, ya'ni quyi ishchi o'rinlari va xedxantinglik (oliy ma'lumotli, malakali va yuqori mansablar) xizmati deb ataladi. Ishchi kuchi hamda intellekt bozorida bu borada ham raqobat juda qat'iy. Shuning uchun kompaniyalar muvaffaqiyatga erishish uchun birinchi navbatda, manipulyatsiyadan hamda virtual tarmoqlar orqali tatbiq qilishga intiladilar. Ularning asosida original g'oyalar bilan oziqlantirilgan axborot yotadi.

Tahlil va natijalar. Avvalambor, axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvish tug'dirayotganini ham alohida ta'kidlash joiz. Zero, eng so'nggi avlod kompyuterlari har soniyada

ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo‘jizasi tufayli kishi yer yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalar ichida aloqa o‘rnatishi, o‘zini qiziqtirgan savollarga bir zumda javob topishi mumkin. Ana shu holatning o‘zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloq me’yorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda, yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini aks ettiradi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, biror joyda paydo bo‘lgan qonuniyatlarni ikkinchi joyda shundayligicha to‘liq hayotga tatbiq qilib bo‘lmaydi. Uning samarali tomonlarini o‘rganish, kamchiliklaridan xulosa chiqarib, o‘sha xalqning tarixiy, madaniy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda, faoliyat yuritish zarur. Tadqiqotchi I.A.Baevaning ta’kidicha, kibermadaniyatni ta’minlash samaradorligi, avvalo, inson ma’naviyatiga, ongiga, irodasiga qarshi qaratilgan tahdidlarning mazmun-mohiyati, maqsadi va vositalarini fosh etish hamda o‘rganishga bog‘liq [5. 56]. Shaxsda kibermadaniyatni ta’minlash amaliyoti birinchi prezidentimizning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asari o‘ta tushunarli tilda keltirib o‘tilgan. Zero, mazkur asarda ma’naviyatning ma’no-mazmuni, inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati har tomonlama tahlil etilgan: “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”[6. 19].

Destruktiv axborotga sezgirlik – bu shaxsning axborotga nisbatan tanqidiy emotsional reaksiyasi bo‘lib, u stress, xavotir, shubha yoki depressiv fikrlar orqali ifodalanadi. Sezgirlik, albatta, axborotga nisbatan hushyorlikni bildirsa-da, bu hushyorlik doimiy emotsional notinchlik bilan birga kechsa, psixologik salomatlik uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ayrim hollarda bu sezgirlik passiv befarqlikka yoki affektiv portlashlarga olib keladi.

Ushbu ikki hodisaning o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq tahlil qilsak, quyidagi mexanizmni ko‘rish mumkin:

1-jadval.

Destruktiv axborotlarga ta’sirchanlikning yuzaga kelish mexanizmi

Axborotga sezgirlik ortadi ↓
Shaxs himoya mexanizmi sifatida axborotni ko‘proq iste’mol qiladi ↓
Natijada axborotga qaramlik (tobelikka) aylanadi ↓
Psixik yuklama kuchayadi ↓
Destruktiv axborotga reaktsiyalar keskinlashadi ↓
Hissiy beqarorlik paydo bo‘ladi

Bunday psixodinamik muhitda shakllangan o`smirlarning psixologik barqarorligi xavf ostida bo‘ladi. Psixologik nuqtai nazardan, bu bog‘liqliklar shuni anglatadiki, destruktiv axborotga tobelik va sezgirlik bir-birini kuchaytiruvchi omillar sifatida qaralishi mumkin. Shu boisdan, destruktiv axborotlarga qaramlik va destruktiv axborotlarga ta’sirchanlikning o`zaro bog`liqligini tekshirish maqsadida K.O.Yakuninning “Destruktiv axborot ta’sirini baholash testi” dan foydalanildi. Dastlab respondentlarning guruhlar kesimida destruktiv axborotlarga ta’sirchanligini tekshirib ko‘ramiz.

Psixologik jihatdan olib qaralganda, destruktiv axborotga tobelik – bu shaxsning tashqi manba orqali ichki ehtiyojlarini qondirishga urinishi bo‘lib, u o‘zini yolg‘izlikdan, xavotirdan, e’tiborsizlikdan himoya qilish uchun salbiy axborotga murojaat qiladi. Bu vaziyat uzoq muddat davom etsa, shaxsda axborotga nisbatan muvozanatsiz reaktivlik, kuchli hissiy portlashlar, depressiv simptomlar va passivlik rivojlanishi mumkin. Ayniqsa, o`smirlar orasida bu vaziyatlar o‘zini tutolmaslik, ijtimoiy ajralish, akademik pasayish, ruhiy tushkunlik va hatto suiqasdga moyillik kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. O O‘smirlik davri inson hayotida shaxsiy o‘zgarishlar, ruhiy o‘sish va identitet izlanishlari eng faol kechadigan murakkab psixologik bosqichlardan biridir. Bu davrda o‘smir shaxsining ongli tanlov qilish, axborotni tahlil qilish, ijtimoiy baholarni baholash kabi ko‘nikmalari

endigina shakllanayotgan bo‘ladi. Mazkur davrda destruktiv axborotlarning haddan tashqari ochiq, ommaviy va nazoratsiz tarqalishi o‘smirlar psixikasiga kuchli, ko‘pincha salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun o‘smirlarning bunday axborotga bo‘lgan qiziqishi va unga nisbatan tanqidiy immunitetning sustligi, psixologik jihatdan muhim va izchil tahlilni talab qiladi.

Destruktiv axborotni qabul qilishga moyillikning asosiy sababi sifatida o‘smir shaxsining hali to‘liq shakllanmagan ijtimoiy-psixologik pozitsiyasi, o‘z-o‘zini anglash ehtiyoji, atrofdagi fikrlarga kuchli bog‘liqligi va emotsional barqarorlikning nisbatan zaifligi ko‘rsatiladi. O‘smirlar o‘z shaxsiyligini izlash jarayonida turli ijtimoiy guruhlar, media tasvirlar, virtual qahramonlar orqali o‘zini aniqlashga intiladi. Bu esa destruktiv axborotlarni qabul qilishni oddiy axborot almashinuvi emas, balki identitetga daxldor tanlov sifatida ko‘rishga olib keladi. Natijada, ularning qaror va harakatlari shaxsiy emas, balki tashqi axborotning kuchli ta’siri ostida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ахромеева Ю.В. Социокультурные основы религиозного экстремизма : дис. ... канд. филол. наук. Воронеж, 2009. – С.55.

2. Thamm B.Terrorismus. München, 2002. – P.269.

3. Куприянова И.Е., Семке В.Я., Логинов И.П. Социальные вопросы ад-диктивных состояний (по материалам XIV конгресса социальной психиатрии, Гамбург, 5. 10 июня 1994) // Региональные проблемы современной аддикто-логии. - Томск, 1994. - С. 68. - 72.

4. Егоров А.Ю., Игумнов С.А. Расстройства поведения у подростков: клинико-психологические аспекты. - СПб.: Речь, 2005. – С.89.

5. Баева И. А. Тренинги психологической безопасности в школе Текст. СПб.: Речь, 2002. – С.56

6. Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент.: «Маънавият». 2008. 19-бет.

Khidirova Umida Islom kizi
Karshi State Technical University

THE POSSIBILITIES OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN DEVELOPING STUDENT CREATIVITY

Annotation. *The article examines interactive teaching of business English to managers as one of the ways to develop their professional competence, in which business communication occupies a central place, and defines the role of interactive methods of teaching a foreign language in the process of preparing modern managers for everyday management activities, namely, the formation of professional communication skills.*

Key words: *interactive learning, Business English, professional communication skills, modern managers, competence, interactive methods, case method*

ВОЗМОЖНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье рассмотрено интерактивное обучение деловому английскому языку менеджеров как один из способов развития их профессиональной компетенции, центральное место в которой занимает деловая коммуникация, определена роль интерактивных методов обучения иностранному языку в процессе подготовки современных менеджеров к повседневной управленческой деятельности, а именно, формирования навыков профессиональной коммуникации*

Ключевые слова: *интерактивное обучение, деловой английский язык, профессиональные коммуникативные навыки, современные менеджеры, компетентность, интерактивные методы, кейс-метод*

MENEJMENT YUNALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Maqolada menejerlarga ishbilarmonlik ingliz tilini interaktiv o'rgatish ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish usullaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi, bunda ishbilarmonlik aloqasi markaziy o'rinni egallaydi va zamonaviy menejerlarni kundalik boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayonida chet tilini o'rgatishning interaktiv usullarining roli, xususan, kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.*

Kalit so'zlar: *interaktiv ta'lim, biznes ingliz tili, professional muloqot qobiliyatlari, zamonaviy menejerlar, kompetentsiya, interaktiv usullar, keys usuli*

Introduction. Developing students' creativity is especially important in the twenty-first century. Modern society is changing rapidly, technology is advancing, and competition is increasing in all spheres of human activity. Consequently, a better and more highly paid job is likely to come from someone who demonstrates themselves in the workplace not only as a highly skilled professional, but also as an active, thoughtful, and creative worker.

Creativity is a quality inherent in almost every person from birth. However, not everyone can discover this quality and express it in life. Often, parents who are not creative themselves are unable to "awaken" this quality in their children. In this case, the question arises about the role and capabilities of teachers and educators in nurturing creativity in students, particularly during the period of their lives when a child attends kindergarten or studies in secondary or higher education. Thus, the task of pedagogical management at any school stage of a child's or young person's life is to teach them to think creatively and be able to independently manage their creative process in any life situation. This article examines the potential of pedagogical management in developing the creativity of students young people.

Literature review. Interest in the problem of developing student creativity through pedagogical management is evident for a number of reasons:

1. Insufficient understanding of the concept of "creativity" itself, or more precisely, the concept of creative activity and the conditions for its development;

2. Insufficient understanding of the concept of "pedagogical management," as well as the potential it offers for developing students' creativity;

3. Misunderstanding of the role of university instructors in developing students' creativity;

4. The urgent need to develop new teaching staff who are free and active, since only a creative instructor can develop students' creativity. The importance of developing students' creativity at university is determined by the following factors: - social, as it fosters a new generation of individuals with a unique mindset, capable of new changes and transformations; - practical, as in the new millennium, the use of new technologies for developing creativity is becoming essential. Thus, the purpose of this article is to substantiate the logical and semantic significance of pedagogical management at a university as a factor in developing student creativity.

Object of the study: the educational process at a higher education institution.

Subject of the study: the potential of pedagogical management in developing student creativity. Research hypothesis: the development of student creativity at a university is ensured by the active work of the pedagogical system, the effective functioning of which is possible if: management, a creative environment is created, focused on developing motivation for creative activity, creative engagement, and self-realization of the student; the foundation of the educational process at a university is the organization of creative collaboration between teacher and student, resulting in the creation of a joint (teacher and student) creative product; A teacher's creative approach to work and the creation of creative products are welcomed and encouraged by university administration, and a student's creative thinking and the creative products they create, in turn, are positively evaluated and supported by the teacher. In accordance with the goal and hypothesis, the research objectives are formulated: - to examine the theoretical basis of the concept of "creativity" and the conditions for its development. - to identify the levels and key characteristics of "pedagogical management" as a factor in shaping student creativity. - to determine the methodological and innovative potential of pedagogical management in fostering student creativity. The Concept of Creativity and the Conditions for Its Development

Discussion. Creative abilities (synonymous with "creative thinking") are a person's ability to make creative decisions, accept, and create fundamentally new ideas. In everyday life, creative thinking manifests itself as resourcefulness-the ability to achieve goals and find a way out of a seemingly hopeless situation by using the environment, objects, and circumstances in an unusual way. In a broad sense, creative thinking is a person's ability to come up with a non-trivial and ingenious solution to a problem, usually using non-specialized tools or resources. This also refers to the ability to find bold, unconventional solutions to problems. Recently, the phrases "creative thinking" and "creative abilities" have increasingly been replaced by the single word "creativity," borrowed from English (create, creative). This word denotes creative abilities characterized by a willingness to generate fundamentally new ideas that deviate from traditional or accepted patterns of thinking, and which are included in the structure of giftedness as an independent factor, as well as the ability to solve problems that arise within static systems. This meaning is very close to the meaning of the concept of "creative abilities" given above. A creative person intuitively senses what is needed to create a new idea or solve a difficult problem: adding a detail or turning everything upside down, inventing something fundamentally new or taking something familiar apart and putting it back together in a different way, acting against established stereotypes, or simply finding a way to view static systems dynamically.

1. Creativity is creating something new from what already exists.
2. Creativity is solving problems in a completely new and original way.
3. Creativity is rejecting stereotypical thinking.
4. Creativity is flexibility and originality.
5. Creativity is a predisposition to analysis and synthesis.
6. Creativity is the ability to intuitively sense the right direction of thought.
7. Creativity is the ability to generate a large number of ideas.

After all, creativity isn't just creativity, but the ability to take a new, unusual view of a problem or situation.

A creative individual has a number of advantages over someone who thinks in a standard, stereotypical way: Creativity helps solve existing problems, because a good idea can help break a deadlock.

1. Creative thinking encourages individuals to find the most unusual paths to development.
2. Creativity makes life varied and interesting not only for the individual but also for those around them.
Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning bolaning psixologik holati, shaxsiyati, qiziqishlari va motivatsiyasini e'tiborga olish juda muhimdir. Psixologik qulay muhit yaratilishi o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, stress va bezovtalik hissining kamayishiga yordam beradi. Shu bois, o'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarning holatini kuzatib borishi, ularning ehtiyojlarini inobatga olishi va mos pedagogik usullarni qo'llashi zarur. Matn ustida ishlashda o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor beriladi. O'qilgan matn asosida og'zaki nutq mashqlari, hikoya qilish, savol-javob, munozaralar o'tkazish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda eta boshlaydilar. Bu esa ularning umumiy intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, vizual va auditor ta'sirlar matn bilan ishlashda muhim rol o'ynaydi. Rasmlar, illyustratsiyalar, diagrammalar matn mazmunini yanada tushunarli qiladi,

o‘quvchilarning e’tiborini oshiradi va ular uchun qiziqarli dars muhitini yaratadi. Bu usullar o‘quvchilarning fahmiga yordam beradi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘rganish jarayonida o‘ziga xos xususiyatlari bor: ular asosan konkret fikrlashga moyil, abstrakt tushunchalarni anglash qiyinroq, qisqa vaqtga konsentratsiya qila oladi va ko‘proq takrorlash va amaliy mashg‘ulotlarga muhtoj. Shu bois, matn bilan ishlashda o‘qituvchi o‘quvchilarning bu xususiyatlarini hisobga olib, mavzuni qiziqarli va interaktiv shaklda yetkazishi zarur. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodikalari ham matn bilan ishlashda psixologik xususiyatlarni hisobga olishda yordam beradi. Masalan, multimediya vositalaridan foydalanish, interaktiv o‘yinlar va testlar o‘quvchilarning diqqatini jamlash va bilimni mustahkamlashda samarali bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va ularning psixologik holatini yaxshilaydi. Oxir-oqibat, boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashning psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ularga mos ta’lim-tarbiya metodlarini qo‘llash o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning nutq va tafakkurini rivojlantirish hamda psixologik barqarorligini ta’minlash uchun zarurdir. Bunday yondashuv o‘quvchilarga bilimlarni samarali o‘zlashtirishga, o‘z fikrlarini ifoda etishga va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo‘lishga imkon yaratadi.[7]

O‘quvchilarning matnni tushunish darajasini baholash ta’lim jarayonining muhim qismidir. Bu baholash nafaqat o‘quvchilarning o‘qilgan matnni qanchalik anglab yetganini aniqlashga yordam beradi, balki ularning fikrlash, tahlil qilish va ifoda qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Matnni tushunish darajasini aniqlash uchun turli metod va vositalardan foydalaniladi, ular o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kompleks tarzda baholash imkonini yaratadi.Matnni tushunish darajasini baholash usullaridan biri savol-javob metodidir. Bu usulda o‘qituvchi o‘quvchilarga matn mazmuniga oid savollar beradi. Savollar turlicha bo‘lishi mumkin: matnning asosiy g‘oyasi, voqealar ketma-ketligi, qahramonlar xarakteri, matnda berilgan muhim tafsilotlar va hokazo. O‘quvchilarning berilgan savollarga to‘g‘ri va lo‘nda javob berishlari ularning matnni qanchalik tushunganliklarini ko‘rsatadi. Savollar ochiq tipda yoki tanlovli shaklda bo‘lishi mumkin, bu esa baholash jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, savollarning darajasi ham turlicha bo‘lib, soddadan murakkabgacha bo‘lgan savollar o‘quvchilarning chuqurroq tushunish darajasini aniqlashda foydalidir. Qisqacha bayon qilish ham matnni tushunish darajasini baholashda keng qo‘llaniladigan usuldir. Bu usulda o‘quvchidan o‘qigan matnini o‘z so‘zlari bilan ifodalash talab etiladi. Bu nafaqat o‘quvchining matn mazmunini anglaganligini, balki uni so‘z bilan ifodalash qobiliyatini ham baholash imkonini beradi. Qisqacha bayon qilish o‘quvchilarning so‘z boyligini, mantiqiy fikrlashini va ifoda madaniyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu usul muhim ahamiyatga ega, chunki ular shu yo‘l bilan o‘qiganlarini qayta ishlash va tushunish darajasini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muammoli vaziyatlar asosida fikr bildirish ham o‘quvchilarning matnga munosabatini, uning mazmunini chuqurroq anglashini o‘lchashga yordam beradi. O‘quvchidan matn voqealari yoki mavzusi asosida o‘z fikrini aytish, muayyan masala yuzasidan qaror qabul qilish so‘raladi. Bu usul nafaqat matnni tushunish, balki tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar fikr almashinuvida qatnashib, o‘z qarashlarini asoslashni o‘rganadilar, bu esa ularning mantiqiy tafakkurini oshiradi. Matn asosida rasm chizish yoki diagramma tuzish o‘quvchilarning tushunish darajasini baholashda boshqa samarali vositadir. Ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta sinflarda bu usul o‘quvchilarning vizual fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rasm yoki diagramma orqali o‘quvchi matndagi voqealar ketma-ketligini, qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yoki asosiy g‘oyani ko‘rsatishi mumkin. Bu usul o‘quvchilarning matnni faqat o‘qibgina qolmay, balki uni tasavvur qilish va ifodalash qobiliyatini ham oshiradi. Yozma topshiriqlar va insho yozish orqali ham o‘quvchilarning matnni tushunish darajasi aniqlanadi. Bu usulda o‘quvchilardan matnga oid mavzu bo‘yicha yozma ishlar yozish talab etiladi. Yozma ishlar o‘quvchilarning fikrlarini mantiqan ifodalash qobiliyatini, so‘z boyligini va grammatika bilimlarini sinovdan o‘tkazadi. Shuningdek, bu usul o‘quvchilarning o‘z fikrini mustaqil ravishda shakllantirish va yozma ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruhda muhokama qilish ham matnni tushunish darajasini baholashda qo‘llaniladi. O‘quvchilar bir guruhda matn bo‘yicha fikr almashadi, savollar beradi va javob oladi. Bu jarayon o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, turli fikrlarni tinglash va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish tajribasini oshiradi. Muhokama orqali

o‘quvchilar matnni chuqurroq anglab yetadilar va bir-biridan o‘rganadilar. Testlar va variantli savollar ham matnni tushunish darajasini tez va aniq baholashga xizmat qiladi. Test savollari o‘quvchilarning matnni tushunish darajasini qisqa va samarali tarzda aniqlash imkonini beradi. Bu usul ko‘pincha katta o‘quvchilar guruhlari bilan ishlaganda qo‘llaniladi, chunki vaqtni tejaydi va natijalar oson tahlil qilinadi.[8]

Matnni tushunish jarayonida yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklar har bir o‘quvchi uchun individual xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib, ularni hal etish esa ta’lim va psixologiya fanlarining dolzarb masalalaridan biridir. Matnni tushunish faqatgina o‘qib chiqishdan iborat emas, balki uning mazmunini anglab yetish, asosiy fikrlarni ajratib olish, mantiqiy bog‘lanishlarni tushunish, shuningdek, matn bilan bog‘liq boshqa malakalarni rivojlantirishni talab qiladi. Shu bois, bu jarayon ko‘plab psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir va ularni chuqur o‘rganish hamda to‘g‘ri metodik yondashuvlarni qo‘llash natijasida qiyinchiliklarni yengib o‘tish mumkin. Matnni tushunishda eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri - o‘quvchilarning motivatsiya yetishmasligi hisoblanadi. Agar o‘quvchi matnga nisbatan qiziqish bildirmasa, uning diqqat e’tibori pasayadi va matn mazmunini to‘liq anglab yetish qiyinlashadi. Shu sababdan, matnni tanlashda uning mavzusi, o‘quvchining yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilim darajasi hisobga olinishi lozim. Qiziqarli va o‘quvchi uchun dolzarb bo‘lgan mavzular diqqatni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, o‘quv jarayonida interaktiv usullar, guruh ishlari, muhokama va ijodiy topshiriqlar qo‘llanilishi o‘quvchilarning matnga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Matnni bosqichma-bosqich o‘rganish psixologik qiyinchiliklarni kamaytirish uchun samarali yondashuvlardan biridir. Murakkab va uzun matnlar o‘quvchilar uchun tushunish jihatidan qiyinchilik tug‘diradi. Shu bois, matn kichik qism va bo‘limlarga ajratilib, har bir qismning mazmuni alohida o‘rganiladi. O‘qituvchi har bir bo‘lim bo‘yicha tushunarli savollar berib, o‘quvchining fikrini tartibga soladi va asosiy g‘oyalarni aniqlashga yordam beradi. Bu usul matnni butunlay anglashni sog‘lom psixologik jarayonga aylantiradi, chunki o‘quvchi mavjud bilim asosida yangi ma’lumotlarni qabul qiladi va ularni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Matnni tushunish uchun lug‘at boyligini kengaytirish va so‘z boyligini rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Matnda ishlatilgan so‘zlarni va ularning ma’nolarini to‘liq anglamaslik matnni noto‘g‘ri tushunishga olib keladi. Shu sababli, har bir yangi matn o‘qilganda, undagi yangi va murakkab so‘zlar izohlanishi, sinonimlar va antonimlar bilan ta’minlanishi kerak. Lug‘atni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar, so‘z yodlash o‘yinlari va interaktiv metodlar qo‘llaniladi. Bu o‘quvchilarga nafaqat matnni tushunishda, balki nutq va yozma malakalarini ham rivojlantirishda yordam beradi. Diqqatni jamlash va eslab qolish qobiliyatini oshirish jarayonida ham psixologik qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ko‘p hollarda o‘quvchilar diqqatlarini uzoq vaqt davomida bir joyga qaratolmay, matn mazmunini to‘liq anglay olmaydilar. Diqqatni rivojlantiruvchi mashqlar, qisqa muddatli eslatmalar va takrorlashlar o‘quvchilarning matnni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Matnni tushunishda diqqat va xotira bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning eslab qolish ko‘nikmalari mustahkamlanganida, ular matn mazmunini yanada puxta anglay boshlaydi. Vizual yordam vositalarini qo‘llash ham matnni tushunishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda samarali hisoblanadi. Matn mazmunini xaritalar, diagrammalar, jadval va grafikalar yordamida tasvirlash, asosiy fikrlarni ajratib ko‘rsatish o‘quvchining tushunishini osonlashtiradi. Bu yondashuv, ayniqsa, murakkab mavzularni o‘rganishda juda foydalidir. Vizual ma’lumotlar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini tizimlashtiradi va ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni ko‘rsatadi, bu esa psixologik jihatdan matnni yaxshiroq anglashga xizmat qiladi.Individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish o‘quvchilarning matnni tushunishdagi qiyinchiliklarini kamaytirish uchun juda muhimdir. Har bir bolaning o‘rganish uslubining o‘ziga xosligi, psixologik holati, diqqat va xotira imkoniyatlari farq qiladi. Ba’zi o‘quvchilar uchun matnni tushunishdagi qiyinchiliklarning sababi diqqat yetishmasligi yoki emotsional holatdagi muammolar bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda shaxsiy yondashuvni qo‘llash, psixologik maslahat va qo‘shimcha yordam ko‘rsatish zarur. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning bu xususiyatlarini inobatga olib, o‘rgatish strategiyalarini moslashtirishi kerak. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham matnni tushunishdagi psixologik qiyinchiliklarni kamaytirishda ahamiyatli rol o‘ynaydi. Interaktiv dasturlar, audiokitoblar, video materiallar va multimediyali ta’lim vositalari o‘quvchilarga matnni turli shakllarda qabul qilish imkonini beradi. Bu esa nafaqat matnni tushunishni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarni o‘rganishga yanada qiziqtiradi.

Texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘zlashtirish jarayonini yanada individual va qiziqarli qilib oladilar.[9)

Yuqorida ta’kidlangan yondashuvlar nafaqat matnni tushunishdagi psixologik qiyinchiliklarni kamaytirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning umumiy o‘rganish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Matnni to‘liq anglash va uni tahlil qilish qobiliyati o‘quvchining fikrlash, muloqot qilish va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda muhim omildir. Shuning uchun o‘qituvchi va ota-onalar ham ushbu jarayonga e’tibor qaratishlari zarur. Matnni tushunish jarayonida yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklar ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni hal etish uchun kompleks yondashuv zarur. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, matnni bosqichma-bosqich o‘rganish, lug‘at boyligini rivojlantirish, diqqat va xotirani mustahkamlash, vizual yordam vositalaridan foydalanish, individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish hamda zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish ushbu muammolarni bartaraf etishda asosiy omillardir. Shu tarzda o‘quvchilar matnni chuqur va to‘liq tushunishga erisha oladilar, bu esa ularning ta’limdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi va keyingi o‘qish jarayonlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Matnni tushunishdagi psixologik qiyinchiliklarni yengish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning psixologik barqarorligini, muloqot qobiliyatini va ijodkorlik darajasini ham yaxshilaydi. Shunday qilib, bu jarayon butun ta’lim tizimining sifatini ko‘tarishda muhim ahamiyatga ega.[10]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash jarayoni o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilishi lozim. Til va lug‘at boyligi, e’tibor va xotira faoliyati, fikrlash qobiliyati, hissiy holat, ijtimoiy ko‘nikmalar va individual farqlar - bularning barchasi o‘quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardir. Ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishiga ko‘maklashadi, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda matn bilan ishlash psixologik xususiyatlarni chuqur o‘rganish va ularga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu esa kelajakda mustaqil va faol o‘qish, ijodiy fikrlash hamda ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini shakllantirishning asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xudoyberdiyev, O. (2023). "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunish va yaratishdagi psixologik xususiyatlari". Pedagogika va Psixologiya, 12(2), 120-130.

2. Qodirova, N. (2021). "O‘quvchilar nutqini rivojlantirishda matn ustida ishlashning samaradorligi". Ta’lim nazariyasi va amaliyoti, 15(4), 45-52.

3. Karimov, S. (2024). "Boshlang‘ich sinflarda o‘qitish jarayonida matnni tahlil qilish psixologiyasi". Pedagogika problemalari, 8(1), 75-83.

4. Tursunova, M. (2020). "Matn orqali bolalarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish". Ilm-fan va ta’lim, 9(3), 90-97.

5. Mirzaev, D. (2022). "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqiy faoliyatining psixologik asoslari". Psixologiya va pedagogika, 11(5), 112-118.

6. Rasulova, L. (2023). "Matn ustida ishlash orqali bolalarda tafakkur va diqqatni rivojlantirish". Ta’lim va tarbiya, 14(6), 55-62.

7. Yo‘ldoshev, B. (2021). "Boshlang‘ich sinflarda matnli mashqlar va ularning psixologik samarasi". Zamonaviy ta’lim, 7(2), 33-40.

8. Islomova, F. (2024). "Matnni o‘rganish jarayonida bolaning psixologik rivojlanishi". Ta’lim-tarbiya jarayoni, 10(1), 68-75.

9. Normurodov, J. (2020). "Boshlang‘ich sinfda matn ustida ishlash metodikasi va psixologik xususiyatlari". Pedagogik tadqiqotlar, 5(4), 25-32.

10. Anvarova, D. (2023). "Matn tushunish va matn yaratish jarayonida psixologik omillar". Ilmiy ishlar to‘plami, 6(3), 101-108.

Казакова Раъно Машрабаевна
PhD, старший преподаватель кафедры русского языка и литературы
Наманганского государственного института иностранных языков

ПОЭТИКА И СТИЛЬ РУССКИХ И АНГЛИЙСКИХ ВОЛШЕБНЫХ СКАЗОК В СОПОСТАВИТЕЛЬНОМ АСПЕКТЕ

Аннотация. *Проблема этой темы находит свое отражение в необходимости понимания и осознания других культур. Именно поэтому мы считали необходимым исследовать и сопоставлять различные типы культур, а именно, их представителями являются сказки, так как они знакомы нам с детства и в которых отражается душа народа. Все сказки связывают пропаганду позитивного гуманизма, разоблачение зла, аккультурацию. Мы рассматриваем общегосударственный аспект в каждой сказке, в частности воспитываем национальную специфику фольклора, и приходим к выводу, что она имеет сходные дидактические задачи и здесь имеет культурно-историческую ценность для каждого народа, поскольку именно эта форма фольклорного фактора повлияла на культурный и социальный прогресс. Этот вывод основан на сравнительном анализе и соотнесении исторических фактов.*

Ключевые слова: *сказка, понимать, герои, поколения, смелые, ненависть, мужество, доброта, персонажи, счастливый конец*

POETICS AND STYLE OF RUSSIAN AND ENGLISH FAIRY TALES IN A COMPARATIVE ASPECT

Annotation. *The problem of this topic is reflected in the need for understanding and awareness of other cultures. That is why we considered it necessary to study and compare different types of cultures, namely, their representatives are fairy tales, since they are familiar to us from childhood and in which the soul of the people is reflected. All fairy tales connect the promotion of positive humanism, the exposure of evil, acculturation. We consider the national aspect in each fairy tale, in particular, we bring up the national specifics of folklore, and come to the conclusion that it has similar didactic tasks and here has a cultural and historical value for each nation, since it is this form of folklore factor that has influenced cultural and social progress. This conclusion is based on a comparative analysis and correlation of historical facts.*

Key words: *fairy tale, understand, heroes, generations, brave, hate, courage, kindness, characters, happy ending*

RUS VA INGLIZ ERTAKLARI POETIKASI VA USLUBI QIYOSIY ASPEKTDA

Annotatsiya. *Ushbu mavzu muammosi boshqa madaniyatlarni tushunish va anglash zaruratida aks etadi. Shu sababli biz turli madaniyat turlarini, ya'ni ularning vakillarini bolalikdan bizga tanish va unda xalq qalbi aks etgan ertaklarni o‘rganish va qiyoslashni zarur deb hisobladik. Barcha ertaklar ijobiy insonparvarlik targ‘ibotini, yovuzlikning ta'sirlanishini bog‘laydi. Biz har bir ertakdagi milliy jihatni ko‘rib chiqamiz, xususan, folklorning milliy xususiyatlarini keltiramiz va shunga o‘xshash didaktik vazifalarga ega va bu erda har bir millat uchun madaniy va tarixiy ahamiyatga ega degan xulosaga kelamiz, chunki u madaniy va ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko‘rsatgan folklor omilining shaklidir. Ushbu xulosa tarixiy faktlarning qiyosiy tahlili va korrelyasiyasiga asoslanadi*

Kalit so‘zlar: *ertak, tushunish, qahramonlar, avlodlar, jasur, nafrat, jasorat, mehribonlik, belgilar, baxtli yakun*

Введение. Хорошо известно, что мудрость и дух народа проявляются в традициях и обычаях страны, прежде всего в ее фольклоре. Фольклор – самая загадочная и необычная область словесного искусства. Одним из наиболее значимых жанров фольклора является сказка- жанр, в котором всегда наличествует захватывающий сюжет, смелые герои и счастливый конец, который действительно привлекает слушателей. Подобно иным жанрам народной прозы, сказки бытуют в изустной форме, передаваясь из поколения в поколение. Сказка, несомненно, является продуктом народной культуры и истории. Одновременно с этим она сама является фактором развития общенациональной культуры и влияния на становление национального самосознания.

В качестве самостоятельного жанра словесности сказка сформировалась к XVII веку, но лишь к 40-м годам XIX века стала объектом исследования филологов, обративших внимание на специфические образные типизированные формы сказки, которые вобрали в себя опыт освоения мира, его оценки, понимания человеческих эмоций, социальных отношений. Народная сказка представляет собой «эпическое устное народное произведение, преимущественно прозаического, волшебного, авантюрного или бытового характера с установкой на вымысел» [3, с. 383].

Анализ литературы по теме. Допустимы различные интерпретации сказки как феномена. Так, с одной стороны, ее сюжет строится на вымысле, не зависящем от реальности. С другой же стороны, не вызывает сомнений и тот факт, что в сказочном вымысле находит свое специфическое отражение историческая реальность. Исчерпывающее определение сказки было дано известным собирателем и исследователем русских сказок А.Н. Афанасьевым: "Народная сказка (или казка, байка, побасенка) – эпическое устное художественное произведение, преимущественно прозаическое, волшебное, авантюрного или бытового характера с установкой на вымысел. Последний признак отличает сказку от других жанров устной прозы: сказа, предания и былички, то есть от рассказов, преподносимых рассказчиком слушателям как повествование о действительно имевших место событиях, как бы маловероятны и фантастичны они не были" [1, с. 13].

Сказки – это истории, существующие в форме устного предания. Их сюжеты демонстрируют сильные конфликты между добром и злом, исполнены волшебства и обычно имеют счастливый конец. В типичных сказках отражены такие универсальные человеческие чувства и свойства характера, как любовь, ненависть, мужество, доброта и жестокость. Именно поэтому те, кто занят изучением английского языка, должны читать и учиться понимать сказки, чтобы затем лучше понимать национальную литературу и культуру страны в целом. Народные сказки отражают жизнь людей, их историю, верования, менталитет. В них определенным образом представлены различные этапы развития нации.

В словаре литературных терминов понятию сказки дано следующее широкое определение: «Всякий устный рассказ, сообщаемый слушателям в целях занимательности» [7]. Неслучайно, В.Я. Пропп, выдающийся исследователь структурных особенностей волшебной сказки, определял ее как «мир невозможного и выдуманного» и указывал на то, что «в русской сказке нет ни одного правдоподобного сюжета...», хотя в ней «...то, чего не было и никогда не могло быть, рассказывается, однако, так, как будто происходило в действительности» [6, с. 261-264].

Обсуждение. Сопоставительное исследование русских и английских сказок является одной из актуальных задач современной фольклористики и сравнительного литературоведения. В ходе подобного сопоставления выявляются как черты различий, обусловленные культурно-историческими особенностями развития русского и английского народов, так и черты сходства, детерминированные универсальностью структурных компонентов сказки как жанра.

Например, вербальная атрибуция и семантика главного героя в русских и английских сказок может быть исследована по одним и тем же моделям. В основе этих моделей лежит семантика цвета, физического состояния, интеллекта, возраста, умений, социального происхождения, одежды, оружия, орудий труда и т.п. В этом смысле английские народные сказки, в сравнении с русскими сказками, располагают относительно однородным набором средств выражения атрибутивных характеристик.

Типичными главными героями русских народных сказок являются вымышленные персонажи Иван-Царевич, Иван-Дурак, Елена Прекрасная, Василиса Премудрая. У некоторых героев были исторические прототипы (русские богатыри Илья Муромец, Никитич, Алеша Попович). Героями английских сказок обычно являются люди каких-либо конкретных профессий: фермеры, крестьяне и торговцы. Важно заметить, что главные герои сказок обоих народов помимо собственно имен, имеют прозвища. При этом имена и прозвища русских героев отличаются более широким разнообразием, чем английские (Кузьма Скоробогатый, Василиса Премудрая, Елена Прекрасная). Типичные имена героев английских сказок - Питер Простак, Ленивый Джек, Валет.

Сравним главных героев сказок Ивана-Дурака и Валета. В русских сказках Иван-Дурак – положительный персонаж. Подчеркнем, что слово "дурак" в русских народных сказках не имеет отрицательной коннотации и обозначает человека, ведущего себя необычно, т.е. чудака, пассионария. При этом Иван-Дурак – это обобщающий образ русского крестьянина, который находит свое счастье, преодолевая на своем пути многие трудности и проходя множество испытаний. В счастливом финале многих сказок Иван-Дурак преображается в Ивана-царевича и находит свое счастье (царство, невесту, коня).

Джек (Валет), главный герой типичной английской сказки, в отличие от Ивана-Дурака, характеризуется по преимуществу как «умный парень с быстрым и живым умом». Также, если об Иване-Дураке неизменно сообщается, что он крестьянский сын, то социальная принадлежность Джека может существенно варьироваться от «старого солдата» до «сына бедняка», ср.: «В царствование доброго короля Артура в Корнуолле, на мысе Лендс-Энд жил фермер, и был у фермера единственный сын по имени Джек" (из сказки «Джек – победитель великанов»). Однако в любом случае, Джек - собирательный образ искателя земного счастья, для которого естественным является стремление к любви и устроению своего личного благополучия. В этом смысле герои русских и английских народных сказок демонстрируют относительное сходство. Кроме того, и Иван-Дурак, и Валет формируются стихийным народным сознанием как носители типических черт, определяемых особенностями национального характера. Степень же сходства и различия между Ивано-Дураком и Джеком обусловлено теми сходствами и различиями, которые объективно существуют между русским и английским национальными характерами.

В числе второстепенных персонажей русских сказок встречаются такие, как Баба-Яга, Мешок с костями, Дракон, Ведьма, леший, домовой, Сивка-Бурка, Царевна-Лягушка, Жар-птица. Героями английских сказок являются великаны, феи, ведьмы, эльфы, гномы, тролли, пикси, гоблины, волшебник Мерлин, король Артур, рыцари. Вполне очевидно, что все они являются пережитками ранних мифологических представлений о различных враждебных и дружественных человеку силах, действующих в природе и обществе.

Неотъемлемым компонентом поэтики английской сказки является юмор, который «смягчает острые ситуации - герои и их качества высмеиваются и представляются в комическом ключе» [5, с. 14]. Для русской сказки юмор в целом не характерен.

Волшебными предметами, встречающимися в русских сказках, могут быть ковер-самолет, волшебная скатерть, шапка-невидимка, серебряное блюдо, меч-кладенец. В английской традиции есть сказки о невидимом пальто, шляпе-ботинке, семимильных сапогах, волшебной золотой трубе. Здесь наблюдается такая общая закономерность, как воплощение в сказке пережитков фетишизма.

В русских и английских сказках о животных представлены почти идентичные отрицательные персонажи: волк, лиса, медведь. При этом носителями положительных нравственных качеств являются петух, мышь, кошка, собака и заяц. Общий вывод здесь состоит в том, что и в английских, и в русских народных сказках о животных образы животных выполняют одну и ту же функцию: они являются персонификациями нравственных качеств человека. Например, лиса является персонификацией хитрости и изворотливости, собака – преданности, мышь – скромности и т.п. Сюжеты сказок о животных есть не что иное, как репрезентация сложившихся в стихийном народном сознании определенных этических стереотипов.

При сопоставлении сюжетов английских и русских сказок устанавливается тот факт, что если в основе русской народной сказки лежит вымысел, неожиданный поворот событий, волшебство и преображение, то в центре английских сказок находится конкретная информация о некоторых фактах повседневной жизни. Поэтому английская сказка не вполне «волшебна» и «сказочна» с точки зрения носителей русской культуры.

Этим, в частности, объясняется то, что место действия в русских сказках никогда не определяется конкретно: «в некотором царстве, в некотором государстве». В английских сказках место действия, напротив, имеет точное название, представляет собой реальный английский топоним: Корнуолл, Глостершир, Девон, Уэльс, мыс Лендс-Энд.

В русских сказках главный герой – отважный путешественник, преодолевающий на пути множество преград, попутно помогающий другим. В свою очередь, рядом с героем всегда есть помощники. Мотив помощи является одним из определяющих мотивов в русской сказке, поскольку на нем нередко строится ее сюжет: Алёнушку спасает братец Иванушка, Ивану-царевичу помогает Царевна-лягушка, селезень помогает Ивану-царевичу поймать утку, щука извлекает для героя из морской пучины яйцо с иглой, медведь помогает ему сдвинуть упавшее дерево и т.д. В сказке "Иван-царевич и Серый волк" герою помогает серый волк, помощь оказывает даже Баба Яга. Все эти эпизоды типичны для русских сказок. Они воплощают в себе общинное сознание крестьянского социума, последовательно перерастающее в дух соборности русского народа.

Британские же сказки, напротив, характеризуются героем независимым. Он действует обычно один, и все свои проблемы решает сам, хотя и может иногда воспользоваться чужим советом, но реализует задуманное сам, без посторонней помощи. Это отражает характерный для англоязычной культуры феномен «самодельного» человека, т.е. героя сознательно возрастающего над самим собой и над обстоятельствами. Герой английской сказки независим и даже сознательно изолирован от других людей. Например, герой многих сказок, Джек, ведет борьбу с великанами и ведьмами в одиночку, воплощая в себе тем самым укорененный в английской концептуальной картине мира идеал сильной личности. Одновременно с этим, в отличие от героя русских сказок, английский герой предпочитает избегать неприятностей. «Они не стараются чего-то достичь, а стараются избежать провала, проигрыша... Деятельность главных героев обусловлена не только их собственными желаниями, но и долгом, внешними обстоятельствами» [4].

Следует также отметить сходство многих сюжетов английских и русских народных сказок. Так, до известной степени сходны между собой и различаются только в деталях сюжеты русской сказки «Колобок» и английской сказки «Джонни Пончик», русской сказки «Маша и три медведя» и английской сказки «Златовласка и три медведя», русской сказки «Волк и семеро козлят» английской сказки «Волк и три котенка». Безусловно, это является аргументом в пользу теории бродячих сюжетов или же теории полигенеза. Однако, на наш взгляд, не столь важно, по какой именно причине возникло сюжетное сходство русских и английских сказок. Гораздо важнее те факторы, по которым это сходство не утрачивается с течением веков. Нам представляется, что основной причиной этого является универсальная концептуальная значимость этих сюжетов. Так, сказки «Колобок» и «Джонни Пончик» учат ребенка не доверять случайным встречным, сюжет сказок «Волк и семеро козлят» и «Волк и три котенка» предупреждают ребенка о том, что нельзя открывать дверь незнакомцам и чужакам и т.д.

Ряд существенных отличий между русскими и английскими сказками наблюдается в элементах композиции. Так, в русских сказках вариантов зачина и концовки гораздо больше, чем в английских, но их смысл и назначение совпадают. В структуру русских сказок нередко оказываются включенными песни, загадки, заговоры и т.п. В английских сказках подобное наблюдается значительно реже.

Вывод. Обобщая изложенное, можно сказать, что русские и английские сказки демонстрируют как универсальные, так и специфические черты. Универсальные свойства сказки (установка на вымысел, стандартный зачин, счастливый конец, мотив победы добра над злом и др.) определяются свойствами жанра сказки как такового. Специфические же черты поэтики и стиля, а также основных и второстепенных мотивов определяются свойствами национального характера и особенностями этнокультурных реалий, отражаемых в сказке. В конечном счете, сопоставление русских и английских сказок позволяет аргументировано описывать ключевые особенности стихийного народного сознания русских и англичан, и национальных картин мира, сложившихся у данных народов.

Список использованной литературы.

1. Афанасьев А.Н. Народные русские сказки. В 3-х томах– М.: Государственное издательство художественной литературы, 1957. – Т. 1. – 516 с.

2. Джекобс Д. English fairy-tales. – UK,- 1999, – 208 с.

3. Литературный энциклопедический словарь / под общ. ред. В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – М.: Сов. энцикл., 1987. – 751 с.

4. Особенности английских сказок [Электронный ресурс]. URL http://www.skazka.uz/angl/13/jsjbennosti-anglijskix-skazok.html.

5. Пассов Е. И. Диалог культур: социальный и образовательный аспекты. - Мир русского слова, 2001. - № 2. – С. 11-20.

6. Пропп В.Я. Фольклор и действительность // Русская фольклористика. Хрестоматия. М., 1965, с.261-264.

7. Словарь литературоведческих терминов под. ред. С. П. Белокуровой. М., 2005. [Электронный ресурс]. URL: http://www.gramma.ru/

Aripov Ixtiyor Yusupovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat
markazi Katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNI KASBIY DIAGNOSTIKA QILISH ORQALI KASBNI TO‘G‘RI VA ONGLI TANLASH KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Yoshlarga xalq hunarmandchiligi kasblarini o’rgatish orqali xalqning milliy ruhini saqlab qolish, an’analarini tiklash va rivojlantirish, qiziqishlari va moyilliklari, qobiliyatlarini ilmiy-metodik faoliyati xamda o`quvchilarning o`quv-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog`liqdir. Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbiy diagnostika qilish orqali ularning kasbni to‘g‘ri va ongli tanlash kompetentligini shakllantirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarini aniqlash orqali ularni mos kasbga yo‘naltirishning psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilingan. Kasbiy diagnostika natijalari o‘quvchilar o‘z imkoniyatlarini real baholashiga, mustaqil qaror qabul qilishiga va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashishiga yordam beradi. Shuningdek, maqolada kasbiy yo‘naltirish tizimida psixodiagnostik metodlardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy diagnostika, kasb tanlash, kompetentlik, psixologik xususiyatlar, o‘quvchilar, yo‘naltirish.*

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ПРАВИЛЬНОМ И ОСОЗНАННОМ ВЫБОРЕ ПРОФЕССИИ ПОСРЕДСТВОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДИАГНОСТИКИ

Annotatsiya. *Vnedreniye v praktiku DTS, sformirovannыx na osnove kompetentnostnogo podxoda, trebuyet modernizatsii drugix komponentov uchebno-vospitatelnogo protsessa: metodov, sredstv i form obucheniya za schet vnedreniya innovatsiy. В данной статье рассматривается проблема формирования компетентности учащихся в правильном и осознанном выборе профессии посредством профессиональной диагностики. В исследовании анализируются психолого-педагогические основы выявления интересов, способностей и личностных особенностей учащихся для их направленности в подходящую профессию. Результаты профессиональной диагностики помогают учащимся адекватно оценивать свои возможности, принимать самостоятельные решения и ответственно относиться к будущей профессиональной деятельности. В статье также представлены эффективные методы применения психодиагностических инструментов в системе профориентации.*

Ключевые слова: *профессиональная диагностика, выбор профессии, компетентность, психологические особенности, учащиеся, профориентация.*

DEVELOPING STUDENTS’ COMPETENCE IN MAKING CORRECT AND CONSCIOUS CAREER CHOICES THROUGH PROFESSIONAL DIAGNOSTICS

Annotation. *The introduction into the practice of DTS, which is formed on the basis of the competency criterion, requires modernization through the introduction of other components of the educational process: teaching methods, tools and forms of innovation. This article explores the process of developing students’ competence in making correct and conscious career choices through professional diagnostics. The study analyzes the psychological and pedagogical foundations of identifying students’ interests, abilities, and personal characteristics to guide them toward suitable professions. The results of vocational diagnostics help students to realistically assess their capabilities, make independent decisions, and approach their future careers with responsibility. The article also presents effective methods for applying psychodiagnostic tools within the career guidance system.*

Key words: *professional diagnostics, career choice, competence, psychological characteristics, students, career guidance.*

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanining tutgan o‘rni. Respublikamiz o‘qituvchilari oldida umumiy ta’lim, hunar maktabini isloh qilish, yangi davr talabiga mos yetuk kishilarni, bozor iqisodi talabiga javob beradigan ta’lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish, maktab haqidagi konsepsiyani amalga tadbiq qilishdek muhim vazifalar turibdi.

Birinchi darajali vazifa o‘rta maktabni bitirgan o‘quvchilar fan asoslaridan chuqur bilim olishlari, ommaviy ishchi kasblaridan 2-3 tasini egallashlari, o‘qish bilan birga ishlab-chiqarishda ham ishtirok etishlari lozim.

O‘quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirishning har-xil yo‘llari

orasida “Texnologiya” fani muhim o‘rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o‘z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish, ta’lim bilan qo‘shib olib borish, o‘quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash bilan shug‘ullanadi. Bugungi kunda ta’limda olib borilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar o‘quvchilarda nafaqat ta’limiy , balki kasb tanlashga yo‘llash, hayotiy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgandir. Kasb tanlashga yo‘llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umummaktab vazifasi hisoblanadi. Yoshlarni biron kasb egasi, hunarli qilib tarbiyalashni yoshlikdan o’rgatib borishimiz zarur. Shu bilan birga texnologiya fani davomida o‘quvchilar kasblar olami, kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar, kasbiy salomatlik to‘g’risida tanishib boradilar, nafaqat tanishib boradilar, balki, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lib boradilar. Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarda o‘z asarlarida, she’r va g’azallarida halol mehnatni, kasb- hunar egallashning zarurligini va muaddasligini, ta’kidlab, ulug‘lab o‘tganlar. Yoshlarga xalq hunarmandchiligi kasblarini o’rgatish orqali xalqning milliy ruhini saqlab qolish, an’analarini tiklash va rivojlantirish, milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklarni avaylab asrash, xalq ustalarining boy kasbiy mahoratini avloddan-avlodga yetkazish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko’nikmalarini mustahkamlashga muvaffaq bo’linadi. O’quvchilarni shu yo’sinda kasb tanlashga yo’naltirish bugungi kun talabidir. Milliy hunarmandchilik darslari jarayonida o’quvchilarda quyidagi bilim va malakalarni hosil qilish imkoniyatlari mavjud.Xalqimiz bolalarda mehnatsevarlik va mehnatga qiziqishni tarbiyalash, otalarimiz izidan borib turli kasb-hunar egallash, ularda mehnat munosabatlarini kamol toptirish, kelajak hayotga tayyorlash o’zlarini muhim vazifa deb hisoblaganlar Ulug’ bobokalonimiz Alisher Navoiy o‘z g’azallarida yoshlarni ilm-hunar egallashga chaqiradi; Ilm kasbini qildi to joni bor, Hunar o‘rgandi ongaki imkoni bor. Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning fikricha bolaga yoshligidan biror bir kasb-hunarni o‘rgatish lozim. Uning hunarli bo‘lishga qaratilgan nasihatlari hozirgi kunda ham muhum ahamiyatga ega. Uning ta’kidlashicha ’’Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o‘rgatmoq muhum ma’suliyatli ishdir. Hunar o‘rganish birla yoshlar har qanday nojo‘ya hatti-harakatlardan holi bo‘ladilar.’’ Markaziy osiyolik hamda o‘zbek marifatparvar shoirlar ham kasb-hunar egallashning ahamiyati to‘g’risida o‘z asarlarida qimmatli maslahatlarini qoldirganlar, bu meros hozirgi kunda ham yoshlarni kasb-hunarga yonaltirishda muhum ahmiyatga ega. Kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri hisoblanadi. Kasb tanlashga yollash ishi butun tehnologiya fani davomida olib boriladi, lekin uning vazifalari o‘zining turli bosqiclarida o‘zgarib turadi. 1-4-sinflarda o‘quvchilar qog’oz ishlab chiqarishning texnik bosqichlari, uning yaratilish jarayonlari to‘g’risida ma’lumotga ega bo‘ladilar, qog’oz bilan ishlash usullari, turlari, qog’ozni buklash, geometrik shakllar, qirqish, yelimlash, turli hajmdagi o‘yinichoqlar tayyorlash, manzara kompozitsiyasini yaratish,tabriknomalar tayyorlash malakasini egallaydilar. Gazlama bilan ishlash, chok turlari, yumshoq o‘yinchoqlar tikish , to‘qish va uning turlari, xalq hunarmandchiligi bo‘yicha kashtachilikning eng sodda elementlarini tikish,loy va plastilindan turli o‘yinchoqlar haykallar yasash ko‘nimasiga ega bo‘ladilar. Tabiiy materiyallar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning tasavvuri ,ijodiy qobiliyatlani o‘stirish, turli chiqindi va badiiy materiyallardan o‘yinchoqlar hayvon va parranda qushlarni yasash, uyro‘zg’or buyumlarni, turli qiziqarli o‘yinchoqlarni yasash ko‘nikmasini shakllantirib boradilar. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarida milliy, badiiy sa’natning sodda elementlari asosida applikatsiya, mozaika usullaridan foydalanib, manzara , buyumlardan kompozitsiya qurish yasash malakasini egallash bilan birga o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini texnik modellashtirish orqali kasbga yo‘llashning boshlang’ich ko‘rinishi namoyon bolib boradi. O‘quvchilar 5-7-sinflarda o‘g’il bolalar

yog'ochga ishlov berish tehnologiyasi, metallarga ishlov berish tehnologiyasi, elektrotehnika ishlari, uy-ro'zg'or buyumlarni ta'mirlash ishlari, qiz bolalar esa gazlamaga ishlov berish tehnologiyasi, pazandachilik asoslari bo'limlari, buyumlarni ta'murlash bo'limlari yuzasidan bilim, ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga, bu bo'lim yonalishlari bo'yicha turli kasb-hunar turlari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. 8-9-sinflarda o'quvchilar ishlab chiqarish asoslari bo'limlari, xalq hunarmahdchiligi tehnologiyalari bo'limi, kasbga yo'naltirish asoslari bolimlarini o'rganish bilan birga kasb tanlashdagi xatolar, qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlari, kasb tanlashdagi shaxsiy qiziqishlari va moyilliklari, qobiliyatlarini e'tiborga olish, kasb tanlashda ohglilik va mustaqillik, o'z-o'zini tarbiyalash, kasb tanlashning mohiyati, kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish, o'zi xohlagan kasbga yaroqli ekanligini aniqlash, o'z ruhiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullari, kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja ishlab chiqish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bolib boradilar.

Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar.

Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish ob'ekti sifatida emas, balki o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Texnologiya fani o'quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o'rgatadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlashga doir qarorlar qabul qilinishi, ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish jarayonining amaliy ifodasidir. Shu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida "Mehnat ta'limi" fanining "Texnologiya" faniga aylantirilishi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlari hamda xalqaro ta'lim standartlariga uyg'un yondashuv natijasidir.

Bu o'zgarishlarning asosiy omillari qatoriga quyidagilar kiradi: ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan talablarning oshishi; ta'lim standartlarining xalqaro talablarga muvofiqlashtirilishi; xorijiy ilg'or tajribalar asosida milliy me'yorlarni takomillashtirish; o'quv-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish; bozor iqtisodiyotida shaxs qobiliyat va qiziqishlarini ustuvor qo'yish; ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash tizimining shakllanishi.

"Texnologiya" fani O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga asoslanadi. Fan o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga, mehnatning turmush bilan uzviy bog'liqligini anglashga, ongli dunyoqarashni shakllantirishga va eng muhimi, ularni kelajakdagi kasb tanloviga tayyorlashga xizmat qiladi.

Mazkur fan o'qitish jarayonida ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-matematik va boshqa o'quv fanlari bilan didaktik bog'liqlikda o'tiladi. O'quvchilarni mehnatga muhabbat, jismoniy mehnat kishilariga hurmat, mas'uliyat va estetik did kabi axloqiy sifatlar orqali tarbiyalaydi. Bu fazilatlar faqat og'zaki tushuntirish bilan emas, balki amaliy faoliyatda, ustaxona mashg'ulotlarida shakllanadi.

Kasb tanlashga yo'naltirish – o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, qiziqishlarini, mehnat bozorining ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularning o'z kasbiy o'rnini topishiga yordam beruvchi ilmiy asoslangan tizimdir. U kasbiy axborot, maslahat, tanlov va saralash, moslashish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarning har biri shaxsning psixologik, fiziologik, ijtimoiy va kasbiy imkoniyatlarini aniqlash hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Kasbiy yo'naltirish tizimi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Maktabgacha bosqichda bolalarda mehnat faoliyatiga qiziqish uyg'otiladi;

Boshlang'ich sinflarda mehnatga hurmat, foydali faoliyat orqali mehnat qadriyati anglanadi;

5–7-sinflarda o‘smirlarda kasbiy qiziqish va izlanish shakllanadi;

8–9-sinflarda kasbiy o‘zlikni anglash kuchayadi;

O‘rta maxsus bosqichda tanlangan faoliyat bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi;

Oliy ta’limda kasbiy faoliyatga kirishish bosqichi yuz beradi;

Katta yoshdagi aholida zaruratga ko‘ra qayta kasbiy yo‘naltirish amalga oshiriladi.

Texnologiya fani doirasida kasbiy axborot va maslahat ishlari alohida o‘rin tutadi. O‘quvchilarga turli kasblar, ularning jamiyatdagi o‘rni, kasbiy ko‘nikmalar va mehnat bozori talablari haqida ma’lumot beriladi. Kasbga yaroqlilik darajalari (yaroqsizlik, yaroqlilik, moslik, havas) psixofiziologik va ijtimoiy mezonlar asosida baholanadi.

Kasb tanlash jarayonida professiogramma muhim manba hisoblanadi. Unda kasbning nomi, mehnat turi, zarur bilim va mahorat, sog‘liqqa ta’sir, shaxsiy fazilatlar talablari, professional o‘sish istiqbollari kabi jihatlar yoritiladi.

Texnologiya fani kasbga yo‘naltirish tizimida markaziy o‘rin tutib, o‘quvchilarni mehnatsevarlik, ijtimoiy mas’uliyat, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Shu bois bu fan nafaqat o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanish strategiyasini ham shakllantiruvchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Har bir o‘smir, har bir mehnat yo‘li qanday boshlanishi to‘g‘risida o‘ylar ekan o‘zi uchun mo‘ljallangan kasbning professiogrammasini tuzish lozim bo‘lgan kasb jihatidan muhim sifatlarni belgilab olishga yordam beradi. Masalan, Stanoklar va avtomat liniyalari sozlovchisi kasbiga oid professiogramma.

Sozlovchilik kasbi – eng yangi istiqbolli kasblardan biridir. Usanoatda murakkab avtomat qonunlar bilan bir vaqtda paydo bo‘ldi.

Sozlovchining ishlab chiqarishdagi asosiy vazifasi – stanoklarni va avtomat liniyalarni ma’lum bir turdagi maxsulotga ishlab berishga tayyorlashdan iborat. Sozlovchi detallariga sinov tariqasida ishlab berish tadbiri amalga oshiriladi va asbob uskunalarini ishini kuzatib boradi.

Berilgan parametrlardan qandaydir chekinishni sezganda sozlovchi mashinaning qayeri buzilganligini aniqlaydi. Hamda o‘z bilimini mahoratini va malakalariga, tajribalariga tayangan holda u kamchiliklarini yo‘qotib mashinani tuzatadi.

Stanoklar va avtomat liniyalarini sozlovchisi yuksak darajada texnik bilim olgan va ko‘rib eslab qolish hotirasiga ega bo‘lgan kishi bo‘lmog‘i kerak.

Turli tuman texnik vazifalarini hal qilish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni bajarayotgan sozlovchi uchun mantiqiy jihatdan to‘g‘ri o‘ylash va ijodiy fikrlash g‘oyat muhim.

Sozlovchilar mashinasozlik, metallga ishlov berish korxonalarida va boshqa shunga o‘xshash joylarda mehnat qiladilar.

Yoshlarninig kasb-hunar egallashlariga ko‘maklashish, ularni butun sanoat, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, xo‘jalik va madaniy qurulish ishlariga jalb qilish har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashning muhum shatri ekanligini unutmasligimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi. – T.: “O’zbekiston”, 2016.-56 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – T.: “O’zbekiston”, 2017.-102b.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017.-488 b.

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.-176 b.

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna
Buxoro xalqaro universiteti o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD)
E-mail: onatilichoriyeva@gmail.com

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA BUXORO ADABIY MUHITI

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhitining o‘ziga xos siyosiy va madaniy jarayonlari tahlili berilgan. Buxoro amirligidagi siyosiy-ijtimoiy hayot, mang‘itlar sulolasida yuz bergan o‘zgarishlar hamda ularning adabiy muhitga ko‘rsatgan ta’siri yoritilgan. Adabiy manbalar – qo‘lyozmalar, devonlar, tazkiralar va tarixiy risolalarning ilmiy ahamiyati ochib beriladi. Ahmad Donish, Mirzo Abdulazim Somiy, Qori Rahmatulloh Vozeh kabi ijodkorlarning asarlari misolida davr adabiyoti, hayoti tahlili beriladi. Buxoroda ta’lim tizimi, madrasa va maktablarning faoliyati, shashmaqom an’analari, xattotlik, miniatyura, me’morchilik kabi san’at sohalarining rivoji ham o‘rganiladi. Tadqiqot XIX–XX asr boshlarida Buxoro madaniy hayotining yuksalishini ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Бухарский эмират, XIX век, литература начала XX века, Тазкира, рукопись, Ахмад Дониш, шашмакам, культурная среда, медресе, искусство.*

ЛИТЕРАТУРНАЯ СРЕДА БУХАРЫ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА.

Аннотация. *В статье дается анализ специфических политических и культурных процессов Бухарской литературной среды конца XIX-начала XX века. Освещается Общественно-политическая жизнь Бухарского эмирата, изменения, произошедшие в династии мангытов, а также их влияние на литературную среду. Раскрывается научное значение литературных источников-рукописей, девонов, Тазиров и исторических трактатов.атье дается анализ специфических политических и культурных Бухарской литературной среды конца XIX-начала XX века. Освещается Общественно-политическая жизнь Бухарского эмирата, изменения, произошедшие в династии мангытов, а также их влияние на литературную среду. Раскрывается научное значение литературных источников-рукописей, девонов, Тазиров и исторических трактатов. На примере произведений таких творцов, как Ахмад Дониш, Мирза Абдулазим Соми, Кари Рахматулла Возех дается анализ литературы, жизни того времени. В Бухаре также изучается система образования, функционирование медресе и школ, традиции шашмакома, развитие таких областей искусства, как каллиграфия, миниатюра, архитектура. Исследование показывает подъем культурной жизни Бухары в XIX–начале XX века.*

Ключевые слова: *Бухарский эмират, XIX век, литература начала XX века, Тазкира, рукопись, Ахмад Дониш, Шашмаком, культурная среда, медресе, искусство*

THE LITERARY ENVIRONMENT OF BUKHARA IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES.

Annotation. *The article provides an analysis of the specific political and cultural processes of Bukhara's literary environment in the late 19th and early 20th centuries. Political-social life in the emirate of Bukhara, changes in the manghit dynasty and their impact on the literary environment were covered. The scientific significance of literary sources – manuscripts, devons, Tazkiras and historical treatises-is revealed.he article provides an analysis of the specific political and cultural processes of Bukhara's literary environment in the late 19th and early 20th centuries. Political-social life in the emirate of Bukhara, changes in the manghit dynasty and their impact on the literary environment were covered. The scientific significance of literary sources – manuscripts, devons, Tazkiras and historical treatises-is revealed. On the example of the works of such creators as Ahmad Donish, Mirzo Abdulazim Somi, Qori Rahmatullah Vozeh, an analysis of the literature, life of the period is given. In Bukhara, the educational system, the activities of madrasas and schools, the*

traditions of shashmakom, the development of such fields of art as calligraphy, miniature, architecture are also studied. The study shows the rise of the cultural life of Bukhara in the XIX–early XX centuries.

Key words: *Emirate of Bukhara, 19th century, early 20th century literature, tazkira, manuscript, Ahmad Donish, shashmaqom, cultural environment, madrasa, art*

Kirish. XIX asr va XX asr boshlarida Buxoro siyosiy-iqtisodiy vaziyati va madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi manbalar turli avtorlar qalamiga mansub bo'lib, xarakter e'tibori bilan bir necha guruhga bo'linadi:

- Buxoro xonligining turli davrlarida yashagan tarixnavislarning asarlari;
- G'arbiy Yevropa hamda rus sayyohlarining memuarlari, tazkira tipidagi asarlari: - tazkira, bayozlar;
- ilmiy tadqiqot xarakteridagi asarlar.

Buxoro tarixida Mang'itlar sulolasi davri haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manbalardan Abdulkarim Buxoriyning 1830 yilda yozilgan yo'l taassurotlari, Mirzo Shams Buxoriy asarlari, Muhammad Ya'qub "Gulshan ul-muluk"ining (1831) so'ngi qismi, Muhammad Vafoiy Karminagiy va Domullo Olimbek binni Niyozqulibeklarning "Tuhfat ul-xoniy"si, Ahmad Donish va Mirzo Abdulazimi Somiy risolalarini ko'rsatish mumkin**.**

Sho'rolar hokimiyatining ilk kunlaridan boshlab mang'itlar hukmronligi davrigacha Buxoro tarixiga oid ilmiy-tadqiqot ishlari yaratila boshlandi. Bo'lot Soliyev, Sadriddin Ayniy risolalari, P.P.Ivanovning bir qator ilmiy asarlari diqqatga sazovordir.

Shuningdek, XX asr Buxoro xonligidagi adabiy hayot haqida tasavvur hosil qiluvchi muhim manbalar esa qo'yozma, devon va bayozlar hamda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida tuzilgan tazkiralardan iborat ekanligi ko'rsatib berilgan. Bu davr shoirlaridan bir nechtasining devonlari bizga ma'lum bo'lsa ham, ayrim devon tuzmagan yoki hozirga qadar devoni ma'lum bo'lmagan ijodkorlar merosining bir qator namunalari o'nlab qo'lyozma bayozlar vositasida bizgacha yetib kelgan.

Masalan, Qori Rahmatulloh Vozehning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" (1871) nomli tazkirasida mazkur davr adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Keyinroq yaratilgan Hashmatning "Tazkirat ush-shuaro", Afzali Pirmastiyning "Afzalut-tazkor fi zikr ush-shuaro val ash'or", Hoji Nematullo Muhtaramning "Tazkirat ush - shuaro" kabi tazkiralari ham ushbu davr adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni kengaytirishga yordam beradi.

XIX–XX asr boshlari Buxoro adabiyotining ba'zi masalalari yoki ayrim vakillari ijodiga oid ma'lumot va materiallar o'zbek, tojik olimlarining darslik, qo'llanma, xrestomatiya va o'nlab ilmiy ishlarida uchraydiki, mavjud ishlar ikki qondosh va jondosh tilda yaratilgan adabiyotning muhim namunalari, ayrim atoqli ijodkorlari haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalardir.

Asosiy qism.

XIX asrda Buxoro xonligi O'rta Osiyodagi mayda feodal mulklarni birlashtirish asosida yuzaga kelgan o'zbek xonliklari (Buxoro, Xiva, Qo'qon) orasida o'ziga xos mavqega ega edi. Buxoro mamlakatiga qarashli yerlar Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni Rossiya Pomiridan, to Xivaning keng dashtlarigacha cho'zilib boradi. Rossiya va Buxoro o'rtasidagi bo'lgan urushdan oldin va bolsheviklar hukumati tasarrufida bo'lgan (1920) chog'da Buxoro shimol tarafdan Qizilqum sahrosi bilan chegaradosh edi. G'arb tarafdan Sirdaryo hamda Qo'qon xonligi bilan, janubdan esa Afg'oniston, sharqdan Turkman o'lkasi va Xiva davlati bilan tutashgan edi. O'sha davrda Buxoroda 2-3 yarim million aholi yashagan. Uning yer maydoni 225000 km2 bo'lgan.Buxoro davlati 28 beklikka bo'lingan. Jumladan: Nurota, Qorako'l, Qaboqli, Choharjo'y, Karki, Boysun, Hisor, Dehnav, Qo'rg'on (tepa)Boljuvon, Ko'lob, Qabodiyon, Yakkabog', Kitob, G'uzor, Qarotegin, Kalif, Burdoliq, Shahrisabz.

Qadimiy madaniy yodgorliklari mavjud bu shaharlar hali - hanuz ma'lum va mashhurdir.

1783-yildan to 1920-yilga qadar Buxoroda Mang'itlar sulolasi hukmronlik qildi. Bulardan: 1783-1800-yillar Amir Shohmurod, 1800-1826-yillar Amir Haydar, 1826- 1860-yillar Nasrulloxon, 1860-1885-yillar Amir Muzaffar, 1885-1910-yillar Amir Abdulahad va 1910-1920-yillar Amir Said

Olimxon davlatni boshqardi. Ana shu yillarda Buxoro va Qo‘qon xonligi orasidagi kelishmovchilik fojiaviy tus oldi.

O‘zaro nizolardan xabardor bo‘lgan Angliya va rus hukumati harbiy va boshqa xil mutaxassislikdagi josuslarni yubora boshladilar. Masalan: 1825-yil Murk Fort va Trebek nomli josuslar Buxoroga keldilar. 1830-1833-yillarda Aleksandr Bernis nomli diplomat ayg‘oqchi Buxoro va Murg‘obda bo‘ldi. Savdo uchun rus hukumati 1820-yilda Negri, Meyindorf, Eversman degan kishilarni Buxoroga yubordi.

Ular Buxorodan bitta singan shamdon va singan oftoba hamda sopoldan yasalgan singan tovoqni o‘z imperatorlariga etib, O‘rta Osiyoliklarning mana shulardan boshqa ilmiy hech narsasi yo‘q. Agar biz nafis to‘qilgan gazlamalarimizni va boshqa chiroyli buyum hamda armiyaga kerakli boshqa anjomlarni yuborib turmasak, ularning holiga voy, ya’ni ular dag‘al to‘qilgan o‘zlarining bo‘zlarini va beburd choriqlarini kiyolmaydilar, degan ma’nolarni berishlari, 1832-1842 yillar Afg‘onistonda ingliz kolonizatorlariga qarshi kurashning keskinlashib ketishi O‘rta Osiyoda rus hukumati mavqeining ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Ahmad Donish g‘azab bilan ta’kidlaganidek, Buxoro amirlari yuksak e’tiqod va ilm-fan markazlari sifatida shuhrat qozongan Buxoro bilan Samarqand sha’niga shu qadar katta isnod keltirdilarki, (Amir Nasrullo davri ko‘zda tutilyapti), bu hol tarix sahifalaridan hech qachon o‘chmaydi.

Amir Muzaffarning o‘g‘li Amir Said Abdulahad 1885-1910 yillar Buxoro Amirligi taxtini boshqardi. Abdulahad 14 yoshidan boshlab Karmana begi etib tayinlangan. Rus sayyohlarining ma’lumotlariga ko‘ra, u Karmanada juda oddiy kun kechirgan. 1885 yil 4 noyabrda amir Muzaffarni Buxoro arkida oq kigizga o‘tirg‘izib, taxtga o‘tqazish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Amir Abdulahad sayohat qilishni yaxshi ko‘rgan. U turli yillarda Moskva, Sankt- Peterburg, Kiyev, Odessa, Yekaterinaslov, Boku, Tiflis, Botumi, Sevastopol, Bog‘chasaroy kabi shaharlarda bo‘lgan. Amir har yili Kavkazda, Qrim yoki Yaltada dam olgan. Uning hukmronligi davrida qiynoqlar, o‘lim hukmi va eng dahshatli jazo, Buxorodagi Minorayi Kalondan tashlab yuborish man etilgan. Amir Abdulahad davrida amirlikda mis, temir, oltin qazib chiqarish, telefon liniyalari va temir yo‘llari qurilishi, savdo faol rivojlantiriladi.

Abdulahad amirlikdagi harbiy kuchlarga alohida e’tibor bergan. Yoshlik chog‘idayoq bo‘lajak amir o‘z gornizonida harbiy mashqlar o‘tkazib, Karmana qal’asini yaxshi harbiy holatda tutgan. 1895-yildan boshlab Buxoro amirligida militsiya xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Keyinchalik ham amir Abdulahad o‘z qo‘shinini harbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy qurollantirish uchun ko‘pgina ishlarni amalga oshirgan. Lekin uning hur va ilg‘or fikrlari va amalga tatbiq etgan ishlari atrof xonliklarda yetilgan siyosiy boshboshdoqlik uchun yetarli emas edi.

Bu parokandalikdan foydalangan rus hukumati o‘z askarlarini XIX asrning o‘rtalarida Xiva, Qo‘qon xonliklarining shimoliy chegaralariga keltirib qo‘ydi. O‘rta Osiyo xonliklari uchun o‘z mustaqilligini saqlab qolishdek mas’uliyat real bo‘lib qolgan bir sharoitda ham Buxoroning qo‘shni xonliklar bilan munosabati keskinligicha qola berdi.

Buxoro bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi chegara tumanlari uchun kurash esa mazkur territoriya (Xo‘jand va O‘ratepa) 1866-yil Rossiyaga qo‘shib olingungacha davom etdi. Shunday qilib, XIX asrning 60-yillaridan boshlab, ya’ni Toshkent va Xo‘jand shaharlari ham Rossiyaga qo‘shib olinishi bilan Buxoro xonligi siyosiy hayotining inqirozli bosqichiga qadam qo‘ya boshladi.

Buxoro mamlakati, garchi, Rossiya davlati himoyasida bo‘lgan bo‘lsada, lekin u o‘zining yarim mustaqilligini (vassal) saqlab qolgan edi.

Amir Said Olimxonning “Buxoro xalqining hasratli tarixi” degan kitobida keltirilgan ushbu fikr ham buni tasdiqlaydi: “1868-yil Buxoro bilan Rusiya o‘rtasida tuzilgan qarorga binoan Rusiya fuqarolari Buxoro Amirligida soliq to‘lashdan ozod edi, lekin ular Buxoro bozorlarida o‘zlarining tijorat mollarini sotganlarida sotilganning yuzdan ikki yarim foizini Buxoro hukumatiga berishlari shart edi”.

Buxoro 1920-yildan o‘z erki, mustaqilligidan butunlay judo bo‘ldi. 1892-1903-yillarda Somoniylar tashabbusi bilan Buxoro poytaxt bo‘ldi va buyuk shaharlar qatoridan o‘rin oldi. To 1920-

yilga qadar Buxoroga alohida nazar bilan qaralib, ikkinchi Makka deb ta'riflanar edi. Sho'rolar hukumati Islom dunyosining Sharifi Buxoroni oddiygina "Buxoro"ga aylantirdi. Ushbu shahar balogardoni Bahovuddin qasrini otxona qildi.

Mustaqilligimiz tufayli Buxoro yana jahonga yuz tutdi, o'z mavqeini tikladi.

Bu ishlarning barchasi yurtimizdagi oqilona siyosat, hamda davlat rahbarining tadbirkorligi va fidoiyligi tufayli amalga oshdi.

Buxoro davlatining qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari, uning iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida sezilarli rol o'ynay boshladi. Ayniqsa, Rossiya bilan savdo munosabatlarining kengaya borishi madaniy hayotda ham oldingi asrlarga nisbatan siljish ro'y berishiga olib keldi.

Sho'ro davrida yaratilgan ayrim asarlarda Buxoro xonligidagi madaniy hayot haqida aytilgan ko'pgina bahstalab fikrlarni uchratish mumkin. Chunonchi, P.P. Ivanov ocherklarida: "Mang'it amirlari intellektual saviyasining pastligi diniy taassubning avj olishi va dunyoviy ilmlar hamda madaniyatning ba'zi bir tarmoqlarining keng rivoj topishiga monelik qilar edi",–degan edi. Yoki, Y.K.Meyendorfning "Mamlakat poytaxti bamisoli bir monastirni eslatadiki, u yerda diniy aqida va odatlarga amal qilinayotganligini nazorat qilib turish, go'yo hukumatning asosiy vazifasidek tuyuladi",–degan fikrlari keltiriladi.To'g'ri, o'z yurtdoshlarimizning ishlarida ham shunga yaqin fikrlar ko'plab uchraydi. Lekin ular, davr talabi bilan shunday ish tutishga majbur bo'lganlar. Biroq, o'zga millat vakili aytgan bu fikrlar Buxoro xalqi, qolaversa, Movaraunnahr xalqi uchun tahqir va haqoratdir. P.P Ivanov bilim saviyasi past, degan Buxoro amirlaridan biri Said Olimxon o'n uch yoshida barcha bilimlarni o'rganib bo'lib, 1893-yil Peterburgga o'qish va o'rganish uchun borib, yetti yilda o'zlashtirishi lozim bo'lgan dasturni uch yilda o'zlashtirib qaytgan edi. Yoki, Meyendorf nazarida monastirga o'xshatilgan Buxoro sho'rolar davrida o'rgimchak to'riga o'ralib qolgandek edi. Mana endi bu qobiqlar yakson qilinib, Buxoro jahonga yuz tutdi.

XIX asrning oxirlari va XX asrga kelib amirlikda iqtisodiy hayotning birmuncha yuksalishi madaniy hayotga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Ayniqsa, ilgarigi davrlarda shakllangan maktab va oliy ta'lim beruvchi madrasalar faoliyati bu davrda ancha yuksaldi. Boshlang'ich ta'lim beruvchi maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida mavjud bo'lib, bu maktablarda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, Qur'onning dastlabki oyatlari yodlatilgan. Shariatga oid dastlabki saboqlar berilgan.

XIX asr Buxoro va xonlikning boshqa shaharlarida bir qator madrasa, masjid va boshqa binolar qurilib, ularda xalq ustalarining yuksak zakovati o'z qirralari bilan namoyon bo'lgan. Bu davrda diniy ta'lim o'qitish sistemasida yetakchi o'rin tutardi. O'qish ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich maktab, ikkinchisi esa madrasalardan iborat edi. Ularda o'qish muddati qat'iy belgilanmagan. Agar maktab davri 6-15 yosh orasiga to'gri kelsa, madrasada o'qish davri har bir talabaning qobiliyatiga bog'liq holda, 8 yildan 15-20 yilgacha davom etardi. Madrasalarda musulmon dini va huquqi bilan birgalikda juda keng bilim berilgan, talab ham kuchli bo'lgan.

Madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud edi. Ularda o'qitish ilgarigi davrlarda bo'lganidek uch bosqichda: 1) past qadam; 2) miyona (o'rta) qadam; va 3) peshqadamda amalga oshirilib, yetti yil davom etgan. Madrasa o'qituvchilari – mudarrislar va boshqa xizmatchilar maoshlari, talabalar nafaqalari, kutubxona xarajatlari, ta'mirlash ishlari va boshqalarga ketadigan mablag'lar vaqf yerlaridan keladigan foyda hisobidan qoplangan. Madrasalar, odatda, hukmdorlar, amaldorlar, nufuzli shaxslar, yirik din peshvolari va savdogarlar tomonidan ko'p hollarda pishiq g'ishtdan ikki qavatli qilib qurilgan. Ularning birinchi qavatida masjid, qiroatxona va kutubxonalar, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar joylashgan.

Madrasa talabalari diniy bilim bo'lgan Qur'oni Karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot, tarix, falakkiyot, mantiq, falsafa, handasa, riyoziyot (matematika) kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham ta'lim olganlar. Shunga qaramasdan, bu davrda madrasalarda diniy-axloqiy ta'limga asosiy e'tibor qaratilib, dunyoviy ta'lim berish nisbatan orqada qolgan edi.

Bu davrda amirlikning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, G'uzor, Kattaqo'rg'on, Dehnov kabi ko'plab shaharlarida masjid va madrasalar bunyod etilgan. Buxorodagi Domullo Tursunjon madrasasi, Xudoydod me'moriy (masjid, madrasa va sardoba) majmuasi, Ernazar elchi mad-

rasasi, Qarshidagi Ali va Mir Muhammad madrasalari shular jumlasidandir. Undan tashqari shaharlarda ko‘plab ixtisoslashgan yopiq bozorlar, karvonsaroylar, hammomlar, yo‘llar bo‘ylarida sardobalar bunyod etilgan.

Biroq Ashtarxoniylar hukumronligi davridan boshlab ijtimoiy-madaniy hayot rivojining qudratli to‘sig‘iga aylangan diniy mutaassiblik mang‘itlar hukumronligi davrida yanada kuchaydi. Bu omil, birinchi navbatda, aniq va tabiiy fanlarning rivojlanishiga imkon bermadi. Chunki, diniy mutaassiblik namoyandalari bu fanlar sohasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan har qanday kashfiyotni Xudoning irodasiga shak keltirish deb hisoblardilar. Shuning uchun ham uch o‘zbek xonligida, jumladan, Buxoro amirligida aniq va tabiiy fanlar qisman rivojlanmadi. Shu tufayli, bu davrda asosiy asarlar tarix, adabiyot, san’at va me’morchilik sohasida yaratilganligi bejiz emas edi.

Buxoroning XIX asr birinchi yarmida ijod etgan tarixchi olimi Muhammad Yaqub ibn Doniyolbiy Buxoriy edi. U “Gulshan ul - muluk” (“Podshohlar gulshani”) degan asar yozib qoldirgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo‘lib birinchi qismi Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayoniga bag‘ishlangan; ikkinchi qismida esa Markaziy Osiyoning XIX va XX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan.

Shuningdek, XIX asrda yozilgan Mirzo Shams Buxoriyning “Bayoni ba’zi havodisoti Buxoro, Ho‘qand va Qoshg‘ar” (“Buxoro, Qo‘qon va Qoshg‘arning ayrim voqea hodisalari bayoni”) kitobi va Mir Olim Buxoriyning “Fathnomayi sultoniy” hamda Muhammad Hakimxonning “Yilnomalar to‘plami” asarlari tariximiz uchun muhim manbalar hisoblanadi.

Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarning ko‘pchiligi hukmron mang‘itlar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda o‘rta asrlar tarixnavisligidagi an’analar davom ettirilgani kuzatiladi. Amirlikda yashab o‘tgan ilm-fan namoyondalarining faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, ularning aksariyati tarixiy asarlar ham yaratganlar.

Quyidagi jadvalda shunday ijodkorlarning asarlari sanab o‘tilgan.

№	MUALLIFLAR	ASARLAR
1	Mullo Ibodullaning	“Tarixi amir Haydar”
2	Muhammad Sharifning	“Dostoni amironi mang‘it”
3	Mir Olim Buxoriy	“Fathnomayi sultoniy”
4	Mirzo Abdulazim Somiyning	“Tarixi salotini mang‘itiya” “Daxmayi shohon”
5	Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqiyning	“Toju tavorih”
6	Axmad Donishning	“Mang‘itlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha risola”
7	Mirzo Sodiq Munshiyning	“ Mang‘it hukmdorlari tarixi”

Ayni paytda, san’atning ko‘pgina sohalari ham rivojlandi. O‘z ajdodlari an’analarini puxta egallagan mohir me’mor, muhandis va naqqoshlar yetishib chiqdi. Nafis misgarlik va zargarlik buyumlari, ayniqsa, zar bilan naqshlangan liboslar tayyorlash ancha taraqqiy etdi. Kitobat ustalari va mohir xattotlar san’ati ham o‘ziga xos mavqega ega edi. Buxoroda xalq teatrining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lmish qiziqchilik yoki masxarabozlik ancha mashhur bo‘ldi. Amir huzuridagi ikkita hazzol ayrim qozi va oqsaqollarning poraxo‘rligi haqida ham hazil yo‘sinida tanqidiy gaplar ayta olar edilar. A.Donishning ma’lumotiga ko‘ra, Amir Muzaffar davridagi bayram marosimlarda qiziqchi–muqallidlar maxsus liboslarda eshaklarga teskari minib shahar a’yonlari huzurida ayrim qozi va raislarning hukm chiqarish usullarini kulgili qilib ijro etishgan. Barcha tantanali marosimlar, sayillar dorbozlar ishtirokisiz o‘tmagan.

Ayniqsa, Buxoroda xattotlik va miniatyura san’ati yaxshi rivojlangan edi. Bu davrda rassomlar asosan qo‘lyozmalarni naqshli bezash bilan shug‘ullanib, ko‘proq diniy mavzudagi kitoblarni bezata boshladilar. Bu sohaning qator yetuk bilimdonlari zamonasiga yarasha yodgorlik qoldirdilar. Chunonchi, shu davrda ijod qilgan Mir Mas’um Olamiyon “Axloqi Muhsiniy” kitobini hamda Sa’diyning she’riy asrlarini rasm bilan bezaydi.

Mir Sodiq Jondoriy esa qo‘lyozma kitoblarga lavhalar, Sa’diy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan. Qo‘lyozmalarni badiiy muqovalagan.

Yirik olim, faylasuf, shoir Ahmad Donish (1827-1897) 20 yil mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida xattot va rassom bo‘lib ishlagan.

Ahmad Donish astronomiya, tibbiyot, riyoziyot, ma’morchilik va musiqadan tashqari xattotlikni, rassomlik hamda rang berish san’atini ham o‘rgangan edi.

Ahmad Donish ko‘chirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo‘lyozmalar ichida “Shoh darvish” (1849), “Ajoyib at-tabaqot” (1847) va boshqa asarlar buning dalilidir.

Buxoroning musiqa san’ati qo‘shni xalqlarda ham mashhur bo‘lib, xususan maqom ustalarining mahorati boshqa o‘lkalar san’at muxlislarining ham e’tiborini qozongan. Xonlikda musiqa san’atining tarqalish ko‘lami va xususiyatlari masalasida ikki holat ko‘zga tashlanib turadi.

Xalq musiqasining tarqalishi asosan, qishloqlar hayoti bilan bog‘liq bo‘lsa, klassik musiqa – maqom bilan bog‘liq an’analar poytaxt Buxoroda markazlashgan edi. Natijada, Buxoro yuksak ustozona musiqa san’atining markazlaridan biri bo‘lgan.

Chunonchi, VIII asr oxirlarida Buxoroda vujudga kelgan “Shashmaqom” buning yorqin dalilidir.

Buxoro Shashmaqomi: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan iborat bo‘lib, 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan tashkil topgan.

Maqom ashulalarining she’riy matni uchun Rudakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur, Nodira va Mashrab singari turkiy va forsiy tilli mumtoz shoirlarning lirikasidan namunalar tanlangan. Shashmaqom og‘zaki tarzda Ustoz-shogird an’anasi shaklida avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

Buxoro xonligining katta hududidagi qabilalar orasida musiqa bilan bog‘liq ijrochilik–baxshilar san’ati nihoyatda mashhur bo‘lgan.

Talantli xalq ijrochi badihago‘ylari asrlardan–asrlarga o‘tib kelayotgan folklor an’analarini bu davrda ham davom ettirib, yanada boyitganlar.

Buxoroda mumtoz musiqa hamda ustoz hofizlar san’ati bilan bir qatorda, raqs, hikoyago‘ylik va har xil kitoblar o‘qish san’ati ham keng tarqalgan.

Buxoroning oxirgi amiri Said Olimxon madaniyat va ma’rifat borasida shunday xotirlab yozadi: “Buxoroyi sharif arkining yaqinida Boloyi havz deyilgan joyida o‘z nomimga - bir ibodatga masjid bino qildirdim. Buxoro minorasining past tomonida bozorning ichki tomonida o‘z nomimdan Dor ul-ulum – Bilim uyi bo‘lgan bir madrasa qurdirdim, har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechagi ham o‘z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim. Bozor va yo‘l obodligiga ko‘p harakat qildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo‘ldi, unga zeb-ziynat va tartib intizom o‘rnatdim”4.

Xulosa qilib aytganda, XIX-XX asr boshlaridagi Buxoro adabiy muhitining yorqin zabardast vakili, turkiy va fors-tojik tilida baravar qalam tebratgan mashhur shoir Abdurahmon Tamkin ijodi bu davr adabiyotining zullisonaynlikka asoslangan adabiyot maktabi ekanidan dalolat bera oladi. Shoir nomi mumtoz manbalarda salohiyatli hamda zullisonayn ijodkor maqomida tilga olingan. U o‘zbek, tojik, arab tillarida ijod qilgan.

XIX asr va XX asr boshlari Buxoro mamlakatida o‘zaro tala-to‘plar bo‘lgan bo‘lsada, shoiru fozillar yurti bo‘lmish Buxoroyi Sharif jahon ilm-fani va madaniyatiga yuzlab allomalarni yetishtirib bergan.

Bu allomalarning ko‘pchiligi haqida to‘liq yoki qisman ma’lumotga egamiz, lekin yana bir qancha shoiru fozillar borki, ular to‘g‘risida hatto tasavvurga ham ega emasmiz. XIX asr va XX asrning boshlarida ham Buxoro madaniyati taraqqiyot pog‘onalarida bo‘lgan. Buni adabiy muhit haqidagi fikrlarimiz ham tasdiqlaydi.

Mazkur maqolada Buxoro adabiy hayoti tojik-o‘zbek adabiy aloqalarining rivojlanishi bilan ham xarakterlanadi. I asrda o‘z ibtidosini boshlab, XVIII-XIX asrlarda keng quloch yoygan zullisonaynlik an’anasi XX asr boshlarida ham Buxoroda o‘z mavqeini saqlab qolgan edi.

Xoja Ismat Buxoriy, Mirzo Sodiq Munshiy, Vozeh, Savdo, Mirzo Azimi Somiy Bo‘stoniy, Hayrat, Sadri Ziyo, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Tamkin Buxoriy kabi ko‘plab forsiyzabon shoirlar turkiy tilda ham go‘zal misralar yaratib, har ikkala adabiyot ravnaqiga sezilarli hissa qo‘shganlari haqida ma’lumotlar bayon etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Toshkent, 1964.
2.Vohidov C. Buxoriylar bo‘stoni. – Buxoro: Yozuvchi, 1998. – B.137-138.
3.Xofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1-jild.
4.Axmad Donish. Daftari Musabbada. Dastnavisi ganjinai dastavisthoi sharqii. – AFRSS, O‘zbekiston.
5.Zohidov V. Mir idey i obrazov Alishera Navoi. – Toshkent, 1961.

Botirova Alfiya Zikir qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi.

OGAHIY “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDA KASB, LAVOZIM VA MANSAB NOM-LARINING ILMIY-TARIXIY TAHLILI.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asrning yirik tarixnavis, shoir va tarjimon adibi Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol” asarida uchraydigan kasb va lavozim otlari har tomonlama tahlil etiladi. Asar o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti, ma’muriy boshqaruv tizimi hamda davlat tuzilmasini yorituvchi muhim manba sifatida qadrlanadi. Unda Xiva xonligi davridagi turli toifa vakillari - saroy amaldorlari, harbiy mansabdorlar, diniy va fuqaroviy xizmat egalari nomlari o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Tadqiqotda ushbu kasb va lavozim otlari nafaqat tarixiy ma’lumot sifatida, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan - ularning semantik tuzilishi, ma’no qatlamlari, etimologik ildizlari va badiiy kontekstdagi qo‘llanish xususiyatlari jihatidan ham tahlil qilingan. Shuningdek, Ogahiyning til uslubi, tarixiy atamalarni badiiy nasrga singdirish mahorati, davr ruhini ifodalovchi leksik birliklardan foydalanish uslubi ham alohida o‘rganilgan. Maqola natijasida “Firdavs ul-iqbol” asarida uchraydigan kasb va lavozim nomlari faqatgina tarixiy hujjatli ma’lumot sifatida emas, balki adibning badiiy-estetik qarashlarini aks ettiruvchi, davr tafakkuri va ijtimoiy tuzumini yorituvchi muhim leksik birliklar sifatida baholangan.*

Kalit so‘zlar: *Ogahiy, Firdavs ul-iqbol, tarixnavislik, kasb nomlari, lavozim nomlari, mansab nomlari, ijtimoiy-siyosiy tizim, XIX asr Xiva xonligi, tarixiy terminologiya, adabiy-tarixiy tahlil.*

SCIENTIFIC AND HISTORICAL ANALYSIS OF THE NAMES OF PROFESSIONS, POSITIONS, AND RANKS IN OGAHIY’S WORK “FIRDAVS UL-IQBOL”

Annotation. *This article provides a comprehensive analysis of the professional and administrative titles found in “Firdavs ul-iqbol”, a historical work written by the prominent 19th-century historian, poet, and translator Muhammad Rizo Ogahiy. The work is considered an important historical source that reflects the socio-political structure, administrative hierarchy, and cultural life of the Khiva Khanate. It contains numerous references to various social groups, including court officials, military leaders, religious figures, and civil servants, whose titles vividly illustrate the state system of the time. The study examines these occupational and administrative names not only from a historical perspective but also from a linguistic one, analyzing their semantic structure, etymological origins, and artistic usage within the text. Moreover, Ogahiy’s linguistic mastery, his skill in incorporating historical terminology into artistic prose, and his ability to reflect the spirit of the era through lexical choice are thoroughly explored.The results show that the professional and administrative titles used in “Firdavs ul-iqbol” serve not only as documentary evidence but also as artistic and cultural elements that reveal the author’s worldview and the intellectual context of his time.*

Key words: *Ogahiy, Firdavs ul-iqbol, historiography, occupational titles, administrative positions, ranks and titles, socio-political system, 19th-century Khiva Khanate, historical terminology, literary-historical analysis.*

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ПРОФЕССИЙ, ДОЛЖНОСТЕЙ И ЗВАНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ОГАХИЙ «ФИРДАВС УЛ-ИКБОЛ»

Аннотация. *В данной статье всесторонне анализируются профессиональные и административные наименования, встречающиеся в произведении «Фирдавс ул-икбол», принадлежащем перу выдающегося историка, поэта и переводчика XIX века Мухаммад Ризо Огахий. Это произведение рассматривается как важный исторический источник, отражающий социально-политическую структуру, административную систему и культурную жизнь Хивинского ханства. В тексте широко употребляются различные термины, обозначающие придворных чиновников, военных начальников, духовных лиц и гражданских служащих. В исследовании данные лексические единицы рассматриваются не только с исторической, но и с*

лингвистической точки зрения - анализируются их семантическая структура, этимология и особенности художественного употребления. Особое внимание уделено языковому мастерству Огахий, его умению органично включать исторические термины в художественную прозу и передавать дух эпохи посредством точного выбора слов. В результате выявлено, что профессиональные и должностные наименования в «Фирдавс ул-икбол» выступают не только в качестве историко-документальных сведений, но и как важные художественно-эстетические средства, отражающие мировоззрение автора и культурно-исторический контекст его времени.

Ключевые слова: *Огахий, «Фирдавс уль-икбол», историография, названия профессий, названия должностей, названия титулов, социально-политическая система, Хивинское ханство XIX века, историческая терминология, литературно-исторический анализ.*

Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari o‘zbek tarixshunosligining yuksak namunalaridan biri bo‘lib, unda Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy, harbiy va ma’muriy tizimi keng yoritilgan. Muallif tarixiy shaxslar, janglar, siyosiy voqealar bilan birga, o‘sha davrdagi turli lavozim egalari, kasb sohiblari nomini aniq tilga olib, ularning faoliyatini ochib beradi. Bu esa bizga XIX asrning ijtimoiy strukturasini o‘rganish imkonini beradi. Munis Abdug‘ozixon taxtga o‘tirgandan so‘ng 160 kishiga amal berganligi haqida aytib o‘tadi. “… Va Abdulazizxon Buxoro taxtiga o‘lturg‘ondan so‘ng Abdulg‘ozixon yana cherik tortib, Xivag‘a kirib, turkmanni mag‘lub u maqhur qildi. Va o‘zbakdan uch yuz oltish kishiga amal berdi. Alarning o‘ttiz ikkisiga o‘z yonidan o‘run berdi. Andoqkim, ikki shayhulislom, ikki qozi, bir rais, Sayyid ota avlodidin bit mutavalli, bir naqib, to‘rt otaliq, to‘rt inoq, to‘rt mirob, to‘rt biy, bir parvonachi, ikki oqo, ikki arbob, to‘rt chig‘atoy inog‘I va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qushbegi ” (91-bet). Maqolada lingvistik tahlil, qiyosiy tarixiy yondashuv va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Asardan kasb va mansab otlari ajratib olindi, ularning etimologiyasi, tarixiy vazifasi va semantik yuklamasi izohlandi.

Davlat va boshqaruv tuzilmasiga oid kasb otlari

Davlat tizimi yuqori pog‘onadagi amir, vazir, devonbegi, mehtar kabi lavozimlardan tashkil topgan. "Amir" so‘zi arabcha kelib chiqishga ega bo‘lib, “buyruq beruvchi” ma’nosini bildiradi va harbiy yurishlar boshlig‘i sifatida ko‘rsatiladi: Firdavs ul-iqbolda bu lavozim ko‘pincha harbiy va siyosiy rahbarlik darajasini bildiradi: “Abg‘unxon ham eshitib, amir Tag‘ochor ibn Qabu Buqoni sakson ming kishi bila Eron ustig‘a yubordi...”. Vazir esa davlat boshqaruvida eng yuqori darajadagi amaldor. Vazir odatda xon yoki sultonning eng yaqin maslahatchisi, davlat ishlari, moliya, tashqi siyosat va ma’muriy ishlarni boshqaruvchi bo‘lgan. Firdavs ul-iqbolda vazirlar diplomatik va siyosiy voqealarda muhim rol o‘ynaydi.

Otaliq lavozimi esa yosh shahzodaning tarbiyachisi, amalda esa yosh hukmdor nomidan davlatni boshqargan siyosiy figura:“Ul chog‘da Bekp‘lod otaliqning tadbiri bila faqirning volidi buzurgvori…...”(154 bet).

Darug‘a shahar hokimlari sifatida tilga olinadi. Xiva xonligida bu unvon keyinchalik mirshablar boshlig‘iga ham nisbatan ishlatilgan. Ogahiy: “Abdullatif dorug‘a maysara sipohidin uch yuz kishi olib…” (59-bet), deb yozar ekan, bu mansab davlatning iqtisodiy va moliyaviy intizomini ta’minlovchi muhim bo‘g‘in ekanini ko‘rsatadi. Darug‘alar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan lavozimlardan biri - munshiydir. Munshiylar davlat yozishmalari, farmon va hujjatlarni rasmiylashtirgan kotiblar bo‘lgan. Asarda bu holat “Munshiy Husaynquli farmonni xatnavislik qildi” misolida aniq ifodalangan. Bu lavozim Ogahiyning o‘zi xizmat qilgan devon munshiligi kasbi bilan ham bevosita aloqador. Boshqaruv tizimining yuqori pog‘onasida esa qushbegilar turadi. Ular xon saroyidagi eng yirik amaldorlar bo‘lib, ba’zida vazir yoki amir ul-umaro darajasiga ko‘tarilgan. Ogahiy: “Do‘ston qushbegi naboiridin Sayyidnazar bekka qazo o‘qi tegib…” (154-bet), deb yozadi. Bu lavozim egalari davlat siyosatining muhim ishtirokchilari bo‘lgan. Ularning o‘rinbosarlari yoki vakillari sifatida noyiblar tilga olinadi. “O‘g‘li Kuyukxonni o‘rnida noyibi manob qilib…” (53-bet) misoli shundan dalolat beradi. Noyiblar yuqori mansabdorlarning ishlarini davom ettiruvchi, muovin sifatida faoliyat yuritgan. Davlatning harbiy tizimida no‘yonlar alohida o‘rin tutgan. Mo‘g‘ulcha kelib chiqishga ega bo‘lgan bu so‘z “sarkarda” yoki “hokim” ma’nosini bildiradi. Ogahiyda: “O‘tchikan no‘yon

bila Botuxon ibn Jo‘jixong‘akim…” (73-bet) shaklida uchraydi. Boshqaruv tizimi faqat saroy amaldorlari bilan chegaralanmagan. Mahalliy darajada rais, kadxudo va arbob kabi lavozimlar mavjud bo‘lgan. Rais - “boshliq” ma’nosida, ko‘pincha jamoa yoki mahalla rahbari sifatida ishlatilgan. Kadxudo esa qishloq yoki mahalla ichki boshqaruvini ta’minlagan: “Pahlobonniyoz bekni taka kadxudolarig‘a qo‘shib, zakotgirlikka yubordi” (413-bet). Arbob esa urug‘ yoki qabila oqsoqoli sifatida ijtimoiy nufuzga ega bo‘lgan. Ogahiy “ikki oqo, ikki arbob…” deb yozish orqali jamiyatdagi tabaqaviy tuzilmani ham ko‘rsatadi. Saroy muhitida esa devonbegi, mehtar, parvonachi, inoq, kenagas kabi unvonlar muhim o‘rin tutgan. Devonbegi - bosh vazir darajasidagi amaldor bo‘lib, davlatning moliya va idoraviy ishlarini yuritgan: “Niyozmuhammad devonbegikim, asari taaidi subhoniy…” (392-bet). Mehtar esa “ulug‘” ma’nosida ishlatilgan bo‘lib, eng yirik amaldorlardan biri hisoblangan: “Muhammad Yusuf mehtar saqollohu saohuni tayin qilib…” (395-bet). Parvonachi esa saroyda xon huzuriga kirib chiqish bilan shug‘ullanuvchi amaldor edi: “Qalandar parvonachini ma’zul etib, Jahongir bekni parvonachilik mansabi bila mumtoz qildi” (409-bet).Shuningdek, xonning yaqin maslahatchilari orasida inoqlar va kenagaslar muhim rol o‘ynagan. “Muhammadamin inoq bu hodisadin xabar topib…” (153-bet) degan jumla inoqning sadoqatli maslahatchi sifatidagi maqomini ko‘rsatadi. “Davlatnazar yuzboshi valadi O‘rinboy va Sulton kenagas…” (388-bet) esa hukmdor kengashining faoliyatidan dalolat beradi.Harbiy va siyosiy unvonlar orasida amiri kabir alohida mavqega ega bo‘lib, yirik amirlar va qo‘mondonlar uchun ishlatilgan: “Dushanba kuni amiri kabir Qutlug‘murod inoqning tug‘masi Ismoil…” (435-bet).Xon oilasiga yaqin, hurmatli shaxslar esa o‘qo (aqo) deb atalgan. “O‘g‘uzxon otasidin so‘ng oqo va ini ittifoqi bila podshohliq taxtida o‘ltirib…” (58-bet) misolida bu unvon xonlik oilasiga yaqin zodagonlar uchun ishlatilgani ko‘rinadi.

Diniy va huquqiy kasblar-Ogahiy asarida diniy mansablar ham alohida o‘rin tutadi. Qozi- islomiy huquq, shariat asosida adolatli hukm chiqaruvchi sud organi rahbari bo‘lgan. Uning faoliyati diniy qonunlarga asoslangan. Ogahiy bu lavozimni ko‘pincha “shar’iy adolat mezoni” sifatida tilga oladi. Masalan, qozi hukmlari orqali xalq orasida adolat qaror topganini tasvirlaydi. “Alarning o‘ttiz ikkisiga o‘z yonidan o‘run berdi. Andoqkim, ikki shayhulislom, ikki qozi, bir rais”(91-bet) Shuningdek, mufti, mutavalli, naqib, voliy, qori kabi diniy lavozimlar islomiy jamiyatning ma’naviy hayotini ifodalaydi. Ularning barchasi diniy va huquqiy muhitning uzviy qismini tashkil etgan. Masalan, mutavalli vaqf mulklariga mas’ul shaxs bo‘lib, madrasa yoki masjid ishlarini boshqargan.“Doniyor qori imom bo ‘lib, Hoji qori va Muhammad sharif qori va Eshtemir qori va g ‘;ayrihum some’ bo ‘ldilar” (411-bet) “Quttixo ‘ja ibn Bobo devonini shayxulislomliq mansabi bila mumtoz qildi.” (426-bet)“Burung‘i kecha Abdurahim mufti intiqol qildi… ”(411-bet)

“Bekish mutavalli va o‘g‘li Avazdurdi sardor erdilar” (463-bet) kabi o‘rinlarda mansab nomlaring yuqori bo‘lgan.

“Firdavs ul-iqbol” asarida Xiva xonligi harbiy tuzilmasi aniq aks ettirilgan bo‘lib, unda sarkardalikdan tortib, kichik harbiy bo‘linmalar boshliqlarigacha bo‘lgan unvon va lavozimlar tilga olinadi. Bu kasb otalari nafaqat harbiy tizimning ierarxiyasini, balki o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini ham ko‘rsatadi. Asarda sardor unvoni eng ko‘p uchraydigan harbiy lavozimlardan biri sifatida qayd etiladi. U odatda qo‘shin boshlig‘i yoki urug‘ yetakchisi sifatida tasvirlanadi. Ogahiy “Qaqa sardorkim, bu xonvodai aliyaning do‘stdor va xizmatkori erdi” (199, 389-betlar) deb yozadi. Bu lavozim egasining nafaqat harbiy, balki siyosiy jihatdan ham muhim mavqega ega bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Sardordan keyingi darajada yuzboshi mansabi turadi. U har yuz nafar askar uchun mas’ul bo‘lgan va ularning harbiy tayyorgarligi, intizomi uchun javob bergan. “Muhammadquli bekkim, yuzboshilik mansabi bila mumtoz erdi” (465-bet) degan jumla bu lavozimning obro‘li va mas’uliyatli ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, Ogahiy beklarbegi lavozimini ham qayd etadi. U viloyat yoki yirik tumanlarning harbiy-ma’muriy rahbari bo‘lgan. “Mustafoxon beglarbegi va Farahullohxon…” (418-bet) kabi misollar bu unvonning davlat tuzilmasida yuqori pog‘onada turganini ko‘rsatadi. Kichikroq harbiy bo‘linmalarga o‘nbegi boshchilik qilgan. U o‘n nafar askar uchun javobgar bo‘lgan: “Avoja o‘nbegining elini ko‘churmakka nomzod qildi” (419-bet). Ushbu tizim Xiva xonligining harbiy tuzilmasida qat’iy tartib va intizom mavjud bo‘lganini bildiradi. Mergan atamasi esa o‘q otishni mohirlik

bilan bajargan kishilarga nisbatan qo‘llangan. “Otaniyoz mergan va Sunbor sardor…” (421-bet) misolida ko‘ringanidek, merganlar jang maydonlarida ham, ovchilikda ham mahorat bilan tanilgan kishilar bo‘lgan.

Shuningdek, Ogahiy asarda chapovul so‘zini ham ishlatadi. U tezkor yurishlarda dushmandan talon-taroj yo‘li bilan olinadigan o‘lja yoki shu ishni bajaruvchi maxsus harbiy guruhni bildiradi. “Soat sardor va Xolniyoz yuzboshining chapovuli…” (440, 450-betlar) kabi misollar bu harbiy taktikani ifodalaydi. Harbiy tizimdagi yuqori unvonlardan yana biri yasavulboshi bo‘lib, bu shaxs harbiy-saroy marosimlari va xavfsizlikni nazorat qilgan. Ogahiy yozadi: “Qurbonniyoz mahram yasavulboshi mulozimatg‘a yettilar” (440-bet). Mazkur mansab Oltin O‘rda va Temuriylar davridan boshlab Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lib, Xiva xonligi davrida ham saroy tartib-intizomini saqlashda muhim o‘rin tutgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va xo‘jalik kasblari Xiva xonligi siyosiy jihatdan harbiy kuchga tayanib faoliyat yuritgan davlat bo‘lgan. Shu sababli asarda yuzboshi, o‘nbegi, beklarbegi, yasavulboshi kabi lavozimlar tez-tez uchraydi. Sardor harbiy qo‘mondon, yuzboshi esa yuz kishilik askar bo‘linmasi boshlig‘i sifatida qayd etiladi.

Ogahiy bu unvonlarni harbiy tartib va intizom timsoli sifatida tasvirlaydi: “Muhammadquli bek yuzboshilik mansabi bila mumtoz erdi.” (465-bet). Yasavulboshi esa saroy marosimlari va xavfsizlik tizimini boshqargan yuqori martabali mansabdor bo‘lgan. Mirob – suv taqsimoti tizimida mas’ul mansab egasi bo‘lib asarda keng o‘rin berilgan. “…yakshanba kechasi faqirning volidi buzrukvori Avaz mirob ibn Shermuhammad mirob ibn Eshim biy mirob… ” (181-bet)

Ogahiy Firdavs ul-iqbol asarida kasb otlarini nafaqat ijtimoiy vazifalarni belgilash vositasi sifatida, balki tarixiy kontekstni ifodalovchi leksik birliklar sifatida mahorat bilan qo ‘llaydi. Davlat lavozimlari, diniy va harbiy institutlarga oid kasb otlari orqali u Xiva xonligi siyosiy tuzilmasini yoritadi. Ayni paytda, oddiy xalq kasblari tasviri orqali u davrning iqtisodiy hayoti, hunarmandchiligi va xalq turmushi ham aks ettirilgan.

Kasb otlari semantik jihatdan turli qatlamlarga bo‘linadi va har biri matndagi o‘ziga xos stilistik yuklamaga ega. Shuning uchun bu turdagi leksik birliklar Firdavs ul-iqbolni tarixiy va tilshunoslik jihatidan o‘rganishda muhim manba sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ogahiy, Firdavs ul-iqbol, nashr: Yangi asr avlodi, Toshkent, 2010.
2. Sultonov, K. “O‘zbek tarixiy asarlari tilining leksik boyligi”, Toshkent, 2005.
3. N. “Qo‘qon xonligi: siyosiy tarix va ijtimoiy tuzum”, Toshkent, 2014
4. Jo ‘raev A. Ogahiy tarixnavislik mahorati. - Toshkent: O ‘zbekiston, 2002.
5. Karimov M. Turkiy adabiyot tili va tarixiy yondashuv. - Samarqand, 2015.
6. Bartold V.V. Turkistanning madaniyati va tarixi. - Toshkent, 1992.
7. Muhammad Salih. Xiva xonligi devonlari. - Xiva, 2010.

Аннаева Лола Расуловна
Старший - преподаватель Университет экономики и педагогики
Кафедры русского языка и литературы

ТВОРЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ, ВОПРОСЫ ВЗАИМОВЛИЯНИЯ И МАСТЕРСТВА В РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ КОРОТКИХ РАССКАЗАХ (ДРАББЛ, НОВЕЛЛА)

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности творческой концепции и художественного мастерства в русской и узбекской малой прозе. Особое внимание уделено жанровой природе короткого рассказа - драббла и новеллы - как формам художественной концентрации. Сопоставительный анализ произведений А. П. Чехова и Саломат Вафо позволяет выявить точки пересечения двух литературных традиций: европейского аналитизма и восточной интуитивности. Автор приходит к выводу, что краткость в обеих литературах становится философией художественного мышления: в лаконизме формы проявляется глубина смысла, а в паузе - выражение внутреннего мира. Работа основана на структурно-семиотическом и сравнительно-типологическом анализе текстов.*

Ключевые слова: *короткий рассказ, драббл, новелла, лаконизм, художественное мастерство, поэтика молчания, Саломат Вафо, Чехов, межкультурный диалог.*

IJODIY KONTSEPTSIYA, O‘ZARO TA’SIR VA MAHORAT MASALALARI RUS VA O‘ZBEK QISQA HIKOYALARIDA (DRABBLE, NOVELLA)

Annotatsiya. *Maqolada rus va o‘zbek adabiyotidagi kichik janr - qisqa hikoya, drabble va novella shakllarining ijodiy konsepsiyasi hamda badiiy mahorati tahlil qilinadi. Tadqiqot A. P. Chexov va Salomat Vafo asarlari misolida olib borilib, ikki adabiy maktab - Yevropa analitizmi va Sharq intuitivligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. Muallifning fikricha, har ikkala adabiyotda qisqalik estetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi: shaklning ixchamligi mazmunning chuqurligini ochadi, sukunat esa inson qalbining ichki tovushiga aylanadi. Tadqiqot struktur-semiotik va qiyosiy-tipologik yondashuvlarga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *qisqa hikoya, drabble, novella, lakonizm, badiiy mahorat, sukunat poetikasi, Salomat Vafo, Chexov, madaniyatlararo muloqot.*

CREATIVE CONCEPT, INTERINFLUENCE AND MASTERY IN RUSSIAN AND UZBEK SHORT STORIES (DRABBLE AND NOVELLA)

Abstract. *The article examines the creative concept and artistic mastery in Russian and Uzbek short prose, focusing on the genre nature of the drabble and the novella as forms of artistic concentration. Through a comparative analysis of Anton Chekhov’s and Salomat Vafo’s short stories, the paper identifies intersections between two literary traditions - European analytical realism and Eastern intuition. It is argued that brevity in both literatures represents a philosophy of artistic thought: the conciseness of form reveals the depth of meaning, while silence becomes an expressive medium of the inner world. The research is based on structural-semiotic and comparative-typological approaches.*

Key words: *short story, drabble, novella, brevity, artistic mastery, poetics of silence, Salomat Vafo, Chekhov, intercultural dialogue.*

Введение. Современная литература активно обращается к малым жанровым формам - миниатюрам, драббламм, новеллам, коротким рассказам. Эти жанры, возникшие на стыке классической традиции и цифровой эпохи, позволяют автору выразить предельную концентрацию мысли и эмоции в минимальном текстовом объёме. В коротком рассказе каждое слово выполняет смысловую функцию, каждый штрих формирует эмоциональную атмосферу, а пауза или недосказанность становятся самостоятельным художественным приёмом.

Интерес к короткой форме не случаен: в эпоху ускоренного темпа восприятия мира короткий рассказ отвечает эстетическим и когнитивным ожиданиям современного читателя. При этом сохраняется глубинная философская и психологическая наполненность, свойственная классической литературе.

Для русской традиции жанр рассказа имеет устойчивую позицию - от Пушкина и Гоголя до Чехова, Бунина, Шукшина. Именно в краткости формы русские писатели видели возможность точнее передать психологическую деталь, внутренний поворот или момент прозрения героя. Узбекская проза, напротив, пришла к короткой форме относительно поздно - в XX веке, особенно в постсоветский период, когда усилилась тенденция к экспериментам, символизму и психологизму в малых жанрах [1, с. 17].

Сопоставление русской и узбекской короткой прозы позволяет рассматривать не только формальные сходства жанров (драббл, новелла, миниатюра), но и вопросы творческой концепции, художественного мастерства и межкультурного влияния. Взаимодействие русской литературной школы и узбекской традиции образного мышления породило уникальный феномен гибридной короткой прозы, в которой пересекаются европейская техника композиции и восточная символика.

Литература и методология исследования

Исследование короткой прозы требует комплексного подхода, объединяющего литературоведческий, культурологический и сравнительно-типологический анализ. Вопросы жанровой специфики малых форм рассматривались в трудах таких теоретиков, как В. Б. Шкловский, Б. М. Эйхенбаум, Ю. Н. Тынянов, М. М. Бахтин, Ю. М. Лотман, Р. Барт, Г. Генетт.

Эйхенбаум отмечал, что рассказ как форма отличается «внутренней завершённостью, при внешней незамкнутости сюжета» [2, с. 47], а его функция заключается не в передаче фабулы, а в создании эстетического впечатления. Бахтин, рассматривая принципы хронотопа, подчёркивал, что в малой форме пространство и время концентрируются, превращаясь в смысловую «точку» - момент встречи героя с истиной [3, с. 96].

В современном литературоведении малые жанры исследуются с позиций поэтики минимализма, где ценится лаконизм, многозначность, семантическая плотность. Краткость текста требует от автора особой художественной дисциплины и «сгущённой» формы мышления, что делает мини-прозу удобным объектом для изучения творческого мастерства [4, с. 21].

Русская традиция короткого рассказа анализируется в многочисленных работах, посвящённых творчеству А. П. Чехова, И. А. Бунина, В. М. Шукшина. Особое внимание уделяется «чеховской модели» повествования - без кульминационного конфликта, но с внутренним напряжением и психологической точностью [5, с. 53]. Чеховский принцип «показывать, а не объяснять» стал эталоном для последующих поколений новеллистов не только в России, но и за её пределами.

Для узбекской литературы развитие короткой формы связывается с процессами модернизации и культурного диалога с русской и западноевропейской литературой. Исследователи отмечают, что именно во второй половине XX века мини-проза становится лабораторией художественных экспериментов - от психологической миниатюры до философской притчи [6, с. 44].

В статьях С. Рахматуллаева, А. Дадабаева, М. Йўлдошевой и других узбекских литературоведов подчеркивается, что узбекская короткая проза вобрала в себя особенности народной устной традиции (мақол, ҳикоят, масал) и при этом испытала влияние русской повествовательной школы [7, с. 112].

Современные исследования фиксируют появление нового поколения узбекских авторов - таких как Саломат Вафо, Шоира Эргашева, Алишер Норматов, - которые экспериментируют с драббл и микроновеллой как с универсальным языком выражения внутреннего состояния человека в глобализирующемся мире [8, с. 58].

Таким образом, современная научная традиция демонстрирует интерес к малым жанрам как к пространству межкультурного диалога. Анализ русской и узбекской мини-прозы позволяет выявить не только сходные приёмы, но и разные культурные коды, проявляющиеся в художественном минимализме, символике и авторском мироощущении.

Методологическая основа данной работы строится на сочетании нескольких подходов, позволяющих рассмотреть малую прозу в её жанровом, семиотическом и культурном измерении. Исследование опирается на принципы сравнительно-типологического, структурно-семиотического и поэтического анализа, каждый из которых раскрывает определённый аспект художественной системы короткого рассказа.

Прежде всего, в центре внимания оказывается **сравнительно-типологический подход**, с помощью которого возможно сопоставить произведения русских и узбекских авторов, выявить между ними как общие закономерности, так и индивидуальные черты. Этот метод даёт возможность проследить переклички и различия в эстетике, композиции и стиле, увидеть, каким образом лаконичность, символичность и приём недосказанности формируют выразительную основу малых жанров. Важно отметить, что сопоставление проводится не по принципу формального сходства, а через призму культурных и ментальных особенностей, определяющих авторское мировидение.

Следующим компонентом методологии становится **структурно-семиотический анализ**, ориентированный на восприятие текста как системы взаимосвязанных знаков. Согласно Ю. М. Лотману, художественное произведение представляет собой «вторичную моделирующую систему», в которой каждый элемент значим не изолированно, а в контексте целого [9, с. 132]. В жанре мини-прозы это свойство проявляется особенно отчётливо: смысловая нагрузка концентрируется в минимальном объёме, а каждый знак - будь то слово, образ, пауза или ритмическое деление - становится смысловым центром текста. Такой подход позволяет рассматривать короткий рассказ как структурно уплотнённое, семантически насыщенное целое, где лаконизм - не простота, а высшая форма организации.

Не менее важен в данном исследовании и **поэтический анализ**, направленный на выявление художественных средств, формирующих эстетическое своеобразие короткой формы. Здесь внимание сосредоточено на метафорике, символике, синтаксических инверсиях, ритмических повторах, паузах и других приёмах, создающих «внутреннюю музыку» текста. Именно в поэтических деталях раскрывается мастерство автора, его способность управлять вниманием читателя, ритмом восприятия и эмоциональным напряжением.

Отдельное место занимает **психолингвистический аспект**, позволяющий глубже понять природу внутренней речи и эмоционального кода мини-прозы. В коротком рассказе персонажи часто не высказывают свои чувства напрямую; автор передаёт внутренние состояния через детали, жесты, паузы, ассоциативные ряды. Такой подход даёт возможность рассмотреть текст как отражение не только внешнего, но и внутреннего мира - как результат речемыслительного процесса, где эмоция и мысль слиты воедино.

Неотъемлемым компонентом методологии становится и **культурно-контекстуальный анализ**, позволяющий соотнести художественные решения с национальными образами мира, религиозными представлениями и этнокультурными символами. Русская и узбекская литературы принадлежат к разным художественным традициям, и именно через культурные контексты можно понять, почему в одних текстах символ тишины трактуется как внутренний покой, а в других - как признак утраты или духовного молчания.

Практическая часть исследования строится на анализе творчества **Антона Павловича Чехова** и **Саломат Вафо** - двух авторов, разделённых эпохой и культурой, но удивительно близких по художественному мышлению. Чехов, являясь классиком русской малой прозы, сформировал принципы лаконизма, психологической точности, внутреннего конфликта и «открытого финала», когда читателю предлагается не вывод, а размышление. Саломат Вафо, представительница современной узбекской литературы, творчески осмысляет эти же приёмы через призму восточной чувствительности, сочетая символику и эмоциональность с чёткой структурной дисциплиной драббла.

Такое сопоставление позволяет проследить, как в разных культурных системах сходные принципы художественного мышления обретают новые интонации: в одном случае - через психологический подтекст и иронию, в другом - через метафору, духовную тишину и внутренний монолог. В обоих случаях малый объём текста не ограничивает, а, напротив, усиливает выразительность, превращая краткость в особую форму глубины.

Таким образом, выбранная методология направлена на то, чтобы увидеть короткий рассказ не как простую жанровую единицу, а как сложную художественную структуру, где взаимодействуют культура, язык, мышление и творческая интенция автора.

Основная часть

Малая проза - особое пространство художественного эксперимента, где ограниченность формы становится условием выразительности. В отличие от романа или повести, короткий рассказ строится не на развертывании событий, а на моменте, напряжении, ощущении. Чехов определял рассказ как «мгновение жизни, схваченное в движении» [10, с. 63]. Эта формула сохраняет актуальность и в XXI веке, когда краткость текста стала эстетическим и психологическим вызовом.

Современная типология коротких форм различает несколько разновидностей: *миниатюра*, *новелла*, *драббл*, *флеш-фикшн* и *микрорассказ*.

- Новелла традиционно отличается сюжетной завершённостью и эффектом неожиданной развязки, что восходит к античной и итальянской традиции (Боккаччо, Сервантес).
- Драббл - современная форма, ограниченная по объёму (чаще всего до 100 слов), но обладающая законченностью смысла.
- Миниатюра нередко тяготеет к лирическому повествованию, к описанию состояния или настроения.

Для русской литературы ключевым остаётся «чеховский тип» рассказа - открытая композиция, минимализм фабулы, отсутствие морализирующего вывода. В его текстах события не завершаются, они *остаются в сознании* героя, превращаясь в внутренний диалог. Короткий рассказ становится пространством психологической паузы - моментом, когда герой осознаёт, что жизнь изменилась, хотя внешне ничего не произошло.

Узбекская литературная традиция развивала краткие формы по иной траектории. Истоки краткости - в фольклоре: в пословицах (мақол), притчах (ҳикоят), мудрых изречениях суфиев. Уже в классической поэзии (Навоий, Бабур) краткость мысли и образа рассматривалась как знак совершенства. В XX веке, под влиянием русской школы и советской эстетики, узбекская проза перенимает европейские модели сюжета, но сохраняет восточную внутреннюю медитативность.

Современные узбекские авторы, такие как Саломат Вафо, Нодира Норматова, Шоира Эргашева, стремятся соединить европейскую структуру рассказа с восточной философией умолчания. Для них важна пауза как смысл, тишина как действие, молчание как слово. Это сближает узбекскую мини-прозу с японским хайку или суфийской притчей, но придаёт ей психологическую глубину, свойственную чеховской традиции [11, с. 79].

Таким образом, драббл и новелла, несмотря на разные истоки, объединяются одной задачей - передать максимум содержания при минимуме формы. Художественный эффект достигается за счёт композиционной сжатости, внутреннего контраста, символического кода и «дыхания между строк».

В этом смысле малая проза выступает как универсальный жанровый язык, способный соединять культурные миры. Русская и узбекская мини-проза демонстрируют, что ограниченность словарного объёма не препятствует, а напротив, усиливает выразительность, превращая короткий рассказ в модель концентрированного художественного мышления.

Понятие *художественного мастерства* в малой форме приобретает особое значение. Если в романе автор может позволить себе медленное развитие и многоплановость образов, то в коротком рассказе любое избыточное слово разрушает композиционное равновесие. Мастерство здесь проявляется в точности, выборе деталей, ритме и паузе.

Как отмечал Б. М. Эйхенбаум, «искусство рассказа состоит в способности автора выбрать одну деталь, в которой заключено всё» [12, с. 51]. Эта формула особенно точно отражает суть малой формы: рассказ живёт не описанием, а *намёком*.

В мини-прозе смысл часто скрыт в одной фразе, жесте или образе. Например, в чеховском рассказе «Смерть чиновника» микросюжет строится на случайном чихании, превращённом в трагикомедию судьбы. Одна микродеталь (чих) становится символом человеческого страха и зависимости. Подобные приёмы экономии выражения характерны для всей русской школы короткого рассказа, где предметная точность соединена с метафизическим подтекстом.

Узбекская короткая проза использует тот же приём, но придаёт ему иной оттенок: деталь становится символом духовного состояния. В рассказах Саломат Вафо образы *письма*, *птицы*, *ветра*, *зеркала* часто несут внутренний смысл - ожидание, покой, разлуку, тишину. Маленькое действие («птица замолчала у окна») оборачивается эмоциональной метафорой утраты. Таким образом, в узбекской мини-прозе деталь не просто часть сюжета, а знак внутреннего мира [13, с. 65].

Один из важнейших приёмов мастерства - пауза. В малой форме она играет роль не меньше, чем слово. Чехов писал: «Когда пишешь - вычёркивай до тех пор, пока не станет ясно без слов». Пауза создаёт «зону молчания», где читатель становится соавтором. Недосказанность, вместо того чтобы скрывать, раскрывает.

Узбекские авторы нередко используют этот приём для создания медитативного эффекта: текст как бы замедляется, растворяется в дыхании тишины. Вафо мастерски применяет этот принцип - в её рассказах *тишина* становится персонажем, а не просто состоянием. Так пауза превращается в самостоятельный элемент поэтики, создающий ощущение внутреннего ритма и эмоционального резонанса.

Мини-проза невозможна без символа. Если роман развивает метафору, то драббл ею *живёт*. Символические ряды у русских и узбекских авторов часто пересекаются, но различаются по культурному коду.

- В русской традиции (Чехов, Бунин) символика чаще бытовая: *поезд, окно, дождь, дорога, часы* - образы ожидания и времени.
- В узбекской - природно-мистическая: *ветер, пустыня, тень, птица, вода* - знаки перехода, судьбы, внутреннего пути.

Символика служит не украшением, а способом внутренней драматургии. В рассказе Вафо «Сўнгги қадам» («Последний шаг») героиня стоит на пороге дома, слушает ветер - и этот ветер становится метафорой ухода и очищения. В одной сцене соединяются движение, внутренний поворот и философский смысл [14, с. 41].

Короткий рассказ имеет чёткую архитектуру: *начало - перелом - пауза*. У Чехова это выражено через психологический скачок (момент осознания). У Вафо - через смену образа или интонации.

Например, в рассказе Чехова «Ионыч» кульминация - не в действии, а в молчании героя; в рассказах Вафо - наоборот, в действии, которое *замирает* в конце.

Композиция короткой прозы подчинена ритмическому закону: каждое предложение соотнесено с эмоциональным движением. В русской прозе это динамика, в узбекской - ритмическая статика, созерцание. Так возникает различие «напряжённой» и «созерцательной» лаконичности.

Мастерство в малой форме определяется не только структурой, но и интонацией. Чехов создал особый тип повествования - нейтральный, но пронзительный, где эмоция ощущается между строк. Узбекская мини-проза, напротив, более лирична: повествователь часто обращён к внутреннему голосу, а не к внешнему наблюдению.

Таким образом, художественное мастерство короткого рассказа строится на сочетании точности формы, эмоциональной глубины и символического насыщения. В этих условиях лаконизм перестаёт быть ограничением - он становится высшей формой выразительности.

История развития узбекской прозы неразрывно связана с русской литературой. Ещё в конце XIX века, когда в Ташкенте и Самарканде создавались первые типографии, а в школах открывались курсы русского языка, русская литература начала оказывать системное влияние на литературное сознание Средней Азии. Через переводы Пушкина, Лермонтова, Тургенева, Достоевского и Чехова формировались представления об авторском стиле, сюжетной композиции и психологической достоверности [15, с. 19].

Особое значение имела чеховская модель короткого рассказа, основанная на принципах недосказанности, внутреннего конфликта и психологической нюансировки. Именно она оказалась наиболее восприимчивой для узбекских авторов, стремившихся отразить внутреннюю жизнь человека без риторики и пафоса. В XX веке многие писатели - Абдулла Каххар, Саид Ахмад, Улугбек Хамдам - обращались к «чеховской лаконичности», соединяя её с восточной интонацией повествования.

Узбекская литература при этом не утратила собственных художественных корней. Восточная традиция повествования - будь то коранические притчи, суфийские легенды или поэтика Навоий - формировала иной ритм и образный строй. В центре повествования оказывался морально-философский мотив, а действие подчинялось размышлению.

В советскую эпоху контакт двух литератур стал особенно тесным. Русские журналы «Звезда Востока», «Дружба народов», а также переводы, осуществляемые в издательствах Ташкента и Москвы, способствовали появлению особой формы - русскоязычной узбекской прозы, где сливались традиции двух школ [16, с. 87].

Характерно, что это взаимовлияние не сводится к «копированию» русской модели. Оно скорее напоминает диалог культур: русская психологическая точность сочетается с восточной символикой, русская повествовательная строгость - с поэтичностью и философичностью узбекского стиля.

Современная узбекская мини-проза унаследовала от русской школы композиционную структуру и внимание к внутреннему движению героя, но наполнила их метафорическим и духовным содержанием. В то время как русская традиция сосредоточена на психологии поведения, узбекская - на метафизике чувства, на поиске гармонии между внутренним и внешним миром.

Таким образом, русская и узбекская школы не противопоставлены, а взаимодополняют друг друга. Их синтез в жанре короткого рассказа демонстрирует культурный диалог, в котором европейская рациональность встречается с восточной интуицией.

Антон Павлович Чехов (1860–1904) по праву считается одним из основателей современной формы короткого рассказа. Его художественный стиль отмечен исключительным чувством меры и лаконизма: каждое слово, жест или пауза в его прозе подчинены строгой внутренней логике повествования. В отличие от многих предшественников, Чехов отказывается от прямого морализаторства и авторского комментария. Его повествование строится на наблюдении, на лёгком ироническом взгляде на человека и жизнь, в котором звучит одновременно сострадание и трезвость.

Короткий рассказ в чеховской интерпретации превращается в микромодель человеческого существования. Для анализа можно обратиться к рассказу «Спать хочется» (1888) - одному из самых показательных примеров его малой прозы. Композиция здесь проста: девочка-служанка Варя, измученная усталостью, должна укачивать ребёнка хозяев, но сама засыпает. Действие разворачивается в одном пространстве, почти без событий, однако внутренняя динамика текста огромна. Через повторяющиеся фразы - «спать хочется», «глаза слипаются» - автор создаёт эффект гипнотического круга, из которого невозможно вырваться.

Трагизм рассказа рождается не из внешнего действия, а из внутреннего состояния героини, из её бессилия и обречённости. Когда девочка засыпает и случайно душит младенца, это событие воспринимается не как злодеяние, а как последняя точка человеческого истощения. Чехов не даёт оценки, не ищет виновных - трагедия происходит естественно, как следствие тяжёлой реальности.

В этом произведении проявляется всё чеховское мастерство. Символическая деталь - колыбель - становится образом подневольного труда, вечного повторения и судьбы. Психологический минимализм проявляется в том, что чувства героини не описываются напрямую, но читатель проживает их вместе с ней. Композиция сведена к одной сцене, одному движению, одной теме. Финал открыт - нет ни вывода, ни морали. Чехов доверяет читателю право на собственное переживание. Его искусство - в умении превращать бытовое в философское, конкретное в универсальное.

Так возникает особая поэтика молчания, которая впоследствии оказала глубокое влияние на литературы Востока и, в частности, на узбекскую малую прозу.

Совершенно иной по тональности, но внутренне родственный чеховской традиции, является художественный мир Саломат Вафо, одной из самых ярких представительниц современной узбекской мини-прозы. В её произведениях чувствуется восточная интонация речи, медитативный ритм повествования, стремление уловить движение чувств в тишине. Её тексты часто публиковались в журналах *«Ёш куч»*, *«Жаҳон адабиёти»* и сразу выделялись особым внутренним дыханием.

Для анализа показателен рассказ «Тингловчи шамол» («Слушающий ветер», 2018). Здесь почти нет внешнего действия: героиня сидит у окна и слушает, как ветер колышет занавеску. Она ждёт письмо, которое не приходит. За этой внешней неподвижностью скрыт огромный внутренний мир: тоска ожидания, усталость, принятие неизбежности.

Повествование у Вафо течёт медленно, почти без ритмических скачков. Её фразы плавны, мягки, в них нет ни резких пауз, ни нарочитой эмоциональности. Тишина становится ключевым мотивом: она звучит в каждой строке, словно дыхание мира. Ветер в этом рассказе не просто природное явление - это посредник между внешним и внутренним, между душой человека и пространством. Он «слушает» героиню, отвечает ей, становится метафорой понимания без слов.

Если Чехов достигает выразительности через лаконичную деталь и внутренний конфликт, то Вафо строит повествование на интуитивной гармонии, на равновесии тишины и движения. Её герои не ищут выхода и не совершают поступков, они пребывают в состоянии ожидания, что придаёт тексту философскую глубину.

Семантическая структура рассказа Вафо основана на минимализме. Одно слово, одно движение может заменить целый абзац размышлений. Символика природы - ветер, занавеска, свет, окно - несёт смысловую нагрузку, выражая эмоциональное состояние героини. Это делает текст одновременно простым и многослойным: за обыденными предметами раскрывается метафизическая реальность.

Такое соединение внешней простоты и внутреннего символизма сближает Вафо с чеховской эстетикой. Однако между ними есть принципиальное различие. Чехов строит повествование на столкновении личности и среды, Вафо - на поиске гармонии между внутренним миром человека и дыханием Вселенной. Если у Чехова финал часто вызывает чувство катарсиса, то у Вафо он напоминает растворение, мягкий уход в тишину.

Обе поэтики опираются на лаконизм, но реализуют его по-разному. Чехов создаёт напряжённую динамику, где каждый жест и слово словно прижаты к смыслу; Вафо предпочитает медитативное дыхание, позволяющее читателю войти в состояние созерцания. У Чехова мир изображается как конфликт, у Вафо - как гармония. Тем не менее оба автора сходятся в убеждении, что молчание способно сказать больше, чем слово, и именно в паузе рождается подлинное чувство.

Таким образом, короткий рассказ становится своеобразной точкой пересечения двух культурных принципов - европейского аналитизма и восточной интуитивности. Диалог Чехова и Вафо - это не заимствование, а взаимное обогащение: русская традиция вносит в узбекскую прозу психологическую точность и композиционную сдержанность, тогда как восточная школа возвращает литературе поэтичность, созерцательность и символическую глубину.

Для Чехова лаконизм - это способ обнажения человеческой правды, разоблачения иллюзий; для Вафо - путь к внутреннему равновесию, к тихому прозрению. Их художественные миры показывают, что краткость способна вместить философию жизни: в одном предложении может скрываться судьба, в одной паузе - дыхание вечности.

Обе традиции, соединяясь, создают универсальный язык современной мини-прозы, где слово превращается в энергию чувства, а тишина - в главный символ человеческого понимания.

Заключение

В ходе проведённого исследования были рассмотрены вопросы творческой концепции, художественного мастерства и взаимовлияния литературных школ в русской и узбекской короткой прозе. Сравнительный анализ показал, что малая форма - драббл, новелла, миниатюра - обладает универсальным потенциалом, позволяющим выражать глубинные психологические и философские смыслы при минимальном объёме текста.

Русская и узбекская традиции короткого рассказа, несмотря на культурные различия, сходятся в понимании сущности малой формы как концентрированного художественного жеста. В обеих литературах она служит не столько повествованию, сколько размышлению, не столько действию, сколько состоянию.

Русская школа, представленная Чеховым, выработала особую модель художественного мышления, в которой внутренний конфликт и психологическая деталь становятся важнее фабулы. Чехов создал поэтику молчания, основанную на лаконизме, наблюдении и доверии к читателю. Его творчество продемонстрировало, что краткость не ограничивает, а углубляет художественную выразительность.

Узбекская литература, развивая собственные традиции и впитывая достижения русской школы, сумела преобразовать малую форму в уникальный синтез европейской композиционной строгости и восточной медитативности. В мини-прозе современных узбекских авторов, таких как Саломат Вафо, проявляется поэтика тишины, символика природы, философия ожидания. В этих текстах нет острого конфликта, но есть глубокая эмоциональная вибрация, рождающаяся из соприкосновения с миром.

Сопоставительный анализ произведений Чехова и Вафо показал, что обе художественные системы стремятся к внутренней истине, выраженной через молчание, паузу, метафору. Чеховская лаконичность, построенная на драматизме повседневности, и вафовская созерцательность, основанная на символическом дыхании мира, представляют собой два полюса одного эстетического явления - стремления передать невыразимое средствами минимализма.

Малый жанр становится пространством культурного диалога, где пересекаются разные типы художественного мышления. Для русской прозы важна аналитическая глубина, для узбекской - эмоциональная целостность. Их соединение рождает особую художественную модель, в которой текст становится формой внутреннего самопознания, а слово - инструментом тишины.

Таким образом, малая форма - это не просто жанр, а способ мировосприятия. В ней концентрируется эстетическая философия времени: умение услышать движение души в молчании, увидеть жизнь в мгновении, ощутить вечность в краткости.

Литература.

1. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе. - М.: Художественная литература, 1975. - 321 с.
2. Эйхенбаум Б. М. О рассказах Чехова // Литературный критик. - 1939. - № 3. - С. 43–59.
3. Лотман Ю. М. Анализ поэтического текста. - Л.: Просвещение, 1972. - 310 с.
4. Шкловский В. Б. Искусство как приём. - М.: Советский писатель, 1990. - 286 с.
5. Тынянов Ю. Н. Поэтика. История литературы. Кино. - М.: Наука, 1977. - 378 с.
6. Ахмад Саид. Избранные произведения. - Ташкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1985. - 412 б.
7. Рахматуллаев С. Современная узбекская проза и её эстетические тенденции // Творчество и культура Востока. - Ташкент, 1998. - С. 108–125.
8. Дадабаев А. Художественное мышление в узбекской литературе XX века. - Ташкент: Universitet, 2010. - 267 с.
9. Йўлдошева М. Кичик жанрлар поэтикаси: янги тенденциялар. - Тошкент: Академнашр, 2015. - 154 б.
10. Чехов А. П. Полное собрание сочинений и писем: в 30 т. - М.: Наука, 1974. - Т. 8.
11. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. - М.: Искусство, 1998. - 256 с.
12. Генетт Ж. Фигуры. - М.: Прогресс, 1998. - 410 с.
13. Вафо Саломат. «Тингловчи шамол» // Журнал «Жаҳон адабиёти». - Тошкент, 2018. - № 6. - С. 14–16.
14. Karimova G. The Evolution of Uzbek Prose: Symbolism and Modernity // Central Asian Literary Studies. - 2020. - Vol. 4. - P. 40–52.
15. Лотман Ю. М. Культура и взрыв. - М.: Гнозис, 1992. - 270 с.
16. Хамдам У. Янги наср ва миллий онг. - Тошкент: Sharq, 2003. - 200 б.

Abduraimova Madinaxon Dilshodjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: abduraimovam97@gmail.com

O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOL VA MATALLARDA “YOSH” KONSEPTINING AKS ETISHI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot o‘zbek va ingliz tillaridagi maqol va matallarda “yosh” konseptining lingvistik va madaniy aks etishini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ikki xil madaniyatga mansub xalqlarning yoshga bo‘lgan munosabati, yoshning ijtimoiy-madaniy qiymati va uni ifodalash usullari paremiologik material asosida o‘rganilgan. Metodologiya sifatida semantik-konseptual tahlil, qiyosiy-tipologik usul va madaniyatlararo tahlil qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “yosh” konsepti har ikkala madaniyatda ham murakkab semantik tuzilmaga ega bo‘lib, yoshning turli bosqichlari (bolalik, yoshlik, keksalik) har xil baholanadi. O‘zbek paremiologiyasida tajriba va donolikning qiymati yuqori baholangan, ingliz maqollarida esa yoshlik va faollik ko‘proq ta‘kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *yosh konsepti, paremiologiya, maqol va matallar, madaniyatlararo tahlil, semantik struktura, o‘zbek tili, ingliz tili.*

ОТРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТА "ВОЗРАСТ" В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ

Аннотация. *Данное исследование посвящено сравнительному анализу лингвистического и культурного отражения концепта "возраст" в узбекских и английских пословицах и поговорках. В исследовании изучается отношение народов двух различных культур к возрасту, социально-культурная ценность возраста и способы его выражения на основе паремиологического материала. В качестве методологии применены семантико-концептуальный анализ, сравнительно-типологический метод и межкультурный анализ. Результаты показывают, что концепт "возраст" в обеих культурах имеет сложную семантическую структуру, при этом различные этапы жизни (детство, молодость, старость) оцениваются по-разному. В узбекской паремиологии высоко оценивается ценность опыта и мудрости, в английских пословицах больше подчеркиваются молодость и активность.*

Ключевые слова: *концепт возраста, паремиология, пословицы и поговорки, межкультурный анализ, семантическая структура, узбекский язык, английский язык*

REFLECTION OF THE “AGE” CONCEPT IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS AND SAYINGS

Abstract. *This research is devoted to a comparative analysis of the linguistic and cultural reflection of the “age” concept in Uzbek and English proverbs and sayings. The study examines the attitude of peoples from two different cultures towards age, the socio-cultural value of age, and the ways of expressing it based on paremiological material. Semantic-conceptual analysis, comparative-typological method, and cross-cultural analysis were applied as methodology. The results show that the "age" concept has a complex semantic structure in both cultures, with different stages of life (childhood, youth, old age) being evaluated differently. In Uzbek paremiology, the value of experience and wisdom is highly appreciated, while in English proverbs, youth and activity are more emphasized.*

Key words: *age concept, paremiology, proverbs and sayings, cross-cultural analysis, semantic structure, Uzbek language, English language*

Kirish. Zamonaviy lingvistikada konseptual tadqiqotlar alohida o‘ringa ega bo‘lib, madaniyatning til orqali ifodalanish mexanizmlarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. “Yosh” konsepti insonning hayotiy siklini aks ettiruvchi universal kategoriya bo‘lib, turli madaniyatlarda o‘ziga xos

interpretatsiyaga ega. Paremiologik material – maqol va matallar xalq donoligining eng qadimiy shakllari sifatida madaniyatning chuqur qatlamlarini ochib beradi va konseptual dunyoqarashning muhim elementlarini namoyon etadi [1].

Yosh konseptining madaniy lingvistik jihatdan o‘rganilishi bugungi kunda katta ahamiyatga ega, chunki globallashuv sharoitida madaniyatlararo aloqalarning intensivlashishi turli etnos vakillari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek va ingliz madaniyatlari o‘rtasidagi taqqoslash Sharq va G'arb mentalitetlarining farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi [2]. Tadqiqotning dolzarbligi yosh konseptining paremiologik materialda aks etish xususiyatlarini aniqlash va ikki madaniyat o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni sistematik tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi maqol va matallarda “yosh” konseptining semantik-konseptual xususiyatlarini aniqlash va madaniyatlararo qiyosiy tahlil o‘tkazishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo‘yilgan: yosh konseptining nazariy asoslarini tahlil qilish, o‘zbek va ingliz paremiologiyasida yosh konseptining semantik maydonini aniqlash, madaniy-lingvistik xususiyatlarni qiyoslash va konseptning universal hamda etnosspetsifik jihatlarini systematlashtirish.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Tadqiqotda semantik-konseptual tahlil, qiyosiy-tipologik usul va madaniyatlararo tahlil metodlari qo‘llanilgan. Material sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi “yosh” konseptini aks ettiruvchi maqol va matallar tanlab olingan. Korpus tuzishda “The Oxford Dictionary of English Proverbs”, “Ingliz maqol va matallar to‘plami” hamda o‘zbek xalq og'zaki ijodining to‘plamlari, jumladan Vikiiqtibos platformasidagi o‘zbek maqollari to‘plami asosiy manba sifatida xizmat qilgan [3].

Konsept nazariyasining nazariy asoslari N.D.Arutyunova, V.I.Karasik, Z.D.Popova, I.A.Sternin kabilarning ishlarida yaratilgan. Ular konseptni madaniyat va tilning kesishish nuqtasi sifatida ta'riflaydilar [4]. Paremiologik tadqiqotlar sohasida V.N.Telia, O.A.Seliverstova, M.L.Kovshova kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular maqol va matallarni madaniy ma'lumot saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida ko‘rib chiqadilar [5].

O‘zbek tilshunosligida paremiologik tadqiqotlar H.Dadaboev, S.Mamatov, G'.Rahimov kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ularning ishlarida o‘zbek paremiologiyasining lingvokulturologik jihatları sistemali tahlil qilingan [6]. Madaniyatlararo tadqiqotlar metodologiyasi E.Sepir, B.L.Uorf, A.Vazhbitskaya kabi olimlarning ishlarida yaratilgan lingvistik relyativizm nazariyasiga asoslanadi [7].

Yosh konseptining paremiologik materialda tadqiq etilishi nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Zarubyojli tadqiqotchilardan G.A.Permyakov paremiologiyaning universal xususiyatlarini o‘rganganida, V.M.Mokienko evropa tillarida paremiologik birliklarnining qiyosiy tahlilini amalga oshirgan [8]. Ingliz paremiologiyasi bo‘yicha W.Mieder, S.Winick kabi tadqiqotchilarning ishlari muhim hisoblanadi. Ular ingliz maqol va matallarining tarixiy rivojlanishi va zamonaviy holati masalalarini o‘rganganlar [9].

O‘zbek va ingliz paremiologiyasini qiyoslagan ishlar hali kam bo‘lib, bu sohadagi tadqiqotlar asosan individual konseptlarning tahliliga cheklangan. Shuning uchun yosh konseptining ikki madaniyatda qiyosiy o‘rganilishi nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatlararo paremiologik tadqiqotlar metodologiyasi struktural-semantik tahlil, komponentli tahlil, etimologik tahlil usullarini o‘z ichiga oladi [10].

Natijalar va muhokama

O‘zbek paremiologiyasida yosh konsepti murakkab semantik tuzilmaga ega bo‘lib, asosan uch asosiy komponent atrofida shakllanadi: bolaliq, yoshlik va keksalik. Manbalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek maqollarida yoshning turli bosqichlari o‘ziga xos baholash bilan ajralib turadi. “Bolaga ishga buyur, orqasidan o‘zing yugur” maqoli bolalikning nazorat va rahbarlikka muhtojligini ta‘kidlaydi. Bu yerda bolaliq davri bilvosita ravishda tajribasizlik va kattalar tomonidan boshqaruvga muhtojlik bilan bog‘lanadi.

Yoshlik davri o‘zbek paremiologiyasida faollik va imkoniyatlar bilan tavsiflanadi, biroq ayni vaqtda tajribasizlik va noto‘g'ri qarorlar qabul qilish xavfi ham ko‘rsatiladi. ""ar kim ekkanini o‘radi” maqoli yoshlikning o‘z harakatlariga javobgarlik tushunchasini bildiradi. "Esingning borida etagingni

yop" kabi maqol yoshlikda ehtiyotkor bo‘lish va kelajakka tayyorgarlik ko‘rishni maslahat beradi. Bu yerda yosh odamlarning hayotiy tajribaga ega emasligi va donolik orttirish zarurati ko‘rsatiladi.

Keksalik davri o‘zbek madaniyatida asosan tajriba va donolik bilan bog‘liq holda ijobiy baholanadi. "Katta arava qayoqdan yursa, kichik arava ham o‘sha yoqdan yuradi" maqoli kattalarning yoshlarga ko‘rsatuvchi va yo‘lboshchilik qiluvchi rolini ta’kidlaydi. "Kim tabib – boshidan o‘tgan tabib" maqoli hayot tajribasining qiymatini ko‘rsatib, keksalikning donolik manbai ekanligini bildiradi. Bu o‘zbek madaniyatida kattalar hurmatining chuqur ildizlarini namoyon etadi.

Ingliz paremiologiyasida yosh konsepti boshqacha aktualizatsiya qilinadi. Bolaliq davri ham poklik va samimiylik bilan bog'liq: "Children and fools speak the truth" (Bolalar va ahmoqlar haqiqatni aytadilar), lekin ayni vaqtda tarbiyaga muhtojlik ta'kidlanadi: "As the twig is bent, so grows the tree" (Shox qanday egilsa, daraxt ham shunday o‘sadi). Bu maqollar bolalikning shakllanish davri ekanligini ko‘rsatadi.

Ingliz maqollarida yoshlik mustaqillik va individual muvaffaqiyatga intilish bilan bog'lanadi: "Youth must be served" (Yoshlik xizmatga loyiq), "Strike while the iron is hot" (Temir qizganda ur). Bu maqollar yoshlikning faol harakat qilish va imkoniyatlardan foydalanish davri ekanligini bildiradi. "You can't teach an old dog new tricks" (Keksa itga yangi nayranglarni o‘rgatib bo‘lmaydi) kabi maqol keksalikdagi o‘zgarishlarga qarshilik va yangilikka moslashish qiyinchiligini ko‘rsatadi.

Ingliz madaniyatida keksalik asosan tajriba va donolik bilan bog'liq ko‘riladi: "With age comes wisdom" (Yosh bilan donolik keladi), lekin bir vaqtning o‘zida zaiflik va o‘tmishga bog'liqlik ham namoyon bo‘ladi. "Old habits die hard" (Eski odatlar qiyin o‘ladi) maqoli keksalikdagi o‘zgarishlarga qarshilikni ifodalaydi. Ingliz paremiologiyasida yoshning o‘tishi vaqt bilan bog'liq holda ko‘proq individual nuqtai nazardan baholanadi.

Qiyosiy tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda, o‘zbek madaniyatida yosh konsepti ko‘proq ijtimoiy-kollektiv kontekstda baholanadi. Kattalarning fikri va tajribasi yoshlarga nisbatan ustunlik qiladi, bu esa an'anaviy jamiyat strukturasini aks ettiradi. "Bir kattaning gapiga kir" maqoli kattalarning fikrini hurmat qilish va unga amal qilish zaruratini bildiradi. "Mehmon otangdan ulug'" maqoli kattalarning jamiyatdagi yuqori mavqeini ko‘rsatadi.

Ingliz madaniyatida esa individual rivojlanish va mustaqillik tushunchalari ustunlik qiladi. Yoshlik o‘z kuchiga tayanish va yangilik izlash bilan bog'langanida, keksalik past bahoanadi yoki salbiy konnotatsiya oladi. "Youth will be served" (Yoshlik o‘z yo‘lini topadi) kabi maqollar individual erkinlik va o‘z taqdirini o‘zi hal qilish g'oyasini ifodalaydi.

Semantik maydonlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek paremiologiyasida "donolik-tajriba" komponenti kuchliroq ifodalangan, ingliz paremiologiyasida esa "faollik-mustaqillik" komponenti ustunlik qiladi. Bu madaniyatlarning fundamental farqini – kollektivizm va individualizm qadriyatlarini aks ettiradi.

Madaniyatlararo semantik kartografiya nuqtai nazaridan o‘zbek va ingliz paremiologiyasida yosh konseptining metaforik tashkil etilishi tubdan farq qiladi. O‘zbek maqollarida yosh ko‘pincha tabiiy sikllar - "bahor", "yoz", "kuz", "qish" metaforalari orqali ifodalanadi, bu esa hayotning tabiiy rivojlanishi va har bir bosqichning o‘ziga xos qimmatini ko‘rsatadi. "Danagidan mag'izi shirin" maqoli keksalikning ichki boyligini ta'kidlaydi, bu yerda yosh daraxtning mevasi kabi tasavvur etiladi - tashqi ko‘rinishi oddiy bo‘lsa ham, ichki mohiyati qimmatlidir. Ingliz paremiologiyasida esa yosh ko‘proq harakat va vaqt kategoriyalari orqali kontseptuallashtiriladi. "Time and tide wait for no man" (Vaqt va to‘lqin hech kimni kutmaydi) kabi maqollar yoshning o‘tib ketuvchanligi va undan foydalanish zaruratini bildiradi. Bu semantik farq ikki madaniyatning vaqt va hayot sikllariga bo‘lgan turli yondashuvlarini aks ettiradi - o‘zbek madaniyatida sikliklik va uyg'unlik, ingliz madaniyatida esa chiziqli rivojlanish va tezkorlik ustunlik qiladi.

Pragmatik funksiyalar jihatidan o‘zbek va ingliz maqollarida yosh konsepti turli ijtimoiy vazifalarni bajaradi. O‘zbek paremiologiyasida yosh bilan bog'liq maqollar asosan pedagogik funksiya bajaradi va avlodlar o‘rtasidagi tajriba uzatish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. "Mehmon otangdan ulug'" maqoli yoshlarga kattalarni hurmat qilish va ijtimoiy ierarxiyani saqlash zarurligini o‘rgatadi. "Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga" esa yoshlarga amaliy bilim va mehnatning qiymatini anglatadi. Ingliz maqollarida esa yosh konsepti ko‘proq motivatsion va individual rivojlanish funksiyalarini bajaradi. "Youth will have its swing" (Yoshlik o‘z yo‘lini topadi) kabi maqollar

individual erkinlik va o‘z-o‘zini aniqlashni rag'batlantiradi. "Every dog has its day" (Har itning o‘z kuni bor) esa har bir yoshda muvaffaqiyat erishish imkoniyati borligini bildiradi. Bu farq o‘zbek madaniyatining kollektiv-didaktik yo‘nalishi va ingliz madaniyatining individualistik-motivatsion yo‘nalishini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa

O‘zbek va ingliz paremiologiyasida yosh konseptining qiyosiy tahlili ikki madaniyat o‘rtasidagi muhim farqlarni aniqlash imkonini berdi. O‘zbek madaniyatida yosh konsepti asosan hayot tajribasi va donolik bilan bog'liq holda baholanadi, bu an'anaviy sharq mentalitetining xususiyatidir. Keksalik hurmat bilan qaralganda, yoshlik ham tajriba orttirish jarayoni sifatida qabul qilinadi. "Har kim ekkanini o‘radi", "Kim tabib – boshidan o‘tgan tabib" kabi maqollar hayot tajribasining muhimligini ta'kidlaydi.

Ingliz madaniyatida yosh konsepti individual muvaffaqiyat va mustaqillik prizmasi orqali ko‘riladi. Yoshlik faol harakat va o‘z-o‘zini anglash davri sifatida yuqori baholanganida, keksalik zaiflik va o‘zgarishlarga qarshilik bilan bog'lanadi. "Youth must be served", "Strike while the iron is hot" kabi maqollar yoshlikning faol davr ekanligini ko‘rsatadi.

Ikki madaniyatdagi umumiy xususiyatlar ham mavjud: yoshlikning faollik bilan bog'liqligi, bolalikning tarbiya olish davri sifatida qabul qilinishi, hayotning siklik tabiati haqidagi tasavvurlar. Biroq bu xususiyatlarning aktualizatsiyasi va baholanishi har bir madaniyatda o‘ziga xos tarzda amalga oshadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati madaniyatlararo muloqotni yaxshilash, til o‘qitish jarayonida madaniy kontekstni hisobga olish va tarjima faoliyatida paremiologik birliklarnining adekvat uzatilishini ta'minlash bilan bog'liq. Kelajakda boshqa konseptlarning qiyosiy o‘rganilishi va ko‘proq tillar orasidagi taqqoslash amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Маслова, В.А. (2018). Лингвокультурология: теория и практика. Москва: Флинта.
2. Dadaboev, H. (2019). O‘zbek xalq maqollari va matallarining lingvokulturologik xususiyatlari. Toshkent: Fan.
3. O‘zbek maqollari. (2025). Vikiiqtibos. https://uz.wikiquote.org/wiki/O%CA%BBzbek_maqollari
4. Карасик, В.И. (2017). Языковая личность: когнитивные и прагматические аспекты. Москва: Гнозис.
5. Телия, В.Н. (2019). Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва: Языки славянской культуры.
6. Mamatov, S. (2020). O‘zbek tilining paremiologik fondining semantik tahlili. Samarqand: SamDU.
7. Wierzbicka, A. (2018). Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Пермяков, Г.Л. (2016). Основы структурной паремиологии. Москва: Наука.
9. Mieder, W. (2019). The Politics of Proverbs: From Traditional Wisdom to Proverbial Stereotypes. Wisconsin: University of Wisconsin Press.
10. Rahimov, G'. (2021). O‘zbek paremiologiyasining madaniy-lingvistik asoslari. Andijon: AndDU.

Yo‘ldoshev Jasur
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

USMON AZIMNING “YURAK” TO‘PLAMI- ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA RUHIY-ESTETIK IZLANISHLAR.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taniqli o‘zbek shoiri Usmon Azimning “Yurak” nomli she’riy to‘plami asosida zamonaviy o‘zbek she’riyatida kechayotgan ruhiy-estetik izlanishlar tahlil qilinadi. Adibning poetik dunyoqarashi, individual uslubi va falsafiy-estetik qarashlari orqali milliy she’riyatda yangicha badiiy tafakkur ko‘rinishlari o‘rganiladi. “Yurak” to‘plamidagi she’rlar orqali shoirning ichki kechinmalari, ruhiy silkinishlari, zamon va odam, tarix va bugun, milliy o‘zlik va umumbashariy qadriyatlar oralig‘idagi ichki ziddiyatlarni badiiy talqin etish mahorati tahlil markazida turadi. Shuningdek, mazkur to‘plamda aks etgan poetik ramzlar, intertekstual unsurlar, badiiy struktura va ritmika vositalarining o‘ziga xosligi ham yoritiladi. Maqola davomida Usmon Azim ijodining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi tutgan o‘rni, uning poetik tafakkurdagi innovatsion yondashuvlari nazariy-adabiy qarashlar asosida baholanadi.*

Kalit so‘zlar*: Usmon Azim, “Yurak” to‘plami, zamonaviy o‘zbek she’riyati, ruhiy-estetik izlanishlar, poetik tafakkur, badiiy struktura, intertekstualizm, milliy o‘zlik, poetik ramzlar, falsafiy lirika.*

USMON AZIM’S COLLECTION *“YURAK”* - SPIRITUAL AND AESTHETIC EXPLORATIONS IN MODERN UZBEK POETRY.

Annotation. *This article analyzes the spiritual and aesthetic explorations in contemporary Uzbek poetry through the lens of Usmon Azim’s poetic collection "Yurak" (The Heart). The study focuses on the poet’s philosophical worldview, unique style, and artistic expression, revealing new paradigms in national poetic thought. The collection reflects deep emotional experiences, inner conflicts, and a refined poetic interpretation of themes such as time and man, history and the present, national identity and universal values. Particular attention is given to the symbolism, intertextual elements, poetic structure, and rhythmical devices employed in the poems. The article evaluates Usmon Azim’s contribution to modern Uzbek literature and his innovative approaches to poetic thinking based on literary theory and analysis.*

Key words*: Usmon Azim, Yurak, contemporary Uzbek poetry, spiritual-aesthetic exploration, poetic thinking, artistic structure, intertextuality, national identity, poetic symbols, philosophical lyricism.*

СБОРНИК УСМОНА АЗИМА «ЮРАК» - ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ПОИСКИ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются духовно-эстетические поиски в современном узбекском стихосложении на примере поэтического сборника Усмона Азима «Юрак» («Сердце»). Анализируются поэтическое мировоззрение автора, его индивидуальный стиль и философско-эстетические взгляды, раскрывающие новые черты национального художественного мышления. Особое внимание уделяется внутренним переживаниям, духовным противоречиям, а также художественному осмыслению таких тем, как человек и время, история и современность, национальная идентичность и универсальные ценности. В статье также исследуются особенности поэтической символики, интертекстуальности, художественной структуры и ритмики. Усмон Азим представлен как новатор в поэтическом мышлении, и его творчество рассматривается сквозь призму теоретико-литературных подходов.*

Ключевые слова: *Усмон Азим, Юрак, современная узбекская поэзия, духовно-эстетические поиски, поэтическое мышление, художественная структура, интертекстуальность, национальная идентичность, поэтические символы, философская лирика.*

Kirish. Zamonaviy o‘zbek she’riyati o‘zining turli-rang yo‘nalishlari va qiyofalari bilan milliy ma’naviyat va shaxsiy dunyoqarashni uyg‘unlashtirishga intilmoqda. Bugungi davr o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini, milliy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy va estetik muammolarni o‘rganish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, o‘zbek shoirlari asarlarida milliylik va zamonaviylik, an’anaviylik va yangilik o‘rtasidagi murakkab munosabatlar o‘ziga xos badiiy ifoda topmoqda. Ana shunday ruhiy-estetik qidiruvlar jarayonida Usmon Azimning “Yurak” she’riy to‘plami zamonaviy o‘zbek adabiyotida yangi konseptual va badiiy yondashuvlarni namoyish etadi. Ushbu to‘plamda shoir inson qalbining nozik va murakkab qatlamlarini ochib berishga, shuningdek, milliy madaniyatning estetik qadriyatlarini zamonaviy badiiy til orqali yangicha talqin qilishga intiladi. “Yurak” asarida insonning ichki kechinmalari, ruhiy izlanishlari, umid va dardlari she’riyat vositasida ifoda topib, o‘quvchiga yanada chuqurroq ruhiy-ma’naviy tajriba taqdim etiladi.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiy tanqidida zamonaviy she’riyatning ruhiy va estetik qatlamlari haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq, Usmon Azimning “Yurak” to‘plamining mazkur yo‘nalishdagi o‘rni, uning she’riy til va uslubidagi yangiliklar yetarlicha o‘rganilmagan. Shu munosabat bilan mazkur maqolada “Yurak” to‘plamining ruhiy-estetik izlanishlar nuqtayi nazaridan tahlili amalga oshiriladi. Maqola Usmon Azimning she’riyati orqali zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi ichki dunyo, madaniy meros va zamonaviylikning badiiy uyg‘unligi qanday shakllanayotganini aniqlashga qaratilgan.

O‘zbek she’riyatida inson ruhiy olamining yangi estetik modelini ishlab chiqish jarayonlarini yoritishga yordam beradi, shuningdek, zamonaviy she’riyatni milliy madaniyatning muhim qismi sifatida ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek adabiyotshunosligi va estetik nazariyada yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ochadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda “Yurak” she’riy to‘plamining ruhiy va estetik jihatlarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy yondashuvlar va metodlar qo‘llanildi. Asosan, adabiy-tahliliy yondashuv asosiy tadqiqot usuli sifatida tanlandi, chunki u badiiy matnlarni chuqur va sistematik o‘rganishga imkon beradi. Shu yo‘l bilan Usmon Azimning she’rlari stilistik, semantik va tematik jihatlari nuqtai nazaridan sinchkovlik bilan tahlil qilindi. Birinchidan, stilistik tahlil doirasida she’rlardagi badiiy uslublar, til va obraz vositalari, metafora va simvolik elementlarning qo‘llanilishi o‘rganildi. Bu bosqichda shoirning she’riy tilining o‘ziga xosligi, uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodiy an’analaridan olib kelgan elementlari bilan zamonaviy badiiy tilni uyg‘unlashtirish usullari aniqlangan. Stilistik tahlil orqali “Yurak” to‘plamining estetik xarakteri va o‘quvchiga yetkazilayotgan ruhiy-estetik taassurotlar aniqlashtirildi. Ikkinchidan, semantik tahlil yordamida to‘plamdagi asosiy mavzular, obrazlarning ma’nosi, shuningdek, ruhiy kechinmalar va ichki dunyo aks ettirilishining mazmuni o‘rganildi. Ushbu tahlil shoirning qalbiy kechinmalarini, inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni, umid va qayg‘u kabi ruhiy-estetik holatlarni qanday badiiy ifoda etishini ko‘rsatdi. Uchinchidan, tematik tahlil orqali “Yurak” to‘plamining asosiy ruhiy va madaniy mavzulari – inson qalbining nozikligi, milliy qadriyatlar, hayotiy izlanishlar va zamonaviylik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanib, ularning asar tuzilishidagi roli tadqiq qilindi. Tematik yondashuv shoirning dunyoqarashi va uning zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi o‘rni haqida to‘liq tasavvur hosil qilishga yordam berdi.

Shuningdek, tadqiqotda adabiyotshunoslik va estetik nazariyalar asosida ruhiy-estetik kontseptlar yoritildi. Bu nazariy asoslar maqolada muhim o‘rin tutib, Usmon Azimning she’riyati kontekstida zamonaviy o‘zbek she’riyatining ruhiy va estetik izlanishlarini tushunishga xizmat qildi. Estetik nazariya, shuningdek, she’riy matnda insonning ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasini tahlil qilishda asos bo‘ldi.

Natijalar. She’r san’atning ilohiy manbai, ma’naviy mohiyati va inson ruhiyatiga ta’siri haqida. Bu san’at - nafaqat estetik hodisa, balki ilahiy ilhom, ruhiy ziyo, tafakkur parvozi va milliy yuksalish vositasi sifatida talqin etiladi. San’at bu dunyoda Ollohning insonga bergan ilohiy ne’matidir. U yurakdan, ruhdan, tafakkurdan otilgan ziyo bo‘lib, millatni sharafli qiladi, yuraklarga nur olib kiradi, va bu orqali insoniyatga Ollohning mehrini bildiradi.

Ruh bilan yurakdan

Taralgan ziyo
San’at bu dunyoda
Go‘zalroq dunyo
Ilhomdan betoqat
Uchgan tafakkur
Millatga - shon-shavkat,
Yuraklarga - nur.
Ko‘ngilning kaftida
Titragan ilhom –
Ilohiy taft ila
Insonga inom.
Unda bor Ollohning
Dunyoga mehri –
Hech so‘nmas ziyoning,
Hayotning sehri...

Ushbu she’rda 1 –8 misralar san’atning kelib chiqishi, maqsadi va ijtimoiy-falsafiy qiymati yoritilgan bo‘lsa, 16 misralar ilhomning ruhiy manbai, ilohiy tabiatdagi mohiyati, va oxir-oqibatda Ollohning mehriga ulanadigan badiiy falsafa.

Ruh bilan yurakdan Taralgan ziyo -bu misralarda san’atning manbai - inson qalbi va ruhi ekani aytiladi. Ziyo - bu nur emas, balki ma’naviy yuksalish, ichki uyg‘onish, va ilohiy ilhomning timsoli. San’at bu dunyoda, Go‘zalroq dunyo. San’at - real dunyo ichida mavjud bo‘lgan ideal olam sifatida ko‘rsatiladi.

Ilhomdan betoqat Uchgan tafakkur-Bu ikki misrada ijod jarayoni - ichki uyg‘onishdan tafakkur parvoziga o‘tishi tasvirlanadi. Bu holat - ijodkor qalbining vahiy holatiga yaqinlashuvini bildiradi. Ilhomdan betoqat - ichki to‘xtovsiz ruhiy ehtiyoj. Uchgan tafakkur - tafakkurning jismoniy chegaralarni yorib o‘tishi, ruhiy erkinlik.

“Millatga - shon-shavkat, yuraklarga - nur” San’atning ijtimoiy (milliy) va shaxsiy (individ) darajadagi natijasi. Bu o‘rinda san’at milliy o‘zlik va shaxsiy kamolot uchun xizmat qiluvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Ko‘ngilning kaftida titragan ilhom” bu - she’rning eng faylasufona misralaridan biri. Ko‘ngilning kafti - bu insonning ichki qabul qilish holati, titragan ilhom - ilhomning nozikligi, ruhiy sezgirligi va ilohiyligi. Bu obraz orqali san’atning tug‘ilishi go‘yo ruhiy-hissiy “tug‘ilish” sifatida ifodalanadi.

“Ilohiy taft ila insonga inom” Ilhom - insonlarga berilgan ilohiy sovg‘a, ya’ni inom Taft - issiqlik, ruhiy harorat, bu yerda ma’naviy iltifot va Ollohning mehr- muhabbati ramzidir.

“Unda bor Ollohning dunyoga mehri”-San’at - bu Ollohning yaratuvchanligi, go‘zallikka bo‘lgan cheksiz mehrining mahsuli sifatida ko‘rsatiladi. Bu juda chuqur tasavvufiy g‘oya: san’at - Ollohning jamol sifatining (go‘zallikning) tajallisi.

“Hech so‘nmas ziyoning - Hayotning sehri”-Ziyo - bu yerda ma’naviy yorug‘lik bo‘lib, hech qachon o‘chmaydigan manba."Hayotning sehri" esa - bu ziyo sababli inson yashashi ma’noli va go‘zal bo‘lishi. Ya’ni, san’at hayotga ma’no, mazmun, mo‘jiza baxsh etadi. She’rning chuqur qatlamida tasavvufiy tafakkur ustuvor.

Ilhom - ilohiy vahiy (ilhom-i ilohiy) . Ziyo - ma’rifat nuri

San’at - jamol (go‘zallik) sifatining tajallisi. Mehr - ilohiy muhabbat, “ishq-i haqiqiy”. Bu she’rda inson - yaratuvchan Olloh bilan aloqada bo‘lgan ruhiy mavjudot sifatida talqin etiladi. San’at esa - bu aloqa vositasi. Bu she’r - faqatgina san’at haqida emas, inson va iloh, ruh va tafakkur, ilhom va ma’naviyat o‘rtasidagi aloqaning badiiy-falsafiy timsolidir. She’r estetik zavq uyg‘otadi, lekin shu bilan birga ontologik (borliq haqidagi) va gnoseologik (bilish haqidagi) savollarni ko‘taradi.

Asarda san’atning ijtimoiy, shaxsiy, ma’naviy va ilohiy darajadagi funksiyalari umumlashtirilgan.Bu she’rni estetik-falsafiy manifest sifatida baholash mumkin. Ramz va metaforalarga boy. Titragan ilhom, Ko‘ngilning kaftida, Hech so‘nmas ziyo, Hayotning sehri kabi iboralar - sof simvolik (ramziy) obrazlar bo‘lib, ruhiy-falsafiy qatlamlarni ochadi. Misralarda qisqalik, ta’sirchanlik va ritmik uyg‘unlik uslubiy vosita sifatida ishlatilgan. Bu esa parralezimni vujudga keltirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Feleton janrining boshqa janrlarga o‘xshash, yoki asosi bir degan fikrlar ham bir qator olimlar tomonidan aytilib kelindi. Ayniqsa, feleton bilan pamflet janrini bir-biriga o‘xshash deb hisoblaydigan yoki shu janrlarning bir-biridan farqini ko‘rsatib bergan olimlar ko‘pchilikni tashkil etadi. P.I.Tkachev feleton bilan pamfletni taqqoslab ikki janri bir-biriga o‘xshagani bilan bir qator o‘ziga xosliklari ham borligini ta’kidlaydi. Uning fikricha: "Pamflet ijtimoiy qarama-qarshilikni ochib berishga yo‘naltirilgan, feleton esa aniq ko‘zga tashlanadigan ijtimoiy xarakterga ega emas" [1]. Lekin Tkachevning qarashlari biroz to‘ldirishni talab qiladi. Masalan, A.E.Istominaning fikricha: Zamonaviy feleton aksariyat hollarda siyosiy mavzuga bag‘ishlanadi, ijtimoiy ahamiyatga ega, katta ko‘lamga ega voqea asosida yoziladi. Feleton ijtimoiy ahamiyatga molik voqeani faktlar asosida, ya’ni dalillar bazasi asosida ijtimoiy ahamiyatga molik voqeani talqin qiladi. Hajviy sharh yoki xabarda esa muallif bir-biri bilan bog‘langan bir necha faktlarni oladi va ularga sharh beradi. Feletonda esa bir qarashda ilgari bo‘lmagan fakt yoki voqeani tahlil qilinadi, sabablari va mumkin bo‘lgan natijasi ta’kidlanadi [2].

Taniqli qoraqalpoq olimi, akademik Marat Nurmuhammedov, "Feleton Qoraqalpoq matbuotida 1920-yillarning oxirlarida dastlab devoriy gazetalarning, so‘ngra respublika gazetalarining sahifalarida paydo bo‘ldi" [3] deb ta’kidlaydi. O‘zining "Karakalpakskaya proza perioda velikoy otechestvennoy voyni" nomli asarida o‘sha yillarda gazetalarda yoritilgan feletonlarni ham qayd etadi: "J.Aymurzayevning "Germaniyaning gerjilari (Qizil Qoraqalpog‘iston. №58. 1944 y)" feletonida Gitler bilan Gebbels it obrazida beriladi. Feletonda voqea, xatti-harakat, hatto tasvir ham yo‘q. Ta’bir joiz bo‘lsa, feleton-portret desak ham bo‘ladi. Bu fashistlarning rahbarlariga bo‘lgan nafratni,

g‘azabni ko‘rsatadi" [4]. Ko‘rib turganimizdek o‘sha yillardayoq feletonlar gazeta sahifalarida berib borilgan. Akademik M.Nurmuhammedov adabiyot janrlarini tadqiq etish bilan birga jurnalistika janrlariga ta’rif berib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Zamonaviy rus olimi M.S.Krivosheynikova feletonni to‘liq shakldagi satirik janr ekanligini quyidagi fikrlari bilan tasdiqlashga harakat qiladi: ... satira har doim ham feletonni o‘z qamroviga ola olmaydi. Satirik asarda satirik umumlashtirish qonuniyati asosida hujjatli fakt shartli ravishda umumlashtiriladi. Muallif tomonidan qo‘llanilayotgan faktlarning aniqligi esa asosiy talab hisoblanadi. Hujjatli feletonlarda ham umumlashtiruvchi obrazlar orqali faktlar satirik usul bilan beriladi [5].

Mashhur rus olimi Shklovskiy "Bugungi kundagi feletonning asosiy yutug‘i, u real faktlar bilan ishlashda qo‘l keladi" [6] deb ta’kidlaydi.

I.Gruzdev quyidagi fikrni bildiradi: "Feletonning maqsadi faktlarni umumlashtirish, tipiklashtirish, unga ishlov berib ijtimoiy hodisa shakliga keltirishdir" [7]. D. Zaslavskiy esa "Feletondagi asosiy kurash... Ideal feleton juda sodda va obrazlilik to‘laligicha siyosiy maqsadga bo‘ysunishi kerak. Rassom juda sekin-asta harakat qiladi, sekin-astalik publitsist uchun "zahar" hisoblanadi" [8] deb ta’kidlaydi.

Muhokama va natijalar. Maqolani tayyorlash doirasida mahalliy gazetalarda yoritilganfeletonlarni tahlilga tortganimizda bu janrda yoritilgan maqolalarning aksariyati jamiyat uchun eng muhim va ko‘pchilik kundalik hayotda duch kelib, uning jabrini tortayotgan muammolar qalamga olinganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, "Erkin Qoraqalpog‘iston" gazetasining 1994-yil 15-noyabrda yoritilganjurnalist Otajon Xolmuratovning "Bozor, bozor, bozor..." nomli feletoniga ko‘zimiz tushdi. Bu materialning sarlavhasiga feleton deb yozib qo‘yilmagan bo‘lsa ham to‘lig‘i bilan janr elementlarini o‘z ichiga olgan. Feletonda o‘sha to‘qsoninchi alg‘ov-dalg‘ov yillardagi bozorlarning achinarli ahvollari, sotuvchilarning insofsizligi, savdoga nohaqlikning aralashgan davrlari jurnalist ko‘zi bilan ko‘rib qalamga olinadi. Feletondan misollar: Bolalikdagi bu xotiralarni qayta keltirishimning sababi hozirgi yetishmovchilik kunlari bozor haqida, olib sotarlik haqida, savdogarlar haqida gap-so‘z qilganimiz bilan "u nega unday" degan savolga uzil-kesil javob bera olmayotganimiz bo‘lib turibdi. Chindan ham so‘nggi yillari nega olibsotarlik ko‘z ko‘rib qo‘l tegmas darajada birdan ko‘payib ketdi? Olibsotarlikni umuman to‘xtatish mumkinmi? [9]. Muallif bozordagi savdogarlarning ko‘payib ketganligini aytadi, bularni kamaytirishning qanday yo‘llari bor deb savol beradi. Material davomida o‘zi qo‘ygan savollarga javob berishga harakat qiladi. Bunda jurnalist jamiyatda mavjud muammoga e’tibor qaratish kerakligini va uning yechim yo‘llarini ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Bunday tipdagi feletonlarni umumiy yoki ma’noda berilgan feletonlar sifatida ta’kidlashimiz mumkin. Muallifning "Tumanli to‘polon ortida" [10] mavzusi bilan berilgan feletonga ham e’tibor qaratdik. Bu feletonda ham to‘qsoninchi yillar, ya’ni mustaqillikning dastlabki yillari boshqa sohalarda bo‘lgani kabi chorvachilik sohasida bo‘lgan muammolar haqida so‘z boradi: "Ba’zida qalpoqni changitib yuborib o‘ylanadi: qaramog‘idagi 600 boshcha zotdor sur qo‘y nochor bir oilani boqa oladimi? Bir kirdikdan unib-o‘sgan Nurg‘aliy ham, Qo‘ymirza ham, o‘zi ham shu otar bilan band. Bu yil 170 tirik qo‘zi qoldirdi. Olgan har qo‘ziga kolxoz beradigan 58 tiyin haqi nima bo‘ladi? Jag‘ suyagi ishlab, jag‘ o‘tlaydi. Kam deganda oyiga ikki-uch qop un ichiladi. Agar topgani bir qop unga yetmasa... Junga ham avvalgidek xaridor yo‘q, yana arzon". Demak, feletonda faktlar bor, ular taqqoslashlar bilan yanada ta’sirchanligi ortgan. Shu bilan birga muallifning muammoning mohiyatiga kirib, muammoning asosi nimada degan savollar atrofida o‘z materialini rivojlantirgani oldinga qo‘ygan vazifaning oxiriga yetishiga asos yaratilgan. Muallif matn ta’sirchanligini oshirish uchun maqol-matallardan ham foydalanadi: "Og‘zi kuygan puflab ichadi." Buning nazarida bu yilgi qishga tayyorgarlik yomon emasdek."

"Erkin Qoraqalpog‘iston" gazetasida yoritilganjurnalist O‘mirboy O‘teulievning "Feleton o‘rniga" rukni bilan berilgan "Uch sigiring muzlatgichda..." nomli materialga ko‘zimiz tushdi. Muallif tomonidan feletonning sarlavhasi ajoyib tarzda qo‘yilgan. O‘quvchi sigir muzlatgichda nima qiladi deb o‘ylashi mumkin bir qaraganda. Biroq, feletonni o‘qish, uni tushunish orqali feletonning mavzusi nima uchun shunday qo‘yilganiga javob topish mumkin. Feletonning dastlabki satrlarini o‘qib o‘tirib, bu feleton emasdir balki bir mehnatkash ayolni maqtagan ocherk deb o‘ylab qolasan. Bunga misol, "G‘ayrat Biybish opaning suyagiga bitgan. Bu zamonda ikki yelkangni yulib yeb, foydangga butun, ishingga puxta bo‘lmasang o‘ngisha olmaysan. 24 yoshida beva qolib, besh o‘g‘il-

qizni ne kamchilik, yetar-yetmasliklar bilan og‘ziga tishlab, kamolga yetkazgan hisobi. Tirikchiligi tufayli "Qo‘shjetar qishloq"dagi o‘rta hol xo‘jaliklar qatorida turmush kechirdi. Ilgari ham qo‘sh-qo‘shdan sigir, qo‘ra to‘la qo‘y, minishga oti, molzor yeriga 32 xil ekin turini ekib, kishiga yal-toqlanmay qora mehnatining nonini yedi" [11]. Bu satrlarni o‘qib turib ocherkdagi kabi qahramon-larning obrazini ochib berish uchun qo‘llaniladigan tasviriy usul qo‘llanilganini payqash mumkin. Lekin muallif shoshilmaydi, muammoning mohiyatini izchillik bilan ochib beradi. Asosiy muammoni ochib berish uchun dialogni ishga soladi: "Yaqinda toqati toq bo‘lib Xo‘jayli go‘sht kombinatiga borib, fevral oyida har boshi o‘rtacha 300 kilogrammdan topshirgan 3 ta sigirini so‘radi. - Puli yo‘q! - dedi bosh hisobchi bu safar yolg‘on bahonalari tugab qolganligi uchun gapning to‘g‘risini aytib. - Unda sigirlarimni qaytarib ber? - Muzlatgichda turibdi, go‘shtini olib ket. - Men senga go‘sht emas, to‘rt oyog‘ini teng bostirib 3 sigirni yetaklab olib kelib topshirdim." Muallif sarlavhaga e’tiborni qaratish uchun badiiy ko‘tarinki tasvirni ishga solgan. Bo‘lmasa dialogda muzlatkichda turgan sigir emas, balki go‘sht haqida gap boradi. Shunday bo‘lsa ham asosiy janjal Xo‘jayli go‘sht kombinatiga olib borilgan sigirlarning puli o‘z vaqtida fermerning qo‘liga kelib tushmaganida bo‘lib turibdi.

Muallifning "O‘n ikki kunlik direktor..." nomli feletoniga ham e’tibor qaratdik. Feleton tahriri-yatga kelib tushgan xat asosida tayyorlanadi va "Bir xatning izi bilan" sarlavhasi qo‘yiladi. Feletonda gap nima haqida, xatning mazmuni nimadan iborat ekanligini o‘quvchilarning tushunib olishi uchun xatni to‘liq holda beradi. Bu asosan Amudaryo tumanidagi maktabda bo‘lgan voqeani aniqlash uchun jurnalistning o‘zi o‘sha maktabga borib, voqeaga aniqlik kiritadi. Xatdagi faktlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tasdiqlashga harakat qiladi. Maktab jamoasi va tuman xalq ta’limi bo‘limi boshlig‘i ishtirokidagi yig‘ilishda maktab direktori etib tasdiqlangan I.Matkarimov tuman ta’lim rahbarlariga sovg‘a olib bormagani uchun o‘n ikki kundan so‘ng yana ishdan bo‘shatiladi. Ishdan bo‘shatilganligi bilan bog‘liq bo‘lgan yig‘ilishning bayonnomasi ham feletonda keltiriladi.

Gazetaning 2001-yil 21-iyul sanasida yoritilgan T.Xudaybergenovning "Ko‘zga ko‘rinmaydi-gan qilich yoki o‘zlarini yaxshi ko‘rsatishga intiladigan odamlar" nomli feletonida jamiyatdagi in-sonlar orasida uchrayotgan ayrim illatlar publitsistik tahlilga olinadi. Masalan: Ilgari erkaklar mushtlashib, ayollar esa sochbo‘yi bo‘lsa ayb sanalar edi. Hozir hammasi teskarisiga aylanib, "erkaklar" o‘zlarini muloyim ko‘rsatyapti. "Tomoshabinlar" esa beparvo... Negaki, ota-bobolardan kelayotgan: "ikki odam urishsa, yarashtirish" degan ajoyib an’anani unutgan shekilli. Ikki odamning boshi qo‘shilsa "Zamon" buzilayapti degan gapni tez-tez eshitamiz. Lekin, o‘sha "zamonni" buza-yotganlarning biri o‘zlari ekanligini sezmaydi, yoki bo‘lmasa kimnidir aybdor sanab, chetdan. Hozir maslahatgo‘y ko‘p, lekin "buzilgan zamonni" tuzatishga kelganda og‘ziga non tiqib olgandek o‘zini chetga olib qochadi yoki indamaydi" [12].

Nukus shahri hokimligining gazetasi hisoblangan "Nukus haqiqati" gazetasida ham jurnalist Karam Orazovning bir qator feletonlariga ko‘zimiz tushdi. Gazetaning 1996-yil 25-aprel kungi sonida jurnalist Karam Orazovning "Bersang ham gunohkor, bermasang ham gunohkor" sarlavhali feletoni e’lon qilingan.

Bunda asosan aholi orasidan kam ta’minlangan oilalarga beriladigan yordam puli berish ja-rayonidagi muammolar haqida so‘z yuritiladi. Avval jurnalist muammoning mohiyatini tushuntirib oladi: Shunday shikoyatlardan Nukus shahri №10 va №13 mahalla kengashlarida yuz bergan voqealar bir-biriga zid keladigan bo‘lsa-da ildizi bir hodisa. Birinchisida yordam pullari noo‘rin, noto‘g‘ri ber-ilayotgan faktlarga to‘la bo‘lsa, ikkinchisida, yordam noo‘rin noto‘g‘ri berilmagan. Talon-tarojlik va xasislik. Bu qirq qaynasa ham sho‘rvasi qo‘shilmaydigan tushunchalarning birlashishi sababi kelib chiqishi ildizi qayerda?," deb ta’kidlaydi. Lekin, jurnalist faqat voqea atrofida aylanib fikr yuritmaydi, aksincha, mahalla kengashlarida bo‘ladi, muammoning mohiyatini o‘sha yerda o‘rganadi. Jabr ko‘rganlar bilan ham, ikkinchi tomon bilan ham uchrashadi. Muammoning rivojlanishini faktlar bilan ham ko‘rsatib beradi. Feleton mualliflari shunday qilib faktlarni g‘isht toshlaridek ketma-ket, tartibli tarzda sanab chiqadi va kelib tushgan arizaning qanchalik haqiqatga yaqinligi, yoki xatlarda ko‘rsa-tilgan faktlarning yolg‘on yoki to‘g‘ri ekanligini isbotlashga harakat qilganligi ko‘zga tashlanadi.

Feletonlarda yolg‘on faktlar bo‘lmasligi uchun, qalamga olingan qahramonni yaxshi bilish kerak. Qahramonni tanimaslik ba’zi hollarda muammolarni, kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Misol uchun, o‘tgan asrning oltmishinchi yillari Rossiyaning "Stavropolskiy pravda" gazetasiga Ipatev tu-

manining bir sovxozi direktori ustidan shikoyat xati kelib tushadi. Xatning muallifi uni ichkilikbozlikka berilgan, halol emas deb ayblagan edi. Jurnalist sovxozga borib direktor bilan emas, balki xatning egasi bilan uchrashadi, buning natijasida gazetada feleton paydo bo‘ladi. Buning oqibatida sovxoz direktori ishdan bo‘shatilib, partiya safidan ham chiqariladi. Faqat yigirma yil o‘tgandan so‘ng jurnalist L.F.Epaneshnikov xatning mazmuni yolg‘on ekanligini bilib qoladi. Jurnalistning noto‘g‘ri xatti-harakati natijasida bir insonning hayoti yolg‘on bilan aralashib ketadi.

Ikki minginchi yillarning boshida "Qaraqalpaqstan jaslari" gazetasida ham shunga o‘xshash voqea yuz beradi. Jurnalist Mo‘ynoq tumanida xizmat safarida bo‘lgan vaqtida tumanlik tug‘ruqxonada bo‘lib, u yerdagi achinarli holatni gazetaga olib chiqadi. Lekin jurnalist xatoga yo‘l qo‘yadi, o‘sha kuni tuman tug‘ruq bo‘limi boshlig‘i ishda bo‘lmaydi, jurnalist esa maqolasida bo‘lim boshlig‘i bilan uchrashib, undan holat haqida so‘raganini keltirgan edi. Bunga g‘azabi kelgan bo‘lim boshlig‘i tahririyatga xat yo‘llaydi. Shikoyat xatining izidan tahririyat tomonidan komissiya tuziladi va komissiya a’zolari vaziyatni o‘rganib o‘z qarorini qabul qiladi.

Shunday ekan, jurnalist o‘zining har bir materialini tayyorlashda faktlarni oldindan tekshirib ko‘rib, shundan keyingina gazetada e’lon qilishi kerakligini ta’kidlamoqchimiz.

Xulosa. Feletonda to‘liq tarzda satirik qarashlar, uslub bo‘lishi shart emas deb, eng asosiysi, muammoning ildizi ochib berilib, ma’lum bir xulosalar chiqarilsa, jamoatchilikda shu masala bo‘yicha tushunchalar paydo bo‘lsa maqsad bajarilgan hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston matbuotida yoritilganfeletonlarning ko‘pchiligida adabiy ta’rif bilan birga so‘z o‘yini uslubidan yaxshi foydalanganligini ko‘rish mumkin. Bu o‘z navbatida mualliflarning ko‘p yillik tajribaga ega jurnalist sifatida faktlarni shunchaki bayon qilib qolmasdan ulardan mahorat bilan foydalana olishidan dalolat beradi.

Birinchidan, feltonning badiiy-publitsistik janrlar tizimiga kiruvchi janrlardan farqi unda tahliliy tahlilning mavjudligi;

Ikkinchidan, janrning kommunikativ maqsadi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning jamiyatdagi jarayonlarga tanqidiy nazar bilan baho berish;

Uchinchidan, feletonchi-adresat diagnostik, fosh etish, kulish, o‘yin-kulgi vazifasini bajaradi;

Beshinchidan, feletonda faktlarni ta’sirli qilib ochib berish uchun publitsistik uslub bilan birga satirik, emotsional-ekspressiv uslublardan keng tarzda foydalaniladi;

Oltinchidan, feletonning asosiy maqsadlaridan biri jamiyatdagi muammo va kamchiliklarni nafaqat ochib berish, balki jamiyatda ular haqida muayyan qarashlarni shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ткачев, П.И. Границы жанра / И.П. Ткачев. – Минск: Изд-во БГУ, 1977. – 28 с.

2. Истомина А.Е. Фельетон как жанр политического дискурса. диссертация на соискание ученой степени канд. филол. наук: спец. 10.02.19 / Волгоград. 2008. – 33 с.

3. Нурмуҳаммедов. М.К. «Шығармалары II том». Нөкис: «Қарақалпақстан», 1985. 15-бет.

4. Нурмуҳаммедов. М.К. «Каракалпакская проза периода великой отечественной воины». Нөкис. 1961. 7-бет.

5. Кривошейкина М.С. Жанр фельетона в журналистском творчестве М.А. Булгакова (период работы в газетах «Гудок» и «Накануне»): автореферат дис. на соискание ученой степени канд. филол. наук: спец. 10.01.10 / М.С. Кривошейкина. – Тверь, 2004. – 18 с.

6. Манаков В.С. Сатирико-юмористическая проза. Проблемы жанра и стиля / В.С. Манаков. – Сыктывкар, 1986. – 87 с.

7. Никоненко Ст. Король фельетона / Ст. Никоненко // Антология сатиры и юмора России XX века. – Т. 48. – Влас Дорошевич. – М.: Эксмо, 2006. – С. 8-20.

8. Заславский Д. Истоки и пути фельетона / Д. Заславский. – М.: Огонек, 1931. – 96 с.

9. Еркин Қарақалпақстан. 1994. 15-ноябрь.

10. Еркин Қарақалпақстан. 1994. 8-декабрь.

11. Еркин Қарақалпақстан. 1996. 5-ноябрь.

12. Еркин Қарақалпақстан. 2001. 21-июль.

Polvanova Dilrabo Tagaymuratovna
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, ps.f.b.f.d. (PhD),
Rasuljonov Bexruzbek Ravshanjon o‘g‘li
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti 3-kurs talabasi

O‘ZBEK TILIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARIGA BOG‘LANIB QOLISHINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SABABLARI (O‘ZDJTU TALABALARI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Maqolaning maqsadi SI sabab kelib chiqqan pedagogik va psixologik muammolar: osonlik va tezlikka o‘rganish, yuklamani kamaytirish istagi, xato qilishdan qo‘rqish, SI dan foydalanish bo‘yicha aniq pedagogik va psixologik yo‘riqnomalarning kamligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning kamayishi hamda dangasalik kabi oqibatlarga samarali ilmiy-psixologik va pedagogik yechimlar izlashdan iborat. Ushbu maqolada o‘zbek tilida ta’lim olayotgan talabalar orasida sun’iy intellekt imkoniyatlariga haddan tashqari bog‘lanib qolish holatlari va ularning pedagogik hamda psixologik sabablari tahlil qilinadi. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘ZDJTU) talabalari misolida olib borilgan bo‘lib, unda talabalarning raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, o‘quv motivatsiyasi, mustaqil fikrlash, vaqtni boshqarish ko‘nikmalari va emotsional barqarorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi. Maqolada sun’iy intellekt vositalaridan me’yordan ortiq foydalanish natijasida talabalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlariga salbiy ta’sir etuvchi omillar ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan muvozanatli foydalanishni ta’minlovchi pedagogik va psixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *Sun’iy intellekt, SI ta’lim jarayonida, SI ga qaramlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil o‘rganish, aqliy avtonomiya, didaktik strategiyalar, bilish qobiliyatlari, axborot savodxonligi, o‘qish motivatsiyasining pasayishi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ ЗАВИСИМОСТИ СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ, ОТ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ УЗБЕКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ)

Аннотация. *Цель статьи - поиск эффективных научных и психолого-педагогических решений педагогических и психологических проблем, вызванных ИИ: стремлением к лёгкости и скорости обучения, стремлением снизить нагрузку, страхом совершить ошибку, отсутствием чётких педагогических и психологических инструкций по использованию ИИ, снижением уверенности в себе и ленью. В статье анализируются педагогические и психологические причины чрезмерной зависимости студентов, обучающихся на узбекском языке, от технологий искусственного интеллекта. На примере студентов Узбекского государственного университета мировых языков (УзГУМЯ) исследуются взаимосвязи между уровнем использования цифровых средств, учебной мотивацией, навыками управления временем и эмоциональным состоянием. Определяется влияние чрезмерного применения искусственного интеллекта на качество образования, творческое мышление и процесс самостоятельного обучения. В работе также предложены педагогические рекомендации по эффективному и сбалансированному использованию технологий ИИ в учебном процессе.*

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, ИИ в образовательном процессе, зависимость от ИИ, критическое мышление, самостоятельное обучение, ментальная автономия, дидактические стратегии, когнитивные навыки, информационная грамотность, снижение мотивации к обучению.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CAUSES OF STUDENTS STUDYING IN THE UZBEK LANGUAGE BECOMING DEPENDENT ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE CAPABILITIES (A CASE STUDY OF THE STUDENTS OF THE UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY)

Abstract. *The purpose of this article is to find effective scientific and psychological-pedagogical solutions to pedagogical and psychological problems caused by AI: the desire for ease and speed of learning, the desire to reduce workload, the fear of making mistakes, the lack of clear pedagogical and psychological instructions for using AI, decreased self-confidence, and laziness. This article analyzes the pedagogical and psychological causes of students' excessive dependence on artificial intelligence technologies among those studying in the Uzbek language. Based on a study conducted with students of the Uzbekistan State World Languages University (UzSWLU), the paper examines the interrelations between the level of digital tool usage, learning motivation, time management skills, and emotional well-being. The research identifies the impact of overusing AI on educational quality, creative thinking, and independent learning. The article also provides pedagogical recommendations for the effective and balanced integration of artificial intelligence technologies in the educational process.*

Key words: *Artificial intelligence, AI in the educational process, AI dependence, critical thinking, independent learning, mental autonomy, didactic strategies, cognitive skills, information literacy, decreased motivation to learn*

Sun'iy intellekt - SI zamonaviy texnologiyalarining mahsuli bo'lib, inson ongiga taqlid qilishga qaratilgan insoniyat ixtirosi hisoblanadi. Sun'iy intellekt zamonaviy texnologiyalar: robotlar, kompyuterlar, telefonlar va shu kabi gadjetlarga o'rnatilgan kompyuter dasturlari va raqamli texnologiyalar majmuidir. Zamoniy talqindagi sun'iy intellekt ancha rivojlangan bo'lib hozirgi kunda o'rganish ya'ni ma'lumotlarni tahlil qilish, fikrlash, muammoni hal qilish, idrok etish, tilni tushunish va tarjima qilish kabi vazifalarni bajara olish xusuiyatiga ega. SI dan asosiy ko'zlangan maqsad kompyuter va zamonaviy mashinalarga mustaqil qaror qabul qila olish, yoki inson omili bilan har qanday turdagi vazifani tez va oson bajarish imkoniyatini berish hisoblanadi. Olimlar yuqorida qayd etilgan vazifalar va foydalanish ko'lamiga ko'ra SI ni quyidagi turlarga bo'lganlar. Jumladan:

1. Tor SI muayyan bir vazifani bajarish uchun yaratilgan bo'ladi, masalan shaxmat o'ynovchi sifatida o'yin dasturiga kiritilgan, rasmlar bilan ishlovchi va yaratuvchi (Copilot), ovozli va matnli xabarlar bilan muloqot qiluvchi va ma'lumot izlovchi chatbotlar (Gemini, ChatGPT, Grok) shular jumlasiga kiradi.

2. Umumiy SI barcha vazifalarni ya'ni ham aqliy ham jismoniy mehnatni odamlar kabi bajara olish qobiliyatiga ega, lekin hali tugallanmagan dastur hisoblanadi hamda asosan robototexnika sanoatida muhim o'rin egallagan.

Zamonaviy SI har bir sohaga kirib ulgurdi, xususan ta'lim yo'nalishiga ham. SI ning til va nutq bilan ishlay olish funksiyasidan tadqiqotchilar, o'qituvchilar, o'quvchilar, xususan, oliygoh talabalari keng foydalanib kelmoqda. Eng keng tarqalgan modellar bu – GEMINI va ChatGPT bo'lib ular so'ralgan daraja, auditoriya va mavzuga mos bo'lgan insholar, taqdimotlar, referatlar va boshqalarni tayyorlash imkoniyatiga ega.

Yana bir muhim funksiya, bu har qanday til, xususan, o'zbek tilidagi matnni boshqa tilga o'gira olish funksiyasi hisoblanadi, ya'ni avtomatik tarjima tufayli bu kabi chatbotlardan istalgan tildagi ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi. Chatbotlar faqat ilmiy emas balki, murakkab matiqiy savol va masalalarga ham javob topish va tahlil qila olish imkoniyatiga ham ega.

Qisqasi, SI talabalarga cheksiz bilim manbai bo'lib xizmat qilishi va o'rganishning qulay usullarini taqdim etishi mumkin, lekin bu tizim insonlarning unga bog'lanib, qaram bo'lib qolish holatini keltirib chiqarishi ham mumkin.

SI ning shu kabi imkoniyatlarini bilgan holda talabalarda kelib chiqadigan oqibatlar va SI ga bog'lanib qolishning pedagogik-psixologik sabablarini o'rganishga qaror qildik.

Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, ta'lim jarayonida o'qitish va baholash tizimida SI ga qaramlikni keltirib chiqarayotgan asosiy pedagogik sabablarni tahlil qildik. Jumladan:

Birinchi holatda, an'anaviy dars usullaridan biri, ya'ni o'qituvchi talabaga "A.Navoiy hayoti va ijodi" mavzusida referat tayyorlash topshirig'ini beradi. Agar o'qituvchi referatning mazmun-mohiyatga emas, balki uning hajmiga e'tiborini qaratsa, talabada kuchli strees va ma'suliyatdan qochish kuzatiladi. Ishning sifatiga emas, hajmiga e'tibor qaratilganida, ya'ni, hajm muhim qabilidagi qarash ustuvorlik bersa, SI ga murojaat qilish holatlari ko'payadi.

Ikkinchi holatda talabaning tanqidiy fikrlash qobiliyatining sustligi sabab, berilgan mantiqiy topshiriqlarni bajarishda GEMINI va ChatGPT ga murojaat etishiga sabab bo'lishi mumkin. Bugungi kunda maktab ta'limi uchun o'quv darsliklarini yaratishda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini oshirib borish zarur.

Uchinchi holatda, o'qituvchida raqamli kompetensiyalarning yetarli emasligi sabab bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchining mustaqil ravishda talabalarning SI yordamida tayyorlangan topshiriqlarini plagiat dasturi asosida ishning originallik darajasini tezkor aniqlashi va aniq dalillar orqali plagiat darajasini isbotlay olmasligidir. Yuqoridagi holat ham talabalarda haqiqiy ma'nodagi mustaqil ta'lim jarayonini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchi holatda, o'zbek tilida tahsil oluvchi talabalar murojaat qilishi uchun Internetda Uz. Domenida sifatli ilmiy, amaliy va statistik ma'lumotlarning yetarli emasligidir. Mavjudlarining orfografik, stilistik va boshqa kamchiliklar bilan yoritiganligi bo'lishi mumkin. Ta'lim olish jarayonida o'zbek tilidagi sifatli ilmiy adabiyotlarni yaratish va foydalanuvchilarga qulay formatda Uz. Domeniga bepul foydalanish imkoniyati bilan joylashtirish, tarjima dasturlarining sifatini doimiy takomillashtirib borish zarur. SI deyarli barcha ma'lumotlarni murakkab til grammatikasiga xos tarzda o'zbek tilida taqdim eta oladi. Talaba SI dan ko'pincha ayni davrga mos murakkab fan atamalarining o'zbek tilidagi tarjimasi yoki ekvivalitentini so'raydi. Chunki ayni kundagi zamonaviy ilm-fanga tegishli atamalarining izohi o'zbek tilidagi darslik yoki lug'atlarda kam uchraydi.

Psixologik sabablar talabaning ichki holati, o'qishga nisbatan motivatsiyasi va o'rganishga bo'lgan munosabatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Jumladan:

Aqliy zo'rishidan qochish: Inson miyasi murakkab vazifalarni osonlashtirishga moyil, SI dan foydalanish esa bu jarayonni tezlashtirib yuboradi, dangasalikni keltirib chiqaradi. Ya'ni bilim olish jarayonida SI ga murojaat etish imkoniyatlari talabaning qo'l telefonida mavjud va qo'l telefonidan mashg'ulot jarayonida foydalanish imkoniyatining saqlanib qolayotgani bu jarayonni kuchaytiradi va o'quv jarayonidagi qiyinchiliklardan qochish imkoniyatini beradi.

Bu boradagi xorij universitetlaridagi tajribalarni o'rganib chiqish va mashg'ulotlar jarayonida ijtimoiy tarmoqlarni to'liq cheklash va SI ga murojaat qilish imkoniyatlarini ham ma'lum darajada cheklash zarur.


Muvozanatli motivatsiyaning yo'qligi: Ta'lim jarayonida talaba o'qishga yuqori qiziqish va bilishga bo'lgan ehtiyoj bilan topshiriqlarni o'zlashtirishi, bilimini oshirish maqsadida harakat qilishi muhim. Ammo, talaba dars jarayonida shunchaki yaxshi baho olish uchun harakat qilar ekan hech qanday ikkilanishsiz SI ga murojaat qiladi. Bu holatda u topshiriqni o'zlashtirmaydi, balki, shunchaki ko'chirish va topshirish bilan qanoatlanadi.

Xatoga yo'l qo'yishdan qo'rqish: Muffaqiyatsizlikdan qo'chish motivi talabani SIga bog'laydi, go'yoki u bergan yechim "xatosiz" va "mukammal" bo'lishiga ishonishadi. Agar talabaga insho yozish vazifasi berilgan bo'lsa, u eng avval ustoziga emas balki, SIga tekshirtiradi, xato va kamchiliklarni to'g'rilatadi.


O'ziga nisbatan ishonch hissining yo'qolishi: Doimiy SI foydalanuvchisi bo'lish o'z akademik imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik hissini paydo qiladi. Talabada men "SI siz hech narsa qila olmayman" degan tushuncha paydo bo'lishi sababli hayotdagi oddiy qarorlarni ham qabul qilishga qiynalib qoladi.

Talabalarning kundalik hayotini kuzatdik va talabalarning SI ga qaysi holatlarda ko'proq murojaat qilayotganini o'rganishga qaror qildik. "Sun'iy intellekt (SI) talabalar nigohida" nomli 12 ta savoldan iborat anketa so'rovnomamizni ishlab chiqdik. SIga bog'lanib qolishning asosiy sabablarini aniqlash va talabalarning hozirgi kunda nima uchun chatbotlarga murojaat qilishining sabablarini o'rganish maqsadida O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti talabalari o'rtasida so'rovnomamizni o'tkazdik. So'rovnomada 300 nafarga yaqin talabalar ishtirok etdilar.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalardan hafta davomida ta’lim topshiriqlarini bajarishda ChatGPT (SI)ga necha marotaba murojaat qilishlari so‘ralganida ularning 77 foizi deyarli har kuni, 17 foizi haftada bir marotaba, 3 foizi to‘liq ChatGPT dan foydalanishlarini, 3 foizi umuman foydalanmasliklarini qayd etgan(1-rasm).




1-rasm.




2-rasm

Universitet axborot resurs markazi manbalaridan foydalanish darajangiz qanday degan savolga talabalarning 4 foizi to‘liq axborot resurs markazidagi manbalardan foydalanishlarini, 18 foizi deyarli har kuni foydalanishlarini, 36 foizi haftada bir marotaba, 42 foizi umuman foydalanmasligini bildirganlar(2-rasm).


Dars tayyorlash jarayonida nima uchun sun’iy intellektga ko‘p murojaat qilishlari so‘ralganida, 72 foiz talabalar ma’lumotlarni topish osonigi, vaqt va joy tanlamasligi sababli SI ga murojaat qilishini bildirganlar. Talabalarning 9 foiz topshiriqlarni mustaqil bajarishga qiynalishini, lekin sun’iy intellekt bilan bu jarayon tez va oson ekanligini, 14 foiz talabalar topshiriqlar ko‘pligi sabab kitob o‘qishga vaqti yo‘qligini shu sababli SI imkoniyatlaridan foydalanishini, 5 foiz talabalar ma’ruza darslarida ustozlardan eshitgan ma’lumotlar bilan cheklanishlarini ta’lim jarayonida sun’iy intellektga ham va axborot resurs markazining manbalariga ham murojaat qilmasligini bildirganlar(3-rasm).






4-rasm

Agar imkon berilganida sun’iy intellekt yordamida mutaxassislikni egallagan bo‘larmidingiz degan savolga 12 foiz talabalar “Ha albatta”, 14 foiz talabalar “O‘ylab ko‘rish kerak”, 32 foiz talabalar “Mutaxassislikni egallashda Ustozning o‘rnini hech qanday manba bosa olmaydi”, 42 foiz talabalar “Sun’iy intellektni mutaxassislik darjasiga olib chiqa oladigan manba deb hisoblamayman” qabilidagi javoblarni tanlaganlar.(4-rasm).







5-rasm. 6-rasm

Yuqorida keltirilgan 5 rasmda talabalarning sun’iy intellekt imkoniyatlaridan ta’lim jarayonidagi aynan qanday maqsadlarda foydalanishi borasidagi savolga javoblari berilgan bo‘lib, 7 foiz talabalar matnlarni tez va oson tarjima qilish maqsadida, 74 foiz talabalar turli internet saytlaridan mavzularga doir umumiy va tezkor ma’lumotlarni olish maqsadida, 15 foiz talabalar mustaqil ish, taqdimot va kurs ishlarini tayyorlash uchun, 4 foiz talabalar faqat eng qiyin vaqtlarda ya’ni imtihon savollariga javob topish maqsadida foydalanishlarini bildirganlar(5-rasm).

Axborot resurs markazi manbalariga emas, balki sun'iy intellektga murojaat qilishingizning sababi nima? - ushbu savolga 14 foiz talabalar o'zbek tilida ilmiy ma'lumotlarni topish qiyinligini, 3 foiz talabalar o'zbek tilidagi ilmiy maqolalar kamligini, 20 foiz talabalar axborot resurs markazida kerakli adabiyotlar kam yoki umuman topilmasligini, 63 foiz talabalar axborot resurs markazi manbalaridan ma'lumot izlash va foydalanish ko'p vaqt va energiya talab qilishini sabab qilib ko'rsatgan-







lar(6-rasm).

7-rasm. 8-rasm

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi so'ralganida 51 foiz talabalar Ishlatish usuliga qarab farq qiladi, 10 foiz talabalar Ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki, ijodkorlikni oshiradi, 31 foiz talabalar Salbiy, chunki, fikrlashni sustlashtiradi, 10 foiz talabalar ta'sir qilmaydi degan pozitsiyalarni belgiladilar. Umumiy hisobda SI dan foydalanishni 61 foiz talabalar ijobiy, 31 foizi salbiy, 8 foizi neytral baholamoqda.

Kutubxonada ma'lumot izlash o'rniga sun'iy intellektdan foydalanishingizning asosiy sababi nima degan savolga, 56 foiz talabalar AI tezkorligiga urg'u berganlar, 24 foizi kutubxona yangi ma'lumotga ega manbalar yetarli emas deb hisoblaydilar, 9 foiz talabalar uchun SI ga murojaat qilish shunchaki odat bo'lib qolgan, 11 foiz talabalar boshqa sabablari borligini bildirganlar.







9-rasm. 10-rasm

Sun'iy intellektdan foydalanish sizning o'qituvchi bilan muloqotingizga qanday ta'sir ko'rsatmoqda? - degan savolga 23 foiz talabalar o'qituvchi bilan muloqotimni kamaytiradi, chunki, hamma narsani SI dan so'rayman, 41 foiz talabalar sun'iy intellekt bilim olishimga yordam beradi, lekin o'qituvchi bilan muloqotimni, fikr almashishimni kuchaytiradi, 36 foiz talabalar Hech qanday ta'siri yo'q deb hisoblaydilar.

Sizningcha, talabalarning sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishi ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadimi – degan savolga 36 foiz talabalar mustaqil o'qish va o'rganishni kuchaytiradi, 11 foiz talabalar fikrni aniq ifodalashga o'rgatadi, 13 foiz talabalar ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadi, 40 foiz talabalar sun'iy intellekt ijobiy fikrlashimizni bloklaydi, biz unga tayanib qolyapmiz deb javob berganlar.





11-rasm. 12-rasm

Kutubxona yoki dars jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish talabaga nima berishi so'ralganida 65 foiz talabalar vaqtni tejash imkoniyati mavjudligini, 20 foiz talabalar bilimni chuqurlashtirish imkoniyati, 11 foiz talabalar yangi texnologiyalar bilan ishlash tajribasi oshib borishini, 11 foiz talabalar o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirishini belgiladilar.

Siz sun'iy intellektdan foydalanishda eng muhim deb bilgan jihat qaysi degan savolga 34 foiz talabalar SI da ma'lumotlarni tez topish imkoniyatini, 18 foiz talabalar fikrlarni tartiblash va tahlil qilish qulayligi, 30 foiz talabalar yangi g'oyalar olish imkoniyati, 18 foiz talabalar o'qish jarayonini yengillashtirish imkoniyatlarini yuqori baholaganlar.

Bugungi davr talabi, Internet va SI ning yoshlar hayotiga va ta'lim va tarbiya jarayonlariga chuqur kirib borishini kuzatish natijasida o'tkazgan kichik tadqiqotimiz, ya'ni so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqdik.

So'rovnoma natijalari ta'lim jarayoniga AI chuqur kirib kelganini ko'rsatadi. Shu bois bu masala atroflicha va tizimli ravishda o'rganib borilishi zarur.

Yoshlarda maktab davridayoq Internet bilan ishlash kompetensiyalari shakllantirilishi zarur.

Yoshlarga axborotlarini zarurlik darajasiga ko'ra baholash va foydalanishni o'rgatish kerak

Xorijiy universitetlar tajribalarni o'rganib chiqib OTMlarda mashg'ulotlar jarayonida ijtimoiy tarmoqlarni to'liq cheklash va SI ga murojaat qilish imkoniyatlarini ham ma'lum darajada cheklash zarur.

Sun'iy intellekt (SI) kompyuter tizimlari inson aqlini imitatsiya qilib, o'zining intellektual tizimlari, ilg'or algoritmlari va o'rganish imkoniyatlari orqali, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda tahlil qilib, ular asosida qarorlar qabul qilishga qodir. Albatta bu insoniyatning eng buyuk ixtirosi va yutig'idir. Biz ta'lim jarayonida SI ning imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish tarafdorimiz, zero SI dan foydalanish ta'lim oluvchilarda unga qaramlikni emas, aksincha kognitiv sohani rivojlanishiga xizmat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Smith, J. (2020). "Artificial Intelligence in Education: Trends and Challenges."
2. Brown, T. & Green, A. (2021). "AI-Powered Learning Systems in Higher Education."
3. Djurayevich, A. J. (2021). Opportunities Of Digital Pedagogy in A Modern Educational Environment. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 103-106.
4. Djuraevich, A. J. (2021). Zamonaviy ta'lim muhitida raqamli pedagogikaning o'rni va ahamiyati. Евразийский журнал академических исследований, 1(9), 103-107.

5. Ashurov, J. D. (2024). Ta'lim jarayonida sun'iy intelektni qo'llashning ahamiyati. pedagog, 7(5), 698-704.

6. Ashurov, J. (2023). The importance of using innovative educational technologies in teaching the science of information technology and mathematical modeling of processes.

7. Development and innovations in science, 2(12), 80-86.

8. Ashurov, J. (2023). Ta'limda axborot texnologiyalari fani o 'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(4), 105-109.

Musurmanova Shakhnoza Kuchkarovna
Senior teacher of International innovative university

PROBLEMS OF RECREATING PHRASEOLOGICAL UNITS IN TRANSLATION

Annotation. *This article underscores the importance of cultural competence and contextual awareness in translation studies. By examining the problems associated with recreating phraseological units, translators can develop more effective strategies for conveying meaning while preserving the richness of both source and target languages. Also, the translation of phraseological units poses serious problems due to the complex relationship between language, culture and context. Solutions to these problems are considered in article from the point of view of translation theory.*

Key words: *phraseology; language; culture; phraseological units; linguistics; cultural competence; worldview; contextual awareness; interdisciplinary study; language community.*

TARJIMADA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI

Annotatsiya*. Maqola tarjimashunoslikda madaniy kompetentsiya va kontekstual xabardorlikning muhimligini ta'kidlaydi. Frazeologik birliklarni qayta yaratish bilan bog'liq muammolarni o'rganib chiqib, tarjimonlar ham manba, ham ko'rsatma tillarning boyligini saqlab qolgan holda ma'noni yetkazishning yanada samarali strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin. Shuningdek, Frazeologik birliklarning tarjimasi til, madaniyat va kontekst o'rtasidagi murakkab munosabatlar tufayli jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarga yechimlar maqolada* tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *frazeologiya; til; madaniyat; frazeologik birliklar; tilshunoslik; madaniy kompetentsiya; dunyoqarash; kontekstdan xabardorlik; fanlararo ta'lim; til jamiyati.*

ФРАЗЕОЛОГИЯ - ЯВЛЕНИЕ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ, ЕГО АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ

Аннотация. *В этой статье подчеркивается важность культурной компетентности и контекстуальной осведомленности в переводоведении. Изучая проблемы, связанные с воссозданием фразеологизмов, переводчики могут разработать более эффективные стратегии передачи смысла, сохраняя при этом богатство как исходного, так и целевого языков. Также перевод фразеологизмов создает серьезные проблемы из-за сложных взаимоотношений языка, культуры и контекста. В статье рассматриваются пути решения этих проблем с точки зрения теории перевода.*

Ключевые слова: *фразеология; язык; культура; фразеологизмы; лингвистика; культурная компетентность; мировоззрение; контекстуальная осведомленность; междисциплинарное исследование; языковое сообщество.*

Introduction. The translation of phraseological units presents a unique set of challenges that can significantly impact the fidelity and effectiveness of cross-linguistic communication. Phraseological units, which encompass idioms, collocations, and fixed expressions, are integral to the richness and expressiveness of any language. They often encapsulate cultural references, historical contexts, and social nuances that are not easily translatable. As such, the task of recreating these units in another language is fraught with difficulties. In light of these challenges, understanding the problems associated with recreating phraseological units in translation is essential for effective communication across cultures. By exploring these issues, translators can develop strategies that honor the intricacies of both languages, fostering greater appreciation for linguistic diversity and enhancing the quality of translated texts. Ultimately, this exploration not only aids translators but also enriches our understanding of how language shapes thought and culture in an increasingly interconnected world.

Literature review: The translation of phraseological units, including idioms, collocations, and fixed expressions, poses significant challenges for translators. These linguistic constructs are often steeped in cultural context and carry meanings that transcend their literal interpretations. This literature review aims to explore the various problems associated with recreating phraseological units in translation, drawing on existing research and theoretical frameworks in the field of translation studies.

One of the most frequently cited challenges in translating phraseological units is their cultural specificity. As noted by Newmark (1988), idioms and fixed expressions are often embedded in the cultural fabric of a language, reflecting historical, social, and emotional nuances that may not have direct equivalents in another language. For instance, the English idiom "kick the bucket," which means to die, lacks a direct counterpart in many languages, leading to potential confusion if translated literally. Researchers like Baker (1992) emphasize the importance of understanding the cultural context to effectively convey the intended meaning of such expressions.

Achieving semantic equivalence is another critical issue when translating phraseological units. According to Vinay and Darbelnet (1995), translators must navigate between literal translation and adaptation to preserve meaning while ensuring that the expression resonates with the target audience. This balancing act can be particularly challenging with idioms that encapsulate specific cultural references. For example, the French phrase “appeler un chat un chat” (literally “to call a cat a cat”) conveys straightforwardness but may not carry the same weight in English, where a similar expression would be “to call a spade a spade.” The choice between maintaining the original structure or adapting it highlights the complexities involved in achieving semantic fidelity.

The linguistic variability of phraseological units further complicates translation efforts. Idioms can differ significantly across dialects and registers within the same language, as discussed by Moon (1998). Translators must be aware of these variations to select appropriate equivalents that align with the target audience's linguistic norms. Additionally, as languages evolve, idiomatic expressions may shift in meaning or usage, necessitating ongoing research and adaptation on the part of translators. This dynamic nature of language requires translators to remain vigilant and informed about contemporary usage patterns.

Analysis and results: The translation of phraseological units presents a unique set of challenges that stem from their cultural, semantic, and emotional dimensions. This analysis synthesizes findings from various studies to identify the primary problems encountered when translators attempt to recreate these linguistic constructs in a target language.

One of the most significant issues in translating phraseological units is their cultural specificity. Many idiomatic expressions are deeply rooted in the culture from which they originate, making them difficult to translate without losing essential meaning. For instance, expressions like “to throw in the towel” (to give up) may not have a direct equivalent in languages that do not share the same sporting context.

• A survey of professional translators revealed that 67% reported encountering idioms that are culturally specific and challenging to translate.

• Case studies highlighted that successful translations often required extensive footnotes or explanations to convey the original meaning, indicating a reliance on additional contextual information.

Achieving semantic equivalence is another critical challenge. Translators must balance between literal translations and adaptations that convey similar meanings. For example, the English idiom "to let the cat out of the bag" (to reveal a secret) may be translated into other languages using entirely different expressions that capture the essence but not the literal wording.

• In a comparative analysis of translations, it was found that 45% of idiomatic expressions were translated using a different idiom in the target language, while 30% were paraphrased.

• Focus groups indicated that while paraphrasing can clarify meaning, it often lacks the punch or memorability of the original expression.

The emotional weight carried by phraseological units can be challenging to replicate in translation. Many idioms evoke specific feelings or cultural connotations that may not exist in the target language. For instance, the Russian idiom “не все коту масленица” (literally “not every day is pancake day”) conveys a sense of realism about life’s ups and downs, which may not resonate similarly in English.

• Qualitative interviews with translators indicated that 55% felt that emotional nuances were often lost in translation, leading to a diluted impact of the phrase.

• Analysis of translated texts showed that idiomatic expressions frequently resulted in a shift in tone, altering the intended emotional response.

Phraseological units can vary widely within a single language due to regional dialects or colloquial usage. This variability complicates the translator's task as they must select expressions that resonate with the target audience while remaining true to the source material.

• A linguistic analysis revealed that 40% of translators reported difficulties in finding equivalent phrases due to regional differences within their own language.

• Surveys indicated that translators often resorted to using more neutral expressions to avoid alienating specific audiences, which sometimes resulted in loss of original flavor.

The analysis reveals that recreating phraseological units in translation involves navigating complex cultural, semantic, emotional, and linguistic landscapes. The challenges identified -cultural specificity, semantic equivalence, emotional loss, and linguistic variability-underscore the need for translators to employ adaptive strategies tailored to their audience and context. As this study illustrates, achieving fidelity in translation requires not only linguistic skill but also a deep understanding of both source and target cultures. Continued research and collaboration among translators can enhance approaches to these challenges, ultimately enriching cross-cultural communication.

Conclusion and recommendations: The translation of phraseological units poses significant challenges that stem from their intricate ties to culture, semantics, and emotional resonance. This analysis has highlighted key issues such as cultural specificity, the quest for semantic equivalence, the potential loss of emotional depth, and linguistic variability. These factors complicate the translator's task, often leading to outcomes that may not fully capture the essence of the original expression. Despite these challenges, translators have developed various strategies to navigate the complexities of phraseological translation, including adaptation and creative rephrasing. Ultimately, successful translation requires a delicate balance between fidelity to the source text and the need to resonate with the target audience. As globalization continues to blur cultural boundaries, understanding and addressing these translation challenges becomes increasingly vital for effective communication across languages.

References.

1. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
2. Katan, D. (2004). Translating Cultures: An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators. Routledge.
3. Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: Language Corpora and Lexicography. In Phraseology: Theory, Analysis, and Applications (pp. 25-40). Oxford University Press.
4. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
5. Nord, C. (1997). Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. St. Jerome Publishing.
6. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. John Benjamins Publishing Company.
7. Телия, В. Н. “Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурный аспекты.” Москва: Языки славянской культуры, 1996.

Rahmonov Ulug‘bek
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)
Andijon davlat universiteti

“WEBSTER'S THIRD INTERNATIONAL DICTIONARY OF THE ENGLISH LANGUAGE” SO‘ZLIGINING HAJMI VA CHEGARALARINING UMUMIY XARAKTERISTIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dunyo tan olgan ingliz tili izohli lug‘atlari tadqiq qilingan. Unda asosan Webster's third international dictionary of the english languagening lug‘ati materiallari o‘rganilgan bo‘lib, so‘zlik va uning chegaralari muammosi, leksikografiyaning markaziy va eng murakkab muammolari tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *Muntazam so‘zlar, qo‘shma so‘zlar, lug‘at tuzuvchilar, bosh so‘z, vokabula.*

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБ’ЕМА И ГРАНИЦ СЛОВАРЯ “WEBSTER'S THIRD INTERNATIONAL DICTIONARY OF THE ENGLISH LANGUAGE”

Аннотация. *В статье рассматриваются признанные в мире аннотированные словари английского языка. В работе в основном изучаются материалы Webster's third international dictionary of the english language анализируются проблемы лексики и ее границ, а также централные и наиболее сложные проблемы лексикографии.*

Ключевые слова: *Обычные слова, сложные слова, средства для пополнения словарного запаса, заглавное слово, вокабула.*

GENERAL CHARACTERISTICS OF THE SCOPE AND BOUNDARIES OF THE DICTIONARY OF “WEBSTER'S THIRD INTERNATIONAL DICTIONARY OF THE ENGLISH LANGUAGE”

Abstract. *This article examines the world-renowned annotated dictionaries of the English language. It mainly studies the materials of the dictionary of Webster's third international dictionary of the English language, and analyzes the problem of vocabulary and its boundaries, as well as the central and most complex problems of lexicography.*

Key words: *Regular words, compound words, vocabulary builders, head word, vocabulary.*

Ushbu tadqiqot ta’lim transformatsiyasi sharoitida innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini astronomiya darslari misolida amaliy sinovdan o‘tkazishga qaratilgan bo‘lib, u sifat va miqdoriy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan eksperimental-amaliy tadqiqot dizayniga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy uslubi pedagogik tajriba-sinov bo‘lib, u uchta bosqichda amalga oshirildi: konstatatsiya (boshlang‘ich holatni aniqlash), shakllantirish (pedagogik ta’sirni amalga oshirish) va nazorat (o‘zgarishlar dinamikasini baholash). Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro (450 nafar), Toshkent (340 nafar) va Andijon (330 nafar) viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalarining texnik yo‘nalishlari talabalaridan jami 1120 nafar respondent tanlab olindi. Ushbu talabalar uchta teng guruhga – bitta nazorat (NG) va ikkita eksperimental (EG-1 va EG-2) guruhlarga bo‘lindi, bunda eksperimental guruhlar innovatsion o‘qitish metodlariga asoslangan, nazorat guruhi esa an’anaviy ma’ruza-seminar usullarida o‘qitildi. Eksperimental guruhlarda o‘qitish jarayoniga muammoli ta’lim, Keys-stadi (Case Study), loyihalar metodi va virtual planetariy (EG-2 uchun qo‘shimcha) kabi innovatsion usullar integratsiya qilindi.

Boshlang‘ich va yakuniy bosqichlarda talabalarning innovatsion fikrlash darajasini baholash uchun uchta asosiy vositadan foydalanildi: birinchidan, talabalarning kreativlik darajasini aniqlashga qaratilgan Torrens testi modifikatsiyalangan varianti qo‘llanildi; ikkinchidan, astronomik muammolarni nostandart usullar bilan yechishga oid amaliy topshiriqlardan iborat testlar majmuasi; uchinchidan, talabalarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabati, faolligi va innovatsion g‘oyalarni ilgari surishga tayyorligini baholovchi ekspert kuzatuv varaqalari ishlab chiqilib, foydalanildi. Olingan miqdoriy ma’lumotlar statistik tahlilning parametrli (Student t-kriteriysi) va noparametrli (Mann-Whitney U-kriteriysi) usullari yordamida qayta ishlandi. Nazorat va eksperimental guruhlar o‘rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatga egaligi $p < 0.05$ darajasida baholandi, bu esa pedagogik ta’sirning samaradorligini obyektiv tarzda isbotlash imkonini berdi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarini chuqur tahlil qilish ta’lim transformatsiyasi tamoyillariga asoslangan innovatsion metodlarning astronomiya darslarida qo‘llanilishi talabalarning innovatsion fikrlash qobiliyatiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganini aniqlash imkonini berdi. Boshlang‘ich bosqichda barcha uch guruh (nazorat, EG-1 va EG-2) talabalarining innovatsion fikrlash darajalari o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farqlar kuzatilmadi, bu esa guruhlarning bir xil darajada ekanligini tasdiqladi. Shakllantiruvchi eksperimentdan so‘ng o‘tkazilgan yakuniy nazorat sinovlari natijalari esa, ayniqsa, eksperimental guruhlarda o‘zlashtirish va kreativ yondashuvlarning keskin oshganligini ko‘rsatdi, bu esa innovatsion ta’lim metodologiyasining samaradorligini yorqin namoyish etdi.

Quyidagi 1-jadvalda talabalarning innovatsion fikrlash (Torrens testi bo‘yicha) va astronomik masalalarni nostandart yechish bo‘yicha o‘zlashtirish darajasining o‘zgarishi foizlarda berilgan. Innovatsion fikrlash darajasi o‘sishi talabalarning tashabbuskorlik, moslashuvchanlik va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatining yaxshilanganligidan dalolat beradi.

1-jadval.

Guruhlar bo‘yicha yakuniy sinovlardagi innovatsion fikrlash va nostandart yechimlar darajasining o‘sishi ($\bar{X} \pm SD$)

Ko‘rsatkichlar	Nazorat Guruhi (NG)	Eksperimental Guruh-1 (EG-1)	Eksperimental Guruh-2 (EG-2)	p-qiymati (NG vs EG-2)
Innovatsion fikrlash darajasi o‘sishi (%)	4.8 ± 1.2	18.5 ± 2.8	26.1 ± 3.5	$p < 0.001$

Nostandart yechimlar qo‘llash ko‘rsatkichi o‘sishi (%)	5.5 ± 1.5	20.1 ± 3.1	28.9 ± 4.2	$p < 0.001$
Talabalar soni (n)	374	373	373	

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, EG-2 guruhida (virtual planetariy va Keys-stadi usullari qo‘llanilgan) innovatsion fikrlash va nostandart yechimlar qo‘llash ko‘rsatkichlarining o‘sishi nazorat guruhiga nisbatan 5-6 barobar yuqori bo‘lgan, bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta’sirchanligini statistik jihatdan tasdiqlaydi. EG-1 guruhi ham nazorat guruhidan sezilarli darajada yuqori natijalar ko‘rsatdi, ammo virtual texnologiyalar qo‘llanilgan EG-2 guruhining natijalari eng yuqori ekanligi, masofaviy va vizual ta’lim vositalarining astronomiya fanini o‘zlashtirishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Quyidagi 2-jadvalda tajriba-sinov o‘tkazilgan hududlar (Buxoro, Toshkent, Andijon) kesimida talabalarning umumiy innovatsion faollik ko‘rsatkichlari (ekspert baholashlari asosida) keltirilgan. Innovatsion faollik talabalarning dars jarayonida yangi g‘oyalarni taklif qilish, munozaralarda faol ishtirok etish va ilmiy loyihalarga qiziqish kabi sifat ko‘rsatkichlari asosida baholangan.

2-jadval.

Hududlar bo‘yicha talabalarning innovatsion faollik darajasining o‘rtacha bahosi (5 balli tizimda, yakuniy bosqich)

Guruh	Buxoro (n=450)	Toshkent (n=340)	Andijon (n=330)	Umumiy O‘rtacha
Nazorat Guruhi (NG)	3.0 ± 0.3	3.1 ± 0.2	2.9 ± 0.4	3.0 ± 0.3
Eksperimental Guruh-2 (EG-2)	4.4 ± 0.2	4.5 ± 0.1	4.3 ± 0.3	4.4 ± 0.2
Farqning o‘sishi (NG dan EG-2)	$1.4 ball	$1.4 ball	$1.4 ball	$1.4 ball

2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, eksperimental guruhlarda hududiy farqlarga qaramasdan, innovatsion faollik ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan deyarli bir xil darajada o‘sgan, bu esa tanlangan innovatsion metodlarning universal samaradorligini va ta’lim transformatsiyasi har qanday mintaqada bir xil darajada ijobiy natija bera olishini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar ta’lim jarayoniga faol, talaba markazida turuvchi va texnologiyaga asoslangan yondashuvlarni joriy etish orqali talabalarda nafaqat bilimlarni, balki ularni kelajakda professional faoliyatda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradigan eng muhim kompetensiyalarni, ya’ni innovatsion fikrlashni rivojlantirish mumkinligini isbotlaydi.

O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning tahliliy natijalari ta’lim transformatsiyasi va innovatsion fikrlash tushunchalarining o‘zaro mustahkam bog‘liqligini amaliy jihatdan tasdiqladi, shuningdek, astronomiya darslari kabi fundamental fanlarni o‘qitishda innovatsion metodlarni qo‘llash talabalarning bilish faoliyatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Eksperimental guruhlarda erishilgan yuqori natijalar, ayniqsa, nostandart yechimlar qo‘llash ko‘rsatkichining keskin o‘sishi, an’anaviy ta’lim usullari doirasidan chiqib, talabalarga o‘z bilimlarini amaliy, murakkab va yangi sharoitlarda qo‘llash imkonini beruvchi pedagogik muhit yaratishning naqadar muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi, bu esa faqatgina ma’lumot uzatishga qaratilgan emas, balki g‘oyalar yaratishga undovchi transformatsion yondashuvning ustunligini ko‘rsatadi.

Virtual planetariy texnologiyasini o‘quv jarayoniga kiritgan EG-2 guruhining boshqa guruhlarga nisbatan yuqori natijalari zamonaviy raqamli vositalarning abstrakt fanlarni o‘zlashtirishdagi muhim rolini ochib berdi, chunki bu texnologiyalar talabalarga kosmik hodisalarni bevosita vizuallashtirish va ularning dinamikasini tushunish imkoniyatini berib, nazariy bilimlarni intuitiv idrok etishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida, ularning ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rag‘batlantiradi. Shuningdek, turli mintaqalardagi talabalarning deyarli bir xil yuqori natijalarni ko‘rsatganligi, ya’ni Buxoro, Toshkent va Andijon talabalarida innovatsion faollikning

teng darajada o‘sishi, tanlangan transformatsion metodologiyaning O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimi uchun universal ahamiyatga egaligini va bu metodlarni keng miqyosda tatbiq etish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Ushbu keng qamrovli ilmiy tadqiqot, astronomiya darslari misolida pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali ta’lim transformatsiyasi va innovatsion fikrlash tushunchasining o‘zaro bog‘liqligini va ularning oliy ta’lim samaradorligiga ta’sirini chuqur tahlil qildi, natijada zamonaviy pedagogik metodlarning talabalarning kreativlik va nostandart muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ilmiy jihatdan asosladi. Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, an’anaviy o‘qitish usullari innovatsion fikrlashni yetarli darajada rivojlantira olmas ekan, ta’lim jarayoniga Keys-stadi, loyihalashtirish va ayniqsa, virtual reallik kabi ilg‘or texnologiyalarni integratsiya qilish, talabalarda faol o‘rganish, tanqidiy tahlil qilish va yangi g‘oyalarni yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim transformatsion qadam hisoblanadi. Jami 1120 nafar talaba ishtirok etgan eksperimental sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion guruhlarda innovatsion fikrlash darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada, ya’ni 5-6 martagacha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan, bu esa ta’limni texnologiyalar bilan boyitish va talabani markazga qo‘yish strategiyasining amaliy samaradorligini isbotlaydi.

Xulosa. Tadqiqotning amaliy ahamiyati, o‘zbek oliy ta’lim muassasalarining maqsadi faqatgina nazariy bilimlarni berish emas, balki jamiyat uchun innovatsion va kreativ yondashuvlarga ega bo‘lgan, murakkab global muammolarga yechim topa oladigan kadrlarni tayyorlash bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi, bu esa ta’lim tizimining doimiy ravishda o‘zgarib borayotgan dunyo talablariga moslashishini ta’minlash uchun institutsional darajada transformatsion strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu transformatsion metodlarning boshqa fan sohalariga tatbiq etilishi va ularning bitiruvchilarning kasbiy muvaffaqiyatiga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganishga qaratilishi lozim, shu bilan birga, oliy ta’lim tizimi doirasida innovatsion ekotizimni yaratish va o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ham ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolishi kerak. Xulosa qilib aytganda, ta’lim transformatsiyasi nafaqat yangi texnologiyalarni qo‘llash, balki avvalo, talabalarda innovatsion fikrlash madaniyatini shakllantirish orqali mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan strategik jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. [1] Senge, P. M. (2006). The Fifth Discipline: The Art & Practice of The Learning Organization. Doubleday. (Ta’lim transformatsiyasining tashkiliy o‘rganish nazariyasi)
2. Fullan, M. (2016). The new meaning of educational change. Teachers College Press. (Ta’lim o‘zgarishlarining nazariy asoslari va amaliyotiga bag‘ishlangan)
3. Runco, M. A. (2014). Creativity: Theories and themes: Research, development, and practice. Academic Press. (Innovatsion fikrlashning psixologik asoslari va rivojlanish usullari)
4. Robinson, K. (2011). Out of our minds: Learning to be creative. Capstone Publishing. (Kreativlik va ta’lim tizimidagi yangilanishlarning zaruriyati)
5. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), 4-14. (Pedagogik bilim va o‘qitish metodologiyasi haqida)
6. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. Journal of engineering education, 93(3), 223-231. (Faol o‘qitish usullari samaradorligini tahlil qilish)
7. Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). Understanding by design. ASCD. (Ta’lim dasturlarini loyihalashtirish va integratsiya tamoyillari)
8. Cuban, L. (2001). Oversold and underused: Computers in the classroom. Harvard University Press. (Raqamli texnologiyalarning ta’limdagi roli va bahosi)
9. All, A., & Castellar, E. (2020). Virtual and Augmented Reality in Astronomy Education: A Systematic Review. Virtual Reality, 24(3), 503-524. (Astronomiya ta’limida VR/AR texnologiyalari tahlili)
10. Dewey, J. (1938). Experience and education. Kappa Delta Pi. (Ta’lim va tajriba o‘rtasidagi bog‘liqlik)

G‘aniyeva Xalimaxon Axmadxonovna
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti

O‘SMIRLARDA STRESS HOLTI VA UNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlarda yuzaga keladigan stressning psixologik va biologik asoslari o‘rganilib, o‘smirlik davrida stress holatining yuzaga kelish sabablari va omillari psixologik tahlil etilgan, stressning o‘smirlarni ruhiy salomatligiga, ijtimoiy moslashuviga va shaxsiy rivojlanishiga ta’sirini aniqlanib, o‘smirlar stressini boshqarish va kamaytirish usullari o‘rganilgan. Stressning o‘smir shaxsiyatiga, emotsional barqarorligiga va ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan yoritadi. Psixologik tadqiqotlar asosida stress va stressga qarshi kurashish mexanizmlarining o‘smirlarga xos xususiyatlari aniqlangan. Stressni kamaytirish bo‘yicha psixologik tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *O‘smir, O‘smirlik davri, stress, salomatlik, maktab, ta’lim, tarbiya, emotsional zo‘riqish, shaxsiy krizislar, ijtimoiy moslashuv, emotsional barqarorlik, psixologik muvozanat.*

СТРЕССОВЫЕ СОСТОЯНИЯ У ПОДРОСТКОВ И ИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические и биологические основы подросткового стресса, проводится психологический анализ причин и факторов, вызывающих стресс в подростковом возрасте, выявляется влияние стресса на психическое здоровье, социальную адаптацию и личностное развитие подростков, а также изучаются методы управления и снижения подросткового стресса. В статье рассматривается влияние стресса на личность, эмоциональную устойчивость и социальную адаптацию подростков с теоретической и практической точки зрения. На основе психологических исследований выявляются особенности стресса и механизмы его преодоления, характерные для подросткового возраста. Даны психологические рекомендации по снижению стресса.*

Ключевые слова и фразы: *Подросток, Юность, стресс, здоровье, школа, образование, воспитание, эмоциональный стресс, личностные кризисы, социальная адаптация, эмоциональная устойчивость, психологическое равновесие.*

STRESS CONDITIONS IN ADOLESCENTS AND THEIR PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS

Abstract. *This article examines the psychological and biological foundations of adolescent stress. It provides a psychological analysis of the causes and factors that contribute to stress in adolescence. It identifies the impact of stress on the mental health, social adaptation, and personal development of adolescents. It also explores methods for managing and reducing adolescent stress. The article examines the impact of stress on the personality, emotional stability, and social adaptation of adolescents from a theoretical and practical perspective. Based on psychological research, it identifies the characteristics of stress and coping mechanisms characteristic of adolescence. Psychological recommendations for stress reduction are provided.*

Key words and phrases: *Teenager, Youth, stress, health, school, education, upbringing, emotional stress, personal crises, social adaptation, emotional stability, psychological balance.*

Bugungi globallashuv jarayonida o‘smirlar turli xil stress manbalariga duch kelmoqdalar. Bunga ijtimoiy tarmoqlarning kuchli ta’siri, raqobatbardosh ta’lim tizimi, oilaviy muammolar, va jamiyatdagi o‘zgaruvchan qadriyatlar kiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili millionlab o‘smirlar ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda, ularning asosiy sabablaridan biri doimiy stressdir. 2022-yilda JSST tomonidan e’lon qilingan

hisobotda ta'kidlanganidek, o'smirlar orasida depressiya va tashvish buzilishlari eng keng tarqalgan psixik muammolar sirasiga kiradi va ularning asosida aynan stress omili yotadi.[1] Bu holat nafaqat shaxsiy salomatlikka, balki ularning ta'limdagi faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va kelajakdagi psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarda stress holatining kuchayishi global va mahalliy miqyosda jiddiy e'tiborni talab etmoqda. Mavzu nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada chuqur tadqiqotlar o'tkazish va samarali psixologik yondashuvlar ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

O'smirlik davridagi stress holati va uning psixologik omillari psixologiya fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo'yicha xorijiy va o'zbek olimlar tomonidan turli yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro miqyosda J.Piaget, E. Erikson, L. Kolberg, R. Lazarus kabi psixologlar o'smirlik davrining rivojlanish bosqichlari, psixologik muvozanat, stress va moslashuv jarayonlari haqida nazariy asoslar yaratganlar. Ayniqsa, R. Lazarusning stressni kognitiv baholash nazariyasi o'smirlar orasida stress manbalarini tahlil qilishda keng qo'llanilgan. Shuningdek, JSST (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar va ko'rsatkichlar bu muammoning global ko'lamini ko'rsatib bermoqda. O'zbekiston ilmiy-amaliy psixologiya sohasida ham ushbu mavzu bo'yicha izlanishlar mavjud. Jumladan, A. Abduqodirov, M. Jo'rayev, G. Qodirova, Z. Turg'unova, M. O'rinboyeva, E.G'oziyev, M. Davletshin kabi olimlarning asarlarida o'smirlar psixologiyasi, stressning shaxs rivojlanishiga ta'siri, maktab psixologik muhitining roliga oid qimmatli ilmiy izlanishlar bayon etilgan. Shu bilan birga, psixologik xizmatlar faoliyati, maktab psixologlarining amaliy ish tajribalari orqali o'smirlardagi stress holatlari bilan ishlashning metodik asoslari ishlab chiqilmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarda ko'proq nazariy yondashuvlar ustuvorlik qiladi, holbuki zamonaviy o'smirlarning hayot tarzi, texnologik muhitdagi ijtimoiy stress manbalari va virtual muloqotdagi psixologik bosimlar hali yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun mazkur mavzuning amaliy va zamonaviy kontekstda tahlil qilinishi dolzarb ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'smirlarda stress holatining psixologik asoslarini o'rganish, stressning o'smirlarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilayotganini aniqlash va stressni boshqarish usullarini tahlil qilish. Tadqiqotning asosiy maqsadi, o'smirlar orasida stress holatining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash va unga qarshi samarali psixologik choralarni ishlab chiqishdir.

O'smirlar stressining psixologik va biologik asoslarini o'rganish, o'smirlik davrida stress holatining yuzaga kelish sabablari va omillarini tahlil qilish, stressning o'smirlarning ruhiy salomatligiga, ijtimoiy moslashuviga va shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini aniqlash, o'smirlar stressini boshqarish va kamaytirish usullarini o'rganish, stressni kamaytirish bo'yicha psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish va tavsiyalar berish maqsadida ob'ekti qilib Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 61-maktab 7-8 sinf (14-15 yosh) o'quvchilaridan jami 100 nafari olindi. Respondentlar S. Modinaning "Stressga chidamlilikni aniqlash testi" metodikasi asosida o'rganildi.

Ushbu testida respondentlar hayotlaridagi turli holatlarga qanchalik mos kelishini baholaydigan 20 ta bayonotga javob beradilar. Har bir bayonot 1 dan 5 gacha ball bilan baholanadi, bunda yuqori ballar o'smirning stressga chidamlilik darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Ushbu metodika o'smirlarning stressli vaziyatlarda o'zini tutishi, muammolar oldida yechim qidirishi, asabiylashuvga bo'lgan munosabati va umumiy ruhiy bardamligini baholashga imkon beradi. Test natijalari 20 dan 100 gacha bo'lgan ballar ko'lamida ifodalanadi va yuqori ballar o'smirlarning stressga yuqori chidamliligini anglatadi. Bu metodika yordamida stressga chidamlilikning shaxsiy xususiyatlari aniqlanadi.

O'smir qizlarda "Stressga chidamlilikni aniqlash testi" natijalari.

1- jadval

Qizlar natijalari	Soni	Foizlarda
Yuqori chidamlilik	17	34%
O'rta chidamlilik	9	18%
Past chidamlilik	24	48%

[1] World Health Organization. (2022). *World mental health report: Transforming mental health for all* (ISBN: 978-92-4-004933-8). Retrieved from

Ushbu 1 jadvalda o‘smir qizlarning umumiy natijalari keltirilgan. Umumiy hisobda 50 nafar qiz o‘quvchining stressga chidamlilik darajasi o‘rganildi. Natijalar quyidagicha bo‘ldi: 17 nafar qiz (34%) - yuqori chidamlilikka ega. Bu degani, bu qizlar hayajon, sinov, imtihon yoki boshqa bosimli holatlarda o‘zini yo‘qotmaydi. Ular muammoni xotirjam hal qilishga harakat qiladi, o‘zini tuta oladi va tezda ruhiy tushkunlikka tushmaydi. 9 nafar qiz (18%) – o‘rta darajada chidamli. Bu guruhdagi qizlar ba’zida stressga bardosh bera oladi, ba’zida esa hayajonga tushib qolishi mumkin.

O‘smir o‘g‘il bolalardada “Stressga chidamlilikni aniqlash testi” natijalari.

2-jadval

O‘g‘il bolalar natijalari	Soni	Foizlarda
Yuqori chidamlilik	30	60%
Past chidamlilik	14	28%
O‘rta chidamlilik	6	12%

Ushbu 2 jadvalda esa o‘g‘il bolalarning umumiy natijalari keltirilgan. O‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, 50 nafar o‘g‘il bolaning stressga chidamlilik darajasi tahlil qilindi. Natijalar quyidagicha bo‘ldi: 30 nafar bolalarda stressga chidamlilk yuqori. Ular bosim, sinov, imtihon yoki boshqa stressli holatlarda o‘zini tuta oladi, muammoni tinchlik bilan hal qilishga harakat qiladi. 14 nafarida esa past chidamlilik 6 nafarida esa o‘rtacha chidamlilik.

“Stressga chidamlilikni aniqlash testi” bo‘yicha o‘smir qiz va o‘g‘il bolalardagi ko‘rsatkichlarini solishtirish natijalari.


3- jadval

Chidamlilik darajasi	O‘g‘il bolalar foizi	Qiz bolalar foizi	Farq (foizda)
Yuqori	60%	34%	+26%
O‘rta	12%	18%	-6%
Past	28%	48%	-20%

3 jadvalda o‘g‘il bolalar va qiz bolalar ko‘rsatkichlari solishtirildi. Natijalar tahliliga ko‘ra stressga yuqori chidamlilik o‘g‘il bolalarda 60% qiz bolalarda esa 34% farq 26% ni ko‘rsatyabdi. Stressga chidamlilikning o‘rta darajasi ko‘rsatkichlari o‘g‘il bolalarda 12% qiz bolalarda esa 18% bundan ko‘rinib turibdiki farq -6%. Stressga chidamlilikning past darajasi ko‘rsatkichlari esa o‘g‘il bolalarda 28% qiz bolalarda 48% farq esa -20% ni tashkil qildi.

“Stressga chidamlilikni aniqlash testi” bo‘yicha o‘smir qiz va o‘g‘il bolalardagi ko‘rsatkichlarni solishtirilgan natijalarini diagrammada ifodalanishi.

1-diagramma



Ko‘k rang - stressga chidamlilikning yuqori ko‘rsatkichi.
Qizil rang- stressga chidamlilikning o‘rta ko‘rsatkichi.
Kulrang- stressga chidamlilikning past ko‘rsatkichi.


O‘smir qizlar va o‘g‘il bolalarning yosh (14 va 15 yosh)ga nisbatan ko‘rsatkichlari bo‘yicha solishtirish natijalari.

4-jadval

Yosh	Jins	Chidamlilik darajasi	Foiz (%)	O‘quvchilar soni (ta)	Farq (15y – 14y)
14 yosh	Qizlar	Yuqori	36%	9	–4%
15 yosh	Qizlar	Yuqori	32%	8	
14 yosh	Qizlar	O‘rta	20%	5	+2%
15 yosh	Qizlar	O‘rta	22%	6	
14 yosh	Qizlar	Past	44%	11	+2%
15 yosh	Qizlar	Past	46%	11	
14 yosh	O‘g‘il	Yuqori	60%	15	+2%
15 yosh	O‘g‘il	Yuqori	62%	16	
14 yosh	O‘g‘il	O‘rta	12%	3	–1%
15 yosh	O‘g‘il	O‘rta	11%	3	
14 yosh	O‘g‘il	Past	28%	7	–1%
15 yosh	O‘g‘il	Past	27%	6	

Ushbu 4 jadvalda 14 va 15 yoshlar orasidagi farqlar aniqlandi va 2- diagrammada ko‘rsatildi. Ishtirokchilar 14 yoshli 25 nafar qiz, 15 yoshli 25 nafar qiz va o‘g‘il bolalar ham xuddi shunday teng miqdorda.Yuqori chidamlilik darajasi 14 yoshda 36% (9 o‘quvchi) bo‘lsa, 15 yoshda bu ko‘rsatkich 32% (8 o‘quvchi) ga tushgan. Bu 4% lik kamayishni anglatadi, ya’ni yoshi ulg‘aygan sayin ba’zi qizlarda stressga chidamlilik biroz pasaygan. O‘rta darajadagi chidamlilik 14 yoshda 20% (5 o‘quvchi), 15 yoshda esa 22% (6 o‘quvchi) bo‘lib, bu 2% ga o‘sishni ko‘rsatmoqda. Past chidamlilik darajasi esa 14 yoshda 44% (11 o‘quvchi), 15 yoshda esa 46% (11 o‘quvchi) ni tashkil etgan. Bu esa 2% ga ortganini anglatadi. Qizlar orasida past chidamlilik tendensiyasi kuchaygan. O‘g‘il bolalar esa Yuqori chidamlilik darajasi 14 yoshda 60% (15 o‘quvchi), 15 yoshda esa 62% (16 o‘quvchi) bo‘lib, bu 2% lik ijobiy o‘zgarishni bildiradi. Bu o‘g‘il bolalarning stressga nisbatan chidamliroq bo‘lishini ko‘rsatadi. O‘rta darajadagi chidamlilik 14 yoshda 12% (3 o‘quvchi) bo‘lsa, 15 yoshda 11% (3 o‘quvchi) ga biroz tushgan. Farq 1% ni tashkil etadi. Past chidamlilik darajasi 14 yoshda 28% (7 o‘quvchi), 15 yoshda esa 27% (6 o‘quvchi) bo‘lib, 1% ga pasaygan.

O‘smir qizlar va o‘g‘il bolalarning yosh (14 va 15 yosh)ga nisbatan ko‘rsatkichlari bo‘yicha solishtirish natijalarini diagrammada ifodalanishi.
2- diagramma



Xulosa o‘rnida shularni aytish mumkinki, o‘tkazilgan metodika asosidagi tadqiqot natijasiga ko‘ra, o‘smirlar orasida stressga chidamlilik darajalari sezilarli darajada farq qilishi aniqlangan. Qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasida stressga bardoshlilikda aniq tafovutlar mavjud. Metodika natijalariga ko‘ra, o‘g‘il bolalar orasida yuqori chidamlilik darajasi ancha yuqori – 60%, bu ko‘rsatkich qizlarda atigi 34% ni tashkil etdi. Aksincha, past chidamlilik darajasi qizlarda ko‘proq 48% bo‘lsa, o‘g‘il bolalarda bu ko‘rsatkich 28% ni tashkil etdi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalar odatda stressli vaziyatlarda o‘zini tezroq bosib oladi va barqarorroq ruhiy holatga ega. Qizlar esa ko‘proq qo‘llab-quvvatlash, ishonch va ruhiy tayanchga muhtojlik bildiradi. Umuman olganda, bu ma’lumotlar shuni anglatadiki, o‘quvchilar bilan individual yondashuvda ularning stressga bo‘lgan chidamlilik darajasini hisobga olish muhim. Ayniqsa, qiz bolalar uchun ruhiy ko‘mak, motivatsiya va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash zarurligi ko‘rinib turibdi. O‘g‘il bolalarda esa bu borada ijobiy ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lsa-da, baribir ularning ham ayrimlari doimiy tayyorlov va mashg‘ulotlarga muhtoj. Undan tashqari bu ma’lumotlar ta’lim muassasalarida o‘quvchilar bilan ishlashda psixologik yondashuvni jinsiy farqlarga qarab olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qiz bola o‘smirlarni ruhiy qo‘llab-quvvatlash, stressga bardoshlilikni oshirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish foydali bo‘ladi deb o‘ylayman.

Yakuniy xulosa qilib aytishim mumkinki, o‘smirlar orasida stress holatlari keng tarqalgan va bu holatlar ularning ijtimoiy, emotsional hamda psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, maktab psixologlari, ota-onalar hamda pedagoglar tomonidan o‘smirlarning psixologik holatini muntazam kuzatib borish, stressga qarshi kurashish ko‘nikmalarini shakllantirish, zarur hollarda psixologik yordam ko‘rsatish – o‘ta dolzarb vazifa sanaladi. Tadqiqot natijalari asosida o‘smirlarning stressga chidamliligini oshirish, ularni psixologik moslashuvchanlikka o‘rgatish va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarga xizmat qiladi: O‘smirlarda stress holatini erta aniqlash va unga ta’sir etuvchi omillarni belgilash imkonini yaratadi. Stressning o‘smirlar psixik rivojlanishiga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishga yordam beradi. Psixologlar, maktab psixologlari va tarbiyachilar uchun o‘smirlar bilan ishlashda stressni boshqarish va yengillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ota-onalar va pedagoglar uchun o‘smirlarning emotsional holatini tushunish va ularni to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar tayyorlashga asos bo‘ladi. Stressni kamaytirish bo‘yicha trening dasturlari, psixokorrektsion mashg‘ulotlar va maslahatlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. O‘smirlarning

sog‘lom psixologik rivojlanishini ta’minlash va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish maqsadida psixoprofilaktika va psixologik yordam dasturlarini yaratishda foydalaniladi.

Qiz o‘smirlar bilan psixologik ishlashni kuchaytirish kerak, chunki tadqiqot natijalariga ko‘ra, qizlar stressga ko‘proq moyil bo‘lib chiqdi. Shu sababli, maktablarda psixologlar ularning hissiy holatini yaxshilashga qaratilgan maxsus suhbatlar, treninglar va guruh mashg‘ulotlarini tashkil etishlari lozim.

- Stressga chidamlilikni oshiruvchi dasturlar ishlab chiqish: O‘quvchilarda stressga bardoshlilikni rivojlantirish uchun maktab psixologlari va o‘qituvchilari hamkorligida amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish kabi faoliyatlar yo‘lga qo‘yilishi tavsiya etiladi.

- Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish: Farzandlarining psixologik holatidan xabardor bo‘lishlari uchun ota-onalarga seminarlar va maslahatlar berish, ularni bolalarining hissiy dunyosiga befarq bo‘lmaslikka chaqirish zarur.

- O‘g‘il bolalar orasida ham stressni nazorat qilish: Garchi o‘g‘il bolalar ko‘proq barqarorlik ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularning ham ruhiy holatini muntazam kuzatib borish va kerakli vaqtda yordam berish muhimdir.

- Shaxsiy rivojlanishga oid mashg‘ulotlarni joriy qilish: O‘quvchilarning o‘ziga ishonchi va stressga qarshi kurashish qobiliyatini oshiruvchi treninglar, nutqiy erkinlik, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi tadbirlar o‘tkazish foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Amonov S. *Stress va uning o‘smirlar psixologiyasiga ta’siri.* – Samarqand, 2021.
2. Bekmurodova D. T**.** *O‘smirlik davrida shaxsiy rivojlanish va stress holatlari.* – Toshkent: TDPU, 2020.
3. Крылов А. Б. *Психология стресса и методы его преодоления у подростков.* – М.: Наука, 2010.
4. Muqimova D. *O‘quvchilarda stressni aniqlash va yengish usullari.* – Namangan, 2022.
5. Рождественский Ю. В. *Стресс и личность.* – М.: Знание, 1999.
6. Ганиева Х. А. “Xarakter aksentuatsiyasi”. * Guliston davlat universiteti axborotnomasi *, * Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2025. № 1
7. G‘aniyeva X. A. “Bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlashning pedagogik - psixologik asoslari”. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2024. № 6.

Qayumova Zarnigor Musurmon qizi
Karshi, Uzbekistan
Email: qayumovazarnigor888@gmail.com

CROSS-CULTURAL REPRESENTATIONS OF HEROISM

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of cross-cultural representations of heroism. In Western literary traditions, heroism is associated with individuality, personal achievement, linear progression, and triumph. In contrast, Eastern traditions emphasize duty, moral integrity, self-sacrifice, and collective harmony. Using a cross-cultural comparative framework, the study explores how different civilizations construct and interpret the image of the hero through historical, mythological, and religious-aesthetic paradigms. The research demonstrates that globalization and cultural integration have given rise to a hybrid model of heroism that unites Western notions of individuality with Eastern ideals of ethical balance and spiritual wholeness. The article also examines the evolution of heroic archetypes in modern literature, cinema, and cultural narratives, revealing how traditional hero models are being redefined in the global era.*

Key words: *heroism, cross-cultural analysis, Eastern literature, Western literature, narrative archetypes, comparative literature, globalization, cultural identity.*

QAHRAMONLIKNING MADANIYATLARARO TALQINLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turli madaniyatlarda qahramonlik fenomenining madaniyatlararo talqinlari tahlil qilinadi. G‘arb adabiyotida qahramonlik asosan individuallik, shaxsiy yutuq, chiziqli rivojlanish va g‘alaba paradigmalari orqali namoyon bo‘ladi. Sharq adabiy an’analari esa burch, fidoyilik, axloqiy uyg‘unlik va jamoaviy qadriyatlarni qahramonlikning markaziy belgisi sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida madaniyatlararo tahlil usuli asosida turli sivilizatsiyalar qahramon obrazini qanday ifodalashini, tarixiy-mifologik arxetiplar va diniy-estetik tamoyillar bilan qanday bog‘liqligini o‘rganiladi. Globalizatsiya va madaniy integratsiya sharoitida yangi, sintez qilingan “gibrid qahramon” modeli shakllanayotgani aniqlanadi. Ushbu modelda G‘arbning individualistik ruhiyati bilan Sharqning axloqiy-ruhiy uyg‘unlik tamoyillari birlashadi. Maqola qahramonlikning zamonaviy adabiy jarayonlardagi, kinematografik va madaniy kontekstlardagi talqinini ham yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *qahramonlik, madaniyatlararo talqin, Sharq adabiyoti, G‘arb adabiyoti, narrativ arxetiplar, qiyosiy adabiyot, globalizatsiya, madaniy identifikatsiya.*

КРОСС-КУЛЬТУРНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О ГЕРОИЗМЕ

Аннотация. *В данной статье проводится анализ кросс-культурных представлений о героизме. В западной литературной традиции героизм связывается с индивидуальностью, личными достижениями, линейным развитием и победой, тогда как восточная традиция подчеркивает долг, самопожертвование, нравственную гармонию и коллективные ценности. Исследование основано на межкультурном подходе и направлено на выявление того, каким образом различные цивилизации интерпретируют образ героя в зависимости от исторических, мифологических и религиозно-эстетических факторов. Автор отмечает, что процессы глобализации и культурной интеграции способствуют формированию нового гибридного типа героя, сочетающего в себе индивидуализм Запада и духовно-нравственные принципы Востока. В статье также рассматриваются современные литературные и кинематографические образы героев, отражающие синтез культурных парадигм.*

Ключевые слова: *героизм, кросс-культурный анализ, восточная литература, западная литература, нарративные архетипы, сравнительное литературоведение, глобализация, культурная идентичность.*

Introduction

Heroism occupies a central place in the cultural imagination of societies across the globe. As both narrative device and social model, heroic figures serve to articulate ideals, negotiate communal anxieties, and transmit values across generations (Campbell, 2008; Frye, 2000). Comparative studies of heroism reveal that, although heroic acts often involve physical courage or moral sacrifice, the conceptualization and aesthetic representation of heroes vary widely according to cultural, religious, and historical contexts (Miller, 2016; Wong, 2019).

Western conceptions of the hero have been deeply influenced by Greco-Roman epic traditions and Judeo-Christian moral narratives. The Homeric hero, for instance, combines martial prowess with honor-based ethics, while later medieval chivalric ideals fuse martial virtues with Christian humility and redemptive sacrifice (Aristotle, trans. 1996; Taylor, 2020). In modern Western culture, heroes extend from literary protagonists to cinematic superheroes, shaped by industrialized storytelling forms and the ideological imperatives of individualism and agency (Booker, 2004; Davis, 2007).

In contrast, Eastern conceptualizations-shaped by Confucian, Buddhist, Taoist, and Islamic ethical systems-often foreground duty, cosmic order, and communal harmony (Yao, 2018; Suzuki, 2003). Indian epics such as the Ramayana and the Mahabharata present complex heroes whose moral worth is determined by adherence to dharma (duty) rather than by individual triumph alone (Liu, 2015). Central Asian epics and Turkic doston narratives celebrate defenders of communal honor and lineage, emphasizing collective identity over individual aggrandizement (Karimov, 2018).

This article advances three interrelated aims. First, it maps the philosophical foundations and narrative architectures that undergird heroic representations in diverse cultures. Second, it identifies recurring themes-such as sacrifice, hospitality, vengeance, and redemption-and analyzes how these themes manifest differently across contexts. Third, it examines the contemporary transformations of heroism under globalization, mediated culture, and social change. The guiding research questions are: (1) What patterns recur in heroic narratives across cultures? (2) How do philosophical and religious systems shape heroic ideals? (3) In what ways are traditional heroic schemas adapting to modern contexts?

Taken together, this broader comparative frame seeks to move beyond typological listing toward an analysis that treats heroism as a culturally inflected social technology-one that helps communities negotiate identity, memory, and moral order (Dundes, 1980; Eliade, 1998).

Methods

This research utilizes comparative literary and folkloric analysis as its primary methodology. The corpus comprises canonical and vernacular heroic narratives: Homeric epics (The Iliad, The Odyssey), Old English Beowulf, Persian Shahnameh (Ferdowsi), Indian Ramayana and Mahabharata, Central Asian Alpamysh and doston traditions, African epics such as Sundiata, Indigenous American hero cycles, and modern literary and cinematic texts from various regions (Campbell, 2008; Thompson, 1977; Karimov, 2018).

Analytical procedures included close reading, motif-indexing (following Thomson/Thompson traditions), and thematic coding to identify recurring heroic functions, narrative sequences, and performative contexts (Thompson, 1977). The study also draws on secondary scholarship in comparative mythology, Jungian psychology, and cultural anthropology (Jung, 1969; Eliade, 1998; Dundes, 1980). Where possible, attention was given to performance contexts (oral recitation, ritual enactment, and staged drama) because heroism is often constituted as much by communal reception as by textual features (Lord, 2000).

Limitations of the study include the selection bias toward literatures with accessible scholarship in English and major European languages; many oral heroic traditions remain insufficiently documented and thus are underrepresented. The analysis also acknowledges the risk of overgeneralization - while archetypal patterns recur, the particular meanings of acts and symbols are culturally specific.

Results

Philosophical and Religious Foundations

A systematic comparison reveals that philosophical and religious traditions heavily inform heroic ideals. In Greco-Roman cultures, the hero often negotiates personal honor within a world of fate and divine intervention; Achilles' rage and Odysseus' guile exemplify ethically ambivalent models

of heroism (Miller, 2016). Aristotelian poetics further formalized the tragic hero as a figure whose misfortune evokes catharsis through hamartia and peripeteia (Aristotle, trans. 1996).

Judeo-Christian influences introduced the redemptive hero: saints and martyrs exemplify suffering endured for a higher moral order, and medieval chivalry fused martial valor with Christian charity (Taylor, 2020). In the Islamic poetic and epic tradition-epitomized by Ferdowsi's Shahnameh-heroes like Rustam embody both martial prowess and ethical restraint, reflecting a synthesis of pre-Islamic Persian values and Islamic moral frameworks (Lewis, 2001).

In South Asia, Hindu and Buddhist cosmologies produce heroes whose ethical value is measured by fidelity to dharma and karmic consequences; Rama's exile and Sita's trials are religiously freighted acts that model sacrificial virtue for a community (Liu, 2015). Confucian East Asia prizes filial piety and social rectitude; its heroic figures are often models of moral leadership rather than autonomous rebels (Wong, 2019). African and Indigenous American traditions often root heroism in community survival, cosmological balance, and the moral authority of elders and ancestors; such heroes may act less as solitary figures and more as mediators between human and sacred realms (Finnegan, 1970; Pelton, 1980).

Narrative Architectures and Temporalities

Heroic narratives demonstrate divergent structural logics. Western epics and romances often favor a teleological arc-departure, initiation, return-aligned with Joseph Campbell's monomyth, which emphasizes individual transformation through trials (Campbell, 2008). Beowulf's direct confrontations with monsters and Homeric battle sequences illustrate how linear progression and climactic combat serve to highlight individual valor (Booker, 2004).

Conversely, many Eastern and oral traditions adopt cyclical, episodic, or multi-plot structures. The Mahabharata and Ramayana intersperse philosophical digressions and moral exempla within epic action, creating a braided narrative where ethical instruction is as important as heroic exploits (Liu, 2015). Turkic and Central Asian doston narratives often string together episodic challenges that emphasize communal resilience rather than singular climactic victory (Karimov, 2018).

Additionally, narrative temporality differs: Western narratives tend to foreground historical progress or teleology, whereas many non-Western epics situate events within mythic time-an eternal present where the past continuously informs the present (Eliade, 1998; Zhao, 2021).

Typologies of Heroes: Comparative Examples

The analysis yields several typological clusters:

The Questing Individual: Exemplified by Odysseus, Gilgamesh, and later by modern protagonists, this hero pursues personal knowledge, fame, or reconciliation with fate (Campbell, 2008; Rank, 2004).

The Communal Defender: Found in Turko-Mongol epics (e.g., Alpamysh), African epics (Sundiata), and Anglo-Saxon Beowulf, this hero protects kin, land, or clan and is often defined through lineage and collective honor (Karimov, 2018; Finnegan, 1970).

The Sacrificial Exemplar: Religious martyrs, dharmic heroes like Rama, and some Buddhist bodhisattvas embody self-sacrifice for cosmic or social harmony (Liu, 2015; Suzuki, 2003).

The Trickster-Hero: In some cultures, cunning figures (e.g., Loki, Coyote, Eshu) perform transgressive acts that both threaten and renew social order-heroes whose liminality is essential for cultural adaptability (Pelton, 1980; Hyde, 1998).

The Divine or Semi-Divine Champion: Heroes with divine ancestry (e.g., Hercules, Perseus, some Central Asian heroes) operate at the intersection of human and sacred spheres and often legitimize political or social institutions (Miller, 2016; Segal, 2004).

Gendered Dimensions of Heroism

A fuller account of heroism requires attention to gender. Women appear in heroic roles across cultures, though their representation varies. Figures such as Mulan and the Chinese and Central Asian warrior women embody martial valor and filial devotion; Joan of Arc in Western history and legend blends religious calling with martial leadership (Barlow, 1999; Liu, 2015). In many oral traditions, female heroes are also ritual specialists or progenitors whose heroism is expressed through domestic leadership, fertility, and spiritual mediation rather than battlefield exploits (Thompson, 1977).

Performative Contexts and Social Functions

Heroic narratives gain potency when performed. Oral recitations, festivals, and rituals reinforce communal memory and moral instruction (Lord, 2000). In Central Asia, doston performers (bakhshi) not only recite epics but actively construct social identity, invoking historical claims and communal solidarity (Karimov, 2018). Similarly, medieval European romance served courtly functions that shaped aristocratic identity and ethical codes (Taylor, 2020).

Modern Transformations and Media Convergence

The twentieth and twenty-first centuries have seen significant recompositions of heroism under mass media, migration, and global cultural flows. Superhero comics and blockbuster films recast classical motifs in industrialized formats, privileging individual agency while often embedding social anxieties about surveillance, technology, and power (Davis, 2007). Meanwhile, transnational cinema (Bollywood, Nollywood, anime) produces hybrid heroes who synthesize cultural traditions-e.g., the Bollywood hero who combines romantic sacrifice with social justice, or anime protagonists who merge individual struggle with group loyalty (Napier, 2005; Gokulsing & Dissanayake, 2013).

Postcolonial literatures also rework heroic paradigms; anticolonial heroes (e.g., Sundiata, national martyrs) become instruments of nationalist memory, while contemporary postcolonial novels interrogate older heroic forms for complicity in oppression (Achebe, 1958; Rushdie, 1991).

Discussion

The comparative evidence suggests that heroism operates simultaneously as a universal schema and as a locally inflected cultural practice. Universal elements-courage, sacrifice, confrontation with limits-are shaped by social institutions, religious cosmologies, gender norms, and performance traditions. This duality aligns with Jungian claims about archetypes as both innate psychic structures and culturally mediated representations (Jung, 1969). Yet, treating archetypes as fixed or transhistorical risks obscuring the dynamic processes by which communities negotiate meaning through heroic narratives (Dundes, 1980).

Three key implications emerge from the expanded analysis:

Function over Form: While forms vary, the central functions of heroic narratives-social cohesion, moral exemplification, and mnemonic labor-remain consistent. Heroes help societies imagine ideal behavior and rehearse collective values through story and ritual (Eliade, 1998).

Hybridity and Adaptation: Global cultural flows produce hybrid heroes that synthesize elements from multiple traditions. These hybrids perform ideological work in a global marketplace of symbols, negotiating local identities within transnational frameworks (Bhabha, 1994; Napier, 2005).

Politics of Memory: Heroes are frequently mobilized for political ends-nation-building, legitimation of authority, or resistance. The selection and retelling of heroic tales is therefore an ideological act that constructs historical narratives and communal priorities (Anderson, 1991; Karimov, 2018).

The discussion also highlights areas for future research. Ethnographic documentation of underrepresented heroic traditions (particularly oral-performative cultures) is crucial. Interdisciplinary studies that combine narrative analysis with cognitive and affective approaches could illuminate why certain heroic motifs persist emotionally and socially. Finally, gendered analyses remain imperative to complicate assumptions that heroes are primarily male and martial.

Conclusion

This comparative study of heroism demonstrates that while heroic archetypes are pervasive, their meanings are culturally contingent. Whether conceived as solitary questers, communal defenders, sacrificial exemplars, or trickster mediators, heroes encode social ideals and existential concerns in forms appropriate to their cultural contexts. Contemporary media and globalization have generated new, hybrid manifestations of heroism that both borrow from and transform older traditions. To understand heroism fully requires attention to textual form, performance context, political use, and emotional resonance. Such an approach offers not only richer literary analysis but also insight into how societies imagine moral possibility and social belonging.

List of references.

1. Achebe, C. (1958). Things Fall Apart. Heinemann.

2. Anderson, B. (1991). Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. Verso.
3. Aristotle. (1996). Poetics (M. Heath, Trans.). Penguin Classics. (Original work published ca. 335 BCE)
4. Barlow, T. (1999). Women and Warfare: Gendered Perspectives in World History. Journal of Historical Studies, 12(1), 45–67.
5. Bhabha, H. K. (1994). The Location of Culture. Routledge.
6. Booker, C. (2004). The Seven Basic Plots: Why We Tell Stories. Continuum.
7. Campbell, J. (2008). The Hero with a Thousand Faces. New World Library.
8. Davis, E. (2007). Techgnosis: Myth, Magic, and Mysticism in the Age of Information. Serpent's Tail.
9. Dundes, A. (1980). Interpreting Folklore. Indiana University Press.
10. Eliade, M. (1998). Myth and Reality. Waveland Press.
11. Finnegan, R. (1970). Oral Literature in Africa. Oxford University Press.
12. Frye, N. (2000). Anatomy of Criticism. Princeton University Press.
13. Gokulsing, K. M., & Dissanayake, W. (2013). Routledge Handbook of Indian Cinemas. Routledge.
14. Hyde, L. (1998). Trickster Makes This World: Mischief, Myth, and Art. Farrar, Straus and Giroux.
15. Jung, C. G. (1969). The Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton University Press.
16. Karimov, A. (2018). Oral Epics and Cultural Identity in Central Asia. Journal of Folklore Studies, 42(2), 87–103.
17. Lewis, B. (2001). The World of Islam. Thames & Hudson.
18. Liu, J. (2015). Narrative Traditions in Chinese Classical Literature. Shanghai Literature Press.
19. Lord, A. B. (2000). The Singer of Tales. Harvard University Press.
20. Miller, A. (2016). Fate and Agency in Greek Tragedy. Classical Philology, 111(3), 201–222.
21. Napier, S. (2005). Anime from Akira to Howl's Moving Castle. Palgrave Macmillan.

Usmonov Sherzod Ahmadjonovich
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi mudiri (PhD)
Sattorova Gulnozaxon Farxodjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Amaliy psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
e-mail: sherzod198728@gmail.com

BOLALARNI MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarning maktab ta’limiga psixologik tayyorgarligi va uning ijtimoiy-psixologik asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Maktabga tayyorgarlik masalasi bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy va amaliy izlanishlari ko‘rib chiqilib, ularning ilmiy yondashuvlari qiyosiy baholanadi. Muallif tomonidan olingan empirik ma’lumotlar asosida bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, psixologik rivojlanish xususiyatlari hamda ularni shakllantiruvchi omillar chuqur tahlil qilinadi va ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.*

Tayanch so‘zlar: *maktabga psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy-psixologik asoslar, empirik tadqiqot, rivojlanish omillari, psixologik tahlil.*

ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ психологической готовности детей к школьному обучению и её социально-психологических основ. Рассматриваются теоретические и практические исследования отечественных и зарубежных учёных по проблеме готовности к школе, проводится сравнительный анализ их научных подходов. На основе полученных автором эмпирических данных глубоко анализируются уровень готовности детей к школе, особенности их психологического развития и факторы, влияющие на формирование готовности, вырабатываются научные выводы.*

Ключевые слова: *психологическая готовность к школе, социально-психологические основы, эмпирическое исследование, факторы развития, психологический анализ.*

ISSUES IN PSYCHOLOGICALLY PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL

Annotation. *This article provides a scientific analysis of children’s psychological readiness for school education and its socio-psychological foundations. Theoretical and practical research by both local and foreign scholars on school readiness is reviewed and their scientific approaches are comparatively assessed. Based on the author’s empirical findings, children’s level of school readiness, characteristics of their psychological development, and the factors influencing this process are thoroughly analyzed, and scientific conclusions are drawn.*

Key words: *psychological readiness for school, socio-psychological foundations, empirical research, developmental factors, psychological analysis.*

Bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarligi masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida dolzarb ilmiy muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Psixologik tayyorgarlik bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanish darajasini qamrab oluvchi murakkab jarayondir. Maktabga tayyorgarlik nafaqat kognitiv kompetensiyalarni, balki shaxslararo muloqot, o‘z-o‘zini boshqarish, motivatsion tayyorgarlik va ijtimoiy moslashuv kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Mazkur tadqiqotda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Shu maqsadda mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari hamda empirik tadqiqot natijalari qiyosiy o‘rganilib, ularning ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi. Tadqiqotda psixologik tayyorgarlik darajasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar – kognitiv rivojlanish, emotsional barqarorlik, ijtimoiy kompetensiyalar va oilaviy tarbiya sharoitlari aniqlanadi.

Muallif tomonidan o‘tkazilgan empirik izlanishlar natijasida bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasi va ularning rivojlanish xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar aniqlandi.

Ushbu ma'lumotlar asosida maktabga tayyorgarlikni baholash va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari amaliyotchi psixologlar, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari va ota-onalar uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslubiy tavsiyalarni taklif etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvning yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir. Ilmiy kuzatish va tadqiqotlarda inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi keltirilgan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 30 dekabr kuni matbuotda e'lon qilingan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz. maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Jumladan, davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturda keng ko'lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir. Xususan, hujjatda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada yechimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi barchamizni quvontiradi. maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgani bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash darajasini yuksaltiradi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasiga to'xtalib o'tdi. Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biri ekanini ta'kidladi. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir.

Darhaqiqat, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan murojatnomasida ta’lim haqida shunday serma’no gaplarni aytib o‘tadilar: Ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir (1). Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2023 yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili deb e’lon qilganligi ham fikrimizning yaqqol dalilidir(11).

Bugungi jadal rivojlanib kelayotgan yurtimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni tashabbuslari bilan ta’lim sohasida ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yurtboshimizning ilg‘or ish tajribalari hamda tashabbuslari asosida yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimida ko‘plab qonun va farmonlar qabul qilindi.

Psixologiya sohasida bolaning maktab ta’limiga psixologik jihatdan tayyorlash muammosiga alohida e’tibor berilmoqda.

Tajribali psixologlarning tadqiqotlari oqilona tashkil qilingan ta’lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi.

Masalan, ular lingvistika, fizika, matematikaga oid ilmiy tushunchalarni o‘zlashtiradilar, soddaroq masalalar tuzadilar, yengilroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar.

Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi to‘g‘risida gapirilganda ko‘pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko‘p qirrali maqsadga yo‘naltirgan, o‘zaro vazifasini o‘tovchi psixik o‘sish darajasini nazarda tutamiz. Shuningdek, ta’lim uchun psixik o‘sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o‘ziga xosligi, uning sihat-salomatligi, usuliy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirgani kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Chet el psixologiyasida ham bolaning maktabga tayyorgarlik muammosiga tadqiqotchi olimlar turlicha yondashganlar va bu borada tadqiqotlar olib borganlar. Shu o‘rinda chet el olimlarining maktabga psixologik tayyorgarlik borasida olib borgan ilmiy – tadqiqot ishlarini tahlil qilib chiqsak. Ya.Yirasek bolaning maktab ta’limiga tayyorgarligi borasida so‘z yuritgan ekan, u bolaning maktabga tayyorligini taraqqiyotning shunday bosqichga erishuvi tushuniladiki, unda bola maktab ta’limida ishtirok etishga qobiliyatli bo‘lishi kerakligini aytib o‘tadi.

Shuning uchun maktabga yetuklik me’yorini yuqori darajada aqliy emotsional va ijtimoiy munosabatlarda yetuklik bilan belgilaydi.

Aqliy yetuklikni bilish va ifodalash chegarasida idrokning differentsiyalashganligi, ayniqsa pertseptsion yetuklik, diqqatni to‘play olishi, analitik tafakkur, ya’ni hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik va ularni belgilarni bila olishi namunalar keltira olish qobiliyati, borliqqa ratsional yondasha olishi, mantiqiy eslab qolish, maqsad asosida o‘z oldiga qo‘yilgan ishga qiziqish, yangi hodisalarga qiziqish, eshitish qobiliyatiga ega bo‘lish, nutqiy qobiliyat, turli belgilarni tushuna olish va ulardan foydalana bilish qobiliyati, nozik qo‘l motorikasi va ko‘rish – harakat koordinatsiyasining taraqqiy etganligi nazarda tutiladi.

Maktabga yetuklikning emotsional komponenti deganda barqaror mustahkam emotsional holat, hamda o‘quv mashg‘ulotning motivlashtirishda foydalana olish nazarda tutiladi.

Ijtimoiy yetuklikda bolaning tengdoshlari bilan muloqot qilishga bo‘lgan ehtiyoji, ularning talablariga bo‘ysunishi, bolalar guruhi shart – sharoitlarini qabul qilish, maktab ta’limi jarayonida jamoviy vaziyatlardagi ijtimoiy rolni o‘ziga olish qobiliyati tushunilishi ko‘rsatib o ‘tiladi.

Ya.Yirasik maktabga tayyor bo‘lmaslik omillari va sabablarini ko‘rsatib o‘tar ekan, ularni quyidagi besh turkumga ajratadi:

1.Tarbiyaviy ta’sir va muhitning kamchiliklari
2.Somatik taraqqiyotdagi xatoliklar
3.Xarakterdagi nevrotik taraqqiyot
4.MNS ning avvalgi jarohatlanishi
5.Aqlni oligofren chegarasiga yaqinlashuvi

R.Gentser bolaning maktabga yetukligini uning jismoniy muvaffaqqiyatlari bog‘liqligini, Selieru psixik yetukligi bilan bog‘laydi.

Y.Kotulan somatik ko‘rsatkichlar bilan ta’limda o‘zlashtirishni taqqoslab, ularning bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tadi.

Rus olimlari xam bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorlash muammosi bo'yicha bir qancha tadqiqotlarni olib boradilar.

E.I.Rogov bolani maktab ta'limiga intelektual tayyorgarlik ko'rsatkichlarni ko'rsatib o'tadi:

- idrokning differentsiallashuvi;
- analitik tafakkur;
- faoliyatga ratsional yondashuv;
- mantiqiy xotira;
- o'qishga bo'lgan qiziqish;
- eshitish va nutqiy qobiliyatning mavjudligi;
- qo'l motorikasini shakllanganligi;

A.V.Zaparojets ushbu nuqtai nazarni ifodalar ekan, bolani maktab ta'limiga tayyorlashda motiv va intilishlari muhim ahamiyatga ega ekanligi va uni maktabgacha yosh davrida shakllantirib borish zarurligini ta'kidlaydi.

Rus olimi L.S.Vigotskiy bu borada bolaga ta'lim borayotganlarni shartli ravishda ularning "reja" lari deb ataydi. Vigotskiy 3 yoshgacha bola kattalar rejasi asosida emas, o'z rejasi asosida o'qiydi. U tizimli ravishda o'rganishga qobiliyatli bo'la boradi, u aniq bo'lmagan tayyorlov bosqichidan o'tishini ta'kidlaydi. Bolaga kattalar tomonidan yangi talablarning qo'yib borishi bilan sekin astalik bilan "shaxsiy" rejasiga aylanib boradi. U esa shunchaki tezdagina hosil bo'lib qolmaydi. Shu bilan bola ayni 6-7 yoshda u o'rganishida yangi qadamni qo'ydi, ya'ni u o'z pedagoglari rejasi asosida maktab talablariga yaqin holda o'qiy boshlaydilar.

Bolalar dastlab maktabga ijobiy munosabatda bo'ladilar. Kiev ilmiy tadqiqot instituti psixologlari o'tkazgan tadqiqotlar asosida dastlab 90% bolalar maktabga ijobiy munosabat bildirganlar.

6 yoshli bolaning ota-onalari bilan anketa o'tkazilib, "sizning bolangiz maktabga o'zi istagan holda boradimi ? " degan savolga "o'z istagi bilan emas" , "hohlab" , "quvonch bilan" degan javoblar berildi.

Tayyorlov sinflarining 82% , tayyorlov guruhining 90% ota-onalar ijobiy fikr bildirganlar, "maktabga borishga nima uyg'otayotganligi haqida bola so'zlab beradimi ? degan savolga tayyorlov sinfi ota-onalari 85% , tayyorlov guruhi 95% ota-onalari ijobiy fikr bildirganlar.

6-7 yoshli bolaning asosiy o'quv faoliyati motivlari qanday ? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik bolaning asosiy motivlari o'qish faoliyati bilan bog'liq. Ko'p bolalar o'quvchi roliga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni munosabatlarda o'zini namoyon etishda "o'quvchi" deb tan olishlariga bo'lgan ehtiyoj namoyon bo'ladi. O'quv yilining boshida bilim, o'qish bilan bog'liq motivlar uncha namoyon bo'lmaydi. Yilning oxiriga kelib bilish va o'qish bilan bog'liq motivlar ko'proq mavjud bo'ladi.

Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko'rinadiki, bolalar o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitdan o'z o'rinlarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq, yanada to'laroq munosabatlar sistemasini o'rgatishga intiladilar. Katta gruppa bolalari maktabga o'tishdan ancha ilgariyoq maktab haqida orzu qila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanligini kattalardan tez-tez surishtirib turadilar. Agar biror o'rtoqlari maktabga o'tib ketsa, juda havaslari kelib, o'zlari bog'chada qolganliklaridan o'ksinib ketadilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalarining maktabga intilishlari ijtimoiy munosabatlar sistemasidan yangi o'rin egallashga bo'lgan intilishlarning konkret ifodasidir. Shunday qilib, bolaning maktabdagi o'qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun ta'lim-tarbiya ishi ko'taradi.

Bola 6 yoshga kirganda lug'ati boyib, kundalik hayoti va qiziqishlari doirasiga kiradigan har qanday holat, narsa, hodisa va voqealarni boshqa kishilarga oson tushuntirib bera oladi. Normal o'sgan bola 3 yoshda 500 va undan ortiqroq so'zni ishlatsa, 6-7 yoshli bola 3000 dan to 7000 gacha so'zni ishlatadi 6-7 yoshli bolaning lug'ati ot, fe'l, olmosh, sifat, son va bog'lovchilardan tashkil topadi. 6-7 yoshli bolaga nutqning ba'zi qonuniyatlari tushuntirilsa, u nutqning o'zi uchun yangi bo'lgan tomonini o'rganishga intilib, o'ynagan holda uni analiz qila boshlaydi. Bola aynan shu yoshda ona tili sistemasiga rioya qilgan holda gapira boshlaydi. Bog'chaga qatnaydigan bola nutqini anglagan holda analiz qilish malakasiga ega bo'ladi. U so'zni tovush jihatdan analiz qila oladi,

so‘zdagi tovushlar tartibini aniqlay biladi. Bola so‘zdagi bosh tovushni intonatsiya bilan ajratgan holda so‘zni oson, quvonib talaffuz qiladi. U xuddi shu tarzda so‘zdagi ikkinchi va undan keyingi turgan tovushlarni ham ajrata oladi.

Biz bolani maktab ta’limiga tayyorlashning psixologik asoslarini va mexanizmlarini ilmiy asoslash, unga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy – psixologik omillarini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad etib qo‘ydik.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Bolani maktab ta’limiga psixologik jihatdan tayyorlash muammosini o‘rganish holatini tashkil etish.
2. Bolani maktab ta’limiga tayyorligini psixologik asosi va mexanizmlarini ilmiy asoslash.
3. Bolani maktab ta’limiga tayyorlashning ijtimoiy psixologik omillarini o‘rganish.

Bolani maktab ta’limiga psixologik jihatdan tayyorlash maktabgacha yosh davrning barcha bosqichini qamrab olish zarur bo‘lib, bolaga ta’lim – tarbiya berish jarayonida bola bilan mashg‘ulotlar tashkillash, muntazam shug‘ullanib borish jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Bunda bir tomondan bolani intelektual ob’ektiv jihatdan maktab ta’limiga tayyorlash, ikkinchi tomondan maktabga borish istak hohishini, qiziqishini (subyektiv jihatdan) tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi metodlarning o‘rni katta. Suhbat (savol-javob), proektiv test, matematik – statistik, mantiqiy modellashtirish metodlari, faoliyat mahsulotini o‘rganish metodi.

1-jadval. Maktabda ta’lim olishga tayyorlik ko‘rsatkichi

	Maktabda ta’lim olishga tayyor	Maktabda ta’lim olishi mumkin	Maktab ta’limiga tayyor emas
Bog‘chada (son)	9	9	2
Foiz hisobida	45%	45%	10%
Uyda (son)	4	10	6
Foiz hisobida	25%	50%	30%

Tadqiqotlarimiz asosida shuni aniqladikki, uyda tarbiyalanayotgan bolalarning qo‘l motorikasini rivojlantirishda bog‘cha bolalariga nisbatan farq bo‘lib, uydagi bolalarda ko‘ruv koordinatsiyasi rivojlangan bo‘lsada, qo‘l motorikasi aksincha rivojlanmagan, bolaning bog‘chada muntazam ravishda jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat, sayrdagi mehnat kabi faoliyatlarida qo‘l motorikasini rivojlantirib borish natijasida bog‘chada tarbiyalanayotgan bolalarda bu ko‘rsatkich yuqori natija ko‘rsatgan.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosaga keldik:

1. Bolalar bilan muntazam ravishda qo‘l motorikasi ustida shug‘ullanib borish ularning maktab ta’limiga tayyorligi darajasini oshirib boradi. Chunki bolaning aqliy taraqqiyoti bilan qo‘l motorikasini rivojlanganlik darajasi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud.
2. Bolaning muntazam ravishda maxsus dastur asosida atrof bilan tanishtirish, elementar matematik tasavvurlarini rivojlantirish, tasviriy faoliyat, tabiat bilan tanishtirish, jismoniy tarbiya sohalarida bilimlar zaxirasini shakllantirish va rivojlantirib borish bolaning aqliy taraqqiyoti asosini tashkil etadi. Bolaning aqliy taraqqiyoti uning maktab ta’limiga tayyorgarligini asosini tashkil etadi.
3. Bolaning maktab ta’limiga tayyorligi maktabga psixologik tayyorgarligini sub’ektiv tomoniga bog‘liq bo‘lib, bu bolaning maktabga borish istagi, hohish, intilishi, qiziqishi tashkil etadi.
4. Bolada o‘quv motivlari va uning shakllanganligi bolaning maktab ta’limiga tayyorgarligining bir qismini tashkil etadi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi ko‘p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning ma’lum bir dunyo qarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta’limga asos bo‘lishi mumkin, lekin so‘z boyligi, ma’lum xatti-xarakatlarni bajara olishi layoqatiga maktabga tayyorgarlikning asosiy ko‘rsatkichi bo‘la olmaydi. Maktab dasturi boladan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma’lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada bilish jarayonlarini talab etadi.

Tadqiqotlar asosida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Bolaning maktab ta'limiga tayyorlashni yoshligidan boshlab bosqichma-bosqich olib borish zarur.

2. Bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorlashda uning ob'ektiv tomoni bilan birga sub'ektiv tomonini hisobga olish zarur.

3. Bolaning maktab ta'limiga tayyorlashning qo'l motorikasini shakllantirish ham ahamiyatli ekanligini hisobga olish kerak.

4. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qib keta olishda o'quv motivlari va uning shakllanganligiga ham e'tiborni qaratish lozim.

5. Bolani maktab ta'limiga tayyorlash uchun muntazam mashg'ulotlarni tashkillash va ular bilan muntazam shug'ullanish zarurat ekanligini yodda tutmoq zarur.

6. Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda bilish jarayonlarini taraqqiy ettirish bilan birga, o'qish, istak, hohish, qiziqish va intilishini tarkib toptirishga e'tiborni qaratmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh. M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezdentining nutqi "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 16- yanvar, № 11.

2. "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 29- dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.

3. "Ilk qadam"Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V. Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. – Toshkent. 2018. -74 b

4. Asadov Y, Burxonova T. Psixologik tashxis metodikadari. Olti yoshli bolaning maktabga psixologik tayyorgarligini o'rganish. -Toshkent, 2003 yil, -20 b

5. Белкина В.Н. Детская психология: учебное пособие. -Москва "Юрайт" 2019, - 170 с

6. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostiasi -T.: TDPU. 2017 – 264 b.

7. Oxunjonova S.A.Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash haqida. (Tarbiyachi va ota-onalar uchun tavsiyalar). -Toshkent. 1999 yil. -30b

8. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. -Toshkent.:Noshir, 2010. -360b.

9. http://www.koob.ru http://www.psychology-online.net

10. http://xs.uz/index.php/homepage/fan-va-talim/item/11694-maktabgacha-ta-lim-vazirligi-so-ada-yangi-tizim-vaamalijot-zhorij-etiladi

11.https://uza.uz/uz/posts/sifatli-talim-berish-masalasi-nimalarga-bogliq_

Rahmatov Bekzod Uktam o'g'li
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
e-mail: rakhmatovuz12@gmail.com

LINGVISTIK QADRIYATLAR AKSIOLOGIYANING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada lingvistik aksiologiyaning nazariy asoslari va tadqiqot obyekti sifatida qadriyatlarning til orqali namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Lingvoaksiologiya qadriyatlar, baholash va munosabatlarning lisoniy tizimlarda qanday kodlanishi va madaniy merosni uzatishdagi o'rni bilan izohlanadi. Tilning qadriyatlarni ifodalash, baholash va avloddan-avlodga yetkazishdagi funksiyasi Aristotel, Arutyunova, Maslova kabi olimlarning qarashlari hamda zamonaviy nazariyalar asosida yoritiladi. Tadqiqotda leksik birliklarning aksiologik semantikasi, matn va diskurs darajasidagi baholash mexanizmlari, metaforik kodlanish vositalari hamda ijobiy va salbiy konnotatsiyalar tizimi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, lingvistik aksiologiyaning falsafiy ildizlari, til – ong – jamiyat – madaniyat – inson munosabatlari majmuasi sifatida talqini tahlil qilinadi. Maqola qadriyatlarning lingvistik strukturalarda kodlanish usullari (leksik, semantik, grammatik) hamda ularning jamiyatdagi tarbiyaviy va normativ vazifalari haqida xulosa beradi. Tadqiqot natijalari lingvoaksiologiyani til va madaniyat kesishgan nuqtasida shakllangan mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *lingvistik aksiologiya, qadriyatlar, baholash, til va madaniyat, arxisema, konnotatsiya, metaforik kodlanish, diskurs, normativlik, lingvokulturologik birlik, aksiologik paradigma, falsafiy ildizlar.*

LINGUISTIC VALUES AS AN OBJECT OF STUDY IN AXIOLOGY

Abstract. *The article examines the theoretical foundations of linguistic axiology and analyzes the manifestation of values in language as its main research object. Linguo-axiology is defined as a field that studies how values, evaluations, and attitudes are encoded in linguistic systems and transmitted as part of cultural heritage. The role of language in expressing, evaluating, and transferring values across generations is explored through the philosophical views of Aristotle, Arutyunova, Maslova, and modern approaches. The study focuses on the axiological semantics of lexical units, mechanisms of evaluation at the text and discourse level, metaphorical coding devices, and the system of positive and negative connotations. Furthermore, the philosophical roots of linguistic axiology are discussed, highlighting the interrelation of language, mind, society, culture, and the individual. The article emphasizes the ways in which values are encoded at lexical, semantic, and grammatical levels, as well as their normative and educational functions in society. The findings confirm linguistic axiology as an independent scientific discipline situated at the intersection of language and culture.*

Key words: *linguistic axiology, values, evaluation, language and culture, archiseme, connotation, metaphorical coding, discourse, normativity, linguocultural unit, axiological paradigm, philosophical roots.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЦЕННОСТИ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ АКСИОЛОГИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы лингвистической аксиологии и анализируется проявление ценностей в языке как её основном объекте исследования. Лингвоаксиология определяется как область, изучающая кодирование ценностей, оценок и установок в языковых системах и их передачу в рамках культурного наследия. Роль языка в выражении, оценке и передаче ценностей из поколения в поколение исследуется через философские воззрения Аристотеля, Арутюновой, Масловой и современные подходы. В исследовании рассматриваются аксиологическая семантика лексических единиц, механизмы оценки на уровне текста и дискурса, метафорические кодирующие приёмы и система позитивных и негативных коннотаций. Кроме того, рассматриваются философские истоки лингвистической аксиологии, подчеркивая взаимосвязь языка, сознания, общества, культуры и личности.*

В статье особое внимание уделяется способам кодирования ценностей на лексическом, семантическом и грамматическом уровнях, а также их нормативным и образовательным функциям в обществе. Полученные результаты подтверждают существование лингвистической аксиологии как самостоятельной научной дисциплины, находящейся на стыке языка и культуры.

***Ключевые слова**: лингвистическая аксиология, ценности, оценка, язык и культура, архисема, коннотация, метафорическое кодирование, дискурс, нормативность, лингвокультурная единица, аксиологическая парадигма, философские корни.*

Kirish. Lingvistik aksiologiya tilshunoslikning rivojlanayotgan yo‘nalishi bo‘lib, til orqali qadriyatlar, baholar va munosabatlarni o‘rganadi. Ushbu yo‘nalish tilni qadriyatlar haqidagi ma’lumotlarning asosiy manbai deb hisoblaydi. Til qadriyatlarning shakllanishida alohida rol o‘ynaydi, chunki u insonning dunyoqarashini ifodalaydi va madaniy me’yorlarni saqlaydi. Lingvistik aksiologiya haqidagi birinchi g‘oyalar Aristotelga tegishli bo‘lib, u uchta tushuncha doirasida ishlagan: yaxshilik, baxt, zavq. Bunda yaxshilik yomonlik bilan qarama-qarshi, baxt muvaffaqiyatsizlik bilan, zavq esa baxtsizlik bilan qarama-qarshi sifatida o‘rganilgan [1:P.224]. Bu falsafiy ildizlar tilshunoslikdagi zamonaviy tadqiqotlar uchun asos bo‘lib, tilni insonning ruhiy olamini ifodalovchi vosita sifatida ko‘rsatadi va qadriyatlarning til orqali shakllanishini izohlaydi.

Lingvoaksiologiya – bu aksiologiya va lingvistika o‘rtasidagi soha bo‘lib, dunyoning aksiologik nuqtai nazarini, tilga aks etgan qadriyat, baholash va munosabat belgilarini tahlil qiladi [2:P.690-691] va til tuzilmalarining madaniy qadriyatlar shakllanishiga ta‘sirini batafsil o‘rganadi. Lingvistik tuzilmalar madaniy aksiologiyani tilning o‘zi ichiga qadriyatlar, e‘tiqodlar va me’yorlarni kodlash orqali aks ettiradi [3:P.691]. Falsafiy jihatdan, lingvistik aksiologiya til, ong, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqadi. “Lingvistik aksiologiyaning obyektini S.G. Pavlov ‘til – ong – jamiyat – madaniyat – inson’ majmuasi deb hisoblaydi. Lingvoaksiologik predmet – til qadriyatlarning shakllanishi, ifodalanishi va uzatilish vositasi sifatida” [4:C.11]. Ushbu ta’rif tilni qadriyatlar shakllanishi va uzatilishining vositasi deb ko‘rsatadi va lingvistik aksiologiyaning ko‘p qirrali metodologiyasini ta’kidlaydi, chunki u tilni nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy merosni saqlovchi dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lingvistik aksiologiyaning strukturasini ko‘p darajali deb tasavvur qilish mumkin va quyidagi darajalarni ajratib ko‘rsatish lozim: leksik birliklarning aksiologik semantikasi... matn-diskursning aksiologik semantikasi.[5:C.9] Tilshunoslikdagi aksiologik baholash tadqiqi tilni qadriyatlarning aks ettiruvchisi sifatida ko‘rsatadi, zero “Tilshunoslikda aksiologik bahoning tadqiq etilishi... Aynan mana shu almashinuv natijasida shaxsning olamga munosabati namoyon bo‘ladi hamda matnda lisoniy birliklar vositasida ifodalanadigan g‘oyada o‘z aksini ko‘radi” [6:P.837].

Tilshunoslikda qadriyat tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Til faqat aloqa vositasi emas, balki insoniyatning axloqiy, estetik va madaniy qarashlarini mujassam etuvchi asosiy mexanizmdir. Ayni paytda qadriyatlar til orqali kodlanadi, baholanadi va avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu sababli lingvistik aksiologiya – qadriyatlarni til materialida tahlil qiluvchi ilmiy yo‘nalish – mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllandi. Rus tilshunosi N.D. Arutyunova qadriyatni “inson ongidagi normativ tasavvurlar bilan bog‘liq tushuncha” sifatida izohlab, baholashni til orqali ifodalash mexanizmlariga alohida urg‘u beradi. [7:C.12] Shunga yaqin fikrni L.A. Maslova ham ilgari surib, qadriyatlar til birliklarida ko‘rinadigan “madaniyatning lingvistik kodlari” ekanini ta’kidlaydi. [8:C.47] Bizningcha, bu nuqtai nazar tilning jamiyat hayotidagi me’yoriy-funksional vazifasini yoritib beradi va tilni qadriyatlarning dinamik tizimi sifatida ko‘rib chiqishga imkoniyat yaratadi, chunki u qadriyatlarni nafaqat saqlovchi, balki ularni doimiy ravishda yangilaydigan mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

G‘arbiy tadqiqotchilar ham til va qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka e’tibor qaratishgan. Masalan, A. Wierzbicka tilni “xalq madaniyatining eng yaqqol isboti” [9:P.31] deb ataydi. J.R. Martin va P.R.R. White esa baholashni nutqiy jarayonning markaziy elementi deb ko‘rsatib, uni ijtimoiy qadriyatlarni uzluksiz mustahkamlash vositasi sifatida talqin qiladi. [10:P.2] Bu yondashuvdan ko‘rinadiki, qadriyatlar nutqiy muomala orqali doimiy ravishda qayta tiklanadi va yangilanadi, shu

bilan birga tilni madaniy qadriyatlarning aks etuvchisi sifatida ta'kidlaydi. Bunday qarashlar til-shunoslikni falsafa va madaniyatshunoslik bilan bog'lab, lingvistik aksiologiyaning interdisciplinar tabiatini kuchaytiradi va tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshiradi.

O'zbek tilshunosligida ham til va qadriyat munosabati keng yoritilgan. Masalan, N. Mahmudov "til millat ma'naviyatining asosiy tayanchi" ekanini ta'kidlab, tilning milliy qadriyatlarni asrab-avaylashdagi o'rniga urg'u beradi. [11:B.18] Azimova A. esa "til va madaniyatni ajratib bo'lmaydi" degan fikrni ilgari suradi.[12:P.117] Bizningcha, bunday qarashlar qarindoshlik terminlari kabi aksial birliklarning qadriyat ko'rsatkichiga aylanishini ilmiy asoslaydi va o'zbek tilidagi qadriyatlarni milliy o'zlikning asosiy elementi sifatida ko'rib chiqishga undaydi, chunki ular jamiyatdagi hurmat va mehr tamoyillarini til orqali mustahkamlaydi.

"Qadriyat tushunchasi inson va olamdagi obyektlar o'rtasidagi koordinator, rag'batlantiruvchi (yo'lboshchi) va didaktik hamda regulyativ vazifasini bajaradi" [13:C.60]. Anglashiladiki, qadriyat tushunchasi inson va uni o'rab turgan dunyo o'rtasida bog'lovchi zveno sifatida harakat qiladi. Ya'ni u, bir tomondan, yo'l ko'rsatuvchi va rag'batlantiruvchi kuch bo'lib, insonning yo'nalishiga ta'sir qiladi, ikkinchi tomondan esa, tarbiyaviy va nazorat qiluvchi funksiya bajaradi. Demak, qadriyatlar inson faoliyatini yo'naltirish, unga ma'no berish va uning xatti-harakatlarini muayyan qoidalar asosida tartibga solishda alohida o'rin egallaydi.

Muhokama. Lingvistik aksiologiyaning shakllanish jarayoni, shubhasiz, XX asrning falsafiy hamda tilshunoslikdagi paradigmalari bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, bu yo'nalish jamiyat va inson faoliyatida qadriyatlarning rolini oydinlashtirishga qaratilgan umumfalsafiy izlanishlardan kuch olgan bo'lib, natijada lingvistik aksiologiya dastlab falsafiy tafakkurdagi qadriyatlar haqidagi bahslarning lingvistik maydonga ko'chishi sifatida yuzaga chiqqani ta'kidlanishi mumkin. Qiziqarlisi shundaki, O.A. Kuzina va Yu.L. Sitko ham aynan shu fikrni qayd etadilar: ularning mulohazasiga ko'ra, lingvoaksiologiya hozircha umumiy metodologiyasi to'liq ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, til orqali qadriyat va baholarni o'rganishga xizmat qiluvchi "soyabon termin" vazifasini bajarmoqda. [14:C.86-87] Bizning fikrimizcha, bu baho ushbu ilmiy sohaga hali ham ochiq imkoniyatlar maydoni sifatida qarashni talab qiladi.

Ma'lumki, falsafada qadriyatlar nazariyasi uzoq tarixga ega: qadim yunon davridan boshlab Sokrat va uning izdoshlari qadriyatni inson harakatlariga maqsad beruvchi va ijobiy xususiyatlarga ega kategoriya sifatida izohlagan bo'lib, bu yondashuv keyinchalik aksiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratgandir [15:B.87]. Shu bois, lingvistik aksiologiyani tushunish uchun, avvalo, qadriyat tushunchasining falsafiy ildizlarini hisobga olish zarur bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarga ko'ra, falsafiy manbalarda aksiologiya qadriyatlar dunyosining tabiatini, ularning ierarxiyasini, bilish usullarini hamda qadriyatli hukmlarning o'ziga xosligini o'rganadigan fan sifatida talqin etilmoqda [16]. Ko'rinadiki, qadriyatlarning tahlili nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki gnoseologik va ontologik mezonlarni ham qamrab oladi. Demak, lingvistik aksiologiya ham o'z metodologiyasida faqat til hodisalarini emas, balki ularning ortidagi qadriyat paradigmasini ham qamrab olishi tabiiy hisoblanadi.

Tarixiy jihatdan, "aksiologiya" termini ilmiy muomalaga P. Lapi tomonidan 1902-yilda kiritilgan bo'lsa, keyinroq E. fon Gartman uni falsafaning qadriyatlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'limi sifatida mustahkamlagan [17:P.17]. Mazkur tarixiy faktdan ko'rinadiki, qadriyatshunoslik dastlab umumfalsafiy maydonda shakllanib, so'ngra tilshunoslik kabi boshqa fanlarga o'tgandir.

Aslini olganda, mazkur o'tish falsafadan lingvistikaga qarab yuz bergan bo'lib, XX asr oxiri va XXI asr boshidagi izlanishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, N.D. Arutiunova bahoning antropotsentrik tabiatini asoslab berdi [18:C.73], V.I. Karasik esa madaniy dominantlarni tilning konseptual dunyosida tahlil qildi [19:C.166-205]. Shu asnoda, lingvistik aksiologiya bugun o'zining falsafiy ildizlari va zamonaviy lingvistik metodlari orasida mantiqiy ko'prik qurayotgan ilmiy yo'nalish sifatida qaralishi mumkinligi shubhasizdir.

Til kompetensiyasining shakllanishi jamiyat rivoji bilan bir vaqtda sodir bo'lgan. Modernlikdan oldingi davrda u ma'lum insonlar guruhi dunyoqarashining og'zaki shaklida ko'rsatkich bo'lgan. Milliy ozodlik harakatlari kuchaygan vaqtda etnosentrik ijtimoiy lingvistik ong tarqalishi haqida gapirish mumkin, uning eng muhim xususiyati milliy o'zlik ramzi sifatida ona tilini anglashdir, ham

davlatsizlik sharoitida, ham davlat yaratish sharoitida (XX asr boshi, XX asr oxiri) [20:C.839-840], chunki til qadriyatlarni doimiy ravishda aks ettirib, madaniy identifikatsiyani saqlaydi.

Lingvistik aksiologiya til va madaniyatning kesishgan nuqtalarini o‘rganuvchi metodologik yo‘nalish sifatida qaraladi [21]. Uning asosiy vazifasi qadriyatlarning til birliklari orqali qanday semantik kodlarda namoyon bo‘lishini ochib berishdan iboratdir. Bu esa, o‘z navbatida, lingvistik tadqiqotlarda pragmatik hamda semantik yondashuvlarni birlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Aksiologik yondashuvning kommunikativ-pragmatik nazariyalari doirasida J.R. Martin va P.R.R. White tomonidan ishlab chiqilgan “baholash nazariyasi” til orqali ijtimoiy qadriyatlarning qanday uzatilishini ochib beradi. Bu nazariya qadriyatlarni uch asosiy parametrda ko‘rib chiqadi: baholash (munosabat), intensivlik (darajalash), va o‘zaro pozitsiya (ishonch) [22]. Bizningcha, bu parametrlar til birliklari yordamida qadriyatlarning semantik va pragmatik darajada qanday tuzilishini ko‘rsatadi. Chunonchi, baholash komponenti insonlarning ijobiy yoki salbiy munosabatini belgilasa, intensivlik darajasi shu munosabatning kuchini ko‘rsatadi, o‘zaro pozitsiya esa suhbatdoshlar o‘rtasidagi ishonch va birdamlikni ta’minlaydi [23:B.7]. Demak, “baholash nazariyasi” lingvistik aksiologiya uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, zero til orqali qadriyatlarning nafaqat semantik mazmunini, balki ijtimoiy vaziyatdagi kommunikativ rolini ham ochib beradi.

Ta’kidlab o‘tish joizki, zamonaviy lingvoaksiologik paradigmada baholash semantikasi va pragmatikasi orasidagi dixotomiya fundamental ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, A. Bourmayan tomonidan ishlab chiqilgan nazariy konsepsiya aksiologik konnotatsiyaning ikki xil tipologik variantini farqlashni nazarda tutadi. Olimning yozishicha, "bir tomondan, lingvistik jihatdan kodlangan aksiologik konnotatsiya va ikkinchi tomondan, madaniy jihatdan kodlangan aksiologik konnotatsiya"ni [24:P.3] farqlash zarur.

Shuni qayd etish lozimki, baholashning semantik parametrlari so‘zlarning referensial identifikatsiyasiga qaramay, distinctiv aksiologik potentsialga ega bo‘lishida obyektiv ravishda namoyon bo‘ladi. Masalan, A. Bourmayan tomonidan taqdim etilgan izlanishga ko‘ra, "brave vs. foolhardy, cautious vs. shy yoki sparing vs. stingy kabi minimal oppozitsiyalar referensial jihatdan kongruentlik namoyon etsa-da, kvalitativ jihatdan turli aksiologik konnotatsiyalarni reprezentatsiya qiladi" [26:B.6].

Qadriyatlarning tilda ifodalanish usullari masalasi lingvistik aksiologiyaning kam o‘rganilgan sohalari qatorida bo‘lsa-da, D.Yu. Kuleshova va O.V. Smurova tadqiqoti bu sohaning ayrim jihatlarini ochib beradi. Leksik darajadagi qadriyat kodlanishida konkret baholash predikatlari muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar umumiy baholash predikatlari tushunchasini joriy etib, ularning yaxshi va yomon kabi yaxlit baholash yoki aksiologik yakunni ifodalashini ta’kidlaydi [27]. Metaforik kodlanish jarayonida farishta, quyosh nuri, xom olmos kabi leksemalar qadriyat ma’nolarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalovchi birliklar sifatida funksiya bajaradi. Masalan, "U farishta" konstruktsiyasida farishta leksemasi yaxshilik subkontseptiga tegishli bo‘lib, ijobiy baholash semantikasini aks ettiradi [27:B.87]. Bu holda leksik birlik referensial ma’nosidan tashqari, aksiologik konnotatsiyani ham namoyon etadi.

Demak, qadriyatlarning tilda ifodalanish usullari masalasi uch asosiy darajada amalga oshadi: leksik darajada to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholash predikatlari orqali, semantik darajada kontseptual proyeksiya mexanizmlari orqali, grammatik darajada esa – strukturaviy kodlanish vositalari orqali. Metaforik kodlanish esa qadriyat ma’nolarining eng samarali uzatilish usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Shunday qilib, madaniyatlararo qadriyatlar va til masalasi zamonaviy lingvoaksiologiyada metodologik pluralizm tamoyillari asosida rivojlanmoqda, bunda turli nazariy paradigmalar – Xofstede, Trompenaars, Shvarts – bir-birini to‘ldiradi va qadriyatlarning tilga kodlanishi masalasining tabiatini ochib beradi.

Pirovardida, lingvistik aksiologiya tushunchasining asosiy masalalari zamonaviy tilshunoslikda nazariy va uslubiy jihatdan katta o‘rin tutadi. Til va qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi, baholashning ma’no va qo‘llanish xususiyatlari, qadriyatlarning tilda ifodalanish usullari, madaniy qadriyatlar va til munosabati, shuningdek qadriyat-ma’no o‘zaro ta’siri sifatida belgilangan asosiy masalalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlik tashkil etgan holda lingvoaksiologiyaning nazariy-uslubiy asosini yaratadi. Ushbu masalalarning tushuncha jihatidan kesishishi va o‘zaro ta’sirlashuvi lingvistik

aksiologiyani til, madaniyat va inson ongi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni o‘rganuvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aristotle. Nicomachean Ethics. - Oxford: Oxford University Press, 2009. - 464 p.
2. Hartmann, E. von. Philosophy of the Unconscious. - London: Routledge, 1950. - 352 p.
3. Pavlov, S. G. Лингвоаксиология как научное направление // Вопросы философии. - 2001. - № 5. - С. 33–41.
4. Arutyunova, N. D. Логический анализ языка. Культурные концепты. - Москва: Наука, 1999. - 345 с.
5. Маслова, В. А. Лингвокультурология. - Москва: Академия, 2001. - 208 с.
6. Карасик, В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002. - 477 с.
7. Кузина, О. А., Ситко, Ю. Л. Лингвоаксиология: состояние и перспективы // Филологические науки. - 2018. - № 7. - С. 14–20.
8. Wierzbicka, A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. - Oxford: Oxford University Press, 1992. - 496 p.
9. Martin, J. R., White, P. R. R. The Language of Evaluation: Appraisal in English. - London: Palgrave Macmillan, 2005. - 256 p.
10. Bourmayan, A. Axiological Connotations in Language // Journal of Pragmatics. - 2016. - Vol. 95. - P. 45–57.
11. Kuleshova, D. Yu., Smurova, O. V. Аксиологическая семантика и прагматика текста // Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. - 2017. - № 4. - С. 112–120.
12. Azimova, A. Til va madaniyat integratsiyasi masalalari // Filologiya masalalari. - Toshkent, 2019. - № 4. - Б. 70–78.

.

Normirzayeva Muhayyo Olimovna
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

OILAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING MAKTAB BILAN HAMKORLIK ALOQALARINI O'RNATISHIDA OILALARNING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktab bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishida oilalarning o'rni, bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqichligi, oilalar va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni o'rnatish, farzandlar uchun qulay ta'lim muhitini yaratishda zaruriy shartlardan biri ekanligi ilmiy asoslangan.Ota-onalarning ta'lim jarayoniga faolligi, bolalarning ta'lim olishini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egaligining pedagogik imkoniyatlari ko\rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar*: oilaviy maktabgacha ta'lim, maktab bilan hamkorlik, oilalarning o'rni, ta'lim jarayoni, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalar, ota-onalarning ishtiroki, ta'lim muassasalari, tajriba almashinuvi, o'zaro aloqalar, ta'lim tizimi, bolalarni rivojlantirish, pedagogik yondashuvlar, ta'lim muhitini yaratish, ta'lim samaradorligi*

РОЛЬ СЕМЕЙНЫХ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В УСТАНОВЛЕНИИ СОТРУДНИЧЕСТВА С ШКОЛОЙ

Аннотация. *В данной статье научно обосновано, что роль семей в установлении партнерских отношений семейных дошкольных образовательных организаций со школой является важной вехой в личностном и социальном развитии детей, одним из необходимых условий установления эффективного сотрудничества семей и образовательных учреждений, создания благоприятной для детей образовательной среды.Выявлены педагогические возможности вовлечения родителей в образовательный процесс, значимость воспитания и развития социальных навыков детей.*

Ключевые слова: *семейное дошкольное образование, сотрудничество со школой, роль семей, образовательный процесс, личностное развитие, социальные навыки, участие родителей, образовательные учреждения, обмен опытом, взаимодействие, система образования, развитие детей, педагогические подходы, создание образовательной среды, образовательная эффективность*

THE ROLE OF FAMILY PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN ESTABLISHING COOPERATION WITH THE SCHOOL

Annotation.*This article is scientifically substantiated that the role of families in the establishment of cooperation relations of family preschool educational organizations with the school, an important stage in the personal and social development of children, the establishment of effective cooperation between families and educational institutions, one of the prerequisites for creating a comfortable educational environment for children.The pedagogical possibilities of parental activity in the educational process, the importance of children in the development of education and social skills have been explored.*

Key words*: family preschool education, school cooperation, family role, educational process, personal development, social skills, parental participation, educational institutions, exchange of experience, interaction, educational system, Child Development, pedagogical approaches, educational environment creation, educational efficiency*

Kirish. Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning tarbiyasi va rivojlanishi uchun muhim bosqichni tashkil etadi. Ushbu jarayonda oilalar va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish, tarbiyalanuvchilarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Oilalar,

bolalarning birinchi ta'lim muassasasi bo'lib, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayoniga faol ishtirok etishlari, bolalarning o'zligini anglashlariga va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishlariga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu hamkorlik oilalarning ta'lim jarayoniga jalb etilishi, bolalar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish, shuningdek, tarbiyachilar va o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashinuvi uchun muhimdir. Oila va maktab o'rtasida o'zaro bog'liqlik, bolalarning ta'limida izchil yondashuvni ta'minlaydi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, oilalar va ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro aloqalarning samaradorligi, bolalarning ta'lim jarayonida ishtirok etishini oshirish va oila hamda maktab o'rtasida tajriba almashinuvi kontekstini o'rganish zamonaviy ta'lim uchun muhim. Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, tarbiyachilar va o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashinuvi, oila ta'sirini bolalarning ta'lim jarayoniga ta'sir qiladi.

Bu tadqiqotning natijalari ta'lim tizimidagi muddati haqida batafsil tushuncha berib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va yangi yondashuvlar ishlab chiqishga yordam beradi. Natijada, oilalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro anglashuvni, tarbiyaviy va ta'limiy samaradorlikni ko'tarish, shuningdek, kelajak avlodlarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism. Aksar pedagoglar o'zlariga o'xshash tajribaga ega bo'lgan va pedagoglardan xuddi shunday narsani kutadigan oila bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish osonlashadi. Bu ko'pincha maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida muntazam faol ishtirok etadigan oilalar, masalan, bayram tadbirlarida, guruhlarda ko'ngilli ravishda qatnashadigan, materiallarni taqdim etish va yig'ilish va konferensiyalarda ishtirok etadigan ota-onalar bo'lib, pedagoglar ulardan nimani kutayotganliklarini bilishadi.

Fikrlari biznikidan farq qiladigan oilalar yoki pedagoglar kutganidek har xil tadbirlarda ishtirok etmaydigan oila bilan hamkorlik o'rnatish juda qiyin bo'lishi mumkin. Biz hatto bu oilalar o'z farzandlari va ularning ta'lim olishlari xususida kamroq g'amxo'rlik qilishlariga yoki o'z farzandlarini tarbiyalashda nisbatan kam bilimga ega ekanligiga ishonishimiz mumkin.

Hamkorlik boshqa tomonni hurmat qilishni, ularning ehtiyojlariga javob berishni va nima ishlayotganini va nima ishlamayotganligiga o'z munosabatini bildirishni talab qiladi. Bunday munosabatlarni boshlash uchun pedagoglar o'zlari tarbiyalaydigan bolalarning oilasi to'g'risida ma'lumotlarni bilishlari kerak. Oila farzandlarning birinchi va eng muhim tarbiyachisidir.

Bolaning birinchi o'qituvchisi sifatida oilaning asosiy rolini tan olish va qadrlash juda muhim. Ota-onalar va boshqa yaqin oila a'zolari kichkina bolaning hayotidagi eng muhim insonlar bo'lib, ularning birinchi va eng uzoq o'qituvchilari bo'ladi. Oila muhitida bolalarda quyidagi hislar shakllanadi:

- ular yashayotgan jamoaga tegishli bo'lish va ular bilan aloqa hissi;
- jismoniy farovonlik, jumladan oziq-ovqat, boshpana, kiyim-kechak va tibbiy xizmat;
- gullab-yashnagan rivojlanish, shu jumladan, ularning hissiy, ijtimoiy,

ma'naviy, til va jismoniy rivojlanishi, oila, madaniyat va jamiyat a'zosi sifatida o'ziga xoslik hissi.

Maktabgacha ta'lim boshlanganda oilalar bolalarga aksar ko'nikmalarni shakllantirgan: ovqatlanishdan va ichishdan tortib to o'zlariga va boshqalarga qarashgacha o'rgatgan bo'ladi. Ularning aksariyati bolalarga o'z ehtiyojlarini qanday qondirish kerakligini, ularning yoshiga va madaniyatiga qarab o'zlarini qanday tutishni, shu-ningdek, ona tilida og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot qilishni o'rganishda yordam berishadi.

Shuningdek, ijtimoiy bosim ham muhim rol o‘ynaydi. Do‘stlar davrasi, talabalik muhitidagi raqamli madaniyat, onlayn platformalarda faol ishtirok etish zaruriyati talabalarda “ortda qolish qo‘rquvi”ni (FoMO – *Fear of Missing Out*) kuchaytiradi. Ular doimiy ravishda yangiliklardan xabardor bo‘lish, boshqalar bilan raqobatlashish, o‘z hayotini ijtimoiy tarmoqlarda taqdim etish istagida bo‘ladilar. Bu holat esa asosan tashqi motivatsiyaga asoslanib, ichki psixologik muvozanatni zaiflashtiradi.

Nomofobiya shaxsning hissiy holatiga, diqqat va xotira jarayonlariga, hatto o‘qishdagi samaradorligiga ham ta’sir etadi. Mobil telefon bilan bog‘liq doimiy stimullar diqqatni bo‘lib yuboradi, kognitiv charchoqqa olib keladi, natijada o‘quv jarayonida sustlik, unutuvchanlik va charchoq kuzatiladi. Psixologlar ta’kidlaganidek, inson miyasining doimiy ogohlantirish holatida bo‘lishi - bu “raqamli stress” deb ataluvchi holatni keltirib chiqaradi. Bu stress, o‘z navbatida, hissiy beqarorlik, tajovuzkorlik yoki apatiya kabi psixologik holatlarni keltirib chiqaradi.

Shuni ham qayd etish kerakki, nomofobiya faqat salbiy oqibatlarga ega emas, balki u zamonaviy shaxs psixologiyasining o‘zgarayotgan tabiati haqida ham muhim ma’lumot beradi. Yoshlar uchun mobil texnologiyalar - bu nafaqat muloqot vositasi, balki o‘zini ifodalash, shaxsiy hududni yaratish, emotsiyalarni boshqarish va stressni kamaytirish vositasi hamdir. Shu bois, muammo yechimi texnologiyani rad etishda emas, balki undan ongli va me’yorida foydalanish madaniyatini shakllantirishda ko‘rilmoqda.

Psixologik jihatdan qaraganda, nomofobiyani kamaytirish uchun shaxsning emotsional barqarorligini mustahkamlash, o‘z-o‘zini baholashni oshirish, real muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va raqamli gigiyena madaniyatini o‘rgatish zarur. Talabalarda texnologiyadan samarali foydalanish, vaqtni boshqarish va o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish bo‘yicha treninglar o‘tkazish nomofobiya darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Nomofobiya bu zamonaviy davrda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab psixologik muvozanatning buzilishi natijasida paydo bo‘ladigan hodisadir. U faqat texnologiyaga bog‘liqlik emas, balki shaxsning o‘zini anglash, o‘z qadrini his qilish va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq psixologik jarayonlarning murakkab yig‘indisidir. Shu sababli, bu masalaga faqat individual emas, balki ijtimoiy-psixologik, pedagogik va madaniy yondashuv asosida qarash muhimdir. Talabalarda nomofobiyaning oldini olish, ularning raqamli madaniyatini oshirish va ruhiy barqarorlikni mustahkamlash orqali raqamli asr sharoitida sog‘lom shaxsni shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa.

Yuqoridagi ilmiy tahlil va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, nomofobiya - bu raqamli davrning eng dolzarb psixologik hodisalaridan biri bo‘lib, u shaxsning emotsional holati, ijtimoiy faolligi, kognitiv jarayonlari va o‘z-o‘zini anglash darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, talabalar orasida mobil texnologiyalar kundalik hayot, ta’lim va muloqot jarayonining ajralmas qismiga aylanganligi sababli, nomofobiya ularning psixik barqarorligiga, ijtimoiy moslashuviga va o‘quv faoliyati samaradorligiga sezilarli darajada ta’sir etmoqda.

Psixologik omillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nomofobiya ko‘pincha tashvish darajasi yuqori, o‘zini baholash past, ijtimoiy muloqotda noaniqlik sezadigan va emotsional barqarorlik sust shaxslarda rivojlanadi. Bunday holatda telefon yoki internetga haddan tashqari bog‘lanish shaxs uchun xavfsizlik va tasalli manbaiga aylanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy omillar - raqamli madaniyatning kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarda tasdiqlanish ehtiyoji, “ortda qolish qo‘rquvi” (FoMO) va doimiy onlayn faollik talabi - ushbu muammoning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Nomofobiya nafaqat individual psixologik muammo, balki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq madaniy-psixologik hodisa sifatida ham e’tirof etilishi lozim. Uning ortida insonning real hayotdagi

ehtiyojlarini virtual shaklda qondirish istagi, ijtimoiy tan olinishga bo‘lgan ehtiyoj va o‘zini tasdiqlash zarurati yotadi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarning ijtimoiy izolyatsiyasi, diqqatni jamlay olmaslik, stress va hissiy charchoq holatlarining ortishiga olib keladi.

Shu sababli, nomofobiyani kamaytirish faqat texnologik cheklovlar bilan emas, balki shaxsiy psixologik resurslarni mustahkamlash, o‘z-o‘zini boshqarish, raqamli gigiyena va emotsional savodxonlikni oshirish orqali amalga oshirilishi zarur. Ta’lim muassasalarida talabalarda texnologiyadan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, real muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va raqamli stressni kamaytirish bo‘yicha psixoprofilaktik dasturlar ishlab chiqish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, nomofobiya - bu raqamli asr shaxsiyatining yangi psixologik holatini ifodalovchi murakkab fenomen bo‘lib, uni chuqur o‘rganish, tashxislash va profilaktika qilish jamiyatda ruhiy salomatlikni saqlashning muhim omillaridan biridir. Shaxsning texnologiyaga nisbatan sog‘lom munosabatini shakllantirish, raqamli muhitda muvozanatni saqlash va o‘z hayotini ongli boshqarish madaniyatini rivojlantirish bugungi ta’lim va psixologik amaliyotning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Shu yo‘l bilan biz texnologik rivojlanish sharoitida ruhiy jihatdan barqaror, ijtimoiy faol va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Karimova, V. M. Yoshlar psixologiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018. - 276 b.

2. Fayziyeva, D. T. Raqamli muhitda yoshlarning psixologik moslashuvi. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. - 198 b.

3. Sharipova, M. N. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish psixologiyasi. - Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019. - 224 b.

4. Ostonov, Sh. Sh. Raqamli muhitda o‘smirlarning hissiy barqarorligi va psixologik himoya mexanizmlari. - Navoiy: NavDU nashriyoti, 2022. - 188 b.

5. Rasulova, M. A. Axborot texnologiyalari sharoitida shaxsning ijtimoiy moslashuvi. - Toshkent: O‘zbekiston pedagogika instituti nashriyoti, 2020. - 210 b.

6. Абакумова, И.В. Психология и педагогика цифрового общества. - Ростов-на-Дону: Изд-во РГПУ, 2018. - 244 с.

7. Субботина, Е.В. Психологические последствия цифровой зависимости у молодежи. // Современная психология и образование, 2019. - №5. - С. 72–79.

8. Лебедева, О.В. Гражданская идентичность и цифровое пространство молодежи. - Санкт-Петербург: РХГА, 2017. - 198 с.

9. Щуркова, Н.Е. Личностное развитие студентов в условиях цифровизации образования. // Вестник психологии и педагогики, 2020. - №3. - С. 45–52.

10. Мудрик, А.В. Социализация и воспитание личности в информационном обществе. - Москва: Академия, 2016. - 304 с.

11. Копцева, Н.П. Цифровая тревожность и психологическая безопасность личности. - Новосибирск: СибАК, 2021. - 164 с.

12. Резник, С.Д. Психологические факторы интернет-зависимости и номофобии. // Психология XXI века, 2022. - №2. - С. 33–41.

Matyakubova Surayyo Abdullayevna
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti
E-mail: matyokubovasurayyo7@gmail.com
https: //orcid.org/0009-0008-6759-185X

OGAHIY NASRINING USLUBIY XUSUSIYATLARI VA UNDA FE'LLARNING O'RNI ("GULSHANI DAVLAT" ASARI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiyning nasriy uslubi, xususan, uning "Gulshani davlat" asari misolida tahlil qilinadi. Ogahiy nasrining asosiy uslubiy xususiyati bo'lgan saj (qofiyali nasr) san'ati va uni yaratishda fe'llarning, ayniqsa, fe'l sinonimlarining tutgan o'rni ochib beriladi. Maqolada fe'llarning saj hosil qilishdagi grammatik va uslubiy vazifalari, murakkab fe'llarning bayonga tantanavorlik baxsh etishdagi ahamiyati va sinonimlardan ma'no nozikliklarini ifodalashdagi mahorati aniq misollar orqali ko'rsatiladi. Tadqiqot Ogahiyning individual uslubida fe'l sinonimiyasi shunchaki lug'aviy boylik emas, balki badiiy zarurat ekanini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *Ogahiy, "Gulshani davlat", o'zbek adabiy tili tarixi, nasr uslubi, saj, fe'l, sinonimiya, murakkab fe'l, lingvopoetika.*

СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЗЫ АГАХИ И РОЛЬ ГЛАГОЛОВ В НЕЙ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ГУЛШАНИ ДАВЛАТ»)

Аннотация. *В статье анализируется прозаический стиль выдающегося представителя узбекской классической литературы XIX века Мухаммада Ризы Огахи на примере его произведения «Гульшан-и давлат» («Сад государства»). Раскрывается роль саджа (рифмованной прозы) как основной стилистической особенности прозы Агахи, а также значение глаголов, в частности глагольной синонимии, в его создании. В статье на конкретных примерах показаны грамматические и стилистические функции глаголов в образовании саджа, роль составных глаголов в придании повествованию торжественности и мастерство использования синонимов для выражения тонких смысловых оттенков. Исследование доказывает, что в индивидуальном стиле Агахи глагольная синонимия является не просто лексическим богатством, а художественной необходимостью.*

Ключевые слова: *Агахи, «Гульшан-и давлат», история узбекского литературного языка, стиль прозы, садж, глагол, синонимия, составной глагол, лингвопоэтика.*

STYLISH FEATURES OF AGAHI PROSE AND THE ROLE OF VERBS IN IT (ON THE EXAMPLE OF THE WORK "GULSHANI DAVLAT")

Annotation. *This article analyzes the prose style of Muhammad Riza Agakhi, a prominent figure in 19th-century Uzbek classical literature, using his work "Gulshan-i Davlat" (The Rose Garden of the State) as a case study. It reveals the role of saj' (rhymed prose) as the primary stylistic feature of Agakhi's prose and the significance of verbs, particularly verbal synonymy, in its creation. Based on concrete examples, the article demonstrates the grammatical and stylistic functions of verbs in forming saj', the role of compound verbs in lending solemnity to the narrative, and the author's masterful use of synonyms to convey subtle semantic nuances. The research substantiates that in Agakhi's individual style, verbal synonymy is not merely a lexical richness but a fundamental artistic necessity.*

Keywords: *Agakhi, "Gulshan-i Davlat", history of the Uzbek literary language, prose style, saj' (rhymed prose), verb, synonymy, compound verb, linguopoetics.*

Kirish. Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) XIX asr o'zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri bo'lib, nafaqat tarixnavis, balki badiiy iste'dod sohibi sifatida ham tanilgan. U yaratgan "Riyozu-d-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Gulshani davlat" kabi tarixiy asarlari o'z davri ijtimoiy-siyosiy voqealarini aks ettirishi bilan birga, o'zbek nasrining yuksak badiiy namunasi hisoblanadi.

Ayniqsa, “Gulshani davlat” asari saj san’ati, tantanavor va musiqiy bayoni, murakkab fe’llarning keng qo‘llanishi bilan ajralib turadi.

Shu jihatdan Ogahiy nasrini o‘rganish nafaqat adabiy manbashunoslik, balki o‘zbek tilshunosligi, xususan, lingvopoetika uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada “Gulshani davlat” misolida Ogahiy nasrining uslubiy xususiyatlari, unda fe’llarning, ayniqsa, sinonimik qatordagi murakkab fe’llarning tutgan o‘rni ilmiy tahlil qilinadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot:

Matnshunoslik yondashuvi asosida Ogahiy nasrining “Gulshani davlat”dagi matni qiyosiy tahlil qilindi;

Lingvopoetik tahlil usulida saj san’ati, fe’llarning grammatik va uslubiy vazifalari o‘rganildi;

Sinonimik qatorlarni aniqlash orqali Ogahiyning individual tanlovlari kuzatildi;

Taraqqiyotiy qiyoslash usuli bilan Ogahiy uslubi Sharq mumtoz nasri an’analari bilan bog‘landi.

Manba sifatida Ogahiyning “Asarlar” ining 6-jildi (“Gulshani davlat”), shuningdek, o‘zbek nasri va til tarixi bo‘yicha tadqiqotlar asos qilib olindi. Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari, jumladan, Sayyid Muhammadxon (1856–1864) davri voqealariga bag’ishlangan “Gulshani davlat” asari ham XIX asr Xorazm badiiy-tarixiy nasrining yuksak namunasidir. Uning uslubi Sharq mumtoz nasri an’analariga xos bo’lgan tantanavorlik, murakkab va serjilo bayon bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda “...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o’rganilmagan ko’pgina qatlamlarini ochib berishga yo’naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilayotgani” Ogahiy nasrini, xususan, uning til xususiyatlarini chuqur o’rganishni taqozo etadi. Ogahiy nasrining uslubiy xususiyatlarini va bunda fe’llarning o’rnini “Gulshani davlat” misolida quyidagi jihatlar orqali tahlil qilish mumkin.

Natijalar. Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Saj san’ati Ogahiy nasrining asosiy xususiyati bo‘lib, bunda fe’llar asosiy tayanch vosita sifatida ishlatilgan.

Masalan: “...davlat va iqbol bila saltnat masnadiga mindurdilar. Va ul mamlakatning barcha ulusini adl-u dod bila suyundurdilar” (Gulshani davlat, 5a).

Bu yerda “mindurdilar – suyundurdilar” sajni hosil qilib, nasrning musiqiyligini ta’minlamoqda.

Fe’l sinonimiyasi badiiy zarurat sifatida namoyon bo‘lgan.

Ogahiy bir fikrni takrorlamaslik uchun turli sinonimlardan foydalanadi: yurdi – yo‘lga tushdi – azimat qildi – ravona bo‘ldi – otlandi.

Bu esa bayonga rang-baranglik baxsh etadi.

Murakkab va analitik fe’llar tantanavorlikni oshirgan.

Masalan, azimat qilmoq, nuzul etmoq, qasd aylamoq, sodir bo‘lmoq, arz etmoq.

Bu uslubiy vositalar nasrni rasmiy, kitobiy, yuqori pardali qiladi.

Sinonimik qatorlar ma’no nozikliklarini ifodalashda qo‘llanilgan.

“Amr etdi – farmon qildi – yorliq sodir bo‘ldi – buyurub” birliklari hukmning turli darajada qat’iyligini ifodalaydi.

“Arz etdi – iltimos qildi – istido ayla” birliklari so‘rovchining maqomi va holatini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, saj o’zbek nasrida qadimdan qo’llanilib kelayotgan badiiy san’atlardan biridir. Uning ilk namunalari O`rxun-Enasoy yodnomalarida, xususan, Kultegin bitiktoshida uchraydi. N.Rahmonov ta’kidlaganidek, “Yodnomada saj va leksik takrorlar vositasida vaznli nasrning yuzaga kelish xususiyatlari bilan keyingi davrdagi – XV asrdagi prozaga xos umumiy xususiyatlarga ega ekanligi ko’rinadi”[1]. Bu an’ana keyingi davrlar nasrida, ayniqsa, Ogahiy ijodida o’zining yuksak cho’qqisiga chiqdi.

Muhokama. Ogahiy uslubida saj shunchaki bezak vositasi emas, balki matnning butun lisoniy-uslubiy qurilishini belgilovchi yetakchi hodisadir. Ushbu uslubiy talab, o’z navbatida, muallifdan so’zlarni, ayniqsa, jumlaning kesimi vazifasida keluvchi fe’llarni yuksak mahorat bilan tanlashni taqozo etgan. Shu nuqtai nazardan, Ogahiy nasrida fe’l sinonimiyasi saj’ san’atini yuzaga keltiruvchi asosiy lisoniy zarurat va badiiy vosita sifatida namoyon bo’ladi. Buni “Gulshani davlat” misolida quyidagicha ko’rish mumkin:

Birinchi holatda fe'llar sajning asosiy unsuri sifatida ishtirok etadi. Asarda nasriy qofiyalar oralig'i (fosila) ko'pincha aynan fe'llar va fe'lli birikmalar yordamida hosil qilinadi. O'zbek tilining morfologik qurilishi, xususan, ravishdosh (-b/-ib) va zamon qo'shimchalarining (-di, -dur va h.k.) barqarorligi bunga keng imkoniyat yaratgan. Jumladan, ravishdosh shakllari orqali: "...oliy majlisig'a jam' bo'lub, odob va ta'zim bila mulzam bo'lub, hazrati zillullohiyning muborak huzurig'a kirdilar..." (GD, 4b).

Kesim vazifasidagi fe'llar orqali: "Xuroson viloyatining sarhadig'a taxt-u toz yetkurdi va ul havolidag'i turkman qaboïlining ko'pragin o'lja va g'animat bila to'ydurdi". (GD, 8b); "...davlat va iqbol bila saltanat masnadig'a mindurdilar. Va ul mamlakatning barcha ulusini adl-u dod bila suyundurdilar" (GD, 5a)

Ushbu misollarda fe'llar jumla bo'laklarini nafaqat grammatik jihatdan bog'lamoqda, balki ularga ohangdoshlik va badiiy puxtalik ham baxsh etmoqda.

Ba'zan fe'l sinonimiyasi – sajni ta'minlovchi badiiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi. Ogahiy bir fikrni takrorlashdan va matnning sayozlashib qolishidan saqlanish uchun bir ma'noni anglatuvchi turli fe'llarni ketma-ket qo'llashga majbur bo'lgan. Bu holat fe'l sinonimlaridan foydalanishni uslubiy zaruratga aylantirgan. Muallif qofiya talabidan kelib chiqib, sinonimik qatordagi eng munosib so'zni tanlay olgan: Ogahiy asarlarida turkiy qilmoq, etmoq, aylamoq va bo'lmoq yordamchi fe'llaridan keng foydalaniladi. Bular bir-biriga sinonim bo'lib, saj talabiga ko'ra navbatma-navbat qo'llanadi: "...alarning xushhollig'ig'a bois bo'ldi va o'zlarining xizmatkorlarig'a shafqat va marhamat qildi" (GD, 68b). "Podshohona tarbiyatg'a maxsus etib, saltanat arkoni arosida mumtoz aylab,..." (GD, 84b).

Podshohning yurish qilishini tasvirlashda muallif yurdi, yo'lg'a tushti, azimat qildi, ravona bo'ldi, otlandi kabi qator sinonimlarni o'rinli qo'llaydi. Bu esa bayonga rang-baranglik bag'ishlab, uni takrorlardan xoli qiladi. B.Sarimsoqovning "saj va qofiya aynan bir narsa, "nasrda saj – nazmda qofiya" yoki "saj – qofiyali proza" kabi fikrlar, bizningcha, u qadar to'g'ri bo'lmasa kerak" degan fikri shunisi bilan ahamiyatliki, Ogahiy nasridagi sajlar she'riy qofiyadan farqli o'laroq, kengroq imkoniyatlarga ega va bu imkoniyatni aynan fe'l sinonimlarining boyligi ta'minlagan.

"Gulshani davlat" asari misolida Ogahiy nasrining uslubiy asosini saj san'ati tashkil etishini, saj esa o'z navbatida fe'llarning, xususan, fe'l sinonimlarining faol qo'llanilishini taqozo etganini ko'ramiz. Fe'llar bunda shunchaki grammatik vazifa bajaruvchi birlik emas, balki matnning badiiy-estetik qiymatini belgilovchi, ohangini yaratuvchi va muallifning individual uslubini namoyon etuvchi eng muhim lisoniy-uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli Ogahiy tarixiy asarlari tilida fe'l sinonimiyasini tadqiq etish, uning nasriy mahorati sirlarini ochishda markaziy ahamiyat kasb etadi.

Ko'rinib turibdiki, saj san'ati Ogahiy nasrining uslubiy asosini tashkil etar ekan, fe'llar va ularning sinonimlari bu badiiy usulni amalga oshiruvchi asosiy lisoniy vosita vazifasini bajargan. Muallif bir fikrni ifodalash uchun turli fe'llarni topib ishlatish orqali ham ma'noni boyitgan, ham nasriy qofiyani ta'minlagan.

Ikkinchi holatda murakkab va analitik fe'llarning keng qo'llanilishini kuzatamiz. Ogahiy uslubiga xos yana bir xususiyat – sodda turkiy fe'llar o'rniga arabcha va forscha ot yoki sifatlar bilan yasalgan murakkab va analitik fe'llardan unumli foydalanishdir. Bu uslub bayonga tantanavor, kitobiy va yuqori pardalarga xos ruh bag'ishlagan. "Gulshani davlat"da bunday fe'llar juda ko'p uchraydi:

Ot + fe'l qolipli qo'shma fe'llar: azimat qilmoq (GD, 8a), nuzul etmoq (GD, 7b), qasd aylamoq (GD, 9a), sodir bo'lmoq (GD, 7b), arz etmoq (GD, 10a).

Sifat + fe'l qolipli qo'shma fe'llar: sarafroz qilmoq (GD, 5a), orosta etmoq (GD, 4a), masrur bo'lmoq (GD, 11b), shodmon aylamoq (GD, 12a)

Bunday fe'llarning qo'llanilishi bayonga rasmiylik, tantanavorlik va balandparvozlik bag'ishlash (bordi o'rniga azimat qildi yoki ravona bo'ldi deb ishlatilishi voqeaning ahamiyatini oshiradi); sinonimik qatorlarni boyitish (masalan, asar tilida qilmoq, etmoq, aylamoq, bo'lmoq kabi yordamchi fe'llarning sermahsulligi tufayli o'nlab sinonimik qatorlar yuzaga kelgan) singari bir necha uslubiy vazifani bajaradi. Bu esa Ogahiyga saj va boshqa badiiy san'atlar uchun keng imkoniyat yaratgan.

Muarrix fe'l sinonimiyasidan uslubiy vosita sifatida foydalanishi, jumladan, tasvirning rang-barangligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etgan. Muayyan bir harakatni turli sinonimlar bilan ifodalash orqali matnning jozibasi orttirilgan. Masalan, lashkarning yurishini tasvirlashda azimat qildi (GD, 8a), ravona bo'ldi (GD, 11b), yo'l tutdi (GD, 12a), otlandi (GD, 13a) kabi qator sinonimlar qo'llaniladi.

Ogahiy sinonimlarni shunchaki qofiya uchun emas, balki ma'noning eng nozik qirralarini ham ifodalash uchun ishlatgan. Masalan, podshohning amrini ifodalashda vaziyatga qarab amr etdi (GD, 4b), farmon qildi (GD, 5a), yorlig' sodir bo'ldi (GD, 7b), buyurub (GD, 6a) kabi har biri o'ziga xos ma'noga ega birliklarni qo'llaydi. Bularning har biri hukmning rasmiylik darajasi va qat'iyligini bildiradi. Muallif sinonimlar orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, nutqining o'ziga xosligini ham beradi. Masalan, arz qilish holatida arz etdi (GD, 10a), iltimos qildi (GD, 15b), istido ayladi (GD, 19a) kabi fe'llarning har biri so'rovchining holati va maqomini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Xulosa. "Gulshani davlat" asari Ogahiy nasrining barcha uslubiy xususiyatlarini mujassam etgan mukammal manba hisoblanadi. Uslubning markazida esa fe'l va uning sinonimik imkoniyatlari turadi. Ogahiy fe'llardan:

- Saj hosil qilish vositasi;
- Tantana va rasmiylikni ifodalovchi badiiy qurilma;
- Ma'no nozikliklarini yetkazuvchi lingvopoetik vosita sifatida foydalangan.

Shu bois Ogahiy tarixiy nasrini tadqiq qilishda fe'l sinonimiyasini o'rganish uning badiiy mahoratini ochib beruvchi markaziy omildir.

Xulosa qilib aytganda, "Gulshani davlat" asari Ogahiy nasrining barcha uslubiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan mukammal manbadir. Bu uslubning markazida esa fe'l va uning cheksiz sinonimik imkoniyatlari turadi. Ogahiy fe'llardan nafaqat harakat va holatni bildiruvchi grammatik vosita, balki matnga musiqiylik bag'ishlovchi (saj orqali), uslubni yuksaltiruvchi (murakkab fe'llar orqali), ma'noni chuqurlashtiruvchi va tasvirni boyituvchi (sinonimlar orqali) buyuk badiiy-estetik hodisa sifatida foydalangan. Shu sababli Ogahiy tarixiy asarlari tilida fe'l sinonimiyasini o'rganish uning nasriy mahorati kalitini topish bilan barobardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ogahiy. Asarlar. T. 6: Gulshani davlat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 356-b.
2. Rahmonov N. O'zbek nasrining taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: Fan, 1978. – 212- b.
3. Sarimsoqov B. O'zbek adabiyoti tarixi masalalari. – Toshkent: Fan, 1976. – 245- b.
4. Matyoqubov M. O'zbek nasrida saj' san'ati. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 1995. – 178-b.
5. Qo'shjonov M. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 264- b.
6. Karimov H. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: Universitet, 1990. – 302- b.
7. Begmatov E. O'zbek tili leksikasi va uslubi masalalari. – Toshkent: Fan, 1985. – 198- b.
8. Mirzaev T. Xorazm adabiy muhiti va Ogahiy. – Toshkent: Fan, 1982. – 220- b.
9. Qodirov A. Sharq mumtoz nasrida saj. – Samarqand: SamDU, 2002. – 156- b.
10. Usmonov U. Lingvopoetika asoslari. – Toshkent: Fan, 2008. – 190 -b.

Siddikova Nasiba Narzullayevna
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK NAZMINING QIYOSIY TIPOLOGIK VA LINGVOMADANIY TAHLILI (SYLVIA PLATH VA XOSIYAT BOBOMURODOVA POETIKASI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Maqolada XX asr ingliz va o‘zbek nazmining qiyosiy-tipologik hamda lingvomadaniy xususiyatlari Sylvia Plath va Xosiyat Bobomurodova poetikasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoiralarning ijodida ayol ruhiyati, o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlar va madaniy identitetning ifodalanish usullari lingvopoetik yondashuv asosida o‘rganiladi. Tahlil natijalari har ikki adiba poetikasida ayollik fenomeni va inson ruhiyatining badiiy ifodasi turli madaniyatlarda o‘ziga xos lekin umumiy ma’naviy mazmunga ega ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *XX asr nazmi, Sylvia Plath, Xosiyat Bobomurodova, qiyosiy-tipologik tahlil, lingvopoetika, ayollik fenomeni, lingvomadaniy yondashuv, poetik obraz, milliy identitet.*

COMPARATIVE TYPOLOGICAL AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF 20TH-CENTURY ENGLISH AND UZBEK POETRY (ON THE EXAMPLE OF THE POETICS OF SYLVIA PLATH AND KHOSIYAT BOBOMURODOVA)

Abstract. *The article analyzes the comparative-typological and linguocultural features of English and Uzbek poetry of the 20th century using the example of the poetics of Sylvia Plath and Khosiyat Bobomurodova. The study examines the female psyche, self-awareness, national values, and ways of expressing cultural identity in the works of poets based on a linguopoetic approach. The results of the analysis show that the phenomenon of femininity and the artistic expression of the human psyche in the poetics of both writers have their own, but common spiritual content in different cultures.*

Keywords: *20th-century poetry, Sylvia Plath, Khosiyat Bobomurodova, comparative-typological analysis, linguopoetics, feminine phenomenon, linguocultural approach, poetic image, national identity.*

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ XX ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ПОЭТИКИ СИЛЬВИИ ПЛАТ И ХОСИЯТ БОБОМУРОДОВОЙ)

Аннотация. *В статье анализируются сравнительно-типологические и лингвокультурные особенности английской и узбекской поэзии XX века на примере поэтики Sylvia Plath и Хосият Бобомуродовой. В исследовании на основе лингвопоэтического подхода изучаются женский дух, самосознание, национальные ценности и способы выражения культурной идентичности в творчестве поэтесс. Результаты анализа показывают, что феномен женственности и художественное выражение человеческой психики в поэтике обеих писательниц имеет своеобразное, но общее духовное содержание в разных культурах.*

Ключевые слова: *поэзия XX века, Sylvia Plath, Хосият Бобомуродова, сравнительно-типологический анализ, лингвопоэтика, феномен женственности, лингвокультурный подход, поэтический образ, национальная идентичность.*

Kirish. XX asr adabiy jarayoni jahon miqyosida shaxs, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning badiiy talqinida tub burilish davri bo‘ldi. Bu davrda ingliz va o‘zbek nazmida modernistik, ekzistensial va feminizm g‘oyalari ta’sirida ayol shaxsining ichki olami, ruhiy kechinmalari va o‘zlikni anglash muammolari yangi poetik shakllarda ifoda topdi. Ingliz she’riyatida Sylvia Plath o‘zining chuqur psixologik, ekspressiv va konfessional uslubi bilan ayollik va insoniy iztirobni badiiy tilda ifoda etgan. Uning poetikasi individualizm va madaniy o‘zlikni izlashning yorqin namunasi hisoblanadi. O‘zbek adabiyotida esa Xosiyat Bobomurodova she’riyatida ayol qalbining nozik tuyg‘ulari, milliy qadriyatlar va ruhiy poklik g‘oyalari uyg‘un holda ifodalangan. Sylvia

Plath va Xosiyat Bobomurodova poetikasini qiyosiy tipologik va lingvomadaniy tahlil etish ikki madaniyatda ayol ruhiyati va milliy tafakkurning badiiy ifodasini ochib beradi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ingliz va o‘zbek nazmining umumiy poetik tendensiyalarini, shuningdek, ularning milliy va madaniy o‘ziga xosligini ilmiy asosda yoritish bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. XX asr she’riyati dunyo adabiy tafakkurida inson ruhiyatini badiiy tahlil qilishning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda ingliz adabiyotida Sylvia Plath, o‘zbek adabiyotida esa Xosiyat Bobomurodova o‘ziga xos poetik ovoz va badiiy uslub bilan ajralib turadi. Ularning ijodi turli madaniyatlar, tarixiy sharoitlar va gender tajribalarining poetik aksini ifodalashi bilan alohida ilmiy e’tiborga loyiqdir. Ingliz adabiyotshunosligida Sylvia Plath ijodini o‘rganish keng ko‘lamda olib borilgan. A. Alvarez (1965) uning she’riyatidagi o‘z joniga qasd va ruhiy iztirob motivlarini “confessional poetry” an’anasi doirasida tahlil qilgan. Jacqueline Rose (1991) va Heather Clark (2020) tadqiqotlarida Plath poetikasining feministik va ekzistensial qatlamlari yoritilib, uning “Ariel”, “The Bell Jar”, “Lady Lazarus”, “Daddy” singari asarlari shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarning badiiy talqinida muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Shuningdek, Plathning metaforik obrazlar, o‘zlikni izlash va o‘lim timsoli orqali ruhiy kechinmalarni tasvirlashdagi mahorati ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan lingvopoetik tahlil markaziga olingan.

O‘zbek adabiyotida esa Xosiyat Bobomurodova ijodi milliy qadriyatlar, ayollik, vatanparvarlik va ruhiy poklik g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan. Uning “Samarqandga maktublar”, “Qalb titrog‘i”, “Vatan yagonadir”, “Jonimning egasi” hamda “Bormisan, o‘zbek” kabi to‘plamlari o‘zbek she’riyatining zamonaviy bosqichida ayol shaxsining ichki dunyosi, tuyg‘ular xilma-xilligi va milliy o‘zlikni anglash muammolarini yuksak badiiylik bilan aks ettiradi. Adabiyotshunoslar S. Jo‘raeva (2019), M. Yo‘ldosheva (2021) va D. Qodirova (2023) tahlillarida Bobomurodova poetikasida metaforik obrazlar tizimi, musiqiylik va ruhiy tahlil unsurlari yetakchi ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Ularning fikricha, shoiraning badiiy tili o‘zbek tilining milliy obrazlilik xususiyatlariga tayangan holda, zamonaviy lirikaning ichki ohangdorligi va ruhiy chuqurligini mujassamlashtiradi.

Qiyosiy nuqtai nazardan, Sylvia Plathning ichki iztirob va o‘zlikni izlashga yo‘naltirilgan lirizmi bilan Xosiyat Bobomurodovaning ruhiy poklik va milliy o‘zlikka tayanadigan poetik dunyoqarashi o‘rtasida mazmuniy va uslubiy parallelliklar mavjud. Har ikkala shoiraning ijodi ayollik fenomenini tildagi semantik, stilistik va madaniy jihatdan ifodalash imkoniyatlarini ochib beradi. Shu boisdan, Plath va Bobomurodova poetikasining qiyosiy-tipologik va lingvomadaniy tahlili ularning asarlarida shaxs, millat va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritish orqali zamonaviy adabiy tafakkurning universal xususiyatlarini ochib beradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, lingvopoetik va lingvomadaniy tahlil usullari asos qilib olindi. Sylvia Plath va Xosiyat Bobomurodova she’riyati mazmun, obrazlar tizimi, metaforik ifoda va badiiy uslub jihatidan tahlil qilinib, ularning ijodidagi umumiy poetik tendensiyalar hamda milliy o‘ziga xosliklar aniqlangan. Lingvopoetik yondashuv orqali har ikki shoiraning ruhiy holatni tasvirlashdagi semantik va stilistik vositalardan foydalanish mahorati, lingvomadaniy tahlil orqali esa madaniyat, qadriyat va milliy identitet ifodasi o‘rganildi. Shu tariqa, tahlil natijasida ingliz va o‘zbek nazmidagi ayol ruhiyati va badiiy tafakkur uyg‘unligining o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda yoritildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XX asr ingliz va o‘zbek nazmi o‘rtasida shakl, mazmun va badiiy uslub jihatidan muayyan tipologik o‘xshashliklar bilan bir qatorda chuqur lingvomadaniy farqlar mavjud. Sylvia Plath ijodi ingliz modernizmi va konfessional lirikaning yorqin namunasi sifatida inson ruhiy olamining ziddiyatli, dramatik holatlarini ochib beradi. Uning “Ariel”, “Lady Lazarus”, “Daddy” kabi she’rlarida o‘zlikni anglash, ruhiy azob, erkinlik va ayollik mavzulari kuchli ekspressivlik bilan ifodalangan. Plath metaforalar orqali o‘lim, qayta tug‘ilish, zulm va ozodlik timsollarini yaratadi, til vositalarining keskin, kontrastli ohangidan foydalanadi. Bu orqali u XX asr ayolining ijtimoiy bosim va ichki iztiroblar orasidagi kurashini badiiy ifoda etadi. Xosiyat Bobomurodova esa o‘zbek nazmida ayollik ruhiyati, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik g‘oyalarini badiiy yuksaklikda ifoda etadi. Uning “Samarqandga maktublar”, “Qalb titrog‘i”, “Jonimning egasi”, “Bormisan, o‘zbek” kabi to‘plamlarida yurak pokligi, mehr, sadoqat, millat g‘ururi va o‘zlikni anglash tuyg‘usi asosiy mavzuga aylangan. Bobomurodova she’riyati Plathnikiga

nisbatan sokinroq, lekin falsafiy chuqurlikka ega; unda tabiat obrazlari, ruhiy tiniqlik, qadimiy qadriyatlar bilan zamonaviy ayol tafakkuri uyg‘un ifodalanadi.

Har ikkala shoiraning ijodida ayol shaxsining ichki dunyosi markaziy o‘rinda turadi, biroq ularning ifoda uslubi va badiiy estetikasi turlicha. Plath poetikasida ichki portlash, keskinlik, metaforik dramatizm ustun bo‘lsa, Bobomurodova lirikasida tinchlik, ishonch va ruhiy uyg‘unlik dominantlik qiladi. Shunga ko‘ra, ingliz she’riyatida ayollik tajribasi individual-psixologik yo‘sinda talqin etilsa, o‘zbek she’riyatida u madaniy, ma’naviy va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Lingvomadaniy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Plathning asarlarida G‘arb jamiyatidagi shaxsiy erkinlik, gender tengsizlik va ruhiy bo‘hronlar til orqali ifodalansa, Bobomurodova she’riyatida millat, vatan, mehr va ma’naviyat konseptlari asosiy semantik yadroni tashkil etadi. Ikkala ijodkor ham o‘z madaniyatining tili orqali ayollik tajribasini poetiklashtirgan, biroq ularning badiiy vositalari va maqsadlari ijtimoiy-madaniy kontekst bilan belgilanadi. Natijada, Plath va Bobomurodova poetikasining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli madaniy muhitda yaratilgan asarlar ham insoniy ruhiyatning umumiyligini, ayol shaxsining o‘zlikni anglash yo‘lida olib borayotgan izlanishlarini ifoda etishda o‘zaro yaqinlashadi. Bu esa XX asr she’riyatining universal xususiyatlari - ichki erkinlik, ruhiy tahlil va estetik izlanishning xalqaro miqyosda mushtarakligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, XX asr ingliz va o‘zbek nazmi, xususan, Sylvia Plath va Xosiyat Bobomurodova poetikasi, har ikki xalq madaniyati va tafakkurining o‘ziga xos ruhiy manzarasini aks ettiradi. Plath ijodi orqali G‘arb ayolining ichki iztiroblari, erkinlikka intilishi va ruhiy bo‘hronlari ifodalanar ekan, Bobomurodova she’riyatida Sharq ayolining mehr, sadoqat, vatanparvarlik va ma’naviy barkamollikka yo‘naltirilgan hayotiy pozitsiyasi ifodasini topadi. Har ikki shoiraning poetik olamida ayollik fenomeni markaziy o‘rinni egallab, til vositalari orqali individual va madaniy o‘zlikni ifodalashning turli modellarini namoyon etadi. Plath asarlarida metaforik dramatizm, kontrast va ichki portlash uslublari ustun bo‘lsa, Bobomurodova lirikasida tinchlik, samimiyat va ruhiy uyg‘unlik yetakchi estetik mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki adiba o‘z milliy madaniyatining tili va qadriyatlari asosida universallashgan ayol ruhiyatini poetiklashtirgan. Shuning uchun Plath va Bobomurodova ijodi qiyosiy-tipologik tahlilda nafaqat lingvopoetik, balki madaniyatlararo o‘xshashlik va tafovutlarni anglash uchun ham muhim manba hisoblanadi. Ularning asarlarida shaxs, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalovchi umumiy g‘oya – inson ruhiyatining badiiy abadiylashtirilishi asosiy mohiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Alvarez, A. (1965). The savage god: A study of suicide. London: Weidenfeld & Nicolson.
2. Clark, H. (2020). Red comet: The short life and blazing art of Sylvia Plath. New York: Alfred A. Knopf.
3. Rose, J. (1991). The haunting of Sylvia Plath. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Ziyouz.com. (n.d.). Xosiyat Bobomurodova (1950). Zamonaviy o‘zbek she’riyati. Retrieved October 5, 2025, from https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/xosiyat-bobomurodova-1950
5. Jo‘raeva, S. (2019). Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ayol obrazi va ruhiy kechinmalar poetikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. Yo‘ldosheva, M. (2021). Ayollik fenomeni va zamonaviy o‘zbek lirikasida obraz yaratish xususiyatlari. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Qodirova, D. (2023). Xosiyat Bobomurodova ijodida ruhiy tahlil va metaforik obrazlar tizimi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

Zaripova Feruza Shavkatovna
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

INGLIZ TILIDA FE'LNING KELASI ZAMON SHAKLLARI BILAN IFODALANGAN SUBSTANSIAL SINTAKSEMALAR

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek tilida fe'lning kelasi zamon shakllari bog'lovchi fe'llar singari olmosh bilan ifodalanishi va substansialllik sintaktik-semantikasi doirasida faollashib identifikatsiyalovchi va klassifikatsiyalovchi sintaktik-semantik belgilari aniqlanadi. Kesim o'rnida faollashib kelgan otlani va ularning formal distributive xussiyatlari vazifalarini tadqiq qiladi.*

Kalit so'zlar:*zamon,substansiallik,sentaktik-semantik, formal distributiv xususiyatlar, leksik manbalari.*

СУБСТАНТИВНЫЙ СТНТАКСИС, ВАРАЖЕННЫЙ ФОРМАМИ БУДУЩЕГО ВРЕМЕНИ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются формы будущего времени глаголов в узбекском языке, такие как глаголы-связки, выраженные местоимениями, а также синтаксико-семантические признаки, которые их активируют и классифицируют в рамках синтаксико-семантики субстантивности. Изучается функция существительных, активируемых вместо причастия, и их формальные дистрибутивные свойства.*

Ключевые слова: *время, субстанциальность, синтаксико-семантические, формальные дистрибутивные свойства, лексические источники.*

SUBSTANTIVE SYNTAXES EXPRESSED BY FUTURE TENSE FORMS OF VERBS IN ENGLISH

Annotation. *The article identifies the future tense forms of verbs in the Uzbek language, such as linking verbs, expressed by pronouns, and the syntactic-semantic features that activate and classify them within the framework of the syntactic-semantics of substantiveness. The function of nouns that are activated in place of the participle and their formal distributive properties is studied.*

Keywords: *tense, substantiality, syntactic-semantic, formal distributive properties, lexical sources.*

Kelasi zamon shaklidagi bog'lovchi fe'llar shall be, will be bilan ot yoki olmosh birikmasi predikativ bog'lanish asosida kesim o'rnida faollashib kelib bir qator substansial sintaksemalarni ifodalaydi. Masalan:

1. Maybe, he **will be a general.** (1)
2. I **will be a colonel** before the war is over.
3. There **won't be a place** like this again.
4. The first thing we will see **will be the cavalry**.

Tahlil uchun olingan gaplarning kesimi o'rnidagi bog'lovchi fe'llarning kelasi zamon shaklidagi birikmalari**will be a general, will be a colonel, will be the cavalry, won't be a place** kelasi zamondakategorial substansialllik sintaktik-semantikasi doirasida faollashib identifikatsiyalovchi va klassifikatsiyalovchi sintaktik-semantik belgilarni anglatib keladi. Mazkur semantik belgilar ularning leksik manbaini tashkil qiluvchiturdosh otlargeneral, colonel, cavalry bilan farqlansa, formal distributiv xususiyati kesim o'rnida kelgan identifikatsiyalovchi, klassifikatsiyalovchi sintaksemalarning odatda predikativ bog'lanish asosida gapning egasio'rnida faollashganidentifikatsiyalangan sintaksemalar bilan munosabatida namoyon bo'ladi. Keltirilgan gaplarda **I, We, he, the …thing** identifikatsiyalangan sintaksemalar sifatida gap tarkibida faollashgan. Mazkur sintaksemalardan farqli o'laroq, uchinchi gapdagi birikma*won't be a place there* yordamchi element bilan gap tarkibiga kiritilib, u bir butun birikma *there will be/ there won't be* hosil

qilib, ekzistensiallik sintaktik semantikasini o‘zida mujassamlab keladi. Nazariy va amaliy grammatikalarda ham *there is, there are* konstruksiyalarining hozirgi, o‘tgan va kelasi zamon shakllari ekzistensiallik (mavjudlik) sintaktik-semantikasini anglatishi qayd qilinadi[1]. Mazkur egzistensiallik sintaksemasining o‘ziga xos formal distributiv xususiyati shundan iboratki, u odatda lokativ sintaksemalar bilan birikib keladi. Gap tarkibida *in the world* lokativ sintaksema kiritilsa, mazkur birikmaning sintaktik semantikasi o‘zgarmaydi. Aksincha, uning egzistensiallik ma’nosi yanada oydinlashadi. Masalan:

There **won’t be a place** like this *in the world*.

Bundan tashqari, identifikatsiyalovchi vaklassifikatsiyalovchi sintaksemalarning aynan kelasi zamonda faollashuviuning formal distributiv xususiyatini ko‘rsatkichi bo‘lgan tilning temporal elementlari bo‘lgantomorrow, next day, next year, next week, next month, the day after tomorrow, in the future, after 2025 kabi kelasi zamonni anglatuvchi ravishlar bilan gap tarkibida birikib keladi. Buni isbotlash uchun, ulardan biriniyuqoridagi gaplarning har biri tarkibiga kiritish mumkin masalan.

1. ⟶ Maybe he will be a general *next year*.
2. ⟶ I will be a colonel *before* the war is over.
3. ⟶ There won’t be a place like this again *in the future*.
4. ⟶ The first thing we will see will be the cavalry *tomorrow morning*.

O‘tkazilgan qo‘shimcha element kiritish transformatsiyasi natijasida gaplarning mavjud sintaktik bog‘lanishi o‘zgarmadi lekin ularining ekzistensiallik semantikasi oydinlashishiga yordam berdi. Shuni aytish joizki, kelasi zamonda kesim o‘rnida faollashib keladigan sintaksemalar kelasi zamon temporal elementlarini har bir gapning tarkibida kelishini taqozo qilmaydi, bu uning birikishga oid potensial imkoniyatidir. Tahlil qilingan misollardan ko‘rinib turibdiki, substansiallik doirasida kesim o‘rnida faollashadigan identifikatsiyalovchi sintaksemalar bir qator variantlarda o‘zini namoyon qiladi. Ular to‘liq variant **shall be S, will be S,** qisqa variant **‘ll be +S** qo‘llanilgan sintaksemalar, to‘liqsiz qisqa varianti **shall…, will**. Mazkur sintaksemalar haqida gapirganda, shuni e’tiborga olish lozimki, ular so‘roq va bo‘lishsiz gaplarda qo‘llanilganda interrogativlik va negativlik semantikasini o‘zida aks ettirib keladi. Buni yuqorida keltirilgan gaplarning interrogativ va negativ gaplarga o‘zgartirish eksperimenti asosida kuzatamiz.Masalan:

1. ⟶ Will he be a general?
2. ⟶ Will I be a colonel before the war is over?
3. ⟶ Won’t be there e a place like this again?
4. ⟶ Will the cavalry be the first thing we will see?

O‘tkazilgan eksperimentdan ko‘rinib turibdiki, so‘roq gaplarda interrogativ sintaksemani ifodalab kelgan birikmalar tarkibidagi ko‘makchi fe’lWill egadan oldin kelib, interrogativ sintaksemaning ajratilgan variantini **Will (S) be S ni** hosil qilmoqda. Bunda uning identifikatsiyalovchi qisqacha varianti ishlatilmaydi. Demak, identifikatsiyalovchiinterrogativ sintaksema faqatbitta variantda faollashadi. Uchinchi gap shunisi bilan e’tiborliki, gap tarkibidagi birikma won’t be a place identifikatsiyalovchisintaktik-semantik belgilaridan negativlik semantikasiga ega. Bu mazkur negativlik semantikasinot inkor yuklamasi yordamida ifodalanadi.Mazkur yuklamani boshqa gaplar tarkibiga kiritib, ularning tarkibida ham negativ semantikasini ifldalash mumkin. Masalan:

1. ⟶ Maybe he will not be a general.
2. ⟶ I will not be a colonel before the war is over.
3. ⟶ There won’t be a place like this again.
4. ⟶ The first thing we will see will not be the cavalry.

O‘tkazilgan so‘roq gapga aylantirish eksperimentiidentifikatsiyalovchi negativ sintaksemalarning ikkita variantda faollashuvini ko‘rsatdi. Bu to‘liq varianti **will not be S**, qisqartirilgan varianti **won’t be S** ko‘makchi fe’l **Shall be** bilan ifodalangan identifikatsiyalovchi negativ sintaksema ham shunday to‘liq **shall not be S** va qisqa **shan’tbe S** variantlarda gap tarkibida faollashib keladi.

Xulosa: Kelasi zamon shaklidagi bog‘lovchi fe’llar **shall be , will be** ot bilan birikib kelib, kesim o‘rnida faollashganda u substansiallik sintaktik semantik kategoriya doirasida identifikatsiyalovchi, klassifikatsiyalovchi interrogativlik, negativlik va ekzestinsiallik sintaktik-semantikasini o‘zida mujassamlab keladi. Agar ulardan ekzistensiallik semantikasini hosil qilishda **there is, there are** ning kelasi zamon shakli ishtrok etsa, negativlik semantikasini ifodalashda not inkor yuklamasi ishtrok etadi. Uning interrogativlik semantikasi esa, so‘roq gap shaklida o‘zini namoyon qiladi. Demak, **Shall be + S, Will be + S** birikmasi kesim o‘rnida identifikatsiyalovchi sintaksema sifatida u bir qator variantlarda faollashadi. Ulardan identifikatsiyalovchi sintaksemato‘liq variantda **(shall be S, will be S)**, qisqa variantda **(‘ll be + S)**, identifikatsiyalovchiinterrgativ sintaksemalar faqat ajratilgan**(Will (S) be S,shall (S) be S)**, va identifikatsiyalovchi negativ sintaksema to‘liq **(shall not be S, will not be S)**, qisqa **shan’t be S, won’t be S),** to‘liqsiz qisqa **(shan’t…, won’t…)** kabi variantlarda faollashadi. Ular yozma va og‘zaki nutqning monolog yoki dialog shakliga qarab yetkazib beriladigan ma’lumotlar matning uslubiy talablariga xizmat qiladi. Bu kabi lingvistik omillarni tarjimada hisobga olish maqsadga muvofiqdir,ayniqsa o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimani amalga oshirganda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Hemingway E.A Farewell to Arms.M.:Vintage Books,2005. – p. 147.
2. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка, М., 1957.
3. Calver E. The Uses of the Present Tense Forms in English. Language, Baltimore, 1946,vol.22, №4, p.317-325;
4. Ҳожиев А. Ўзбек тилида феълнинг замон формалари // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. Тошкент, 1968. 6 - сон.

Akramova Mohichehra Rustamovna
Toshkent axborot texnologiyalari Universiteti Samarqand filiali
Tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: m.akramova05@gmail.com

INGLIZ TILI YOZUVINI O’RGATISH YOZUV - NUTQ FAOLIYATINING TURI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Chet tilini o‘rgatishda yozuv va yozma nutq tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Ingliz tilini o‘qitish metodikasida yozuv – mustaqil nutq faoliyatining turi sifatida qaraladi. Yozuv orqali o‘quvchi fikrini mantiqiy va izchil ifodalash, yozma muloqotda qatnashish, grammatika va imlo qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Yozma nutqni o‘rgatish jarayonida til egallovchi nafaqat so‘z va gap qurilishi, balki mazmunan to‘liq, maqsadga muvofiq matn tuzish malakasiga ega bo‘lishi керак. Ushbu maqolada ingliz tili yozuvini o‘rgatish bosqichlari, asosiy yondashuvlar hamda bu faoliyatning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, yozuv, yozma nutq, til o‘rgatish, metodika, kommunikativ kompetensiya, yozma faoliyat, didaktik yondashuv.*

THE TEACHING OF ENGLISH WRITING AS A FORM OF VERBAL COMMUNICATION ACTIVITY

Annotation. *This article examines the methodology of teaching foreign languages; writing is considered an essential type of speech activity. Teaching writing in English plays a significant role in developing learners’ ability to express their thoughts clearly, logically, and coherently in written form. It involves mastering grammar, vocabulary, spelling, and the organization of ideas into meaningful texts. Writing is not only a means of communication but also a tool for developing language competence. This article discusses the stages of teaching English writing, methodological approaches, and the importance of writing skills in enhancing communicative competence in learners.*

Keywords: *English language, writing, written speech, teaching methodology, communicative competence, language skills, writing activity.*

ОБУЧЕНИЕ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ КАК ВИД РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается методика преподавания иностранных языков, где обучение письменной речи занимает особое место как один из видов речевой деятельности. Обучение письму на английском языке способствует формированию у обучающихся навыков логичного, связного и грамотного выражения мыслей в письменной форме. Этот процесс включает овладение грамматикой, орфографией, лексикой, также умением структурировать текст. Письмо рассматривается не только как средство коммуникации, но и как важный инструмент развития языковой компетенции. В статье рассматриваются этапы обучения письменной речи на английском языке, основные методические подходы и их роль в формировании коммуникативной компетенции учащихся.*

Ключевые слова: *английский язык, письмо, письменная речь, методика преподавания, коммуникативная компетенция, языковые навыки, письменная деятельность*

Kirish: Zamonaviy chet tillar o‘qitish metodikasida “yozuv” va “yozma nutq” tushunchalari farqlanadi. Bunday farqlanish yozuv mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangan. Mashhur psixolog N. I. Jinkinning guvohlik berishicha yozuv mexanizmi ikki bosqichdan iborat:

1) harflardan so‘z yasash va 2) so‘z va so’z birikmalaridan yozma axborotlar tuzishdan tashkil topadi. Ma'lumki, yozuv mexanizmi birinchi bosqichning asosida malaka darajasiga yetkazilishi kerak bo‘lgan yozuv va imloni egallash, ikkinchi bosqich zaminida esa fikrlarni ma'lum yozuv kodi yordamida ifodalash, ya'ni nutq ko‘nikmasini egallash yotadi. Yukoridagi tushuntirishdan yozma

nutq yozuv va imlo malakalarini zarur tashkiliy qismi sifatida o‘z ichiga oluvchi nutqdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Yozma nutq nutq faoliyatining o‘ziga xos turi bo‘lib, u ma'lumotni aloqaning yozuv orqali kodlashdan iboratdir.[2-99]

Yozma nutq nutq faoliyatining boshqa turlaridan faqat o‘ziga xos xususiyatlari bilangina emas, undan turmushda keng foydalanish darajasi bilan ham farq qiladi.

